Durdona

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AHMADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA

DURDONA

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

(1-kurs nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun
“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar
uchun o‘quv qo‘llanma)

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2024

www.nitropdf.com

Durdona

UO‘K 94(575.1)(075.8)
63.3(5O')ya73
A 98
Ahmadova, Z.Sh.
O‘zbekistonning eng yangi tarixi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Z.Sh. Ahmadova .- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024.-252 b.

KBK 63.3(5O')ya73

Ushbu o‘quv qo‘llanma 1-kurs nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari talabalarining amaliy mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada keltirilgan mavzular tasdiqlangan fan dasturi asosida to‘la shakllantirilgan. O‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri va hozirgi kungacha bo‘lgan davri, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar O‘zbekiston tarixi va uslubiyati, o‘zbek xalqining milliy-madaniy urf-odatlari, ko‘p millatli xalq sifatida shakllangan bag‘ri keng o‘lkaning tarixi, ulug‘ ajdodlarning ma’naviy merosi, o‘zbek xalqining Vataniga bo‘lgan muhabbati, sadoqati, bugungi islohotlar, yoshlar kelajagi, vatanparvarlik ruhida kamol topayotgan yosh kelajak avlodning o‘z tarixiga, kitobga, san’atga bo‘lgan e’tibori, O‘zbekiston va jahondagi aloqalar, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, hujjatchilik, davlat boshqaruvi va yangi islohotlari, bugungi zamon va taraqqiyot, insonga e’tibor masalalari haqida ma’lumot beriladi. Keltirilgan ma’lumotlar asosida mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida inson qadrining nechog‘lik muhimligini ko‘rsatuvchi matnlar, amaliy mashqlar, savol va topshiriqlar, testlar ishlab chiqilgan. Talabalar amaliy mashg‘ulotlarda “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining nazariy va amaliy xususiyatlariga oid ilmiy masalalarni amaliy jihatdan o‘rganishadi.

Mas’ul muharrir:
Jamolova D.M., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Taqrizchilar:
Inoyatov S.I., Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori
Ergashev Sh.Sh., Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Vazir kotibiyati boshlig‘i, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug‘iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami 438208.

ISBN 978-9910-04-221-8

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

SO'ZBOSHI

O'zbekiston tarixi shakllangan davrdan hozirgi kunga qadar turli bosqichlarni bosib o'tib, o'zining boy tarixi, ko'p sonli turli millat va elatlarning ushbu hudud orqali o'tishi, Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini o'zida jamlagan boy madaniyatli va millatlararo totuvlikka ega mamlakatga aylandi. O'zbek millati haqli ravishda sayyoramizdagi eng qadimgi davlatlardan biri hisoblanadi. O'zbekistonning o'ziga xos madaniyati sivilizatsiyalar avvalida shakllana boshlagan va ming yillar davomida jiddiy o'zgarishlarga duch kelgan. O'zbekiston hududi O'rta Osiyoning markazida, Sirdaryo va Amudaryoning o'rtasida joylashgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda bu hududda Ahamoniylar davlati, keyin yunonistonlik qo'mondon Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) hududga bostirib kirib, ellinistik davr boshlanganida hokimiyat qulagan. Bu davrda savdo-sotiq rivojlanib, yirik shaharlar qad ko'tarib, Yunon-Baqtriya podsholigi hukmronlik qila boshladi. Miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya podsholigi parchalanib, tarixda yangi bir davr boshlanadi, ya'ni ko'chmanchi kushonlar qabilasi asos solgan Kushon davlati tashkil etildi. Kushonlar davrida savdo-sotiq, odamlar orasida milliy va millatlararo aloqalar rivojlangan.

Shaharlarning qulay hududiy joylashuvi tufayli Buyuk ipak yo'li bugungi O'zbekiston hududidan o'tgan. Ushbu yo'nalish bo'ylab Andijon, Qo'qon, Rishton, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi yirik savdo shaharlari paydo bo'ldi va rivojlandi. Undan so'ng Parfiya, Kang', Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi kabi davlatlar gullab-yashnadi. VII asrda bu hudud arablar tomonidan bosib olinib, u Movarounnahr deb nomlandi.

XII asrda Chingizxon bosqini yuz berdi va Chag'atoy ulusi shakllandi. Ammo bu hududning gullab-yashnashi XIV asrda, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan so'nggina amalga oshdi. U Samarqandni poytaxtga, iqtisodiy va madaniy markazga aylantirdi. Samarqand ko'chmanchi Dashti Qipchoq qabilalari tomonidan bosib olinib, yangi Shayboniylar sulolasi davlati tashkil etildi. XVI asrdan XIX asr o'rtalariga qadar bu hududlarda Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligi hukmronlik qildi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

XIX asrning 60-yillarida hududga chor Rossiyasi bostirib kirishi natijasida Turkiston general-gubernatorligi tuzildi. 1917-yilda O'zbekiston Sovet Respublikasiga aylandi. Shu davrda ko'plab respublikalardan turli millatlarning ommaviy ravishda ko'chishi ro'y berdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Respublika BMTga a'zo bo'ldi, demokratik boshqaruv shakli va bozor iqtisodiyoti rivojlana boshladi.

Xalqning ulkan jasorati va matonati bilan qo'lga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi ko'p ming yillik tarixdagi hech qachon unutilmaydigan, qadr-qimmati va ahamiyatli yillar, asrlar o'tgani sayin tobora ortib boradigan buyuk tarixiy voqeadir.

Aynan milliy mustaqillik el-yurt uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish, shu jumladan, hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, erishilayotgan barcha yutuq va marralarimizning asosiy manbasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda, dunyoda koronavirus pandemiyasi va iqtisodiy inqiroz, keskin raqobat, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan g'oyat og'ir va murakkab vaziyatda mard va olijanob xalqimizning fidokorona mehnati bilan Yangi O'zbekistonni barpo etish, uni jahonga tarannum qilish bo'yicha muhim natijalarni qo'lga kiritayotganimiz, bu yutuqlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgani, eng asosiysi, vatandoshlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarib, ular islohotlar samarasini kundalik hayotida his qilib yashayotganini alohida ta'kidlash zarur.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha'ni va g'ururini yetakchi o'ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan. Hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko'p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

www.nitropdf.com

Durdona

Yurtimizning rivojlanishida, inson tafakkurining o‘zgarishida fan-ta’lim, madaniyat, ma’naviyat, ma’rifat, san’at shuningdek, O‘zbekiston tarixi va madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan tarixiy, an’anaviy urf-odatlari, udumlari, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. Bilamizki, O‘zbekiston tarixi ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yuzaga keladigan bosqichlardan o‘tib kelmoqda.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada o‘quvchi va talabalarga O‘zbekiston Respublikasi istiqloli uchun kurash tarixi, uning mazmun-mohiyati, bunyodkorlik g‘oyalari, hozirgi kuni, istiqboli to‘g‘risida aniq va mukammal bilimlar berish bilan birga yoshlar ongida mafkuraviy bo‘shliqqa o‘rin bermaslik, ularda g‘oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni jamiyat oldidagi o‘z vazifalarini fidoyilik bilan amalga oshirishga yo‘naltirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston mustaqilligi va hozirgi tarixining asosiy xususiyatlari to‘g‘risida aniq va mukammal faktik qarashlar keltirilgan bo‘lib, har bir dars jarayoni yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

O‘quv qo‘llanmada 20 para (40 soat)ga mo‘ljallangan materiallar jamlangan. Shuningdek, nazariy topshiriqlar berilishi bilan birgalikda, o‘zbek xalqining so‘z boyligi, tarixiy xususiyatlari, milliy-madaniy urf-odatlari, milliylik ruhidagi tarbiya, xalqimizning ko‘p millatli xalq ekanligi, ulug‘ ajdodlar ma’naviy merosi, Vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, ona vatanimizning buguni kelajagi, globallashuv jarayonlari, adabiyotga, kitobga, san’atga, tabiiy fanlarga bo‘lgan e’tibor, O‘zbekiston tarixi va uslubiyati, O‘zbekiston va jahondagi aloqalar, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, bugungi zamon va taraqqiyot, tarixga e’tibor berish masalalarini o‘z ichiga qamrab olish bilan birgalikda, O‘zbekiston tarixini mustaqillikdan keyingi davrini ko‘rsatib beruvchi yangi materillar, Prezident qarorlari, taraqqiyot strategiyasi, o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi va yangi mazmundagi testlar keltirilgan.

Qisqacha qilib aytganda, O‘zbekistonning mustaqillik va mustaqillikdan keyingi davri imkon darajasida tez va oson o‘rganish hamda o‘rgatish maqsadida namunaviy dastur asosida nazariy va amaliy materiallar tayyorlandi.

www.nitropdf.com

Durdona

KIRISH.

1-MAVZU. "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" O'QUV FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy-evolyutsion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. Shuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani yaqin tarixni, so'nggi yarim asrdan kamroq vaqtni xolisona va haqqoniy o'rganadi.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va ob'yektini to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki, O'zbekistonning eng yangi tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va obyekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fan uning o'rganish predmeti va obyekti aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani o'z xususiyatiga ko'ra, birinchidan, o'zining butun diqqat e'tiborini faqat yaqin o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, yosh mustaqil davlatning hayot yo'lini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, "O'zbekistonning eng yangi tarixi fani" boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan hisoblanib voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik – xronologik asosda o'rganiladi.

Uchinchidan, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. Uning o'rganish predmetiga esa, mana shu makondagi jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining o'rganish makoni-obyekti O'zbekistonning mustaqillik davri tarixidir.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Obyekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, shular doirasidagi voqea va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun obyekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iboratdir.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. Shuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish obyekti bitta ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiat. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. Chunki boshqa fanlarning hammasi ham tarix mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, tarix fani ya'ni, O'zbekiston tarixi millat va Vatan taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liq. Chunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. Ikkinchidan, tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Tarix falsafasi deganda, tarix ya'ni o'tmish tajribasi va sabog'idan to'g'ri xulosa chiqara olish tushuniladi. Boshqacha aytganda, o'tmish-tarixga qarab, kelajakni to'g'ri belgilay olish ham tarix falsafasini anglashni bildiradi.

Mustaqillik yillarida "O'zbekistonda tarix" fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog'liq o'zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O'zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo'nalishlarni o'zlashtirish kabi vazifalarni yuklamoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori kengash ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni yangi pog'onaga ko'tarish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir.

Qarorda jamoatchilik kengashi oldiga O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rni va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

O'zbekistonning eng yangi tarixi haqida so'z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o'tgan tarixiy yo'li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O'zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o'zini o'zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig'inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an'anaviy funksiyalar bajarilishining o'zi bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to'ldirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan demokratik davlatlarda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan birini tashkil etadi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng ishtirok etishini ta'minlovchi siyosiy institutlarning xilma-xilligiga asoslangan yangi demokratik tizim negizlarini shakllantirish zarurligiga alohida e'tibor qaratgan.

Sobiq tuzum davrida davlat va yakkapartiyaviylik tizimi shaxs ustidan yalpi hukmronligini o'rnatgan edi. Fuqaroning huquqiy himoyalanmagani, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari, har qanday muqobil fikrlashning tazyiq ostiga olinishi ko'p odamlarda chorasizlik tuyg'usini uyg'otib, real hayotdan uzoqlashish istagini oshirdi. "Siyosiy autsayderlar" deb ataluvchi kishilar sonining o'sishi, jamiyatda ijtimoiy pessimizm va boqimandalikning kuchayishiga sabab bo'ldi.

www.nitropdf.com

Durdona

Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatda eski davrga xos boʻlgan ijtimoiy ongning retsidivlari muayyan darajada saqlanib qolmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu holatni nazarda tutgan holda Oʻzbekistondagi siyosiy partiyalarni jiddiy tanqid ostiga olib, quyidagilarni taʼkidladi: "Ochiq aytish kerak, siyosiy partiyalarda bu sohada haligacha xotirjamlik, qandaydir mudrab oʻtirish kayfiyati hukm surmoqda. Hech kimga foydasi boʻlmagan majlislar soatlab davom etmoqda, tanqidiy tahlil oʻrniga mayda masalalar bilan oʻralashib, dolzarb muammolarning yechimi chetda qolib ketmoqda". Bugun kuchli fuqarolik jamiyatni qurish vazifasi tobora koʻproq dolzarblik kasb etmoqda. Uning amalga oshirilishi real va faol koʻp partiyali tizimni shakllantirishni talab etayotir.

Oʻzbekistonning eng yangi tarixini oʻrganishda yuqorida taʼkidlab oʻtilgan vazifalar qatorida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi oʻzbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integrasiya jarayonlarida ishtiroki bilan bogʻliq masalalarning toʻgʻri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazish burchimizdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti mamlakat milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini oʻrganish, ilmiy, ilmiy-ommabop, oʻquv-metodik, maʼrifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish borasidagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalaridan biri. Institutda Oʻzbekiston eng yangi tarixining turli jabhalarini tadqiq etuvchi "Yangi va eng yangi tarix", "Etnologiya va antropologiya", "Tarixshunoslik va manbashunoslik" boʻlimlari faoliyat koʻrsatmoqda. Bu yerda eng yangi tarixni oʻrganishda tarix, xalqaro munosabatlar nazariyasi, sotsiologiya, antropologiya, etnologiya, falsafa, iqtisodiy nazariya, siyosiy muammolarni qamrab olgan yangi fanlararo yondashuvlar tahlili amalga oshirilmoqda. Yana ahamiyatli jihati, institutning olti nafar yetakchi olimi jamoatchilik kengashi aʼzosi hamdir.

Olimlar tomonidan "Buyuk va muqaddas, mustaqil diyor", "Oʻzbekistonning eng yangi tarixi: nazariy-metodologik asoslari, oʻrganish tajribasi, manba va uslublar", "Oʻzbekiston yoshlari ijtimoiy-madaniy islohotlar jarayonida", "Oʻzbekistonning eng yangi tarixidan lavhalar", "Fargʻona vodiysi shaharlarida iqtisodiy transformasiya jarayonlari (1991-1996 yillar)" kabi qator toʻplam va

www.nitropdf.com

Durdona

monografiyalarning nashr etilishi O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid amalga oshirilgan qator ilmiy-tadqiqot loyihalar natijasi, deyish mumkin.

Bizda, afsuski, O'zbekistonning eng yangi tarixi turli aspektlarini o'rganish bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarning (tarixchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar, faylasuflar, iqtisodchi olimlar, huquqshunoslar) tarqoqligi, ular faoliyatini muvofiqlashtirish talab darajasida emasligi yaqqol ko'rinib qolmoqda.

Ana shunday bir paytda davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori kengash va tarixchilarga muhim yo'riqnomalarni belgilab berdi. Institut olimlari va kengashning faoliyatini qayta ko'rib chiqish, tariximizni mufassal ifoda etadigan tadqiqotlar, kitoblar, monografiya va darsliklar yaratish masalasini tez va sifatli hal etmoq talabini qo'ymoqda.

Mazkur qarorda belgilanganidek, institut va kengash a'zolari qator rejalar, amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalarga jiddiy kirishgan. Unda siyosat, iqtisod, madaniyat, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sodir bo'layotgan voqealar asosida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish bo'yicha kompleks yondashuvni ta'minlash inobatga olingan. Ushbu vazifalarning ilmiy idrok etilishi va hal qilinishi muayyan darajada tarix fani mavjud tushuncha-metodologik arsenalining tanqidiy tahlili va tegishli tarzda O'zbekistonning eng yangi tarixiga oid turli voqealarni tadqiq etish bilan shug'ullanayotgan barcha ilmiy yo'nalishlarning nazariy salohiyati yangilanishi bilan bog'liqdir.

"O'zbekiston tarixi" fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-usul va tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xolislik (obyektivlik);
- Tarixiy-tahliliylik;
- Mantiqiy-uzviylik;
- Vorislik va izchillik;
- Xronologik izchillik;
- G'oyaviylik va vatanparvarlik;
- Halol va xolislik;
- Qiyoslash va kuzatish;
- Kuzatish va umumiylashtirish;

www.nitropdf.com

Durdona

- Bahslashish, munozara yuritish va isbotlash;
- Matematik hisoblash;
- Shakllash va modellashtirish;
- Ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz’iy)likka (deduksiya);

Bugungi kunda oshkoralik, shaffoflik kabi tamoyillar ilgari surilayotgan bir vaqtda tarix qanday bo‘lsa, uni shundayligicha o‘rganish ustuvor bo‘lmog‘i kerak. Chunki yaqin tarix ko‘pchilik o‘z ko‘z o‘ngidan o‘tkazgan voqeliklardir. Uni oshirmay, yashirmay, boricha o‘rganish zarurdir.

Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganish va uni o‘qitishning dolzarb muammolari bo‘yicha keng munozaralarning zaruratini chuqur anglagan holda olimlar, pedagog xodimlar va maorifning boshqa vakillarini tarix ilmi va fani masalalarini keng ommaga yetkazish hamda matbuotda faol muhokama qilish zarur. Jamiyatimiz, ayniqsa, yosh avlod ona Vatanimizning yaqin o‘tmishini tushunishga, murakkab, jo‘shqin va jadal sur’atlar bilan davom etayotgan mamlakatimiz mustaqilligining tarix solnomasini tizimli o‘rganishga, uni to‘laqonli anglab yetishga katta ehtiyoj sezmoqda. Mazkur sharafli ijtimoiy vazifani amalga oshirish esa o‘zbek tarixchilarining ilmiy va fuqarolik burchidir.

Ko‘p ming yillik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan va o‘tmishida katta tarixiy siljishlar bilan birga, tanazzullar va inqirozlarga guvoh bo‘lgan o‘zbek xalqi hayotida XX asrning oxiri va XXI asrning boshlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ana shu davrda xalqimiz yaratgan buyuk bunyodkorliklar, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy sohadagi beqiyos yutuqlar O‘zbekistonning bundan keyingi uzoq kelajakka mo‘ljallangan taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu davrning mohiyati – butunlay yangi tuzum, yangicha turmush tarzi, zamonaviy jahon sivilizatsiyasi talablariga javob bera oladigan aqliy salohiyat, intellektual imkoniyat bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega.

Garchi mustaqillik davri tarixan qisqa bo‘lsa-da, mustabid tuzum iskanjasidan chiqib ketish, butun bir xalqning mustaqilligi va erkinligini ta’minlash kabi g‘oyatda tahdidli va tahlikali, ayni paytda sharafli jarayonni boshdan kechirdi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida bosib o‘tgan yo‘lining mazmun-mohiyati va xususiyatlarini obyektiv baholagan

www.nitropdf.com

Durdona

holda mustaqillik davrini quyidagi ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1) 1991–2016-yillar. Bu davrda milliy davlatchilik asoslari va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishga qaratilgan o'tish davrining dastlabki islohotlar jarayoniga ilk qadamlar qo'yildi. Demokratik an'analar asosida yangi davlat boshqaruv tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tashkil etildi hamda fuqarolik jamiyati asoslari yaratildi, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tila boshlandi. 2000-yildan mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Jumladan, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Natijada mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi. 2010-yildan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonini yanada chuqurlashtirish masalasi ilgari surildi. Uning boshlanishi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu davr davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so'z erkinligini ta'minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

2) 2017-yildan keyingi yillar. Bu davr tarixi 2016-yil dekabr oyida saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko'lamli jadal islohotlar davri hisoblanadi. Natijada, hayotimizga yangi iboralar, xususan, "xalq bilan muloqot", "xalq qabulxonalari", "virtual qabulxona", tanqidiy tahlil", "qat'iy tartib-intizom", "arzon uylar", "texnoparklar", "O'z bolangni o'zing asra!", "yo'l xaritasi", "kafolatlangan xavfsizlik" singari tushunchalar kirib keldi va hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

www.nitropdf.com

Durdona

2-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (1-QISM)

O‘zbekiston davlati ham tarixchilar orasida ilk davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari orasida dolzarb muammolardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Masalani o‘rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin davlatchilikning ildizlari va paydo bo‘lish shart-sharoitlariga diqqat-e’tiborni qaratmog‘imiz lozim.

Yangi tosh asriga (neolit) kelib O‘rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo‘lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib esa dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik xo‘jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko‘payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning paydo bo‘lishi jadallik bilan rivojlanishi o‘z navbatida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekistonning janubida bronza (mil. avv. III-II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk temir (VIII-IV asrlar) davrida shakllanib rivojlandi. O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun’iy sug‘orish birmuncha qulay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o‘rta) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin. Hozirgi kunga kelib, O‘rta Osiyoning juda ko‘plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopollitepa, Jarqo‘ton, Anov, Qiziltepa, Ko‘zaliqir, Afrosiyob, Chust, Dalvarzin, Daratepa va boshqalar) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metall qurollar topib o‘rganilgan. Metall qurollarining mehnat qurollari sifatida jamiyat hayotiga keng yoyilishi mehnat unumdorligining yanada yuksalishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratib, bu jarayon davlatchilik paydo bo‘lishini yanada tezlashtirdi. So‘nggi bronza davriga kelib kulolchilik charxining ishlatila boshlanishi natijasida Sopollitepa, Oltintepa, Gonur, Jarqo‘ton kabilarda kulolchilik mahallalari paydo

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

bo‘ladi. Shuningdek, hunarmandchilikning toshga, metallga, yog‘ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo‘jalik tarmog‘i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlatchilik paydo bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan qo‘shimcha mahsulot ko‘payishiga turtki bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o‘zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko‘chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o‘troq dehqonchilik aholisi o‘rtasida o‘zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashdi. Bu o‘rinda o‘sha davrda shakllanib keyinchalik yanada rivojlangan qadimgi yo‘llarning ahamiyati beqiyos bo‘ldi. Bu yo‘llar orqali O‘rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo‘shni davlatlar Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, Afg‘oniston kabilar bilan turli aloqalarni rivojlantirganlar. Bronza davriga kelib aholi ishlab chiqarishning ma’lum bir sohalariga dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi va ularning bir yerga to‘planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi o‘z nav-batida mahsulot hajmining o‘sib, qo‘shimcha mahsulot paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Demak, qadimgi xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o‘zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi. Mil. avv. IV ming yillikka kelib qadimgi Misr xo‘jaligida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik katta yutuqlarga erishdi. Ko‘p tarmoqli bo‘lgan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Savdo-sotiq keng miqyosda rivojlanib boradi. Aynan mana shu davrda jamiyatning ijtimoiy hayotida ham tubdan o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Aholi orasida tabaqalanish ro‘y berib, jamiyat uchta hukmron qatlam (qabila oqsoqollari, kohinlar, boy jamoachilar), dehqonchilik jamoasi a’zolari (Qadimgi Misr jamiyatdagi moddiy ishlab chiqaruvchilar) va qullar qatlamlariga bo‘linadi. Mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Qadimgi Misrda shahar markazi atrofidagi bir nechta qishloqlarni birlashtirgan unchalik katta bo‘lmagan viloyatlar (nomlar) doirasida dastlabki davlatlar paydo

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

bo‘ldi. Markaziy shaharlar markazida hukmdor qarorgohi va bosh xudo ibodatxonasi joylashgan. Bu davrda Quyi Misrda 22 ta nom, Yuqori Misrda 20 ta nom bo‘lgani ma’lum. Mil. avv. IV ming yillik oxirlariga kelib barcha nomlar birlashtirilib Quyi va Yuqori podsholiliklar tashkil topadi. Quyi Misr podsholigi poytaxti Enxab (Nexen) shahri, Yuqori Misr podsholigi poytaxti esa Buto shahri edi. Qadimgi Misrning rivojlanishi O‘rta, Yangi va So‘nggi podsholiklar davrlariga bo‘linadi. Mil. avv. V ming yillikka kelib, qadimgi Mesopotamiya aholisi hayotida Xalaf madaniyati (Tal-Xalaf qishlog‘i nomidan) ma’lum ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, bu hududlarda jamiyatning tabaqalashuvi va davlatchilikning paydo bo‘lishi hamda Shummer sivilizatsiyasining asoslari Uruk (IV ming yillikning ikkinchi yarmi) madaniyati bilan bog‘liqdir. Bu davrda Mesopotamiya xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etardi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilikdan hunarmandchilik xo‘jaliklari ajralib chiqib, ular jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarga aylana boshlaydi. Ichki va tashqi almashinuv rivojlanadi. Qo‘shni viloyatlardan mis, oltin, qurilish mollari, qimmatbaho toshlar keltirila boshlanadi. Manzilgohlar o‘lchamlari kengayib, ular madaniy, ma’muriy, siyosiy va diniy markazlarga aylanib boradi. Mil. avv. IV ming yillikka kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish munosabatlari ham taraqqiy etadi. Natijada Mesopotamiya jamiyatda mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish ro‘y beradi. Mil. avv. III yillikning boshlari Mesopotamiyaning (Tigr va Yevfrat daryolari vodiysi) janubida Shumer, O‘rta qismida esa Akkad kabi davlatlar Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Umma, Lagas kabi bir nechta shahar-davlatlar mavjud edi. O‘sha davr Mesopotamiya rivojlanishining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etadi.

O‘lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati: Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo‘lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo‘lib, bu ikkala jarayon uzviy bog‘liq holda kechgan.

Ma’lumki, mil. avv. II ming yillikka kelib qadimgi O‘zbekistonning dehqonchilik vohalarida o‘troq qabilalar rivojlanib, aholining alohida joylashuv tizimi shakllanadi. Aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar – o‘troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarining kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi. Jamiyat hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil. avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra, shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil. avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqo'ton, Sopollitepa, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulug'tepa kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;
- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

Shahar madaniyati dastavval O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so'ngra esa shimolda So'g'd (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, Shosh va Farg'ona hududlariga tarqaldi. Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'hna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) kabilar kiradi. Qadimgi shaharlar tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o'rganish jarayonida dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi, aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri, ekologik-geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir doirasi, shaharlarning vazifasi, qadimgi shahar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyati masalalariga keng e’tibor qaratish lozim.

Eng qadimgi davlatlar. **Ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot:** O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar “Avesto” ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi) Gerodot va Gekatey asarlari (“Katta Xorazm”), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma’lumotlari va nihoyat arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lganiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularning ayrim yo‘nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O‘rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo‘la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O‘zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. O‘sha davrda Marg‘iyona va So‘g‘diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo‘lgani haqida turli ma’lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo‘lib, aholining, qudratli shaharlar va qal’alarning ko‘pligi, tabiiy xomashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar “Katta Xorazm”, “Qadimgi Xorazm” masalalariga birmuncha aniqliklar kiritildi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Xorazm tuprog‘ida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g‘isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto‘lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o‘rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo‘lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O‘rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o‘tgan. Xorazmning yirik sug‘orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O‘lkada bu davrlarga oid ko‘pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o‘rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar, xom g‘isht va paxsadan qad ko‘targan bo‘lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan. Qadimgi So‘g‘diyona, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida

www.nitropdf.com

Durdona

joylashgan bo'lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. So'g'diyona haqida "Avesto", ahmoniylar davri, mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar-joylar va uy-qo'rg'onlar qoldiqlari mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyonada Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi yirik shahar markazlari hamda qo'shni viloyatlar va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi. O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi "Avesto", ahmoniylarning mixxat yozuvlari (Behistun, Naqshi Rustam, Suza, Persepol) yunon-rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kursiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar bergan. So'nggi yillarda qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi. Mil. avv. 559-yilda Eronda podsho Kir II ahmoniylar davlatiga asos soladi. Mil. avv. 545-540 yillarga kelib ahmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko'chmanchi massaget qabilalari ahmoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil. avv. 530-yil). Bu jangda fors podshosi Kir II ham halok bo'ldi. Shuningdek, mil. avv. 522 va 519-518 yillarda Marg'iyonada hamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Qalaimir, Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil. avv.VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mehnat qurollari topilgan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Shuningdek, bu hududlarda chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiiy hunarmandchilik (Amudaryo xazinasi) ham rivojlanadi. Mil. avv. VI-IV asrlarda So'g'diyonada ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turganlar. Xususan, bu davrga oid Uzunqir, Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Lolazor, Xo'ja Bo'ston, Sangirtepa, Chordara, Qo'rg'oncha, Ko'ktepa kabi 50dan ziyod yodgorliklar o'rganilgan. Bu hududlardan topilgan ko'pgina topilmalar aholining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. Shuningdek, savdo-sotiq va o'zaro aloqalar ham ancha rivojlanadi. Bu davrda Xorazm hududlarida ham yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda esa hunarmandchilik rivojlangan edi. Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Tuproqqal'a kabilar madaniy markazlar hisoblangan. O'zbekistondagi eng qadimgi mahalliy yozuv namunalari ham Xorazm hududlaridan (Tuproqqal'a, mil. avv.IV asr) topilgan. Mil. avv. 329 yilga kelib, makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlandi. Iskandar qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Janglarda Iskandarning o'zi ham bir necha marta yarador bo'ldi. Mil. avv. 329-327 yillar davomida mahalliy so'g'diy aholi Spitamen boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talafot yetkazdi. Iskandar qo'shinlari hech qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edi. Mil. avv. 323- yilda makedoniyalik Iskandar vafot etganidan so'ng O'rta Osiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o'tadi (mil. avv. 306 yil). Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida (mil. avv. 280-261 yy.) O'rta Osiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. O'rta Osiyo yerlari salavkiylar davlatining muhim qismi bo'lib, harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo viloyatlarining salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning va baqtriyaliklar, so'g'diylar hamda pafiyaliklarning bosqinchilarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.Mil. avv. III asrning o'rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada dastlab Parfiya, keyin esa Yunon-Baqtriya davlatlari salavkiylardan ajralib chiqdi. Mil. avv. 250-yilda birinchi Yunon-Baqtriya podshosi Diodod o'zini hukmdor deb e'lon qildi va tangalar zarb etdi. Tangashunoslik ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. III asrning oxirigacha Yunon-Baqtriyada bir necha podsholar o'tganki, ular yozma manbalarda eslanmaydi. Mil. avv. II asr boshlariga kelib Demetriy, Yevkratid kabi podsholar Yunon-Baqtriya yerlarini janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'chmanchi qabilalarning hujumlari va o'zaro kurashlari natijasida Yunon-Baqtriya podsholigi quladi.

Antik davr davlatlari va madaniyati: Mil. avv. III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u mil. avv. 247-yili taxtga o'tiradi. Mil. avv. 235-yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo‘lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo‘jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. III asr o‘rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O‘zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar – Xorazm, Baqtriya, So‘g‘diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlari rivojlandi.

Bundan tashqari, parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O‘rta Osiyo va Xitoyning g‘arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo‘lib, zardushtiylik diniga e’tiqod qilishgan. Qadimgi Farg‘ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o‘tiladi. Ma’lumotlarga qaraganda, Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug‘ullanishgan. Dovonning **samoviy otlari** o‘lkadan tashqarida ham ma’lum va mashhur bo‘lgan. Mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qildilar. Ammo qo‘shni davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan dovonliklar o‘z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldilar. Mil. avv. III asrlar boshlarida paydo bo‘lgan Qang‘ davlatining hududlari Sirdaryoning o‘rta oqimidagi yerlar edi. Mil. avv. II-I asrlarda Qang‘ davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlar va Xorazmni o‘z ichiga oladi. Antik davrida Qang‘ davlati ancha rivojlangan davlat edi. O‘troq aholi asosan vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog‘dorchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelishgan. Qang‘ hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O‘trorda (hozirgi Aris va Turkiston oralig‘ida), qishlovni esa Qang‘a (hozirgi Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumanida) shaharlarida o‘tkazar edilar. Mil. avv. I asrga kelib, O‘rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan Kushon davlati tashkil topdi. Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, bu hukumdorlar davrida pul islohotini o‘tkazgan. Milodiy II asrga kelib Kushon davlati yerlari Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham ancha taraqqiy etdi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati nihoyatda

www.nitropdf.com

Durdona

katta bo‘ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo‘lib, yunon, zardushtiylik aqidalariga ham e’tiqod qilinar edi.

Antik davr O‘rta Osiyo xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So‘g‘d yozuvlari paydo bo‘ldi. Kushon davriga kelib yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O‘rta Osiyo va Afg‘oniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Ayritom va Ko‘hna Termizda Budda ibodatxonalari ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko‘hna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan. 1972-yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasi (32 kg) topilgan. Bu xazina orasida antik davrga oid bilaguzuk, halqalar, bo‘yin taqinchoqlari kabi san’at buyumlari ham bo‘lgan. Umuman, antik davr Qang‘, So‘g‘d, Farg‘ona yerlarida mavjud bo‘lgan madaniyat o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarildi.

3-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2-QISM)

Milodiy I-III asrlarda yuksalish davrini kechirgan Kushon podsholigi IV asr o‘rtalariga kelib inqiroz davriga yuz tutdi. Uning ayrim vohalarida mustaqil mulklar paydo bo‘la boshladi. Bu mulklarning podshochalari o‘zlarini turli nom bilan atadilar: Buxoroda – buxorxudotlar, Chog‘aniyonda – chog‘anxudotlar, Vardanzida – vardanxudotlar, Chochda – to‘dunlar, Samarqand va Farg‘onada – ixshidlar, Osrushanda – afshinlar, Xorazmda – xorazmshohlar, Termizda – termizsho, Iloqda – dehqonlar kabi. Ularning harbiy kuchlari esa chokarlar deyilgan. Markaziy hokimiyat ana shu podshohlar va mulklar uyushmasidan tashkil topgan.

O‘rta asrlar davrida mamlakatimiz hududida tashkil topgan dastlabki yirik davlat birlashmasi eftaliylar davlati bo‘lgan. Eftaliylarning kelib chiqishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Yunon, Xitoy hamda arab olimlari manbalarda uchraydi, ularda eftaliylar haqida turli qarashlar bildirganlar, eftaliylar turklar bilan bog‘liq, eftaliylarning asli kelib chiqishi xunlardandir, eftaliylar

www.nitropdf.com

Durdona

massagetlarning yettinchi qabilasi milodiy IV asr o'rtalarida kushonlar va eftaliylarning boshqa qabilalar bilan birlashishgan yoxud ularni xioniylar va kidariylar deb atashgan. Xioniylar kushonlarning aynan o'zi bo'lgan degan ma'lumotlar ham yo'q emas.

Kidariylar nomi bilan atalgan qabila (bu nom qabila boshlig'i va podshosi Kidar nomi bilan bog'liq) esa V asrda massaget qabilalaridan ajralib chiqqan. Bunga 456-yilda kidariylarning sosoniylar bilan bo'lgan jangda yengilishi sabab bo'lgan. Jangda halok bo'lgan Kidarning o'g'li Kungas boshchiligidagi kidariylar Shimoliy Hindistonga o'tib, Gupta podsholigini o'zlariga tobe etganlar va u bu yerda 75 yil hukmronlik qilganlar. Olimlar eftaliylarni asli O'rta Osiyoda ilgaridan yashab kelgan sak-massaget va xun qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb taxmin qilishadi. Bu qabilalar o'rtasidagi farq etnik xarakter emas, sulolaviy jihatdan bo'lishi mumkin degan fikrlar ham mavjud. "Eftal" so'zi esa eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'liq. Vaxshunvor 457-yil Chog'aniyon, Toharíston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib, O'rta Osiyoda yirik davlatga asos soldi. Bundan tahlikaga tushgan Eron shohi Peroz eftaliylarga qarshi uch marta harbiy yurish qilgan va ularda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Natijada eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qarashar, Kuchu, Qashqar va Xo'tonni ham qo'lga kiritadilar. Eron uzoq davr eftaliylarga xiroj to'lab turgan.

Perozning o'g'li Kobod (hukmronligi 488-531 yillar), Kobodning o'g'li Xusrav Anushirvon I (hukmronligi 531-579 yillar) davrida ham Eron eftaliylarga soliqlar to'lab turgan. Zulm, adolatsizlik va tengsizlik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chidab bo'lmas darajasiga yetgan. Xalq ommasi bundan norozi bo'lib Mazdak Hamdadon (470-529) boshchiligida qo'zg'olon ko'targan. Qo'zg'olonning g'oyaviy asosini zardushtiylik mafkurasi tashkil etgan. Mazdak ilgari surgan g'oya bo'yicha barcha kishilar bu dunyo ne'matlaridan teng foydalanishlari lozim edi. Shu bois mazdakchilar "Z" harfi bilan boshlanuvchi to'rt narsa aholi o'rtasidagi teng taqsimlansin, degan g'oyani ko'tarib chiqdilar. Bular quyidagilar: 1.Zamin (yer), 2.Zar (oltin), 3.Zo'rlik (hokimiyat), 4.Zan (xotin). Kobod shoh dastlab qo'zg'olonchilar tomonida bo'ldi, so'ngra u 496-yilda zindondan qochib, eftaliylar yordamida o'z taxtini egalladi va qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirib, Mazdakni (529-yilda) qatl ettirdi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Taxminiy fikrlarga ko‘ra, Eftaliylar davlatining poytaxti Poykand yoki Balx shaharlari bo‘lgan. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug‘ullangan, qolganlari esa ko‘chmanchi chorvachilik hayot tarzini o‘z boshidan kechirgan. Eftaliylarning ko‘pchiligi mahalliy aholi bilan aralashib, o‘troq hayot tarziga o‘tgan, yoki shaharliklarga xos yashashga moslashganlar. Eftaliylarning ko‘chmanchi aholisi esa kigiz o‘tovlarda, keng yaylovlar va suvga boy yerlarga ega bo‘lishgan. Ko‘rinadiki, ular dastlab ko‘chmanchi chorvador bo‘lishgan, keyinroq esa, shaharlarni ishg‘ol qilib, uning doimiy aholisiga aylanishgan.

Muhimi shuki, eftaliylar davlatida yer egaligi munosabatlari shakllana boshlagan. Eski tartibdagi shaharlar o‘rnida yangi shahar-qal’alar qaror topgan. Eron, Vizantiya, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. O‘rta Osiyoda feodal munosabatlari – yer egaligi yuzaga kelishining o‘ziga xos xususiyatlari shuki, bu yerda dehqon ko‘proq mulkdor zamindorga emas, yerga bog‘lanib qolar edi. Bu esa chorikorlik tartibini vujudga keltirdi. Feodal munosabatlar yuzaga kelishini yana shundan sezish mumkin ediki, kushonlar podsholigi davrida dehqonchilik uchun yaroqli, sug‘oriladigan yerlar asosan qishloq jamoalari ixtiyorida bo‘lib, bu jamoa a’zolari “Kashovarzlar” deb atalardi. Yer egasi bo‘lib qolgan harbiy zodagonlar esa “dehqon” deb atalardi. Bu davrlarda “dehqonlar” qishloqda ekin yerlari, ariq bo‘ylariga joylashib, “Koshavarzlar”ni bo‘ysundirganlar va xom g‘ishtdan ko‘shk-qo‘rg‘onlar qurib yashaganlar. Jamoa yerlarini egallagan “dehqon”larning qullari, bog‘-rog‘lari, chorva mollari, xizmatkorlari va kanizaklari shaharda savdo-sotiq bilan ham shug‘ullanish uchun ularning savdo do‘konlari hamda hunarmandchilik bilan bog‘liq dastgohlari mavjud edi. Bu davrda qator shaharlar paydo bo‘lib, savdo-sotiq kengayadi. Tanga pullar zarb qilinadi. Shaharlarda yirik karvonsaroylar, shinam uy-joy binolari va ibodatxonalar qad ko‘tardi. V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida kichik-kichik sug‘orish kanallari ishga tushuriladi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo‘lgan Zag‘ariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan. Shuningdek, tog‘ oldilariga suv olib borish uchun suv chiqarish asbob-uskunalaridan keng foydalanilgan. Qalin mudofaali Qo‘rg‘onlar ilk o‘rta asrning o‘ziga xos me’morchilik namunalaridan bo‘lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal’asi, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorazmdagi Fir qal’asi shular jumlasidandir. Vohalarni

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirim uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan "Devori Qiyomat", Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli "Kampirik", Toshkent vohasidagi "Kampirdevor" istehkom devorlari shular jumlasidandir. Bu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi, ayniqsa, ahamiyatlidir. Qasrlar odatda 2 qavatli, shifti tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. Bu davrda qurilgan saroy va ibodatxonalar qurilishida paxsa va xom g'ishtdan tashqari pishiq g'isht ham ishlatila boshlangan. Bularga misol tariqasida Surxondaryodagi Bolaliktepa, Xorazmdagi Tuproqqal'a qasrlari xarobalarini aytish mumkin.

Eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu qo'rg'on ulkan kvadrat shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, tasviriy suratlar bilan bezatilgan. Aytishlaricha, bu buxorxudotlarning VI-VII asrlardagi qarorgohi bo'lgan. Eftaliylarning diniy ta'limoti xilma-xil edi. Ular hukmronlik qilgan hududda zardushtiylik va buddizm singari dinlar mavjud edi. Shaharlarda nestorianlar va yahudiylar jamoalari o'z dinlariga e'tiqod qilganlar. Eftaliylar buddizmga qisman e'tiqod qilsa-da, otashparastlikdagi ma'budlarga sig'inish ustunroq darajada bo'lgan. Har kuni tongda o'zlarining o'tovlaridan chiqib, quyoshga sig'inganlar. Eftaliylar davrida Navro'z bayrami keng nishonlanib, hatto Buxoro otashparastlari Siyovush qabri ustida xo'roz so'yib qurbonlik qilishgan. Bu bayram 3000 yillik tarixga ega. Eftaliylarda kushon yozuvining rivoj topgan shaklini ko'rish mumkin. Bu yozuv boshqa yozuvlardan farq qiladi. Alifbosida harflar soni 25 ta bo'lib, chapdan o'ngga qarab o'qilgan. So'g'dda so'g'd yozuvi va so'g'd tili yetakchilik qilgan. Shunday qilib, V-VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmishdagi dongdor sulolalaridan qolishmaganlar. So'nggi kushonlar zamonida boshboshdoqlik yo'liga kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini an'anaviy yuksak darajada tutib turishiga bosh-qosh bo'lganlar. VI asr o'rtalariga kelib, Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan Eftaliylar davlati tanazzulga uchray boshlagan. Ayni davrda Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qabilalar va xalqlar birlashib, yirik turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin bu turkiy xalqlarning davlatga uyushuvi VI asr oʻrtalarigacha boʻlmagan degan xulosani bermaydi. Turkiyshunos olimlar fikricha, eng qadimgi turkiyzabon xalq Xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756-yildan tilga olinadi. Lekin bu xalq “Turk” nomi bilan emas, balki “xun” deb atalgan. “Turk” soʻzi etnik (xalq) nomi sifatida milodimizning V asridan boshlab uchraydi. Xunlar turkiy xalqlarning uzoq ajdodlari boʻlib, juda qadimiy tarixga egadirlar. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi boʻylari hamda Shimoliy Kavkaz va Gʻarbiy Yevropa yerlarigacha choʻzilgan hududlarda yashaganlar. Miloddan avvalgi 207-yildan milodning 216-yiligacha, ya’ni 423 yil hukmronlik qilgan. Ulugʻ Xun saltanati sharqiy va gʻarbiy qismga boʻlinib idora qilingan. 374-yildan 469-yilgacha Yevropoda Xunlar saltanati mavjud boʻlgan. Bu saltanatning asoschisi Balamir (374-400) hisoblanadi. U juda koʻp mamlakatlarni oʻz qoʻl ostida birlashtiradi. Sharqiy Rus, Ruminiya, Yugoslaviyaning shimoli, Mojariston (Vengriya), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va Oʻrta Olmoniya mamlakatlari bu saltanatga kirgan. Xun hukmdorlaridan Attila (434-453) nomi Yevropada hozirgacha ma’lum.

Ikkinchisi Oq Xun saltanatidir. Bu Oʻrta Sharq – Eftalit saltanati deb ham yuritiladi. Sulolaning asoschisi Kunxon boʻlgan. Uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afgʻoniston va Turkiston hududlari kirgan. Hindiston bu sulola tarkibida boʻlganligidan koʻk tangridan tashqari, buddizm ham yetakchi din hisoblangan. Qayd qilinishicha, V asrning ikkinchi yarmida Xun davlati turli sabablarga koʻra parchalanib ketgan. Xunlarning uncha katta boʻlmagan bir toifasi oʻz atrofiga qisman moʻgʻul va xitoy muhojirlarini birlashtirib, hech qanday hokimiyatga va davlatga boʻysunmasdan koʻchmanchilik qilib hayot kechirganlar. Ana shu toifani ya’ni ularga qoʻshilgan moʻgʻullarni “Turkutu”, ya’ni “boʻri urugʻi” deb ataganlar. Bu degan soʻz turklar boʻridan tarqalgan degan ma’noni bildirmaydi. Balki barcha xalqlarning uzoq oʻtmishida boʻlgani singari har bir qabilaga homiylik qilgan hayvon, daraxt va jismlar nomi bilan atalgan.VI asr boshlariga kelib, oʻsha qabilalar uyushmasi son jihatidan osha borgan. Nomlanishdagi ikkinchi soʻz tushib qolib, “Turk” deb atalavergan. Ana shu tariqa VI asr oʻrtalariga kelib, Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi tarkib topadi. Unga asos solgan kishi Ashin boʻlgan. 545-

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

yilda Qo'zg'olon ko'targan jo'jonlarga Teles qabilalari zarba beradi va o'z navbatida turklar Teles qabilalarini tor-mor keltiradi. Shundan so'ng 545-yildan e'tiboran Turk xoqonligi Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti Qipchoq yerlarida Hukmron davlatga aylanadi. Umuman, birinchi va ikkinchi turk xoqonligi 545-yilda to'liq mustaqillikka erishganlaridan so'ng o'z hukmronliklarini deyarli ikki yuz yil davom ettirdilar. Turk xoqonlari nihoyatda katta hududlarga ega bo'lgan mamlakatlarini sakkizta tobe xonliklar asosida boshqardi. Sharqiy xoqonlik markazi Oltoyda, G'arbiy xoqonlik Yettisuvda bo'lgan. 563-567 yillarda Turk xoqonligi qo'shinlarining kuchli zarbalari ta'sirida O'rta Osiyodagi eftalitlar davlati barbod bo'ldi. Turk xoqonligi yerlari yanada kengayib, u Amudaryo va Kaspiy dengizi chegaralarigacha yetib bordi. Turk xoqonlari O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish bilan chegaralanmay, sosoniylar Eroni bilan ham vaqti-vaqtida urushlar olib bordilar. Shunisi e'tiborliki, turk xoqonlari, ularning zodagonlari va amaldorlari ishg'ol qilingan hududlarga kelib yashamadilar. Ular o'zlari ilgari istiqomat qilgan cho'l yerlarda qolib, ko'proq vassallik yerlaridan keltirilgan to'lovlar, o'lponlar, sovg'a-salomlar hisobiga hayot kechirishni afzal ko'rdilar. Bu esa mahalliy boy-zodagonlarga qo'l keldi. Ular mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotini o'z tasarruflariga olib, uni o'zlari boshqardilar. Xoqonlik faqat mahalliy zodagonlar o'rtasida ichki ziddiyatlar va kelishmovchiliklar kelib chiqqandagina aralashar edi. VI asrning 60-70-yillarida hozirgi O'zbekiston hududida bir nechta alohida mulklar bo'lib, ular rasmangina xoqonlikka bo'ysungan. Samarqand So'g'di Kan degan nomda edi. Uni mahalliy sulola vakili boshqarib turgan. Umuman, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida to'qqizta alohida mulkiy hududlar mavjud bo'lib, ular Maymurx, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Naxshab, Amul, Andxoy, Samarqand (Kan) deb nomlangan. Samarqand hokimi yuqoridagi to'qqiz mulk orasida kattasi sanalgan. Boshqalari kuch-qudrat jihatidan yuksak sanalib, Samarqand hokimi bilan hisoblashib, muomalada bo'lgan. So'g'diyonaning mahalliy hokimlari Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashgan edilar. Yirik siyosiy birliklar ma'lum muddatlarda shaharlardan birida o'z qurultoylarini o'tqazib turganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan. Sug'diyona hududiga o'sha vaqtda

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan yerlar kirgan. Buxoro esa VIII asrda mustaqil mulklar itifoqidan iborat alohida birlashma sifatida Samarqandga bo‘ysunmay qolgan. Uning podshosi buxorxudot unvoni sohibi bo‘lgan. Farg‘ona Kan siyosiy ittifoqiga kirmay, u alohida mustaqil davlat bo‘lib, davlatni Afshin boshqargan. Xoqonlikka birlashgan xalqlar taraqqiyotning qar xil bosqichida edi. Aholining bir qismi chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shaharlarda yashovchi aholi kosibchilik, hunarmandchilik va savdo bilan band bo‘lgan. Turk qabilalarining bir qismi VI - VIII asrlarda o‘tovlarda yashaganlar, to‘rt oyoqli g‘ildirak aravalarda ko‘chib yurganlar. Mehnatkash aholini “Budun” yoki “Qora budun” deb ataganlar. Urug‘- qabilalarning yirik vakillari “beklar” nomi bilan yuritilgan. Jamoani “xoqon” va zodagonlar kengashi – “Qurultoy” boshqargan. Xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim bo‘lgan. Amaldorlar xonni oq kigizga o‘tkazib, quyosh harakati bo‘ylab 9 marta aylantirganlar va so‘ngra otga mindirib bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar. Xoqondan keyingi shaxs yabg‘u (bahodir) bo‘lgan. Patriarxal oilalarga oila boshlig‘i katxudolar bosh bo‘lganlar. Turk xaqonligida urug‘ aymoqchilik munosabatlari kuchli bo‘lgan. Shu sababli bu davlat markazlashgan davlat emas edi. 603-yilda Turk xoqonligi ikkiga bo‘linib ketdi. Buning sababi ichki nizolarning kuchayishi edi. Bu davlatning biri Mo‘g‘ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk davlati va Markaziy Osiyo, Jung‘riya va Sharqiy Turkistonda tashkil topgan G‘arbiy turk xoqonligidir. G‘arbiy turk xaqonligi aholisining katta qismi o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanib, VII asrning birinchi choragida nihoyatda kuchayadi. Xoqon Tunyabug‘u (618-630) davrida ko‘plab islohotlar o‘tkaziladi.

V-VII asrlarda feodal zulmining kuchayishi oqibatida yersiz aholi kadivarlarning ahvoli yomonlashadi va bu davrda dehqonlar zulmiga qarshi Eronda Mazdak, Buxoroda Abro‘y boshchiligida qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan va ular shafqatsizlik bilan bostirilgan.

Turk xoqonligida konchilik faoliyati ham rivoj topgandi. Oltin, temir, kumush, mis va tuzning bir necha xili, qimmatbaho toshlar va boshqa turli ma’danlar So‘g‘diyona, Shosh, Farg‘ona, Qashqar, Tohariston kabi viloyatlardan qazib olingan. Savdo aloqalari Eron, Xitoy, Hindiston, Vizantiya davlatlari bilan olib borilgan.O‘sha davrdagi So‘g‘diyona, Xorazm va Farg‘ona mulklarida bog‘dorchilik, ayniqsa, uzumchilik, paxta yetishtirish va uy chorvachiligi kabilarga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

alohida e'tibor berilgan. Arablar davrida bir qator rivojlangan sug'orish tizimi bo'lgan. Samarqand shahrini suv bilan ta'minlovchi alohida suv tarmog'i o'sha vaqtdayoq mavjud edi. Kushaniyaning Narpay, Buxoro vohasining esa Shopurkom, Samarqand atrofining Raboti Xoja degan joyida uchta suv tarmog'iga ajraluvchi kanallar suv bilan ta'minlangan. Dehqonchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangan bo'lib, lalmikor dehqonchilik ham rivojlangan.

Chorvachilik sohasida qoramollar, qo'y va echki boqilgan. So'g'd va Farg'onaning zotdor otlariga Xitoyda talab katta bo'lgan.VI-VII asrlarda madaniy jarayonlar jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy voqealar bilan o'zaro ta'sirda rivojlana borgan. Bu davrda turli xalqlarning til va yozuv turlari bir-birlariga ta'sir o'tkazdi. So'g'diylar tili va yozuvi o'ziga xos edi. Uning ayrim so'zlari va tushunchalari hozirgi o'zbek tilida ham saqlanib qolgan. Arab yozuviga qadar turk-runiy (miloddan avval shakllangan), uyg'ur (taxminan VI asr), moniviy (milodiy III-VIII asrlar), so'g'd, braxma, suryoniy yozuvlari mavjud bo'lgan. Shimoliy Mo'g'ulistonning O'rxun va Selenga daryolari vohasida topilgan To'nyuquq, Kulichur, Ungil bitigi singari yodgorliklar shular jumlasiga kiradi. Turkiy-run yozuvlarini turkiy xalqlar, turkiy tamg'a (belgi)lar negizida ixtiro qilganlar degan fikr mavjud. So'g'd yozuvlari keng hududda tarqalgan. Bu jarayon so'g'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning "Buyuk ipak yo'li"dagi sa'y-harakatlari bilan bog'langan. Shuning uchun ham so'g'd tilidagi yozma yodgorliklar O'rta Osiyo, Qozog'iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston tuprog'ida topilib, tekshirilgan. So'g'd yozuvi oromiy alifbosi asosida shakllangan bo'lib, uning tarkibida 25 ta harf bo'lgan va ular so'ldan o'ngga tomon yozib chiqilgan. So'g'd yozuvi ish yuritishda, savdo va madaniy aloqalarda katta ahamiyatga ega bo'lib, qadimgi uyg'ur, mo'g'ul va monjurlar yozuvlari paydo bo'lishiga asos bo'lgan. So'g'd hududida buddaviylik, xristianlik va moniylik adabiyoti namunalarining so'g'd tilida bayon qilinishi mazkur tilning ustunligidan dalolat beradi. O'sha davrda Xorazmda mahalliy yozuv ham keng tarqalgan va amalda bo'lgan. Tuproqqal'adan shoh arxivlarining topilishi buning isbotidir. Boy bezaklar, sopol va metall idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu yerda tasviriy san'atning yuksakligidan dalolat beradi. Diniy qarashlarda zardushtiylik yetakchi o'rinda tutgan. Axuramazda – samo va yerning asoschisiga qurbonliklar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qilganlar. So‘g‘diylarning Yettisuvning ayrim yerlariga borib o‘rnashishlari oqibatida zardushtiylik bilan o‘sha yerga xos shamoniylik dinlarining bir-birlari bilan qo‘shiluvi yuz bergan. Oltoydan So‘g‘dga ko‘chib kelgan ayrim turkiy urug‘-aymoqlar esa zardushtiylikni qabul qilgan edilar. Urug‘-aymoqlarning otashparastlikni qabul qilishlari quyidagi misollarda o‘z aksini topgan. Ular bo‘sh yotgan yerning atrofini to‘siqlar bilan o‘rab olib, u yerga kishilar jasadlarini tashlaydilar. Keyinroq jasaddan qolgan suyak qoldiqlarini yig‘ishtirib olib, ularni ko‘mib yuborganlar yoki maxsus sopol-tobutcha – astodonlarda saqlaganlar. Sirti turli naqshlar bilan bezatilgan. Bunday astodonlar Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va Xorazmda topilgan. Kushon davridan boshlab So‘g‘dda buddaviylik keng tarqalgan. Buddizmga xos yodgorliklar Samarqand, Toharistonva Xorazmda topilgan. Qisqasi, har bir urug‘, qabila va xalqning o‘z diniy e’tiqodi bo‘lgan. Shu bois, bu yerda ko‘p xudolilik keng tarqalgan. VI-VIII asrlarda o‘lka xalqlari orasida animizm, otashparastlik, buddizm, nasroniylik va boshqa diniy qarashlar mavjud bo‘lgan. VII asr boshida arab xalifaligi yuzaga kelishi arafasida yarimorolda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yamanda quldorlik munosabatlari hukmronlik qilgan bir paytda mamlakatning shimoliy qismida quldorlik munosabatlari endigina kurtak otayotgan, chorvachilik bilan shug‘ullanayotgan qabilalarda patriarxal urug‘chilik tuzumi ilk yemirilish bosqichida edi. Aholining asosiy qismi ko‘chmanchi chorvachilik bilan mashg‘ul edi. Shaharliklar esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan band bo‘lgan. Ko‘chmanchi aholi ”badaviylar” nomi bilan atalgan. Arabiston yarim orolida yashovchi qabilalar o‘zlariga qo‘shni mamlakatlarga qaraganda tarixiy taraqqiyotning quyi bosqichida edi. Ayni vaqtda Arabiston yarim orolining g‘arbiy qismidagi Qizil dengiz sohillarida geografik qulay hududda joylashgan Hijoz tumanida iqtisodiy taraqqiyot ancha ilgarilab ketgandi. Bu hududning markazi bo‘lgan Makka shahri diniy markaz sifatida ham o‘rni ancha yuqori bo‘lgan. Makkadagi Zam-zam qudug‘i qadimdan ko‘chmanchi qabilalar va o‘tkinchi savdogarlar e‘tiborini qozongandi. Nihoyat, Makkada qurilgan birinchi bino – Ka’ba arablarning muqaddas joyiga aylandi. Demak, Makka arab qabilalarini birlashtirishda muhim rol o‘ynashi mumkin edi. Chunki V-VI asrlarda arab qabilalari ittifoqi mustahkam emas edi. Negaki, har bir qabila turla dinlarga sig‘inardi. Ko‘p

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

xudolilik va ko'p payg'ambarlilik negizida tez-tez kelib chiqadigan va sodir bo'ladigan qabilalar hamda urug'lar o'rtasidagi urushlar xalq ommasiga katta qiyinchiliklar tug'dirardi. Ko'p xudolikka asoslangan qabilaviy urushlar siyosiy parokandalikka olib kelib, bu mamlakatni yagona davlatga birlashtirishga asosiy g'ov bo'lmoqda edi. Ana shu zaruriy ehtiyoj oqibatida yakka xudolikni bosh bayroq qilib olgan, insonlarni to'g'ri va haq yo'lga boshlovchi islom dini vujudga keldi. "Islom" so'zi arabcha "xudoga o'zini topshirish", "itoat", "bo'ysunish" ma'nosini anglatadi. Shu bois bu dinga e'tiqod qiluvchilar "Muslim" ("bo'yin eguvchi") deb ataladi. Islom dinining asoschisi Muhammad alayhissalom (570-632)dir. Uning otasi Abdulloh Quraysh qabilasining boshlig'i Abumutallibning o'g'li bo'lgan. Yana Abumutallib Makkadagi Ka'ba masjidi kalitining saqlovchisi edi. Ota-onadan yosh yetim qolgan Muhammad dastlab bobosi, so'ng amakisining qo'lida tarbiyalanadi. U 25 yoshida amakisining maslahatiga ko'ra badavlat, 40 yoshdagi ayol Xadichaga uylanadi va uning savdo ishlariga boshchilik qiladi. Muhammad payg'ambarlik faoliyatini 40 yoshida – 610-yilda boshlagan. Birinchilar qatorida Xadicha, Abu Bakr, Ali, Zayd ibn Xorisa, Abu Ar-Rahmon, Zubayr ibn Avom, Amir Hamza, Usmon ibn Afon va boshqalar islom dinini qabul qilganlar. Muhammad yakkaxudolik mafkurasi asosida Yamandan Sino yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy qum sahrosigacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan kuchli, qudratli davlatga asos soldi. 632-yil 8-iyunda Muhammad alayhissalom vafot etdi. Uning ishlarini noiblari yoki o'rinbosarlari (arabcha xalifalar) davom ettirdilar. Ana shu tariqa Arab xalifaligi paydo bo'ldi. Islom dunyosida asosan to'rtta xalifa alohida diqqatga loyiqdir: Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656) va Hazrat Ali (656-661). Ulardan so'ng xalifalik 661-750 yillarda ummaviylar sulolasiga o'tgan. Bu sulolaga Muoviya bin Abu So'fyon (661-680) asos solgan. Ummaviylardan so'ng xalifalikni abbosiylar (750-1258) davom ettirdilar. Uning asoschisi Muhammad alayhissalomning amakilari avlodidan Abul Abbos as-Saffoq (749-754) edi. Islom dini bayrog'i ostida Arab xalifaligi VI-VIII asrlarda Shimoliy Afrika, Shom yurti, Falastin, Iroq, Eron va boshqa hududlarni bosib oldi va o'z hukmronligini o'rnatdi. O'rta Osiyoning qulay va go'zal tabiiy iqlimi hamda behisob boyliklari tarixan sahroyi elatlar bo'lgan arablarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Ular

www.nitropdf.com

Durdona

Amudaryo (Jayxun)dan shimolda Sirdaryo bo‘ylariga joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, ya’ni daryoning ortidagi yerlar deb nom berganlar. Arablarning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlarini ikki davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr 650-705 yillarni o‘z ichiga olsa, ikkinchisi 705-yildan keyingi davrdir. Arablar O‘rta Osiyoga dastlabki yurishlarini 651-yilda Marvni ishg‘ol etishdan boshlagan. 654-yilda ular Movarounnahrning Maymurg‘ va So‘g‘d viloyatlariga hujum qildilar. Keyingi 35 yil davomida arablar Chag‘oniyon, Romiton, Xo‘jand va Termizga bir necha yurishlar uyushtirdi. Mazkur yurishlar bosqinchilik xususiyatiga ega bo‘lib, ularning ayrimlari Xuroson noiblari Ubaydulloh ibn Ziyod, Said ibn Usmon, Salmo ibn Ziyod kabi shaxslar sa’y-harakati bilan amalga oshirilgan edi. Arablarning qariyb yarim asr davomidagi harbiy harakatlari ko‘pincha talon-taroj qilish va chet yerlardan boyliklar yig‘ish maqsadida olib borilgan edi. 705-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi bo‘lishi bilan Movarounnahrni to‘liq bosib olish harakati boshlanib ketdi. 705-yilda Balx va Chog‘aniyon ishg‘ol qilinganidan keyin Qutayba katta harbiy kuch bilan Poykand, so‘ngra 708-yilda Buxoro atroflari va Romiton, 709-yilda Buxoro, 710-yilda Shuman, Nasaf va Kesh egallab oldi. Samarqand ixshidi Tarxun tovon to‘lash majburiyatini olib, arablar bilan kelishuvga muvaffaq bo‘lgan edi. Samarqand aholisining tovon to‘lashga qarshilik ko‘rsatishi, Tarxunning o‘limi va uning o‘rniga vatanparvar G‘urakning Samarqand hokimi bo‘lishi arablarning bu shaharga hujum qilishi uchun bahona bo‘ldi. Tarxun o‘limi uchun qasd olish bahonasida Qutayba 712-yilda Samarqandga hujum uyushtirdi va uni bosib oldi. 712-713 yilgi So‘g‘d, Choch va Farg‘onaning ittifoqchi qo‘shinlari vaqtincha g‘alabaga erishgan bo‘lishiga qaramay Qutayba g‘olib chiqdi. 714-yilda arablar yana Chochga hujum qilishadi va bu hududga yaqin Isfijobni egallab olishadi. 715-yilda Qutayba Farg‘onaga ikkinchi martaba yurish uyushtiradi. Shu yili unga dushman bo‘lgan xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko‘taradi va mag‘lubiyatga uchrab o‘ldiriladi.O‘rta Osiyo bosib olinganidan keyin bu hududlarni boshqarish markazi Marv shahri bo‘lib qolgan edi. Bu yerda xalifaning noibi turgan va u Movarounnahr hamda Xurosonni idora qilgan. O‘rta Osiyoliklar arablarga Qarshi bir necha marotaba isyon va qo‘zg‘olonlar ko‘targanlar. VIII asrning 20-yillaridan 30-yillar oxirigacha Farg‘ona, Xuttaliyon, Toharistonva So‘g‘dda xalq bosh ko‘targan edi. Biroq bu

www.nitropdf.com

Durdona

harakatlar katta kuchga ega arab qo'shinlari tomonidan bostirilgan.

O'rta Osiyo xalqlari qariyb yarim asr davomida arab istilochilariga qattiq turib qarshilik ko'rsatganlar. Bunday qarshilikni arablar boshqa yerlarni bosib olishda uchratmagan edi. Katta kuchga ega markazlashgan xalifalik harbiy qo'shinlari qiyinchiliklariga qaramay, O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatadi. Arablar O'rta Osiyoning katta hududida zulm va zo'ravonlikni kuchaytirdilar. Endi yerli xalq ikki tomonlama zulm siyosati ostida qoldi. Arablar birinchi kundan boshlab arablashtirish siyosatini olib bordi. Ana shu maqsadda Movarounnahrga ming-minglab arablarni ko'chirib keltirdilar. Hali Ibn Ziyod davridayoq Kufa, Basra atroflaridan 50 mingdan ortiq aholi o'lkamizga ko'chirilib keltirilgan. Ularga mahalliy xalqlar uy-joylarining yarmini zo'rlik bilan bo'lib berganlar. Faqat Samarqand shahriga Quraysh qabilasidan 5 ming arab ko'chib kelib joylashgan. Arablashtirishda islom dinidan qurol sifatida foydalanildi. Arablar mahalliy xalq e'tiqod qilgan va ularning ma'naviy hayotida katta rol o'ynagan zardushtiylik, buddizm, moniylik kabi dinlarni soxta, xurofiy va yolg'on dinlar deb e'lon qildilar, ularni barcha yerlarda ta'qiqladilar, bu dinlarga oid adabiyot va kitoblarni gulxanlarda yondirdilar. Istilochilar islomni qabul qilganlarni har tomonlama qo'llab-quvvatladilar va rag'batlantirdilar, imtiyozlardan foydalandilar. Jumladan, ular juz'ya solig'idan ozod qilinganlar. Islom dinini kiritishda majburlash siyosatidan ham foydalanilgan. Arablashtirish siyosatini amalga oshirishda arab tili va alifbosining davlat tili, fan va adabiyot tili darajasiga ko'tarilishi ham muhim rol o'ynagan. Arablar Movarounnahrning yerosti va yerusti boyliklarini talash bilan cheklanmadilar. Ayni paytda ular xalqni og'ir ekspluatatsiya qilishning yangi usullarini topdilar. Hududdagi barcha yerlar xalifalik mulkiga aylandi. Hosildor yerlar, masalan, Buxoroda yirik zodagon qatlam – buxorxudotlarning xususiy mulki sanalsa, endilikda ular xalifalik mulkiga aylandi. Yirik yer egalari – dehqonlar arab xalifaligi davrida ham o'z yerlarining egalari bo'lib qoldilar, biroq endi ular ijaradorga aylanib, daromadning ma'lum qismini xalifalik xazinasiga jo'natish majburiyatini olgan edi. Ko'p xudolikka sig'inuvchi xalqlarning ma'lum qismi birdaniga islomni qabul qilmaganlar, soliq to'lovchilar – zimmiylar deb atalardi. Qishloqdagi yerlarga mayda xo'jaliklar tomonidan ishlov berilardi. Yirik yer egalari – dehqonlar yerlarini mayda bo'laklarga taqsimlab

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ziroatkorlarga ijara tarzida bo‘lib berilgan. Mehnatkashlar tarkibiga yarim ozod kadivarlar, ozodlikka chiqqan qullar va qaram qullar kirardi. Aholining asosiy qismi jiz’ya (jon solig‘i) va xiroj (yer solig‘i) to‘lashgan. Xiroj hosilning 1/3 hisobida olingan. Soliqlarning bunday turi “muqassama” deb ham nomlangan. Movarounnahrning xiroj to‘lovchi mehnatkashlar guruhi “xaros” deb nomlangan. Arab manbalarida ijarachilar akkor, sharik, munassif, fors manbalarida barzikor yoki kadivar deyilgan.

Soliq yig‘uvchilar “amil” deb nomlangan. Soliqlar pul yoki mahsulot shaklida to‘lanib turilgan.

Soliq Movarounnahrda boshqa viloyatlardagi singari 3 xil shaklda yig‘ilgan:

1. Qavonin – mayda viloyatlar va tumanlardan xazinaga tushib turgan yig‘im.

2. Maqosima – hosilning ma’lum ulushi miqdorida to‘langan. Uning hajmi sug‘orishga bog‘liq holda belgilangan.

3. Misoxa – yer hajmiga qarab miqdori belgilanadigan soliq bo‘lib, unda ekin ekilishi yoki ekilmasligiga e‘tibor berilmagan.

Xiroj xalifalikning mulki va xazinaga tushadigan daromadning asosini tashkil etadi. Yer solig‘ining bir qismi sug‘orish inshootlarini barpo etishga sarflangan, boshqa qismi xalifalik xazinasiga tushardi.

Oziq-ovqat narxi oshgan taqdirda, soliq to‘lovchilardan ortib qolgan mahsulot ham yig‘ilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashgan taqdirda soliq to‘lovchilardan faqat mahsulot olinar edi. Mabodo soliq to‘lashga qurbi yetmasa, u holda sotib olib bo‘lsa ham to‘lashga majbur edi. Soliq yig‘uvchilarning o‘zboshimchaliklari, talon-tarojlik, urushlar, hosilsizliklardan zarar ko‘rgan oddiy ijaradorlarning xonavayron bo‘lishini tezlashtirardi. Bu jarayon o‘lkada ijtimoiy toifalar orasidagi farqni keskin o‘zgartirdi. Ozod va erkin jamoachilar orasidan ko‘pchiligi yer-mulkni ijaraga olib, soliq to‘lar va umuman, zodagon kishi – dehqonga qaram edi. Kezi kelganda shu narsani ham e’tirof qilish joizki, O‘rta Osiyoda islom dinining yoyilishi hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan diniy rasm-rusumlar, shariat va tariqat qonun-qoidalari, aqidalarning tarkib topib borishi yerli aholi uchun, ularning istiqboli uchun muayyan ijobiy rol o‘ynadi. Odamlar har xil xudolar, chiltonlarga, muqaddas sanalgan narsalarga topinishdan, sig‘inishdan xalos bo‘lib, yakka-yu yagona Alloh taolo timsoliga, uning rasuli (payg‘ambari) Muhammad Alayhissalom

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ko'rsatmalari va ruknlariga e'tiqod qiladigan bo'ldi. Shu tariqa islom qadriyatlari xalq ma'naviy hayotining uzviy qismi sifatida uning turmush tarzidan, xatti-harakatidan munosib o'rin olib bordi. Biroq biz o'z e'tiborimizni arab istilosi davriga qaratadigan bo'lsak shu narsa aniqki, arab hukmdorlari O'rta Osiyoda ko'z ko'rib quloq eshitmagan yovuzliklarni qildilar. XI asrning buyuk olimi Abu Rayhon Beruniy o'zining "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida yozganidek, Qutayba va boshqa arab hukmdorlari mahalliy din, san'at, adabiyot namoyondalarini, olimlarni halok qildilar va ularning qoldirgan meroslarini olovda yondirdilar. Sahroyi arab istilochilari mahalliy yozuvni, ko'plab qimmatli hujjatlarni ko'hna tariximiz osori atiqalarining kulini ko'kka sovurdilar. Shu sababdan odamlar uni "Muqanna", ya'ni "yuzi pardali odam" deb nom berganlar. Muqanna o'z qo'li ostidagi odamlarni bosqinchi arablardan ajratish uchun ularni oq kiyimda yurishga da'vat etganligidan ularni "oq kiyimli"lar qo'zg'oloni ham deyishgan. Marvdan boshlangan qo'zg'olon Movarounnahrning ko'pgina joylariga ham yoyildi. Hisor tizma tog'lari yonbag'riga joylashgan Shahrisabz yaqinidagi Som Qo'rg'oni Muqannaning so'nggi qarorgohi bo'lgan. Muqanna qo'zg'olonining asosiy g'oyasi mazdakizmga asoslangan bo'lib, uning negizida ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat yotadi. Keng oddiy xalq ommasi Muqanna g'oyasiga qo'shilib, uning rahbarligida arab zodagonlari va islom homiylariga qarshi kurash olib bordilar. Buxoro viloyatining Norshoh (Hozirgi Vobkent), Qashqadaryoning Kesh (Hozirgi Shahrisabz) yerlarida kuchli to'qnashuvlar yuz berdi.

Nihoyat ko'p sonli arab qo'shinlari Som qo'rg'onini ishg'ol etib, qo'zg'olonchilar ustidan g'alaba qozondi. Muqanna esa bungacha o'zini halok qilib ulgurgan edi. Butun arab xalifaligini dahshatga solgan bu qo'zg'olon 14 yil davom etdi. Shoir Hamid Olimjon o'zining "Muqanna" tarixiy dramasida Muqanna obraziga murojaat etib, uni erksevar xalqning asl o'g'loni, xalq qahramoni sifatida ta'riflaydi. U garchi jismoniy halok bo'lgan bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan g'olib ekanligini, uning yorqin siymosi xalq dilida va tilidaligini ko'rsatib beradi. Muqanna qo'zg'olonidan keyin yana bir kuchli qo'zg'olon 806-yilda Rofe ibn Lays boshchiligida So'g'd viloyatida boshlandi. Bu qo'zg'olon Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo va Xorazm yerlariga ham tarqaldi. Uni xalifalik qo'shinlari yenga olmadilar. Xalifa Xorun ar-Rashidning o'g'li, Xuroson noibi Ma'mun

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

mahalliy feodallarga yordam so‘rab murojaat qilishga majbur bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olon 810-yilgacha davom etdi. Movarounnahr aholisi qattiq qarshilik ko‘rsatishiga qaramay, arab xalifaligining muhim viloyatlarining biri sifatida uning tasarrufiga uzil-kesil o‘tdi. Markaziy hokimiyat 749-yilga qadar Damashqda bo‘lsa, keyin Bag‘dodga o‘tdi. Xalifa davlatni boshqarishda vazir ul-vuzaro (ulug‘ vazirga) tayangan. Harbiy ishlar, umuman, harbiy qo‘shinlar amir ul-umaro qo‘li ostida edi. Xalifa turli masalalarni devon ad-dar, ya’ni kengashda ko‘rib chiqar edi. Devon ad - dar uchta asosiy devonga bo‘lingan, ular devon al-mashriq, devon al-mag‘rib va devon al-xarajdan iborat bo‘lgan. Movarounnahrga tegishli masalalar devon al-mashriqda hal etilar edi. Xalifa viloyat noiblarini lavozimiga tayinlash yoki bo‘shata olish huquqiga ham ega edi. Xalifalikning huquqiy masalalari Qur’oni Karim, Payg‘ambar ko‘rsatmalari va nasihatlariga asoslangan holda ko‘rib chiqilgan.

Islom huquqshunosligining asosini shariat tashkil qilgan. Shariat esa Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, Xulofoyi Rashidinning odil qarorlari va farmoyishlari, ijmo‘-nufuzli, obro‘-e’tiborli musulmon huquqshunoslarining turli savollarga javoblari va qarorlari kabi manbalarga tayangan. Shariat urf-odatlar bilan ham hisoblashgan. Udumlar turli sharoitda har xil bo‘lganligi sababli, ularni shariat asoslariga mos kelgan holda qabul qilingan. O‘rta Osiyo xalqlarining zardushtiylik davridan saqlanib qolgan marosimlari – nikoh to‘yi jarayonidagi ayrim udumlar (masalan olov yoqish, olov ko‘tarish va olov aylanish), bayramlar (Navro‘z, Guli Surx, Mehrjon) va shu kabilar islom dini bilan moslashtirilgan.

Islom dinida fatvo keng qo‘llanilib, u islom qonunshunosi oliy martabali va nufuzli shaxslarning, dunyoviy hukmdorlarining qarorlari va farmonlarining yozma ravishda tasdiqlashni anglatadi.

Islom qonunshunosligini amalga oshiruvchi qozi eng quyi pog‘onasida turib, qonunshunoslikning sharhlovchisi hisoblangan. Quyi pog‘onada yana mullalar ham tilga olinadi. O‘z navbatida mullalar ham turli pog‘onalarga bo‘linib:

-mufatih – vaqf ishlarini amalga oshiruvchi shaxs;

-mujtahid – oliy darajaga erishgan ilm sohibi;

-Shayx-ul-islom – eng yuqori pog‘onada turuvchi huquqshunos shaxs kabilardan iborat bo‘lgan. Muftiy ayrim mamlakatlardagi fatvo

www.nitropdf.com

Durdona

beruvchi, qaror chiqaruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs bo‘lgan.

Islom qonunshunosligi mohiyatan ikkiga bo‘linadi:

1. Huquq Alloh – insonlarning Olloh oldidagi majburiyatlari,
2. Huquq an-nos – insonlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar.

Ularga bayt ul-moldan maosh berilib turilgan. Sud ishlari mahkama nomidan idorada amalga oshirilgan. Bu idoralar masjid qoshida bo‘lgan. Qozi sud ishlarini boshlashdan oldin ma’lum marosimlarni – tahorat, namozlarni amalga oshirgan. Qozi ishiga hech kim aralashmagan. So‘roq paytida Qozi o‘zini sipo tutishi, odob-axloq talablariga rioya etishi shart bo‘lgan.

Musulmon kishilarning xatti-harakatlari quyidagicha farqlanadi:

1. Qat’iy majburiyatlar.
2. Matlub (xohish va irodaga mos keluvchi).
3. Ruxsat berilgan.
4. Ta’qiqlanadigan va qat’iy jazolanadigan.

Yuqoridagi qoidalarga rioya etmaslik, shuningdek, barcha jinoyatlar o‘z xarakteriga ko‘ra 3 turga bo‘linadi:

1. Davlat va din asoslariga qarshi yo‘naltirilgan jinoyatlar. Bunday jinoyatlar uchun aniq jazo choralari belgilangan.

2. Alohida kishilarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun ma’lum tasdiqdagi jazo choralari belgilangan.

3. Huquqbuzarlik bu ham jinoyatga kiradi.

Bunday jinoyatlarni jazolash aniq tasdiqqa ega emas. Jazolash choralarini sud amalga oshirgan.

Birinchi jinoyatlar turiga dahriylik, dindan yuz o‘girish kirib, buning jazosi o‘limdir. Tavba-tazarru esa jinoyatchini jazodan xalos etishi mumkin.

Ayrim shaxslarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlar orasida qasddan o‘ldirishga alohida e’tibor berilgan. Bunday jinoyatni sodir etgan kishiga xuddi shunday jazo berilishi ta’kidlangan. O‘ldirilgan kishi qarindoshlariga 3 jazodan birini tanlash lozimligi taklif qilingan. O‘lim jazosi, qotilni kechirish, xun olishga pul to‘lash. Xun haqi o‘sha vaqtda 100 tuya qiymatiga teng hisoblangan. Qasddan sodir etilmagan o‘lim uchun pul to‘lash yoki shunga o‘xshash jazolar ham berilgan.

O‘g‘irlik, cho‘ntak urish singari jinoyatlar sodir etgan shaxslarning qo‘li kesilgan. Mast qiluvchi ichimlik ichgan shaxslar aqldan ozgan kishilar qatorida sanalgan. Bunday insonlarga xurmo

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

daraxtidan tayyorlangan kaltak-darra bilan 40 marta urish jazosi berilgan. Oila, nikoh masalalari ham o‘z aksini topgan. Ayol erga nisbatan xiyonat qilsa, unga taloq berish ruxsat qilingan. Biroq asossiz ajralish qandaydir kibru havo, shahvoniy hirs tufayli taloq qo‘yish la’natlangan. Mulkchilikni belgilovchi me’yorlar ham bor. Yerning huquqiy asoslari quyidagicha belgilangan:

1. Hijoz – Muhammad payg‘ambar hayot kechirgan bu yerning aholisiga alohida huquqiy me’yor belgilangan. Hijozdan Xazina hisobiga 1/10 hisobida soliq olingan.
2. Vaqf yerlar soliqdan ozod qilingan.
3. Mulk – xususiy yer egaligi.
4. Iqta’ – xizmati uchun berilgan muvaqqat yerlar.

Xulosa qilib aytganda, VII asr oxiri IX asr boshlarida arab xalifaligi og‘ir siyosiy tanglikka uchradi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflasha bordi va bu hol Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishuvini osonlashtirdi va tezlashtirdi.

DURDONA

VIII asr oxiri va XI asr boshida arab xalifaligi og‘ir siyosiy vaziyatni o‘z boshidan kechirdi. Xalifalik hududida mahalliy xalqlarning hukmron ma’murlar zulmiga qarshi qo‘zg‘olonlar avj oldi, ayniqsa, uning boshqaruv markazida ichki nizolar tinimsiz davom etmoqda edi. Bu vaziyat o‘z navbatida joylarda, xususan O‘rta Osiyoda ham mustaqil davlatlarning tashkil topishi uchun shart-sharoitlar yaratmoqda edi. Dastlabki bunday davlatlar arablar istilo qilib ulgurmagan O‘rta Osiyoning shimoliy va shimoliy-sharqiy hududlarida shakllandi. Ulardan birinchisi Qarluqlar davlati bo‘lsa, ikkinchisi O‘g‘uzlar davlati edi.

Qarluqlar davlati: Oloy daryosining g‘arbida, Irtish daryosining o‘rta oqimida istiqomat qilgan qarluqlar qadimdan turkiy elatlar bo‘lib, VI-VII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lganlar. VII asr o‘rtalarida Yettisuv o‘lkasiga kelib joylashgan qarluqlarning katta guruhi Talos va Chu daryolari adoqlaridan Issiqko‘lgacha bo‘lgan hududlarda yashaganlar. Ular VIII asr oxirlarida davlat bo‘lib birlashdilar. Uning markazi Chu daryosi shimolida joylashgan Siyob shahri bo‘lgan. Bu davlat hududiga yana Jo‘l, Navkat, Karmankot, Yor, To‘n, Barsxon, Panjikent, Beklig‘ kabi shaharlar kirgan. Xalqning asosiy mashg‘uloti chorvachilik va ovchilik bo‘lgan. Daryo vodiylarida esa dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular dastlab moniy va nasroniy dinlarini, so‘ngra X asr o‘rtalarida islomni qabul

www.nitropdf.com

Durdona

qilganlar, hattoki, shaharlarda jome' masjidlari qurganlar. Qarluqlar doimo janubda yag'molar, g'arbda Sirdaryo etaklarida yashovchi o'g'uzlar tazyiqidan aziyat chekkanlar. X asrda qoraxoniylar davlati shakllanganidan keyin qarluqlar uning tarkibiga singishib ketgan. Ular asosan Shosh, Farg'ona va Zarafshon vohalariga kelib joylashib, mahalliy aholi bilan qorishib ketdilar.

O'g'uzlar davlati: O'g'uzlar esa VII asrga qadar qarluqlar singari Turk xoqonligi tarkibida bo'lgan. Ular tarixda "to'quz o'g'uz" nomi bilan tilga olinadi. Turk xoqonligi yemirilgach, o'g'uzlarning katta bir qismi "g'o'z" yoki "o'g'uz" nomi bilan Sirdaryo havzasi va Orol dengizi atroflarida o'rnashib, IX asr oxiri X asr boshida Turklarning yana bir birlashmasi sifatida – O'g'uzlar davlatiga asos soldilar. Uning chegaralari shimolda Irtish daryosidan to Ural tog' tizmalarining janubi-sharqiy yonbag'rigacha, janubda Kaspiy dengizining shimoli-g'arbiga qadar cho'zilgan edi. O'g'uzlar asosan chorvachilik, o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Shosh va Xorazm yerlariga doimo hujum uyushtirib turgan, shahar va ovullarni talaganlar.

O'g'uzlar ham qom (shomonlik) diniga sig'ingan. X asrdan islomni qabul qila boshlagan. X asrning birinchi choragida O'g'uzlar davlati parchalanish sari yuz tutadi. Buning asosiy sababi shimoli-sharqda qo'zg'algan qipchoqlarning bergan zarbalari bo'ldi. Ularning bir qismi hozirgi janubiy Rossiya dashtlariga o'rnashadi. Qolgan qismi avval Movarounnahrga kirib boradi, undan janubi g'arbga siljib, yangi sulola-saljuqlar boshchiligida Old Osiyo mamlakatlari hududlarini egallaydi.

Ma'lumotlar ko'rsatishicha, arablar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonning yerli aholisi o'z mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borganlar. Shu bois istilochilar har doim qo'rquv va tahlikada bo'lganlar va mahalliy xalq ichidan chiqqan hukmdorlarning markaziy xalifalikda ta'siri ham kuchli bo'lgan. Abbosiylar hukmronlik qilgan davrdan qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning mas'ul lavozimlari Balxdan chiqqan barmoqiylarning qo'lida bo'lganligi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Ayni vaqtda hukmdorlar yerli aholi vakillarining faollashuvidan ham o'ta darajada qo'rqar edi. Masalan, 786-809 yillarda xalifalikni boshqargan Xorun ar-Rashidning barmoqiylar xonadoniga qaqshatkich zarba berganini shu ma'noda tushunsa bo'ladi. U hatto

www.nitropdf.com

Durdona

o‘ziga yaqin bo‘lgan qishloqlarni ham qirib tashlagandi. Hokimiyat tepasiga barmoqiylar o‘rniga tohiriylar keladi. Ular Xurosonning yirik yer egalaridan bo‘lib, bu sulolaning asoschisi Tohir ibn Husayn edi. Tohir 809-813 yillarda Xorun ar–Rashidning o‘g‘illari Ma’mun va Aminlar o‘rtasidagi xalifalik taxti uchun kurashda Xuroson noibi Ma’munning g‘alabasini ta’minlashda ko‘maklashgandi. Buning evaziga Ma’mun Tohirni 821-yilda Xuroson noibi etib tayinladi. U davrda Movarounnahr ham Xuroson tarkibiga kirgan. Tohir noiblikni mustaqil davlat qilish uchun harakat qildi. Buni jome’ masjidida juma xutba namozidan xalifa nomining olib tashlanishidan ham sezish mumkin edi. Tohirning o‘g‘li Abulabbos Abdulloh noibligi davrida (830-844) noiblik rasman xalifalikka vassal bo‘lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib poytaxtni ham Marvdan Nishopurga o‘tkazdi. Bunga asosiy sabab noiblikda tez-tez sodir bo‘layotgan xalq qo‘zg‘olonlari edi. Ana shunday qo‘zg‘olonlardan eng kuchlisi 806-yilda arab lashkarboshisi Rafi ibn Lays boshchiligida sodir bo‘lib, u Qashqadaryo, Buxoro, Shosh, Xorazm kabi vohalarni qamrab oladi. Qo‘zg‘olonchilar hattoki Samarqandni egallaydi. Xalifa Ma’mun bu harakatning xalifalik uchun o‘ta xavfliligini anglab, uni bostirish uchun barcha vositalarni ishga soladi. Nihoyat, qo‘zg‘olonning 810-yilda bostirilishida Somon ibn Asad faollik ko‘rsatadi. Uning bostirilishida Somonning o‘g‘illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar ham ishtirok etdi. Hududimiz vakillari bo‘lgan Somon ibn Asad va farzandlari xizmati evaziga xalifa Ma’mun Nux ibn Asadni Samarqandga, Aqmad ibn Asadni Farg‘onaga, Yahyoni Shosh va Usrushonga, Ilyosni Hirotga noib etib tayinladi. Ana shu tariqa Movarounnahrda somoniylar sulolasi qaror topdi. Yana shuni qayd etish joizki, 873-yilda Buxoroni tohiriylarning so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib olib, xalqqa nisbatan zulmni kuchaytirdi. Buxoro xalqi Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Shahar amaldorlari Nasr ibn Ahmadga murojaat etib, somoniylardan Buxoroga noib yuborishni iltimos qildilar. Ko‘pdan beri Buxoroni o‘ziga qo‘shib olishni rejalashtirib yurgan Nasr bu taklifga ko‘ra, ukasi Ismoilni Buxoro noibi qilib jo‘natadi. Ismoil Buxoro qo‘zg‘olonini bostiradi va Buxoro somoniylar tasarrufiga o‘tadi. Muhammad esa Buxorodan chiqarib yuboriladi. Ismoil Somoniy esa Buxoro hukmdori bo‘lib qoladi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Biroq aka-uka o'rtasidagi qo'sh hokimiyatchilik uzoqqa bormadi. Natijada Nasr va Ismoil o'rtasida harbiy to'qnashuv sodir bo'lib, 888-yilda ukasi akasi ustidan g'olib chiqadi. 892-yildan boshlab esa Ismoil Somoniy butun Movarounnahrning yagona hukmdori bo'ldi. Ismoil Somoniy o'z davrining qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi bo'lib, Movarounnahr hududida yirik markazlashgan davlatga asos soldi. U o'z davlatiga doimo xavf solib turgan ko'chmanchilar ustiga 893-yilda harbiy qo'shin bilan bordi, Taroz shahri egallanib, shimoldan bo'ladigan hujumlarning oldi olindi. Ismoil Somoniy 900-yilda Xuroson noibi Amr ibn Lays bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda ham g'olib chiqdi. Natijada xalifa Ismoil Somoniy davlatini tan oldi va unga hukmdorlik yorlig'ini berdi. Shu tariqa IX asr oxirida Movarounnahr xalifalik istibdodidan butunlay xalos bo'ldi.

Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi yuzaga keldi. Markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirildi. boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo'lmish turk g'ulomlarining roli katta bo'lgan. Eng obro'li, iqtidorli g'ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig'i), so'ng hojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm va farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amiri xaros oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan. Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo'rlar va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, unga boshqalari bo'ysungan.

Davlat daromadlari va xarajatlarini boshqarib turuvchi oliy moliyaviy amaldor – mustavfiy devoni (xazinador) muhim o'rin tutgan.

Devoni risoil yoki devoni insho – devoni umudulmulk davlatning rasmiy hujjatlarini tuzib beruvchi maxsus markaziy mahkama edi. Armiyani boshqargan mahkamaga devoni shurat rahbarlik qilgan.

Mamlakatning aloqa xizmatlari esa devoni barid tasarrufida bo'lgan. Muhtasib devoni esa savdogarlarning tosh-u tarozisini, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi, shahar hunarmandlari mahsulotlari normasini belgilash va ularning sotilishi ustidan nazorat qilish bilan shug'ullangan.

Mushriflar devoni saroy ish boshqaruvchisi sifatida mablag'larning qanday sarflanishi jarayonini kuzatgan.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Qozilik devoni – adliya ishlari, vaqf devoni – masjid va madrasalarning xo‘jaliklari bilan shug‘ullangan.

Mamlakat viloyatlari esa kadxudolar va raislar tomonidan boshqarilgan.

Mamlakat xo‘jalik hayotida “iqto” mulklarining o‘rni katta bo‘lgan. Bu mulk egalari “iqtodor” deb yuritilgan. Iqtidorlar bu mulklarni davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Somoniylar davrida xo‘jalikning barcha sohalari – dehqonchilik va chorvachilik rivoj topdi. Sug‘orish shaxobchalarining kengayishi ziroatchilikning muhim tarmoqlari – g‘allachilik, sholikorlik, polizchilik, bog‘dorchilik tez o‘sib bordi. Bu sohalar, ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo, Shosh, Farg‘ona vodiysi, Xorazm vohasida ko‘proq rivojlandi. Murg‘ob, Buxoro, Samarqand, Shosh atroflarida paxtachilik maydonlari kengayib bordi.

Bu davrda tog‘ sanoati ham tez rivojlandi. Farg‘ona vodiysida, Nurota – Zarafshon tog‘larida, Iloq viloyatida turli xil qimmabaho toshlar, ma’danlarni qazib olish, ulardan turli xil mahsulotlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Somoniylar davlatida yer egaligi quyidagicha bo‘lgan:

- Mulki sultoniy – sulton (amir)ga qarashli yerlar. Undan olinadigan daromadlar davlat xazinasiga tushgan. Bu juda katta yer mulklari, shu jumladan, ko‘p sonli dehqonlar mulklarini ham o‘z ichiga olgan.
- Mulk yerlari – xususiy mulk yerlari. U, asosan, hukmron sulola vakillari hamda yuqori tabaqa namoyondalari ixtiyoridagi mulklardir.
- Vaqf yerlari. Bu madrasa, masjid va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan daromadlar musulmon ruhoniylari manfaati uchun sarf qilingan.

Olinadigan soliqqa qarab yerlar 2 ga bo‘lingan:

1. “Mulki xiroj” - xiroj yerlar, ya’ni soliq olinadigan yerlar. Dehqonlar yashagan yerlar, ya’ni “mulki sultoniy” va “mulklar” ana shu toifaga kirgan. Bu yerni ishlovchilar hosilning 1/3 ni davlatga soliq sifatida topshirganlar.
2. Soliq to‘lashdan qisman va butunlay ozod etilgan yerlar. Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari hamda payg‘ambar avlodidan bo‘lgan sayidlar mulki hisoblangan.

Bu davrda ham dehqonlar ommasi turli soliqlar va to‘lovlardan tashqari davlat tomonidan belgilangan majburiyatlarni bajarishga jalb

www.nitropdf.com

Durdona

qilingan. Suv inshootlarini tozalash, ta'mirlash, to'g'onlar, ko'priklar, yo'llar qurish shular jumlasidan edi. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning ko'pchiligi kadivorlar, ya'ni, yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda "sherik" yoki "barzikor", Xurosonda esa "akkor" deb atalgan. Bu davrda yirik mulkdorlar kadivorlardan ko'ra barzikorlarga yerlarini ijaraga berib ishlatishni o'zlari uchun afzal bilganlar.

Mahalliy feodallar, saroy ayonlarining xalqqa o'tkazgan zulmlari, ularning hokimiyat talashib olib borgan o'zaro urushlari, oddiy mehnatkash ommasining zulmga qarshi harakatlari – somoniylar sulolasi hukmronligining ham inqiroziga sabab bo'ldi. Ayniqsa, 961-yilda Buxoroda oddiy novvoy Abubakr boshchiligida bo'lib o'tgan va hokimiyatga dahshat solgan xalq qo'zg'olonlari somoniylar davlati obro'siga putur yetkazdi, uni zaiflashtirdi. Ayni paytda Xurosonning ko'pchilik aholisi somoniylarni quvvatlamay qo'ydi. X asr o'rtalarida Yettisuv va Qashqarda yashovchi Qarluq, chig'il va yag'mo qabilalarining ijtimoiy–iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Avvaldan, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan bu qabilalar endi o'troq hayotga o'ta bordi va dehqonchilik bilan shug'ullana boshladi. Shaharlar yuzaga keldi, yana bu davrda Issiqko'l janubi va Qashqarda yashagan yag'molarning o'zlaridan shimolda yashayotgan chig'il qabilalari bilan yaqinlashuvi tezlashdi. Ular Yettisuvdagi Qarluqlarni uyushtirib, o'zlariga bo'ysundirdilar. Yag'mo urug'idan chiqqan, o'z qavmi bilan islomni qabul qilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon (Bug'raxon) 942-yili Bolasog'un hokimini mag'lub etib, o'zini xoqon deb atadi. Demak, Qoraxon davlati Yettisuv hududida Qarluq davlati o'rnida tashkil topdi. Bu davlatning vujudga kelishida chigillar, tuxsilar, arg'ular, yag'molar, turgashlar, qipchoqlar, yabaqular, qaylar, o'g'uzlar, qirg'izlar singari urug'-qabilalar muhim rol o'ynagan. Bu davlatga yuqorida qayd etilgan Sotuq Abdul – Karim Qoraxon asos solgan. Xoqon nomiga ko'ra Qoraxoniylar davlati deb nomlangan. U o'zini Afrosiyob (Alp Er To'nga)ning avlodi deb hisoblar edi. "Qora" iborasi qadimgi turkiy tilda "buyuklik", "ulug'lik" ma'nolarini bildirgan. Odatda Qoraxoniylar hukmdorini "tamg'achxon", ya'ni, "xonlar xoni" deb yuritgan. Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'linib ketdi. Birining poytaxti Bolasog'un bo'lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo'lgan xoqon tomonidan boshqarilgan. Ikkinchi davlatning poytaxti

www.nitropdf.com

Durdona

Taroz, keyinchalik Qashqar bo‘lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar somoniylar davlatidagi ichki nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Hasan Bug‘roxonning 992-yili somoniylarga qarshi harbiy yurishi oldidan somoniylar lashkarboshisi Abuali Simjuriy u bilan muzokara olib borgan. Somoniylarning boshqa lashkarboshilaridan Balx hokimi Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug‘roxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo‘lishiga qaramasdan taslim bo‘ldi. Iloq hokimi Mansur ibn Ahmad esa xoqonga tobelik bildirib, uning nomiga pul zarb etadi. Shu bois Bug‘roxon 992-yilgi birinchi hujumdayoq Buxoroni egallashga erishadi. Lekin Bug‘roxon kasallangani tufayli Buxoroni tark etdi va yurtiga qaytish chog‘ida yo‘lda vafot etildi. Bundan foydalangan somoniylar vakili Nuh II ning o‘g‘li Nasr Somoniy Buxoro taxtini qayta egallaydi. Lekin Qoraxoniylar 996-yili Buxoroni to‘liq ishg‘ol qildi. Butun Movarounnahr Qoraxoniylar tasarrufiga o‘tdi. 1001-yildagi Mahmud G‘aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko‘ra Amudaryoning janubidagi barcha yerlar Qoraxoniylar qo‘liga o‘tgandi. Shu tariqa Somoniylar davlati o‘rnida ikkita turk davlati – Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davlatlari tashkil topdi. XI asr o‘rtalarida tamg‘ochxon unvonini olgan Qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr g‘arbiy Qoraxoniylar davlatining poytaxtini O‘zganddan Samarqandga ko‘chirdi. 1068-yilda Movarounnahrda Ibrohim ibn Nasr o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun bo‘lgan kurashlarda Shamsulmulk g‘alaba qozondi. 1080-yilda Shamsulmulk vafotidan keyin Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash yana avj oldi. Bundan foydalangan saljuqiylar sultoni Malikshoh 1089-yilda Movarounnahrga bostirib kirib, Buxoro va Samarqandni zabt etdi. Ahmadxon asirga olindi. Ahmad bilan sulh qilinib, uni o‘z taxtida qoldiradilar. Lekin uning saljuqiylarga itoatkorligi amirlar va ruhoniylar noroziligiga sabab bo‘ldi. Natijada Ahmadxon 1095-yilda o‘ldirildi. Undan keyin taxtga o‘tirgan Arslonxon (1102-1130) davrida Qoraxoniylar garchi yarim mustaqillik sharoitida siyosat yurgizgan bo‘lsalar ham, Samarqandning obodonligi bo‘yicha ko‘rinarli ishlar qilindi, lekin Arslonxon siyosatidan harbiy qo‘mondonlar va ruhoniylar norozi edilar. Arslonxon sog‘ligi yomonlashgani uchun hokimiyat uning o‘g‘li Nasrga o‘tdi. Lekin fitnachilar Nasrni o‘ldiradilar. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqirdi. Bundan foydalangan Sanjar 1130-yilda Samarqandni egalladi. XII

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

asr boshlarida Qoraxitoylar Bolasog‘unni egalladilar. 1138-yilda Qoraxitoylar Sulton Sanjarning qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xo‘jand yaqinida mag‘lub etdi. Shahar talanib, katta tovon undirildi. Lekin shahar bosib olinmadi. 1141-yilda Qoraxoniylar yana Movarounnahrga bostirib kirdilar. Bu galgi jang Samarqand yaqinidagi Katvon cho‘lida bo‘ldi. Jangda Sulton Sanjar va Mahmudning birlashgan qo‘shinlari tor–mor qilindi. Qoraxitoylar Samarqand va Buxoroni egalladilar. 1212-yilda Alovuddin Muhammad Xorazmshoh g‘arbiy Qoraxoniylar davlatining xoqoni Usmonni o‘ldirib, Samarqandni o‘z mulkiga qo‘shib oldi. Qoraxoniylar davrida Movarounnahr markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruv tizimiga o‘tdi. Har bir viloyat ma’lum siyosiy mavqega ega holda xondan kichikroq unvonga ega elikxonlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi. Qoraxoniylarda ikki poytaxt Qashqar va Bolasog‘un sanalib, ulug‘xon ana shu shaqarlarning birida qarorgohda o‘tirgan. Ulug‘ xoqon yoki ulug‘ xon “xoqon ul-xoqon” degan nomda yuritilgan. Bu nom “tamg‘achxon” deb ham atalgan.

Xonlikdagi barcha yerlar tamg‘achxon tomonidan uning o‘g‘illari va qarindoshlari o‘rtasida taqsimlangan edi. Bu tartib doimo o‘zaro nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Yettisuvdan turib Movarounnahrni boshqarish qiyin edi. Qoraxoniylar davrida Samarqand elikxoni ancha kuchayib ketgandi. Saroyda somoniylar davlatidagidek, vazir, sohib barid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo‘lgan. Qoraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayx, sadrlar mavqei kuchli edi. Xoqon davlat boshlig‘i hisoblanib, bu lavozim merosiy sanalgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar faoliyat olib borgan: og‘ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi, biruk – mehmonlarni qabul qilish bo‘yicha mutasaddi, oshchi – xoqon oshxonasi boshlig‘i (bovarchi), bitikchi – munshiy, kotib – mirzo, qushchi – xoqon ovining tashkilotchisi. Xoqon harbiy qo‘shinlari “cherik” deyilgan. Unga sipohshi yoki sipohsolar qo‘mondonlik qilgan. Kichik zobitni “chovush”, sipohiylar to‘dasi qo‘mondoni “xaylboshi” deyilgan. Qo‘shin o‘nlik, yuzlik va mingliklarga bo‘lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo‘shini (harbiy lager) “xonto‘y” deyilgan.

Xonlik hududlari el va viloyatlarga bo‘lingan. Alohida mulklarning boshqaruvi, ma’muriy idoralar somoniy davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va martabalaridagi farq

www.nitropdf.com

Durdona

katta emas edi. Ijtimoiy tuzumda mavqei baland hisoblangan yirik zamindorlar – dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Sababi eng ta’sirli ko‘chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o‘troq aholi hududlarini ishg‘ol etishidir. Qoraxoniylar ilgarigi yirik yer egalarining mulklarini tortib olib, asli kasbi-kori ko‘chmanchi chorvachilik bo‘lgan o‘z amaldorlari va lashkarboshilariga bo‘lib bera boshladilar. Natijada ilgari gullab yashnagan vohalar xaroblashib, chorva yaylovlariga aylantirildi. Shu boisdan bo‘lsa kerak Yusuf Xos Hojib Bolasog‘uniy o‘zining 1069-yilda yozilgan “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltuvchi bilim”) asarida Tamg‘achxonlardan biriga nasihat tariqasida fikr bildiradi. U jamiyatning asosiy kuchlari bo‘lgan dehqonlar, hunarmand, kosiblar, olim-u donolar va savdogarlar ko‘chmanchi chorvadorlarga nisbatan jamiyat uchun foydaliroqdir, degan xulosa chiqaradi.

Movarounnahrda sodir bo‘lgan o‘zgarishlardan yana biri shuki, bu davrga kelib uzoq davom etgan etnik jarayonlar natijasida o‘zbeklar xalq sifatida shakllandi.

Xorazm somoniylar davrida ularga tobe edi. Xorazm davlati o‘z mustaqilligiga g‘aznaviylar va saljuqiylar hukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. 996-yilda Shimoliy Xorazm shohi Ma’mun ibn Muhammad (995-997) ikki qismga bo‘lingan o‘lkani birlashtirib, Xorazmshoh unvonini oladi va Urganchni o‘z poytaxtiga aylantiradi.

X asr ikkinchi yarmidan G‘azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylanadi. G‘aznaviylar davlatiga 962-yilda dovyurak turk qo‘mondoni Sabuqtegin asos solgan. Bu davlat uning o‘g‘li Sulton Mahmud (998-1030) davrida musulmon dunyosining eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi. Mohir siyosat arbobi Mahmud Qoraxoniylar bilan bo‘lgan kelishuvga binoan o‘zining shimoliy chegaralarini aniqlab, g‘arbda Kaspiygacha bo‘lgan hududlarni rasmiy jihatdan mustahkamlab oldi. Shu tariqa uning davlati tarkibiga hozirgi Afg‘oniston, O‘rta Osiyoning katta qismi, Shimoli-Sharqiy Eron va Shimoliy Hind yerlari kirgan. Mahmud G‘aznaviy temir intizomli, yaxshi harbiy tayyorgarlik ko‘rgan, zamonaviy qurollangan katta qo‘shin tashkil qilgan. Unga tayanib, ko‘plab istilochilik yurishlarini uyushtirdi va katta boyliklarni qo‘lga kiritdi. Jumladan, u Shimoliy Hindistonga 17 marta Harbiy yurishlar uyushtirgan. 1019-yilda Kanauja shahrini zabt etdi. 1010-1015 yillarda Xurosonning G‘ur viloyati ham unga taslim bo‘ldi. Mahmud G‘aznaviy Xorazmning

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

moddiy boyliklari va madaniy salohiyatini e'tiborga olib, Xorazm shohini o'ziga tobe etish maqsadida o'z singillarini Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (997-1009), uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1016)ga uzatdi. Ma'mun ibn Ma'mun shohligining so'nggi yillarida Mahmud G'aznaviyning Xorazmga tazyiqi kuchaydi. 1017-yilda shohning Xozaraspda turgan qo'shinida Ma'munga qarshi fitna uyushtirilib, suiqasd qilinadi. Isyonchilardan o'ch olish bahonasida Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirib, uni egallaydi. Xorazmda o'z odami Oltuntoshni noib qilib qoldiradi. Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng (1030) uning o'g'li Ma'sud davrida (1030-1041) bu davlat ichki ziddiyatlarning kuchayishi va saljuqiy turklarning ketma-ket hujumlari, ayniqsa, 1040-yildagi Dandanakondagi zarba natijasida o'zini o'nglab ola olmadi. Nihoyat, 1043-yilda Xorazmni saljuqiylar bosib oldi. Saljuqiy sultoni Malikshoh (1072-1092) o'z tashtdori Anushteginni 1076-yilda Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Saljuqiylar davlati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi va X asr o'rtalarida Orolbo'yi va Kaspiybo'yi hududlarida yashagan o'g'uzlar ittifoqi negizida shakllangan edi. Uning dastlab poytaxti Sirdaryo etaklaridagi Yangikent edi. O'g'uzlar aslida 22-24 qabiladan iborat bo'lgan. Unga chovdir, chandir, sireli, ichdir yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi kabi qabilalar kirgan. O'g'uzlarning muayyan sabablar bilan hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tib, islomni qabul qilgan va o'sha joydagi yerli aholi bilan singishib ketgan qismi turkmanlar nomini olgan.

O'g'uzlarning yobg'usi (yetakchisi) Saljuqbek Saljuqiylar davlatiga asos solgan. Uning avlodlari – To'g'rulbek, Chog'irbek va Shakarbeklar bu davlatni buyuk saltanat darajasiga ko'tardilar. O'g'uzlar turli xalqlarning, chunonchi o'zbek, turkman, turk, gagauz va boshqa xalqlarning etnik shakllanishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatganlar. Ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lgan o'g'uz-turkmanlar XI asr o'rtalariga qadar Qoraxoniylar va g'aznaviylar hukmdorlari bilan kelishuv asosida bu davlatlarga qarashli turli hududlarda o'z ko'ch-ko'roni, chorvasi bilan ko'chib yurganlar. Ba'zi hollarda mahalliy aholi bilan kelisha olmay ularga hujum uyushtirib, talonchilik va bosqinchilik bilan ham shug'ullanganlar. G'aznaviylar roziligi bilan Niso, Farova, Dehiston, Obivard hududlarida joylashgan turkman o'g'uzlari To'g'rulbek boshchiligida tez orada katta kuch bo'lib birlashib, G'azna davlatiga ham jiddiy xavf sola boshlaydi. To'g'rulbek qisqa vaqtda Xuroson yerlarini ishg'ol qildi. 1040-yilda

www.nitropdf.com

Durdona

Saraxs va Marv o‘rtasidagi Dandanakonda qaqshatkich zarbaga uchragan g‘aznaviylar hududlari ham saljuqiylar tasarrufiga o‘tdi. To‘g‘rulbek Saljuqiylar davlatining boshlig‘i (1038-1063) sifatida istilochilik yurishlarini g‘arb tomonga davom ettirib, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Kurdiston, Qo‘histonni zabt etdi. 1055-yilda xalifalik poytaxti Bog‘dodni o‘ziga bo‘ysundirdi. Ray shahri (Eron) uning poytaxti edi.

Saljuqiylar davlati, ayniqsa, Sulton Sanjar (1118-1157) davrida o‘z hududlarini kengaytirdi. Bu davrda Xorazm ham saljuqiylar nomidan boshqarildi. Qoraxoniylar xoni Arslonxon ham Sulton Sanjar bilan hisoblashishga majbur bo‘lgan. Biroq 1141-yilda Katvon cho‘lida Qoraxoniylar bilan bo‘lgan katta to‘qnashuvda saljuqiylar qaqshatqich zarbaga uchragach, ularning hukmdorlari ham inqiroz tomon yuz tutdi. Sulton Sanjar vafotidan keyin (1157) saljuqiylar davlatining Movarounnahrdagi ta’siri amalda barham topdi.

Xorazmda anushteginlar sulolasining mustahkamlanishi, o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, biroq uning butun hukmronlik davri saljuqiylar ta’siri doirasida o‘tdi. Shuning uchun ham Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi o‘rni va mavqei ko‘proq uning o‘g‘li Otsiz (1127-1156) hamda anushteginiylarning keyingi avlodlari: El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200) va Alavuddin Muhammad (1200-1220) davrlarida har jihatdan ko‘zga tashlanadi. So‘nggi hukmdorlar Takash va Muhammad Xorazmshohlar davriga kelib, Xorazm davlati O‘rta asrlar davridagi eng qudratli saltanatga aylanadi. Ayniqsa, Otsiz hukmronligi davrida Xorazm saljuqiylarga bo‘lgan tobelikdan, Qoraxitoylarga 30 ming dinar to‘lash majburiyatidan ozod bo‘ldi. Bu Xorazm mustaqilligini ta’minlashda juda katta qadam edi. Hattoki, Otsiz o‘z hududini kengaytirishga ham harakat qildi. 1141-yilda Qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o‘rtasidagi qonli to‘qnashuv va unda saljuqiylar mag‘lubiyatidan foydalangan Otsiz Xuroson yerlarini, Marv va Nishopur shaharlarini egalladi.

Otsizning vorisi El Arslon ham mamlakat mustaqilligini ta’minlash yo‘lida Qoraxitoylar bilan jang olib bordi. El Arslon vafotidan foydalangan Qoraxitoylar Xorazm hududiga bostirib kirdilar va uni o‘lpon to‘lashga majbur qildilar. Ammo Xorazm taxtini egallagan Takash (1172-1200) o‘z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo‘ldi 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

shaharlarini bosib oldi. 1194-yilda saljuqiylar sultoni To'g'rul II ta zarba berib, Eronni egalladi. Uning yirik va katta markazlashgan hokimiyat boshqaruviga ega bo'lgan. Unda oliy idora – devon mavjud bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosati vazir tomonidan amalga oshirilgan. Hokimiyatning muhim bo'g'inlarida Takashning xotini – Turkon xotinga qarashli qipchoq qavmlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Xorazm davlatining eng yuksalgan cho'qqisi ham, uning inqirozi ham shu so'nggi Xorazmshoh nomi bilan bog'liq. Binobarin, Muhammad Xorazmshohning hukmdorlik davrining murakkabligi va ziddiyatliligi hamda fojialiligining boisi ham shundadir. Negaki, shuhratparastlik va jahongirlikka nihoyatda o'ch bo'lgan Sulton Muhammad o'zining 20 yillik hukmronlik davrida, bir tomondan to'xtovsiz jangu jadallarda bo'lib, qanchadan-qancha hududlarni bosib olishga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning davrida katta saltanat turli ichki va tashqi sabablarga ko'ra yemirilish va chuqur tushkinlik holatini boshidan kechirdi. Bu esa oqibatda xorazmshohlar davlatining qulashi va mo'g'ul istilosiga duchor bo'lishiga olib keldi. Dastlab Muhammad Xorazmshoh katta qo'shin tuzib, zafarli harbiy yurishlar qildi, o'z davlatining hududlarini kengaytirdi. Janubda Hindikush tog'larigacha, janubi-g'arbda Fors qo'ltig'i, xalifalik davlati chegaralarigacha, Sharqda Yettisuvga qadar bo'lgan hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1210-yilda Talos vodiysida Qoraxitoylar bo'lgan hal qiluvchi jangda ularni ham yengib, o'z qudratini namoyon etdi. Ushbu g'alabalardan so'ng Xorazmshoh o'ziga ortiqcha bino qo'ydi, o'zini "Iskandari soniy" ("ikkinchi Iskandar"), "Xudoning yerdagi soyasi" deb atashgacha borib yetdi. Biroq aslida esa uning saltanati "usti yaltiroq, ichi qaltiroq" edi. Buning sababi birinchidan, oliy hokimiyat chuqur ziddiyatga botgan edi. Hukmdorlar bilan uning hokimiyatparast, katta siyosat mavqeiga ega bo'lgan uning onasi Turkon xotin va uning turkiy zodagonlaridan iborat muxolifotchi kuchlari o'rtasidagi ittiloflar kuchayadi. Ikkinchidan, markaziy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar, beklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, ularning o'zboshimcha xatti-harakatlarining kuchayib borayotganligi saltanatni inqirozga tortmoqda edi. Buning ustiga hukmron tizimdan norozi bo'lgan keng xalq ommasining g'alayonlari faollashib bormoqda edi. 1206-1207 yillarda Buxoroda yuz bergan Malik Sanjar boshchiligidagi, 1212-yilda Samarqandda ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'olonlari xorazmshohlar davlatining halokatga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

borayotganligidan dalolat berdi. Muhammad Xorazmshohning kaltabin siyosati bosqinchilik yurishlari xalqaro maydonda ham katta norozilikka sabab bo‘ldi, tobora yakkalanib bordi. Hatto butun musulmon olamida ham bu mamlakatga nisbatan nafrat kuchaydi. Xalifalik davlati Sharqdagi qudratli mo‘g‘ul davlati Chingizxon bilan birlashib, Xorazmshohga zarba berish to‘g‘risida diplomatik yo‘l bilan muzokaralar olib bordi. Bularning hammasi oxir-qibatda xorazmshohlar davlatining chuqur ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy inqirozga uchrashiga olib keldi. Bu esa Chingizxon boshchiligida mo‘g‘ul bosqinchilarining Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirishi va uni ishg‘ol etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Xorazmshohlar davlatining siyosiy tuzumi va boshqaruvi ham o‘rta asr davriga mos bo‘lgan. Xorazmshohlar markaziy davlat boshqaruvi “al–majlis ul oliy al faxri at-toji” deb nomlangan bo‘lib, unga vazir raislik qilgan. Vazir bevosita Xorazmshohga bo‘ysunar va hukmdorning bosh maslahatchisi edi. Vazirning vazifalari quyidagilar iborat iborat bo‘lgan:

- ashab ad-davonin, ya’ni, devon amaldorlarining boshlig‘i. U kishilarni yuqori mansab sohiblarini ishga ta’minlash va bo‘shatish bilan shug‘ullangan;
- davlat amaldorlariga nafaqa belgilash;
- soliq va xazinani nazorat qilish;
-hukmdorni xalqaro aloqalar, marosimlarda rasmiy ravishda tanishtirish hamda raiyat bilan munosabatlarda vositachilik qilish;
- hukmdorga muntazam hamrohlik, ba’zi paytlarda qo‘shin yuborish va ularga boshchilik qilish.

Vazirlarda sadr, dastur, xojayi buzurg singari unvonlar bo‘lgan. Ular asosan arab-fors amaldorlari muhitidan tanlangan va arab hamda fors tili, ma’muriy ishdagi qobiliyatlar, saroy odobi singari bilimlarga ega bo‘lishligi hal qiluvchi rol o‘ynagan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari, asosan, Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Hirotdan chiqqan shaxslar bo‘lgan.

Xorazmshohlar davlatida, uning boshqaruvi quyidagi mansab va lavozimlar bo‘lgan:

- Hojib ul-kabir – hukmdor shaxsi bilan bog‘liq masalalar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo‘lgan. Ular eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning harakatlarini nazorat qilgan. Hojib ul-kabir bilan bir qatorda Hojib ul-xos ham bo‘lgan;

- ustozdor – barcha xo‘jalik ishlar: otxona, oshxona, novvoy, saroy xizmatkorlari ustidan idora ishlarini amalga oshirgan saroy a’yoni. U bundan tashqari, saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirgan. Mamlakat xazinasi va boyliklarining ma’lum qismiga egalik qilar edi. Shu pul hisobidan novvoy, oshpaz, otboqar va boshqa saroy ishlari hamda yumushlariga sarflanar edi. Xazinadan chiqadigan sarf-xarajatlar uchun shohga hisob berilgan;
- amir oxur – otxona boshlig‘i lavozimi sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxo‘rlar harbiy yurishlarda faol ishtirok etganlar;
- amir-shikor – sultonning ov ishlari boshlig‘i;
-tashtdor – sultonning yuvinish ishlarida zarur bo‘lgan ashyo va narsalarni saqlovchi shaxs. Uning qo‘l ostida g‘ulomlar bo‘lgan. Sultonning ayrim yashirin amallari borligi uchun ham tashtdor hukmdorga eng yaqin kishi hisoblangan. Tashtdorlar malik unvoni sohibi ham bo‘lishgan. Ayrimlari hatto o‘n ming askarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarda qatnashganlar;
- sharobdor – sulton sharobxonasining boshlig‘i. U amirlar orasidan tayinlangan;
- hissador – saroy a’yoni bo‘lib, hafta davomida sultonga kelgan iltimosnoma va shikoyatlarni jamlab, ularni juma kuni hukmdorga topshirgan va so‘ngra javobini zulm ko‘rganlarga yetkazgan;
- choshnigir – bu ko‘p hollarda bakovulning sinonimi, ya’ni, sultonga uzatilajak taomni sinab ko‘rgan;
- davotdor – sultonning kotibi;
- farrosh – farroshxona boshlig‘i;
- amir ul-alam (alamdor) – sulton tug‘ining sohibi.

Ma’lumotlarda qayd qilinishicha, Xorazmshohlar davlatining aholisi va uning tarkibidagi turli qatlamlari orasida sayyidlar, imomlar va olimlar, qozilar va hakimlar, tasavvuf vakillari, qishloq, kasaba, urug‘-qabila boshliqlari, oqsoqollar, amaldorlar va sipohiylar, islom dini uchun kurashuvchi g‘oziylar bo‘lganki, hukmdorlar ularni asosiy tayanch sifatida foydalanganlar. Mamlakat mehnatkashlarining qatlami va martabalar o‘rtasidagi farqlar somoniylar davlatidagi singari edi. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda tashkil topgan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

markazlashgan davlatlar davrida Samarqand, Buxoro, Urganch, Marv, Termiz va ko‘plab shaharlar ma’muriy va madaniy markazlarga aylandi. Bu shaharlarda ko‘rkam madrasalar, masjidlar, maqbaralar va karvonsaroylar qurildi. Ularga X asrda barpo etilgn Ismoil Somoniy maqbarasi, Samarqand yaqinidagi Arabota maqbarasi, XI asrda Marvda barpo etilgan Sulton Sanjar va boshqa o‘nlab me’moriy inshootlarni aytish mumkin. Bu davrda Markaziy Osiyoda kulolchilikda ijobiy siljishlar ro‘y berdi. Ayniqsa, badiy kulolchilik tez taraqqiy etdi.

4-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (3-QISM)

VI asrning birinchi yarmida Arabiston yarimoroli asosini ko‘chmanchi seliy qabilalari tashkil etgan Arab xalifaligi paydo bo‘ladi. Arabiston yarim orolida islom dinini yoyish orqali mustahkamlangan bu davlat VII asrning boshlaridan boshlab o‘z hududlarini G‘arb va Sharq tomonga kengaytirish harakatini boshladi. Xususan, 642-yilda Naxavanddagi jangda Eron sosoniylari tor-mor etilgach, O‘rta Osiyo yerlariga hujum uchun imkoniyat yaratiladi.

Arablarning O‘rta Osiyoga dastlabki yurishlari Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida 651-yilda Marvni egallash bilan boshlandi. Arablar Amudaryo (Jayxun)dan shimolda joylashgan yerlarga “Movarounnahr”, ya’ni, “daryoning ortidagi yerlar” deb nom berishdi. Narshaxiy va arab muallifi Yoqut bergan ma’lumotlarga ko‘ra, Muhammad payg‘ambarning shaxsan o‘zi Movarounnahrni bo’ysundirishni muqaddas deb hisoblagan va islomga e’tiqod etuvchilarni bu muqaddas ishga da’vat etgan.

652-yilda arablar Balx shahrini egallashga muvaffaq bo‘ldilar. O‘sha yili Amudaryodan o‘tib Movarounnahrga hujum qilish rejasi arablar uchun muvaffaqiyatsiz tugaydi. Ammo Xuroson noibi Abdulloh ibn Amir 652-yilda Chag‘aniyonni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa ilk bor Movarounnahr yerlarini egallash edi. 654-yilda Sug‘ddagi Maymurg‘ qal’asiga arablarning birinchi hujumi bo‘ladi. 657-yilda arablar Chag‘aniyonga qayta yurish qilib eftalitlarga kuchli zarbalar berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan edilar. Manbalarning ma’lumot berishicha,

www.nitropdf.com

Durdona

Movarounnahrga yurish qilishdagi harbiy-siyosiy tayyorgarlikdan biri, xalifalikning Basra va Kufa shaharlaridan 50 ming arab oilasi ko‘chirib keltirilishi va Xurosonning turli shaharlariga garnizon sifatida joylashtirilishi bo‘ldi.

673-yilning oxiri 674-yilning boshlarida arablarning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod Movarounnahrga hujum qilib Romiton va Poykandni egallaydi hamda Buxoro shahrini qamal qiladi. Ammo buxoroliklar va turklarning ittifoqchi qo‘shinlaridan qattiq qarshilikka uchragach, sulh tuzishga majbur bo‘ladi.

676-yilda Xurosonning yangi noibi Said ibn Usmon Buxoroga yurish qilib, Buxoro malikasi Xutakxotun qo‘shinlarini tor-mor etadi va Samarqandga hujum boshlaydi. Ammo bir oy davom etgan bu urushda Sug‘diylar arablarga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Natijada arablar sulh to‘zib orqaga qaytadilar va yo‘l-yo‘lakay Termizni talon-taroj etadilar. 683-yilda xalifa Yazid vafot etganidan so‘ng xalifalikda toj-taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Bunday vaziyatda arablar yana Movarounnahrga hujum qilishdan deyarli to‘xtab, o‘z ichki nizolari bilan band bo‘lib qoladilar. Xalifa Abdumalik ibn Marvon (685-705 yy.) davrida o‘zaro ichki kurashlarga chek qo‘yilib arablar Movarounnahrga jiddiy harbiy harakatlar boshladilar.

Umuman olganda, arablarning yarim asr davomida Xuroson noiblari Abdulloh ibn Amir, Ubaydulloh ibn Ziyod, Sayd ibn Usmon, Salmo ibn Ziyod qabilar tomonidan uyushtirilgan hujumlar talon-taroj qilish, o‘lkadagi harbiy-siyosiy vaziyatni o‘rganish, boyliklarini olib ketish maqsadida uyushtirilgan edi. 705-yilda Qutayba ibn Muslim Xuroson noibi etib tayinlangach, Movarounnahrni butunlay bosib olish harakati boshlanadi. O‘rta Osiyodagi siyosiy parokandalik va kichik davlatlarning bir-birlari bilan tez-tez nizolarga borib turishi Qutaybaga nihoyatda qo‘l kelgan edi. 706-yilda u katta qo‘shin bilan Movarounnahrga yurish boshladi va Poykand shahri 15 kunlik qamaldan so‘ng egallandi.

Arablarga qarshi turklar, Sug‘diylar umuman, mahalliy aholi o‘zaro ittifoq tuzishga erishgan bo‘lsa-da, Qutayba nayrang yo‘li bilan bu ittifoqni bo‘zishga muvaffaq bo‘ldi va 708-709 yillarda Buxoro va uning atroflariga bir necha marta yurishlar qilib, Buxoroni zabt etdi. Qutayba 710-yilda Shuman, Nasaf va Keshni egalladi. 710-712 yillarda Samarqand ixshidi Tarxun va Xorazmshoh Xurzod Qutayba bilan tinchlik sulhi to‘zib unga yirik mikdorda boj to‘laydilar. Ammo

www.nitropdf.com

Durdona

Samarqand aholisining tovon to‘lashga qarshilik ko‘rsatishi, norozilik natijasida Tarxunning taxtdan ketishi va o‘limi, Sug‘d podshosi va Samarqand afshini sifatida Gurakning taxtga o‘tirishi arablarning Samarqandga hujumlari uchun bahona bo‘lgan edi. Shuningdek, Qutayba “Tarxunning o‘limi uchun qasd olaman”, deb e’lon qildi va Samarqandga hujum uyushtirib, 712-yilda uni bosib oldi. Mug‘ tog‘i hujjatlarining ma’lumot berishicha, 712-713 yillarda Sug‘d, Choch, Farg‘ona va Panjikent hokimlari arablarga qarshi ittifoq to‘zib vaqtincha g‘alabalarga erishgan bo‘lsa-da, Qutayba bu ittifoqka rahna solib, ularni tor-mor etishga muvaffaq bo‘ldi. 714-yilda Qutayba ibn Muslim turklardan kelayotgan yordam kuchini to‘xtatib qo‘yish maqsadida Choch vohasiga qayta bostirib kirdi va Isfijobni egalladi. 715-yilda Qutayba Farg‘onaga ikkinchi marotaba yurish uyushtiradi. Shu yili Qutayba o‘ziga dushman bo‘lgan xalifa Sulaymonga qarshi isyon ko‘taradi va mag‘lubiyatga uchrab, o‘ldiriladi. Shunday qilib, arablar qisqa muddat ichida Movarounnahr hududlarini bosib oldilarki, buning sabablari quyidagicha edi:

1. O‘lkada hukm surayotgan siyosiy tarqoqlik va mahalliy hukmdorlarning o‘zaro kurashlari arablarga juda qo‘l kelgan edi. Chunki parokanda va siyosiy jihatdan tarqoq hududlarni alohida-alohida zabt etish Qutayba uchun qulay edi.
2. O‘zaro birlashish harakatida bo‘lgan va ittifoqchilik uchun harakat qilgan mahalliy hokimlar orasiga Qutayba turli nayranglar bilan rahna solishga erishgan edi.
3. Arablar o‘zaro kurashayotgan hokimlarning biriga ikkinchisini yengishi uchun yordam ko‘rsatib, keyin ularning har ikkisini ham birin-ketin bo‘ysundirdilar. Misol uchun, Sug‘dni zabt etishda Qutayba arab qo‘shini bilan bir qatorda Xorazm, Buxoro va Nasafning kuchlaridan foydalangan edi.
4. Arablar Movarounnahrga qadar juda katta hududlarni bosib olgan bo‘lib, katta boylik va harbiy zahiralarga ega edilar. Arablar qo‘shiniga muntazam ravishda bosib olingan yerlar va ichki viloyatlardan yangi harbiy kuchlar safarbar qilinib turilar edi.

Xalq ozodlik harakatlari. Arablar olib borayotgan bosqinchilik siyosatiga qarshi birinchi bo‘lib, 720-yilda Sug‘d aholisi bosh ko‘targan va bu harakatda Samarqand ixshidi Gurak va Panjikent hokimi Devashtichlar boshchilik qiladilar. Bu harakat umumxalq qo‘zg‘oloniga aylanib ketganligi bois, Xuroson noibi Sayd ibn

www.nitropdf.com

Durdona

Abdulaziz bu qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'la olmadi. 721-yilda xalifa Yazid ibn Abdumalikning tavsiyasi bilan Sayd ibn Amir al-Xaroshiy Xuroson noibi etib tayinlanadi. U qo'zg'olonchilar bilan muzokaralar olib borishi natijasida qo'zg'olonchilarning bir qismi arablar tomoniga (Gurak boshchiligida) o'tgan bo'lsa, bir qismi shafqatsizlarcha bostiriladi.

VIII asrning 2-choragidan boshlab arab xalifaligida ikkita sulola – Ummaviylar va Abbosiylar o'rtasida kurash avj oldi. Ma'lumki, ulkan xalifalikni 667-yildan boshlab Ummaviylar sulolasi boshqarib kelar edi. Bu sulola davrida juda ko'p siyosiy o'zgarishlar, diniy mazhablar, guruhlarning kuchayishi, boshqarishdagi nomutanosiblik, mustamlakachilik siyosati, zo'ravonlik, adolatsizlikning avj olishi ro'y berdiki, bu narsa sulolaning keyingi davrida uning faoliyatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. 718-yildan boshlab Muhammad payg'ambarning amakilari Abbosning tarafdorlari – Abbosiylar o'z g'oyalarini targ'ib qila boshladilar. Ularning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim va uning harakati muhim ahamiyat kasb etdi. 749-yilda Abu Muslim qo'shini xalifalikning markaziy viloyatlariga yurish qilib, Iroq va Jazoirda Ummaviylarga hal qiluvchi zarbalar berdi. Qo'zg'olonchilar poytaxt Damashqni ham qo'lga olib, xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardilar hamda Abbosiylardan bo'lgan Abo'labbos Safaroh (749-754) taxtga o'tiradi. Ammo hokimiyat tepasiga boshqa sulola vakillari kelsa ham arablarga qarshi kurash to'xtamadi.

751-yilda Buxoro shahrida Sharik ibn Shayxulmaxr boshchiligida qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar shialik talablarini ilgari surib, Ali avlodidan xalifa tayinlash shiorini ko'tarib chiqishadi. Bu qo'zg'olon Abu Muslim jo'natgan Ziyod ibn Solih boshchiligidagi qo'shinlar va buxorxudot Qutayba ibn Tug'shod yordamida bostiriladi. 755-yilda Abu Muslim xalifa Abu Ja'far tomonidan Bag'dodda xiyonatkorona o'ldiriladi. Uning do'sti va safdoshi Sumbad o'sha yiliyoq do'sti uchun o'ch olish maqsadida qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olon tez orada Xuroson va Tabaristonga yoyiladi. 70 kun davom etgan qo'zg'olon xalifa qo'shinlari tomonidan qattiqqo'llik bilan bostiriladi.

VIII asrning 70-80-yillarida Movarounnahrda juda ulkan xalq qo'zg'oloni ko'tariladi. Tarixda "oq kiyimlilar" qo'zg'oloni deb nom olgan bu harakatga asli kelib chiqishi Marv atroflari yoki Balxdan bo'lgan "Muqanna" taxallusli Hoshim ibn Hakim boshchilik qiladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Qo‘zg‘olon 776-yilda boshlanib, o‘sha yili Muqanna Amudaryodan o‘tib Kesh viloyatiga keladi va Kesh yaqinidagi Sanam qal’asini o‘ziga qarorgoh qiladi. Qo‘zg‘olon tez orada Sug‘d, Iloq Shosh, Naxshab va Chag‘aniyon hududlariga yoyiladi. Arab qo‘shinlari bir necha yil davomida Muqanna qo‘zg‘oloniga qarshi qaqshatqich kurash olib borib, VIII asr 80-yillari boshlarida qiyinchilik bilan qo‘zg‘olonni bostirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Soliq siyosati. Arablar O‘rta Osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shahar va aholi joylarida o‘z qo‘shinlarini joylashtirdilar. Bu harbiy kuchlar o‘z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligi tasarrufiga o‘tgan Movarounnahr hududida ko‘pgina yirik yer egalari – dehqonlarning mavqei avvalgi holaticha saqlanib qoldi. Ular siyosiy jihatdan xalifa va uning noibiga buysunar edilar.

Butun VIII asr davomida arab zodagonlarining dehqonlar bilan til topishuv hollari kuchayadi va aynan mana shu davrda yirik dehqon urug‘-aymoqlari qo‘li ostidagi yer-mulklarning yuqori arab harbiy mulkdoriga o‘tishi ro‘y beradi. Arab qo‘shini tarkibiga mahalliy aholi ichidan ko‘plab erkaklar majburan safarbar qilindi. Harbiy harakatlar natijasida aholining bir qismi halok bo‘ldi, bir qismi asirga olindi. Barcha shahar va qishloqlarda o‘z harbiy garnizonlarini joylashtirgan arablar, shu harbiy kuchlarga tayanib aholidan turli soliqlar undirishar, ularni turli jamoa ishlariga safarbar qilishar edi.

Yirik yer egalari o‘rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik arablarning aralashuviga sabab bo‘lar yoki mulkning bir shaxsdan ikkinchisiga o‘tishini ta’minlar edi. O‘rta asr mualliflari ma’lumotlariga ko‘ra, dehqonlar qo‘li ostida qishloq jamoalari bo‘lib, bu jamoadan yer olgan kishilar xiroj to‘laganlar. Dehqonlar mustaqil qo‘rg‘onlarda hayot kechirib, ularning yaxshi qurollangan harbiy bo‘linmalari bo‘lgan. Bunday bo‘linmalarning askarlari “chokarlar” deb atalgan. Dehqonlar xalifa noibining mahalliy aholi orasidan bo‘lgan vakiliga bo‘ysunadilar. Mehnatkash aholi, asosan kadivarlar, kashovarzlar hamda qo‘llar dehqonlarda mavjud bo‘lgan yer-mulklarning ma’lum ulushini ijaraga olib ishlashgan va buning evaziga soliq to‘laganlar. Dehqonlar orasida yer-mulk, shaxsiy uy-joy va qo‘rg‘onlar masalasida nizo va janjallar chiqib qolsa, muammoni xalifa hal qilgan. Har bir huquqiy muammo islom qonun-qoidalariga binoan ko‘rib chiqilgan.

www.nitropdf.com

Durdona

VIII asr o'rtalariga kelib, Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Viloyatlardagi hokimlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy-idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qurol qilgan edilar. Islom dinini qabul qilmagan zodagonlar o'z mol-mulklaridan mahrum etilar yoki katta miqdordagi tovon to'lar edilar.

Movarounnahr va Xurosonda arab bosqinchilariga qarshi tinimsiz davom etgan xalq harakatlari arab xalifaligining qudratiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Bunday harakatlar xalifalikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotini ma'lum darajada zaiflashtirib, o'z navbatida bu jarayonlar mahalliy zodagonlarning xalifalikdagi idora tizimiga kirib borishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan edi.

Ta'kidlash lozimki, Movarounnahrda arablar bosqinining ilk davridayoq boshlangan xalq harakatlari Muqanna qo'zg'oloni bostirilgach ham to'xtamasdan davom etaverdi. Misol uchun, 806-yilda Samarqandda Rofe' ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Shahardagi xalifaning noibi o'ldirilib, Samarqand bir muncha muddat qo'zg'olonchilar qo'lida bo'ldi. Qo'zg'olonning ko'lami asta-sekin kengayib unga Farg'ona, Xo'jand, Buxoro, Ustrushona, Xorazm, Chag'aniyon va Xuttalyon aholisi ham qo'shildi. Keng ko'lamda tus olgan bu qo'zg'olon faqat 810-yildagina, qo'zg'olon rahbari Rofe' ibn Lays xoinlik yo'lini tutib arablar tomoniga o'tganidan so'ng bostiriladi.

Undan keyingi yillarda ham goh Sug'dda, goh Ustrushonada, goh Farg'onada qo'zg'olonlar bo'lib, ular shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsa-da, bunday harakatlar xalifaning noiblari Movarounnahr va Xurosonni faqat zo'ravonlik va qurol kuchi bilan ushlab tura olmasliklarini ko'rsatdi. Bunday harakatlardan so'ng xalifaning noiblari mahalliy zodagonlarni boshqaruv tizimiga nisbatan keng miqyoslarda jalb etish choralarini ko'rdilar. Bunday siyosat yurgizish yo'li bilan Abbosiy xalifalari mahalliy zodagonlarning mustaqillikka bo'lgan intilishini sindirish va aynan mahalliy zodogonlar yordamida xalq harakatlarini bostirishni rejalashtirgan edilar. Aynan shuning uchun ham xalifa Mansur (754-775 yy) hukmronligi davridan boshlab va uning vorislari xalifa Mahdi (775-785 yy) va Xorun ar-Rashid

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

(786-809 yy) davrlarida Mavorounnahrning turli viloyatlarini asosan Barmakiylar va Somoniylar xonadonidan bo‘lgan, mahalliy zodagonlardan chiqqan vazirlar boshqarganlar. Ammo bu holat O‘rta Osiyoda xalifa hokimiyatini mustahkamlashga olib kelmay, aksincha, O‘rta Osiyoni arab hukmronligidan ozod etish uchun imkoniyatlar yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Ayni paytda Eronda va O‘rta Osiyoda shuubiylik (arablarga qarshi) harakati keng quloch yoydi. IX asrning o‘rtalaridan boshlab shuubiylik arablarga qarshi xalq harakatlarining mafkuraviy asosiga aylandi (bu harakat asosan qishloq aholisi orasida yoyilgan edi). Shuningdek, ushbu harakatga tayangan mahalliy zodagonlarning arab xalifaligidan mustaqil boshqaruvga intilishi tobora kuchayib bordi. Bunday intilish ayniqsa, Barmakiylar xonadoni orasida nihoyatda kuchli edi.

Tohiriylar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo‘jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar bunyod etib, suvdan foydalanishni yaxshilash choralarini ko‘rdilar. Abdulloh ibn Tohirning buyrug‘i bilan o‘lkadagi yirik qonunshunoslar sug‘orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to‘plami – “Kitob al-kuniy”ni tuzdilar. Ushbu qonunlar yuzlab yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tohiriylar shunday ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritganlarki, bu siyosat asosan aholining hukmron tabaqalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, bizga qadar saqlangan Tohir ibn Husaynning o‘g‘li Abdullohga yozgan xatida shunday deyiladi: “Shuni bilginki, boylik ko‘payib xazina to‘lib toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko‘payadi, ortib boradi, bu bilan xalq ommasining e’tibori qozoniladi, shu bilan xalq farovonligi ta’minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo‘ladi, shuhrat va qudrat bag‘ishlaydi, shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, yer solig‘ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo‘lasan va boyliging oshadi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

5-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (4-QISM)

IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi paydo bo‘ladi. Bu sulolaga Somon qishlog‘i (manbalarda – Balx yaqinida, Samarqand atroflarida, Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos soladilar. Yirik yer egasi bo‘lgan Somonxudot Ma’mun Xuroson noibligi davrida uning xizmatiga o‘tib tez orada e’tiborga tushadi. Somonxudotning o‘g‘li Asad hamda nabiralari ham Ma’mun saroyida xizmat qilishgan. Shaxsan Ma’munning buyrug‘i bilan Xuroson noibi Asadning o‘g‘illarini 820-yilda turli viloyatlarga noib etib tayinlaydi. Xususan, Nuh Samarqandni, Ahmad Farg‘onani, Yahyo Shosh va Ustrushonani, Ilyos Hirotni boshqara boshlaydilar.

Qoraxoniylar sulolasi o‘z hukmronligi davrida o‘z mulklarining sarhadlarini bir necha marta o‘zgartirganlar. Misol uchun, Movarounnahrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflarini egallagan bo‘lsa, XI asr boshlariga kelib esa, xoqonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Oradan ko‘p o‘tmay, ular Sharqiy Turkistonda Qashg‘arni va Xo‘jandni qo‘lga kiritdilar. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Har bir viloyat ma’lum siyosiy mavqega ega bo‘lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshqariladigan bo‘ldi.

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat qildilar. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo‘lgani kabi to‘g‘ridan-to‘g‘ri otadan o‘g‘ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o‘tgan. Ayrim olimlarning fikricha, Qoraxoniylarning butun urug‘i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo‘lib, sulolaning har bir a’zosi o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, umumsulola mulkining bir qismiga da’vo qila olar edi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug‘ a’zosi – ulug‘ xoqon, kichik xoqon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har qanday avlodiga o‘z hissasi ajratib berilar edi.

G‘aznaviylar davlati Movarounnahrdagi bosib olingan hududlarning cheklanganligi va nisbatan tarixan qisqa davr –

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Movarounnahrda bor-yo‘g‘i 40 yilga yaqin hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Chunki, G‘aznaviylar tarix sahnasiga chiqish davri – X asr oxiri XI asr boshlarida paydo bo‘lgan boshqa davlatlar – Saljuqiylar va Qoraxoniylar kabi o‘ta muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan voqea, nafaqat Movarounnahr, balki butun O‘rta Osiyoda turkiy davlatchilikning uzil-kesil qaror topganligini ko‘rsatadi. Shu bois, ushbu mavzuda G‘aznaviylar davlati tarixi haqida qichqacha ma’lumot berib o‘tish lozimdir.

Demak, G‘aznaning siyosiy markaz sifatida yuksalishi X asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. G‘aznaviylar sulolasining asoschisi Amir Nasiriddin ud-davla Sabuqtegin G‘oziy kelib chiqishiga ko‘ra turkiy qavmga mansub edi. Ayrim o‘rta asrlar manbalarida, xususan, XIV asrda yashab o‘tgan Muhammad Shabangaroyning “Majma al-ansab” nomli asarida berilishicha, Sabuqtegin Issiqko‘l bo‘yidagi hukmdori qarluq bo‘lgan Barsxon degan joyda tug‘ilgan. Yoshligida Sabuqtegin asir olinadi va to‘rt yil tuxsi qabilasida tutqunda bo‘lgach, uni Movarounnahrlik savdogarlarga sotib yuboradilar. V.V. Bartoldning fikriga ko‘ra, Sabuqteginni Somoniylar davlatining mansablar pog‘onasida ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Alptegin sotib oladi. Alptegin 963-yilda vafot etgan paytda u sotib olgan qo‘l Sabuqtegin katta nufuzga ega edi. Uning vafotidan so‘ng G‘aznada navbati bilan Amir Ishoq ibn Alptegin, Amir Bilgategin, Amir Piriy, Amir Sabuqteginlar hukmronlik qiladilar. 997-yilning boshida Sabuqtegin Somoniylar tomonidan G‘azna va uning atroflariga hokim etib tayinlanadi. Tarixiy manbalar Sabuqteginni G‘aznaviylar davlatining asoschisi sifatida ta’riflaydilar. 997-yilning oxirida Amir Sabuqtegin vafot etadi va uning kichik o‘g‘li Ismol taxtga o‘tirib, bor-yo‘g‘i 7 oy hukmronlik qiladi. 998-yilda o‘zining harbiy jasoratlari uchun Sayf ud-davla – “saltanat qilichi” degan nomga sazovor bo‘lgan, Sabuqteginning ikkinchi o‘g‘li ko‘pchilik tarixiy-ilmiy adabiyotlarda Mahmud G‘aznaviy deb yuritilgan Abulqosim Mahmud hukmronligi davrida (998-1030 yy) G‘aznaviylarning qudrati va shuhrati ortib, Buyuk G‘aznaviylar davlati barpo etildi. Mahmud hukmronligi davrida Xorazm, Xuroson, Seyiston, Qobul, G‘azna, Shimoliy Hindiston kabi viloyatlar G‘aznaviylar qo‘li ostida edi. Abulqosim Mahmud taxtga o‘tirgan yili xalifa Muqaddirdan Xurosonni boshqarish uchun yorliq hamda “Yamin ad-davla va amin

www.nitropdf.com

Durdona

al-milla" – "Saltanat tayanchi va musulmonlar jamiyatining ishonchli vakili" faxriy unvoni bilan taqdirlanadi.

O'z davlatini barpo etgan ko'chmanchi xalqlar davlatchiligi tarixida Saljuqiylar davlati muhim ahamiyatga egadir. Saljuqiylar sulolasi turkiy o'g'uz qavmining qiniq urug'i yoki qabilasidan chiqqan bo'lib, hozirgi Janubiy Qozog'iston hududlariga to'g'ri keluvchi Sirdaryoning o'rta oqimidan Talas vodiysigacha, Sirdaryoning qo'yi oqimlarida ko'chib yuruvchi etnik guruhlar bo'lgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu sulolaning paydo bo'lishi qiniq qabilasi vakili bo'lgan Saljuq nomi bilan bog'liq bo'lib, u X asrning o'rtalarida o'g'uzlar Yabg'usining xizmatida bo'lib, yirik harbiy unvon – "So'boshi" unvoniga sazovor bo'ladi. Bu haqda Mahmud Qoshg'ariy "Saljuq So'z boshi" deya ma'lumot beradi.

X asrning 61-62-yillarida o'g'uzlar Yabg'usi bilan kelisholmaslik tufayli (musulmon dinini qabul qilish va qilmaslik masalasida) qiniq qabilasi ajralib ketib, ularning bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlariga ko'chib ketadilar. Ikkinchi, katta qismi esa Samarqand va Buxoro o'rtasidagi cho'llarda, Nurota tog'lariga kelib o'rnashadilar. XI asrning boshlaridan boshlab qiniq qabilalarining o'troqlashuv jarayonlari kuchayib boradi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, 1025-yilda Movarounnahrdagi Saljuqning nabiralari Mahmud G'aznaviyga murojaat qilib, Shimoliy Xurosonga ko'chishni (4000 oila) so'raydilar. Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan shu yili Saljuqning nabiralari boshliq qiniq qabilalari Saraxs, Farova va Obivard atroflariga joylashib, bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga tezda aralashib ketadilar. Voqealarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Saljuqiylar bilan G'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar yildan-yilga jiddiylashib, oxir-oqibat yuqorida eslatilgan "Dandanakon" jangi kelib chiqdi. Bu jangdan so'ng Saljuqning nabirasi Tog'rulbek Xurosonning hukmdori deb e'lon qilindi hamda siyosiy tarixda, G'arbiy Osiyoda Saljuqiylar sulolasi rasman tashkil topdi.

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri – XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati qo'llaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Xususan, 996-yilda Shimoliy Xorazm hukmdori Ma'mun ibn Muhammad ikki qismga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

bo‘linib ketgan davlatni birlashtirib xorazmshoh unvoni oladi va Urganchni o‘z poytaxtiga aylantiradi. Ammo Movarounnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G‘aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo‘lib, ko‘p hollarda Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Ma’sudga qaram edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy-Xorazmshohlar sulolasi davriga to‘g‘ri keladi.

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan o‘g‘uz turklaridan bo‘lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo‘lgan. Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton hovo‘zlari va hammomlari ashyolari xazinachisi) ko‘tarilgan edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o‘zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko‘p o‘tmay, Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076-yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo‘lib hokimiyatni boshqaradi va 1097-yilda vafot etadi. O‘sha yili uning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm valiysi qilib tayinlanadi.

XIII asrning birinchi choragida Xorazmshoh Muhammadning harbiy va siyosiy uquvsizligi tufayli Xorazmshohlar davlati inqirozga uchradi. Shunga qaramasdan, o‘zbek xalqi o‘rta asrlar davri davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar davlati muhim o‘rin tutadi. O‘z davrida Xorazm davlati Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Sijiston, G‘azna va boshqa davlatlar hamma viloyatlarni o‘z tarkibiga olgan edi. Xorazm saltanati XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida musulmon Sharqining eng yirik va qudratli davlati edi.

6-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (1-QISM)

XIV asr o‘rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo‘rlari qo‘l ostida bo‘lsa ham, bu yerlar mayda bo‘laklarga bo‘linib ketib, ularda toj-u taxt, hokimiyat uchun o‘zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348-yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo‘g‘uliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig‘atoy

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardanoq o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336-yil 8-aprelda dunyoga kelgan. Uning amakisi Hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361-yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'liga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi. Tug'luq Temur 1361-yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.1363-yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Husaynning birlashgan qo'shinlari 1365-yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig'ida bo'lgan mashhur "loy

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

jangi" ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so'ng Amir Husayn va Amir Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. "Loy jangi"da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrga keng yo'l ochilgan edi.U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr Qalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar. Movarounnahrda mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrga yo'l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi. Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o'zaro urushlardan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o'zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo'lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib, 1370-yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi. Vatan haqida qayg'urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Temur o'z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko'chib o'tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug'lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo'shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o'z qo'shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi.Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni o'z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388- yilda uni butunlay bo'ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so'fiylar sulolasini tugatadi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi. Temurning bu g'alabasi Oltin O'rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo'shinlarining Volga daryosi bo'ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo'l ochdi. Ta'kidlash joizki, Temurning bu g'alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398-yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400-yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Bayrut shaharlarini, 1401-yilda Damashq shahrini egallaydi.1402-yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi. Bu g'alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi.Temur 1404-yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi.

www.nitropdf.com

Durdona

Shubhasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yillar davomida to‘plagan edi. 1404-yilda Temur 200 minglik qo‘shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo‘shinlari 1405- yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo‘lgan chegara shahar O‘tror shahrida to‘xtaydilar va shu yerda 1405-yilning 18-fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Amur Temur davlatining ichki va tashqi siyosati: “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish qurol kuchidan o‘n baravar foydaliroqdir”, degan dono so‘zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so‘zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi.

Temur o‘zining hayoti davomida harbiy iste’dodi, mohir sarkardaligi, diplomatliligi va yetuk davlat arbobi bo‘lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Sohibqiron turk-mo‘g‘ul an’analariga amal qilgan holda o‘z davlati hududlarini suyurg‘ol (ulus) tariqasida in’om qilish yo‘li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrdan tashqaridagi yerlarini to‘rt ulusga bo‘lib, farzandlariga in’om etdi. Bu masalaning e’tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo‘lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo‘lsalar-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo‘ysunardilar. Temurning o‘ta darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo‘ladiki, u uluslar o‘rtasida o‘zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o‘zi nazorat qilib turgan. Temur davlatining eng ko‘zga ko‘ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo‘lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to‘rtta sifatga ega bo‘lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi – asllik, toza nasllilik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma’muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to‘rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig‘ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta’minlash, saroy xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni bajarganlar. Bu davrlarda yerga egalikning ba’zi turlari mavjud bo‘lib, ular

www.nitropdf.com

Durdona

suyurg‘ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to‘lashda ba’zi imkoniyatlarga ega bo‘lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo‘lib, ular soliq to‘lashdan ozod qilganlar. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig‘i – xiroj bo‘lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo‘lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o‘zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil umuman to‘lamagan) qonun doirasida xiroj solig‘i olingan. Bundan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo‘lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to‘plangan. Soliq to‘plovchi soliq yig‘ish jarayonida soliqni yaxshi so‘zlar bilan to‘plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o‘rniga keng e’tibor bergan. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shunday degan edi: “Yevropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas”. “Davlat ishlarini, – deb yozgan edi Amir Temur, saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To‘ra va tuzukka tayanib saltanatda o‘z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim”.

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e’tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo‘lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me’morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Hatto g‘ariblarga oziq-ovqat beradigan g‘aribxonalar, yo‘lovchilar qo‘nib o‘tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o‘ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So‘zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma’muriy bino Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari, Samarqand atrofida o‘zining xesh-u aqrabolariga atab turli go‘zal bog‘lar qurdirardi. Temur ulkan sohibqiron sifatida o‘zining ona yurti Keshga katta diqqat-e’tibor bilan

www.nitropdf.com

Durdona

qaradi. Yozma manbalardagi ma’lumotlariga qaraganda, Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, jome’ masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqirondagi ulug‘ saxovatning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrini ham obodonchiligiga keng e’tibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko‘chmanchi va o‘troq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yo‘lga qo‘yish, urug‘lar o‘rtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani ma’lum. Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o‘tmoq lozim. Temurning sa’y-harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Sohibqiron savdo yo‘llari rivojiga, uning tinchligiga keng e’tibor berib bordi. Shaxsan o‘zining nazorati ostida savdo yo‘llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta’minladi. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo‘naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham kuch keng yo‘lga qo‘ydi. Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yo‘lga qo‘ydi. U davr shart-sharoitlariga ko‘ra tashqi siyosatda qat’iy, faol harakat qilib, o‘z saltanati dovrug‘ini jahon miqyosiga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo‘lgan g‘alabalaridan so‘ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik qilish, savdo karvon yo‘llarini rivojlantirish niyati borligini ko‘rsatib, o‘z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatini dovrug‘i bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o‘rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o‘g‘li Mironshoh ko‘p yordam bergan. Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo‘lgan. Sohibqiron o‘z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o‘z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

va miskinlarni o‘ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy taraqqiyotida Temurning diniy va dunyoviy bilimlariga e’tibor berishi katta ahamiyatga ega edi. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo‘lib, qalbi toza kishilarga talpingan. Temur davridagi ilm-fan, me’morchilik, san’at sohalari o‘z davriga nisbatan o‘ta darajada rivojlanib, yuksak ma’naviy boylik darajasiga ko‘tarildi. Shu davrning nodir qo‘lyozmalari tarixning mo‘jizasiga aylanib qoldi. Din jamiyatda mafkuraning ustunlaridan biri bo‘lganligi sababli sohibqiron dinga keng e’tibor berdi. U nafaqat askarlarini, balki barcha fuqarolarini musulmonchilik ruhida tarbiyalashga harakat qilgan. Uning doimo amal qilib kelgan “Kuch adolatdadir” degan so‘zlari uning davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan dalolat beradi. Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida shunday yozadi: “... uning adolati-yu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalar-u, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne’mat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir». Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Temurning hayoti katta jangnoma, u ko‘plab mamlakatlarni o‘z tasarrufiga oldi. Lekin bu yerdagi asosiy masala – Temur shaxsining ustunligini va idora qilish qudratining sirlarini, mohir sarkarda va tinchlik posboni, fuqaro farovonligi rahnamosi sifatidagi shaxs ekanligi, uning yuksak me’moriy inshootlar qurishdagi o‘rnini izohlash, uning yechimini topishdir.

DURDONA

7-MAVZU. QADIMGI VA ILK O‘RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI: ASOSIY BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2-QISM)

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo‘lib, ular orasida “Temur tuzuklari” buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar ichida shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. “Temur tuzuklari” jahonning mashhur

www.nitropdf.com

Durdona

kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir. “Temur tuzuklari” ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo‘lib, unda Sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai nazari bayon qilinadi. Bu asardan ko‘plab sharq hukmdorlari o‘zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1628-1657), Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdullahadxon (1885-1910) “Tuzukot” dan parchalar ko‘chirtirib, ulardan o‘z faoliyatlarida foydalanganlar.

“Tuzuklar”ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18-fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan Eron va Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon Ustixon, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan. Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toj-u taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi.

Amir Temur o‘z oldiga ulug‘ davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo‘g‘ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo‘jalikni oyoqqa turg‘izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me’yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me’morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko‘lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ygan edi. Uning bunday sa’y-harakatlari katta kuch-g‘ayrat, mablag‘, bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo‘lib, u o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

www.nitropdf.com

Durdona

Amir Temur davri ma'naviyati va hozirgi zamon: Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir.

Ma'naviy ildizlarimizdan biri bu Temur ma'naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan Yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini anglamoqdamiz. Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, "eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yaxshilik qiladi", degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. "Tuzukot" da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asarlarida ham, de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin. Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: "... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin". Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor, albatta, xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arizalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'i nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib-qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N. Logofet bu xususda shunday deb yozadi: "... biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi". Temur ma'naviyati ulkan manba va tuganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, milliy mafkura g'oyalarini fuqarolarimiz ongiga singdirishda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun ham O'zbekistonning birinchi

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Prezidenti Islom Karimov Amir Temur tavalludining 660-yillik tantanalari va keyingi vaqtdagi qator chiqishlarida bu manbaning ahamiyati takror va takror qayd etilmoqda. Temur ma'naviyatining bizga o'rgatuvchi, saboq bo'lguvchi joylari juda ko'pdir. Zero, bu ma'naviyat-bobokalonlarimizning bebaho ma'naviy boyligining bir bo'lagi bo'lib, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun hamisha xizmat qilajakdir.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov Amir Temur davri ma'naviyati, Sohibqiron shaxsiyati va u qoldirgan ulkan meros nima uchun zarurligi masalalariga to'xtalib, buni quyidagicha sharhlab bergan edilar: "Amir Temur, avvalo, qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning "Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim" degan so'zlari buning yorqin dalilidir" deya takidlagan edilar.

8-MAVZU. ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET HUKUMRONLIGI DAVRIDA O'LKADAGI IJTIMOIY IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY JARAYONLAR

DURDONA

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xonliklaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvol tang darajada bo'lganligi bu paytda jahondagi eng agressiv davlatlar qatoriga kirgan, Yevropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotgan Rossiyaning O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirish niyatini ro'yobga chiqarishni tezlashtirdi. Bu niyat Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1725) davrida tug'ilgan bo'lib, u Xiva xonligini bo'ysundirish uchun hatto 1717-yilda Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida O'rta Osiyoga harbiy ekspeditsiya uyushtirgan edi. Lekin bu harakat, undan keyingi boshqa harbiy harakatlar: jumladan, 1839-40 yillarda Perovskiy boshchiligidagi harbiy yurish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

www.nitropdf.com

Durdona

XVIII-XIX asrning birinchi yarmi davomida rus hukumati Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lida uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga bo'ysundirdi va u yerda harbiy istehkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirilmas vazifa bo'lib qoldi. Rossiyaning agressiv tashqi siyosati davomida uning kelajakda imperiyani kengaytirish uchun Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eronga uyushtiradigan harbiy yurishida, janubdagi dengizlar, ular orqali okeanga chiqishida O'rta Osiyo platsdarm vazifasini bajarishi kerak edi.Yana shuni ko'rsatib o'tmoq joizki, chorizmning Turkistonga bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi katta yerosti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Rossiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Bu hol Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish rejasini ishlab chiqish va harbiy yurishlarni tezlashtirishiga sabab bo'ldi. Shu sabablarga ko'ra, chor Rossiyasi o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan qo'shinlari bilan Turkiston xalqlarini bo'ysundirish va jonajon Vatanimizni bosib olib, unga egalik qilish maqsadida harbiy yurishlarini boshladi. Oldindan belgilangan reja asosida rus qo'shinlarining hujumi Qo'qon xonligiga qaratildi. Zamonaviy qurollar bilan to'la ta'minlangan 2850 kishilik rus qo'shini bir yil oldin mag'lubiyatga uchragan general Perovskiy boshchiligida 1853-yil iyul oyida Oqmasjid qal'asiga hujum qildi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400ga yaqin qal'a himoyachilari 20 kun davomida dushman hujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bo'lib tarixga kirdilar. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi sababli Rossiya O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U Qo'qon xonligidagi faol harakatini 1860-yil yozidagina qayta tashkil qila oldi. Xalqimizning qahramonona qarshiligiga qaramasdan yangi harbiy texnika bilan qurollangan rus qo'shinlari 1860-1864 yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyo ota, Turkiston, Chimkent shaharlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oldilar. Bu janglarda ko'ngilli himoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qahramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdilar. 1864-yil oktabrida general Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlarining Toshkentga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular Niyozbek qal'asini egallab,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Chirchiq daryosidagi to‘g‘onni buzib tashladilar va shaharga suv chiqmay qoldi. 1865-yil may oyida ruslar Toshkent shahriga yangidan hujum boshladilar. Himoyachilarning fidokorligi, Mulla Alimqulning tadbirkorligi yangi harbiy qurollar va muntazam harbiy qo‘shin oldida ojiz edi. Toshkentni ruslar 42 kun deganda bosib oldilar.

1865-1866-yillarda rus qo‘shinlari Qo‘qon xoni va Buxoro amiri o‘rtasida hamisha qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan Xo‘jand, O‘ratepa, Jizzax shaharlarini qattiq janglardan keyin egalladi. Buxoro amiri Muzaffarning ko‘rgan tadbirlariga, xalqning qahramonona qarshiliklariga qaramasdan 1868-yilgi Cho‘ponota va Zirabuloq janglarida ruslarning qo‘li baland keldi. Natijada amir Muzaffar Qo‘qon xoni Xudoyorxon (1864-1879) kabi Rossiya bilan noteng sulh shartnomasini imzolashga majbur bo‘ldi. Qo‘qon xonligiga va Buxoro amirligiga tegishli bo‘lgan yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o‘tkazildi. Katta miqdorda tovon puli to‘landi.Olinmas qal’a hisoblangan Xiva xonligiga ruslar qattiq tayyorgarliklardan keyin 1873-yilda hujum qildilar. Xonlikdagi qoloqlik, harbiy texnika va san’atning pastligi bu yerda ham ruslarning g‘olib kelishiga asos bo‘ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1864-1910) Gandimiyon shartnomasiga asosan 2,200,000 oltin so‘m to‘ladi hamda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi yerlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan mahrum bo‘ldi. Ruslarning O‘rta Osiyodagi harbiy harakatlari XIX asrning 80-yillari o‘rtalarigacha chorvador ko‘chmanchi turkmanlarni bo‘ysundurgunga qadar davom etdi. Rossiya o‘lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayronagarchiliklar yo‘li bilan bosib oldi. 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o‘lka to‘la ravishda harbiylar qo‘liga o‘tdi va o‘lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo‘lgan Turkiston general-gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general-gubernatori lavozimiga general fon Kaufman tayinlandi. General-gubernator katta huquqlarga ega bo‘lib, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borishi, soliq siyosatini belgilashi, rus fuqaroligi huquqini berishi, mahalliy aholi ustidan chiqarilgan turli hukmlarni ijro etishga ruxsat berishi mumkin edi. Bu “Vaqtli Nizom” qonuni chor ma’muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi sezila boshlangach, Kaufman Rossiya imperatoriga 1873-yilda Turkiston o‘lkasini boshqarishning yangi nizom loyihasini taqdim etdi. Nizom 1886-yilda podsho Aleksandr II tomonidan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tasdiqlandi. Nizomning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, o‘lkada Rossiya hukmronligi yanada mustahkamlanishi, o‘lka yerlari avvalgidek harbiy vazirga bo‘ysundirilishi nazarda tutilgan. Markaziy o‘lka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi. XIX asrning 90-yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar volislarga, volislar uchastkalarga bo‘linib boshqariladigan bo‘ldi. Turkistonning barcha viloyatlarida harbiy gubernatorlik boshqarmalari ta’sis etildi. G‘arbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo‘ldi. Viloyat boshliqlari esa doimo harbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo‘ldi.

O‘lkada mustamlakachilik tartiblari o‘rnatilishiga qadar hakamlik vazifasini bajarib kelgan qozilar mahalliy aholi o‘rtasidagi huquqiy muammolarni shariat va odat normalariga tayanib hal qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Bu, albatta, mahalliy xalq ommasining noroziligini kuchaytirmaslik maqsadida ko‘rilgan tadbirlar edi. Ular general-gubernator tomonidan tasdiqlanib, uyezd boshliqlari nazorati ostida ish olib bordi.Turkiston general-gubernatorligining markazi Toshkentni boshqaruv 1870-yilgi shahar boshqaruvi qoidasiga ko‘ra, to‘lig‘i bilan podsho ma’muriyati qo‘liga o‘tdi. 1877-yilgacha eski shahar va yangi shahar alohida boshqarilsa-da, lekin eski shaharda hokimiyat general Geyns qo‘lida edi. O‘sha yili shahar Davlat dumasiga saylovlar bo‘ldi. Saylangan 71 deputatning atigi 21 nafari mahalliy aholi vakillari edi. Shunday qilib, XIX asrning oxirlarida O‘rta Osiyoning katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarrufiga o‘tdi. Qo‘qon xonligi tugatilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar. Xiva xonining Amudaryo bo‘limi boshlig‘i, Buxoro amirining “Rus siyosiy agentligi” nazorati ostida ekanligi va uchastka pristavlarigacha harbiylardan bo‘lganligini inobatga olib, o‘lkada to‘la harbiy-ma’muriy boshqaruvi, harbiy politsiya rejimi o‘rnatilganligini yana bir bor qayd qilamiz. Bunday boshqaruv tez vaqt ichida o‘lkani ruslashtirish va iqtisodiy qaram hududga aylantirish imkonini berdi. Turkistonning xomashyo bazasiga aylantirilishi va o‘lkada chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarining amalga oshirilishi:

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Chor Rossiyasi Turkiston o‘lkasini egallagan kunlaridan boshlab o‘zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi.

Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya guberniyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xomashyo bilan ta’minlab turuvchi temir yo‘llar qurildi. Shu maqsadda 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko‘rfazidan Chorjo‘yga Kaspiyorti temiryo‘li qurildi, 1888-yilda bu yo‘l uzaytirilib, Samarqandga yetkazildi. 1906-yilda Toshkent-Orenburg temir yo‘li ishga tushirildi. 1912-yilda Farg‘ona vodiysi ham Rossiya bilan temiryo‘l orqali bog‘landi. Mustamlaka Turkistonda temir yo‘llarni qurib bitirilishi o‘lkani Rossiya sanoatining g‘ildiragiga yanada mahkamroq bog‘ladi. O‘lkaning xomashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi o‘rni mustahkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida jadallik bilan o‘z ta’sirini kuchaytirib bordi. Ular o‘lkadan xomashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay sug‘oriladigan yerlarni sotib olib, paxta ekishni kengaytirdilar. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, mahalliy sudxo‘r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular, asosan, xomashyo yetishtirish yo‘liga o‘tib olgan dehqonlarga kelasi yil oladigan hosili hisobidan pul qarz berar edilar. Dehqonlarning moddiy ahvoli og‘irlashgan sari ularning hosildan tushgan daromadi qarzini to‘lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga ham yetmas, ikkinchi tomondan katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo‘rlar qo‘liga o‘tib keta boshladi. Bu holat yersiz dehqonlar, mardikorlar va arzon ishchi kuchini yanada ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi bu yerlarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga e’tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda o‘lka yerlarida paxtaning Amerika navlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi stansiyalar tashkil etildi. Hatto, bu navlarni o‘rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o‘lka paxtachiligida yetti barobar ko‘paydi. Rossiya uchun Turkistondan ko‘proq foyda ko‘rish maqsadida o‘lkaning o‘zida xomashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishildi. Bunday korxonalar o‘lkada barpo

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

bo'layotgan sanoatning asosiy sohasi edi. 1900-yilgacha Turkistonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80% ni paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O'lkaning o'zida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sanoatning rivojlanishi va Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlari asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelayotgan aholini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida hunarmandchilikning ko'plab sohalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo'lgan hunarmandlar ham yersiz dehqonlar singari ishsizlar safini to'ldirib bordi. O'lkaning ko'plab unumdor yerlariga paxta ekilishi boshoqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. G'alla mahsulotlari o'lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o'zi narx-navoni belgiladi. Sanoatda band bo'lgan mahalliy ishchilarning turmush sharoiti yana ham og'ir edi. Chunki ularning ish haqi yevropalik ishchilardan 2-2,5 barobar kam bo'lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko'p edi. Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Turkiston o'lkasini ruslashtirishdan iborat bo'ldi. Podsho hukumati ko'p minglab yersiz dehqonlarni, ishsizlarni mustamlaka Turkistonga ko'chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o'rin tutadi. Chorizm Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial-demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan Rossiya monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga joylashib oldilar. Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi, ularning joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratildi, o'zini o'nglab olgunga qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turildi. Yangi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko'proq ekin maydonlariga ega bo'ldi, ma'lum muddatgacha soliqdan ham ozod qilindi. Natijada ko'chirib keltirilganlar qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini ham yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlarni chor ma'murlari, "Rossiyadan ko'chib kelayotganlar bo'sh yerlarni o'zlashtirishga, bog'lar yaratishga yordam beradi", deb ko'rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab aholining O'rta Osiyoga ko'chirib

www.nitropdf.com

Durdona

keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni hal etishning bir yo‘li bo‘ldi.

Mustamlaka o‘lkada ko‘p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo‘ldi. Ular ayni bir vaqtda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo‘lgan harakatlarini bo‘g‘ib turish uchun tayanch vazifani bajardilar. Chorizmning Turkistondagi madaniy-ma’rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to‘la bo‘ysundirildi. Bu boradagi siyosat mahalliy aholining ma’naviy hayotiga aralashmaslik deb ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida aholini ruslashtirish, milliy madaniyatini cheklash, kamsitishdan iborat bo‘ldi. Shu maqsadda dastlabki tadbirlar Yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. O‘lkada joriy etilgan rus-tuzem maktablari haqidagi loyihaga binoan 1884-yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Podsho ma’murlari mahalliy maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to‘siq deb qaradilar. Shu sababli eski maktablarda o‘qish-o‘qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko‘rilmadi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha qolib ketaverdi. Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma’murlari o‘z mavqelarini mustahkamlash uchun mahalliy xalqning ayrim an’analaridan, urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, mahalliy xalq o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan shaxslardan, ruhoniylardan foydalandilar. Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e’tiqodlariga ta’sir o‘tkazish, ularni ma’naviy qaramlikda ushlash uchun Rossiya ma’muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o‘z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa missionerlarning o‘lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir. Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdlarda bir yoki ikki vrach bo‘lib, ular ham asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko‘rsatish bilan band bo‘lganlar. Masalan, 250 ming qoraqalpoq aholisi orasida atigi bitta shifokor bor edi. Vrachlar yetishmasligini, sog‘liqni saqlash ishlarining bunday ahvolini chor ma’murlari “mahalliy aholi kuchli, sog‘lom va kasal bo‘lmaydi. Ular yashaydilar va vaqti kelganda o‘ladilar. Tarqalgan epidemiyalarga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qanchalik pul ajratilmasin, baribir yetmaydi”, deb chorizmning shovinistik siyosatini yaqqol namoyish etdilar.

O‘lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma’naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Chorizm istibdodiga qarshi turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik: O‘lkada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib chor Rossiyasining mustamlakachilik, ulug‘ davlatchilik, shovinistik siyosati mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlari boshlanishiga asosiy sabab bo‘ldi. Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida chor Rossiyasi qo‘shinlarining O‘rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining ag‘darilishiga, qolaversa mustaqillikka erishganimizga qadar davom etganligi haqidagi ma’lumotlar beriladi. Bu ma’lumotlar asosida O‘rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan quyidagi eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz mumkin: 1837-1846 yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi, keyinchalik Buxoro amirligining, Shahrisabz bekligidagi harakatlar, 1871-yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar; 1871-yildagi Farg‘onada yetimxon qo‘zg‘oloni; 1872-yilda Chirchiqdagi isyonlar, 1873-76 yillar Qo‘qondagi Po‘latxon qo‘zg‘oloni; 1892-yildagi Toshkent qo‘zg‘oloni; 1898-yildagi Andijonda Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni; 1899-yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, 1916-yildagi Jizzax qo‘zg‘oloni va boshqalar. XIX asr 70-yillar boshlaridagi Farg‘onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868-yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib, Qo‘qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergan va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo‘qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik Shaufus ma’lumotlariga qaraganda norozi beklar tepasida Abdurahmon oftobachi turgan. 1872-yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati ayniqsa kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon oftobachi o‘z tanishi mulla Is’hoq Hasan o‘g‘lini qirg‘izlar orasida Po‘latxon nomi bilan qo‘zg‘olon ko‘tarishga undaydi va o‘zi ham bu harakatga qo‘shiladi. 1873-yilda boshlangan bu qo‘zg‘olonda oddiy

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

xalq, dehqonlar, hunarmandlar faol ishtirok etdilar va bu harakat butun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab yoyildi. Xudoyorxonning o‘g‘li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo‘shinlari ham qo‘zg‘olonchilarni qo‘llab-quvvatladilar. Bu voqeadan qo‘rqib ketgan Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so‘rab, Toshkentga qochdi. Qo‘qon taxtiga uning o‘g‘li Nasriddinbek (1875-76) xon qilib ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonchilar kelishuviga binoan esa Po‘latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko‘tarilishi va uning ham ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, qo‘zg‘onlochilar o‘rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg‘ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po‘latxon tarafdorlari yerlarni kambag‘allarga bo‘lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo‘qon xonligining ruslarga qarashli bo‘lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini xavotirga solib qo‘ydi va Kaufman Qo‘qon xonligini tugatish to‘g‘risida podshoning roziligini so‘rab, iltimosnoma jo‘natdi. Qo‘qon xonligi hududiga esa Skobelev boshchiligida harbiy jazo otryadi kiritildi. Bu vaqtda Nasriddinxon hokimiyatdan chetlashtirilib, vodiyda Po‘latxonning mavqei oshib ketgan edi. G‘arbiy jihatdan ustun bo‘lgan rus qo‘shinlari qo‘zg‘olonchilarni tezda mag‘lubiyatga uchratdi. Po‘latxon qo‘shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875-yili Ohangaron, Telov, Pskent va Toshkentda bo‘lib o‘tgan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu harakatlarda qattiq zarbaga uchragan qo‘zg‘olonchilar 1876-yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom ettirdilar. Ammo harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876-yil 1-martda Po‘latxon tutib olinib, Marg‘ilonda osib o‘ldirildi. Boshqa qo‘zg‘olonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyrug‘i bilan Qo‘qon xonligi tugatilib, Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Farg‘ona vodiysida bo‘lib o‘tgan 70-80-yillardagi xalq harakatlarida Qurbonjon dodxoh, yetimxon, Darvishxon to‘ra, Yoqubbek boshchiligidagi qo‘zg‘olonlarni alohida qayd qilishimiz zarur. Qurbonjon dodxoh rus qo‘shinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Manbalarning ma’lumot berishicha, general Skobelev sulh tuzish uchun mayor Ivonovni Qurbonjon dodxoh huzuriga jo‘natadi. Ammo Qurbonjon dodxoh mayorni qabul qilmay, faqat o‘z mavqei bilan teng bo‘lgan sarkarda bilangina muzokaralar olib borishi mumkinligini bildiradi. CHorasiz qolgan rus generali Skobelev u bilan sulh tuzishga va uni “Oloy malikasi”, deb tan olishga majbur bo‘ldi. Qurbonjon

www.nitropdf.com

DURDONA

Durdona

dodxohning nabiralari 1898 yilgi milliy ozodlik qo‘zg‘olonida ham faol qatnashganlar Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayiqishgan. Shuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan. 1901-yilda Rossiya imperiyasi Qurbonjonga imperatritsaning sovg‘asini shaxsan topshirgan. Qurbonjon dodxoh 1907-yilda O‘shda 96 yoshida vafot etgan. O‘rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida Yoqubbek va u boshqargan Yettishahar davlati (1865-1877) ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki ular Qo‘qon, Buxoro, Xiva vatanparvarlarining rus bosqinchilariga qarshi kurashlarida yordam berib turishgan. Shu sababli Turkistondagi so‘nggi mustaqil davlatni tugatish Rossiya uchun kechiktirilmas vazifa bo‘lib qoldi. 1877-yil 22-iyunda rus qo‘shinining G‘uljaga bostirib kirishi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi. Amir Yoqubbekning to‘satdan vafot etishi Yettishahar davlati qo‘shinining mag‘lubiyatga uchrashiga sabab bo‘ldi. Oqmasjid, Chimkent, Toshkent mudofaalarini tashkil qilishda jonbozlik ko‘rsatgan Yoqubbek Turkiston ozodligi uchun kurash yo‘lida jon baxshida etgan qahramonlarimizdan biridir. 1878-yili Mingtepada chorizmning siyosiy-iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligidagi g‘alayon ko‘tarildi. Bunday g‘alayon 1879-yilda Farg‘ona viloyatida ham sodir bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olonlar kuch bilan bostirilsa ham aholining qahr-g‘azabidan xavfsiragan Farg‘ona viloyati gubernatori g‘ayriqonuniy soliq yig‘uvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo‘ldi. 1889-1890-yillarda Farg‘ona vodiysi va Toshkent hududlarida ko‘plab xalq harakatlari, qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Shulardan biri Darveshxon qo‘zg‘olonidir. Andijon uyezdining Qo‘rg‘ontepa volostida yuqori tabaqaga mansub bo‘lgan vatanparvar Darveshxon qo‘shin to‘plashga kirishdi. U mustamlakachilik tuzumiga qarshi ochiqdan-ochiq qurolli qo‘zg‘olonga tayyorgarlik ko‘rdi, ammo Farg‘ona viloyati harbiy ma’murlari katta kuch yuborib Darveshxon kuchlarini tor-mor etdi, uning yordamchisi Mo‘minboy ushlab olinib, dorga osildi.

1892-yilgi qo‘zg‘olon ko‘plab tarixiy adabiyotlarda rus hukumatini o‘lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrida ko‘rilgan chora-tadbirlariga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon deb ta’riflangan bo‘lsa-da, aslida bu qo‘zg‘olon chor Rossiyasining o‘lkada ko‘p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi. Rus

www.nitropdf.com

Durdona

hukumatining vaboni oldini olish uchun ko‘rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e’tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi natijasida sabr kosasi to‘lgan xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Natijada bu qo‘zg‘olonda Toshkent shahri aholisining barcha qatlamlari ishtirok etdi. Mahalliy aholining milliy-madaniy an’analariga xos diniy bayram “Qurbon hayit” kuni boshlangan bu qo‘zg‘olon tezda chor askarlari tomonidan bostirilib, qo‘zg‘olonchilardan 8 kishi dorga osib o‘ldirilishga, 15 kishini 2 yil muddat bilan maxbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o‘tashga hukm qilishdi. Lekin chor Rossiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo‘lishidan cho‘chib, o‘lim jazoni umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo‘zg‘olon Toshkent shahrining o‘zida yuz bergan bo‘lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o‘lkasi bo‘ylab tarqaldi. XIX asr oxirlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o‘lka xalqlarining milliy ozodlik harakatining yana bir yorqin namunasi 1898-yil may oyida Andijonda bo‘lib o‘tgan Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni orqali namoyon bo‘ldi. Bu qo‘zg‘olon rahbari Muhammadali Eshon o‘z davrining obro‘li, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar, davr siyosatini to‘g‘ri tushungan shaxs edi. U o‘z muridlari va hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib borayotgan zulmkor siyosatini qoralar va bunga qarshi har qanday harakatni ma’qullar edi. Dukchi Eshon Mingtepa qishlog‘idan turib Farg‘ona shaharlari va qirg‘iz yerlaridagi mustamlakachilardan norozi aholini birlashtirish va bu zulmni ag‘darib tashlash uchun harakat boshladi. Qo‘zg‘olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo‘qligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo‘zg‘olonning tezda mag‘lubiyatga uchrashiga sabab bo‘ldi, ayniqsa, qo‘zg‘olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag‘lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Qo‘zg‘olon bostirilib, uning rahbarlari qattiq jazolandi. Qo‘zg‘olon natijasida Farg‘ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi. XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. O‘lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi. Bu harakatlarni biz nafaqat rus aholisi orasida, balki mahalliy mehnatkashlar orasida ham kuzatamiz. Turkiston o‘lkasi hududida temir yo‘llarning qurilishi, zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi Rossiya markaziga ko‘plab

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

o‘lka boyliklarini chiqib ketishini osonlashtirdi. Bu jarayon mahalliy aholi ahvolini yanada og‘irlashuviga sabab bo‘ldi. Turkiston o‘lkasi hududida dehqonlar g‘alayonlari, norozilik chiqishlari ortib bordi.

Rossiyaning 1914-yilda boshlagan birinchi jahon urushiga tortilishi natijasida mahalliy xalqdan olinadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Turkiston o‘lkasi hududida yersiz dehqonlarning soni ko‘paydi. Chor hukumatining 1916-yil 25-iyunda “Urush borayotgan joylarda mudofaa va harbiy inshootlarni qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan jamiki boshqa ishlarni bajarish uchun rus bo‘lmagan aholining erkak qismini jalb etish to‘g‘risidagi” farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonga muvofiq hozirgi O‘zbekiston hududlaridan 19-43 yoshgacha bo‘lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlarga (mardikorlikka) chaqiriladigan bo‘ldi. Mardikorlikka ketadiganlar uch oyda qaytib kelishlari va bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta’minlanishi va’da qilindi. Ro‘yxatga olish davomida amaldorlar boylik orttirish payida bo‘lib, boylarning bolalarini pul evaziga ro‘yxatga kiritishmadi. Bu xalq noroziligining ortib borishiga sabab bo‘ldi. 1916-yil iyul oyidan mahalliy aholining qo‘zg‘oloni boshlandi. 4-iyul kuni Xo‘jandda, 5-iyul Samarqand viloyatida, 9-iyul kuni Qo‘qon uyezdida, 10-iyul kuni Marg‘ilonda, 11-iyulda Samarqand va Toshkentda mardikorlikka olishga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlandi. 1916-yil 18-iyulda butun Turkiston harbiy holatda deb e’lon qilindi. 1916-yildagi harakatlarning eng kuchaygan nuqtasi 13-iyul kuni boshlangan Jizzax qo‘zg‘oloni bo‘ldi. Jizzaxdagi qo‘zg‘olonga Nazirxo‘ja Abdusalom o‘g‘li, Abdurahmon Jevachi kabi xalq yo‘lboshchilari boshchilik qilib, aholini mustaqil beklik tuzishga chaqirdilar. Qo‘zg‘olon davomida temir yo‘l bekatlari, ko‘priklar vayron qilingan.

Jizzaxning yangi shahariga yetib kelgan polkovnik Afanasevning jazo otryadi qo‘zg‘olonchilardan yengildi. Shundan keyin Turkiston general-gubernatori yuborgan polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta harbiy kuchlarga ega bo‘lgan jazo otryadi qo‘zg‘olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Chor qo‘shinlari bilan so‘nggi to‘qnashuv 1916-yil 21-iyulda Qilich qishlog‘ida bo‘lib o‘tdi. Mingga yaqin kishi hibsga olinib, jazolandi. 1916-yilgi qo‘zg‘olon hukmron sinflarning zulmiga qarshi qaratilgan xalq qo‘zg‘oloni edi. Qo‘zg‘olonni harakatga keltirgan asosiy kuch dehqonlar va hunarmand kambag‘allar bo‘ldi. Qo‘zg‘olonchilarni mahalliy ziyolilar, ruhoniylarning bir qismi

www.nitropdf.com

Durdona

qo‘llab-quvvatladi. Qo‘zg‘olon bostirilgach, uning yo‘lboshchilari jazoga tortilib, o‘limga mahkum etildi. Jami 51 kishi qatl etildi, 168 kishi surgun qilindi, 128 kishi qamaldi, 228 kishi turli jazo xizmatlariga safarbar etildi. 1916-yilgi qo‘zg‘olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo‘zg‘olon bo‘ldi.

Jadidchilik harakati: XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo‘lgan o‘lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o‘z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko‘rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o‘ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g‘oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915-yilgacha – ma’rifatchilik; 2) 1915-yildan 1918-yil fevraligacha – muxtoriyatchilik; 3) 1918-yil fevralidan 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo‘lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo‘ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o‘qitish usuli “usuli savtiya”, ya’ni “yangi usul” nomi bilan shuhrat qozondi. “Jadid” arabcha so‘z bo‘lib, “yangi” degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek g‘oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari “jadidlar”, uning g‘oyalari esa “jadidchilik” nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o‘zining “Tarjimon” (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ‘ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Gasprali 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi. Bu maktabga “Muzaffariya” nomi beriladi. 1898-yilda To‘qmoqda (Qirg‘iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriylar birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” (1903), Munavvarqorining “Adibi avval” (1907), Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” (1912) darsliklari alohida e’tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma’rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish.

Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish.

Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi. Yangicha o‘qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta’lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko‘ra maktablarda o‘qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo‘lgan. Birinchi bosqich “ibtidoiy qism” deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo‘lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o‘qigandan ko‘ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so‘zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar. Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo‘lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning ko‘plab vujudga kelishida ham ko‘rindi. Chunonchi, 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida “Taraqqiy”,

www.nitropdf.com

Durdona

shu yili Munavvarqori muharrirligida "Xurshid", 1907-1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat", Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" ro'znomalari chop etildi.

Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinist N.P. Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni ma'n etdi. Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917-yilda esa "El bayrog'i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug' Turkiston" gazetalari, "Oyina" jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Jadidchilik Stolipin reaksiyasidan so'ng yashirin tusga o'tdi. Chunonchi, Toshkent politsiyasi mahkamasiga yetkazishicha, maxfiy guruhlardan birini o'qituvchi Ahmadjonov boshqargan va u, asosan, milliy ziyolilar hamda o'quvchi yoshlar vakillaridan tarkib topgan. Qo'qondagi maxfiy guruh 50 kishidan iborat bo'lgan. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti "Taraqqiyparvar" deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning rahbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jayev bo'lgan. Shuningdek, podsho ayg'oqchilari 1909-1916 yillar davomida mudarris va maktab o'qituvchilarining o'lkani boshqarishda islohotlar o'tkazish kerakligi haqida targ'ibotlar olib borayotganliklarini bir necha marotaba hukumatga yetkazganlar. Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining "taraqqiyparvarlar" oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan "Sho'roi Islomiya", "Ittifoqi muslimin", "Turon" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg‘otdilar. Ammo ular tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat va uning Turkiston Qo‘mitasi ham o‘lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo‘lini tutmoqda. Chunonchi, bu siyosat Ta’sis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo‘ldi. Shu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e’tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari – Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha, qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o‘lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqish, o‘z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo‘lgan demokratik jamiyatni shakllantirish-ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o‘rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta’sis majlisini chaqirish bilan bog‘langanliklari ham diqqatga sazovor. 1917-yil iyulda “Sho‘roi islomiya”dan “Sho‘roi Ulamo” tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta’sis majlisida o‘rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo‘shilishiga va “Turk Adami markaziyati” nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi. Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi.

Turkistondagi oktabr voqealari va bolsheviklarning zo‘ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o‘z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular Petrogradda tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hokimiyatining “Rossiya

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

xalqlari Deklaratsiyasi" (1917-yil 2-noyabr), "Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" Murojaatnoma (1917-yil 20-noyabr), hujjatlarda koʻrsatilgan millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashi toʻgʻrisidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, "Ittihodi taraqqiy" (1917-1920), "Milliy ittihod" (1920-1925), "Milliy istiqlol" (1925-1929) va "Turkiston Milliy Birligi" (1921-1923) (raisi Ahmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari oʻlkada hokimiyatni qoʻlga olish maqsadida faoliyat yuritgan. Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat koʻrsatdilar va oʻz faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga koʻnikmay xorijga oʻtib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qoʻshilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga gʻoyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik gʻoyalarini targʻib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirgʻin qilinishiga olib keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan boʻlsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham oʻziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar oʻtkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qoʻlga kiritishni maqsad qilib qoʻygan boʻlsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga toʻsiq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917-yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning ta'qiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning oʻzi qabul qilgan islohotlar oʻtkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvgʻinga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

davlatlari mavjudligiga chek qo‘ygan bo‘lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mahv qildi.

1917-yil 27-fevralda Petrogradda demokratik inqilobi g‘alabasi Turkiston o‘lkasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillaridan tuzilgan ijroiya komitetlar tashkil etila boshlandi. Toshkentning hamma dahalari vakillari to‘planib “Sho‘roi Islomiya” tashkilotini tuzdilar.

1917-yilning mart oyida o‘lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi asosiy masala bo‘lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g‘oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o‘rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham tarqala boshladi. 31-mart kuni rus podshosining o‘lkadagi tayanchi – Turkiston general-gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shchepkin raisligida Turkiston qo‘mitasi tashkil qilindi. 9 kishidan iborat bu komitet a’zolarining to‘rttasi: A. Bukeyxonov, M.Tinishboyev, S. Maqsudov va A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillaridan edi. Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi sharoitida Toshkentda 1917-yil 16-aprelda “Sho‘roi Islomiya”ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining 1 qurultoyi ish boshladi. Qurultoyning so‘nggi majlisida markaziy rahbar organ – Turkiston o‘lka musulmon sho‘rosi tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. Shunday qilib Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam qo‘yildi. Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Munavvar Qori boshchiligidagi “Sho‘roi Islomiya”dan 1917-yil iyun oyida diniy ulamolardan tashkil topgan “Sho‘roi Ulamo” ajralib chiqdi. “Sho‘roi Ulamo” jamiyati tarafdorlari demokratik kayfiyatdagi milliy ziyolilar va musulmon ruhoniylarning jamiyatda islohotlar o‘tkazish yo‘lidagi har qanday urinishlariga va yevropacha madaniyatning kirib kelishiga keskin qarshi chiqishdi. Ma’rifiy, siyosiy sohadagi yangilanishlar haqidagi g‘oyalarni ham rad etishdi. Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o‘rtasidagi ushbu bo‘linishdan ustalik bilan foydalanishga urindi. Sentyabr voqealari natijasida Toshkent Soveti hokimiyatni qo‘lga olishga harakat qildi. 1917-yil 10-sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o‘lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo‘llarini bir-biridan ajratib yubordi.

Toshkentda 1917-yil 17-20 sentabrda turkistonlik va qozoq musulmonlarning qurultoyida “Sho‘roi Islomiya”, “Sho‘roi Ulamo”, “Turon” va boshqalarni birlashtirish yo‘li bilan butun Turkiston va Qozog‘iston uchun umumiy bo‘lgan “Ittifoqi muslimin” degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi. “Ulamochilar”ning ushbu qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o‘lkasining bo‘lg‘usi siyosiy boshqaruvi to‘g‘risida bo‘lib, unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federatsiya “Turkiston federativ respublikasi” tuzilishi g‘oyasi olg‘a surildi. Fevral inqilobining ta’siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari ommaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy xalqlar tillarida gazetalar chiqa boshladi.

Oktabr to‘ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati:

1917-yil sentabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli rossiyalik ishchilarni o‘z tomoniga torta olgan edi. Oktabr oyida Rossiyada to‘ntarish bo‘lib o‘tgandan so‘ng, uning ta’siri tez orada mustamlaka o‘lkaga ham yoyildi. Toshkentdagi Oktabr to‘ntarishi qatnashchilari 1-noyabrda Bosh komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasini qamoqqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyatini o‘rnatilganligi e’lon qilindi. Qurollangan yevropalik ishchilar, asosan temiryo‘lchilar, Toshkent garnizonining soldatlari davlat to‘ntarishini o‘tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o‘lkadagi butun hokimiyatni o‘z qo‘llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordilar.

1917-yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o‘lka syezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq komissarlari soveti tuzildi (8 so‘l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. S.Lapin boshliq “ulamochi”lar, menshevik va so‘l eserlarning o‘lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi. Bu esa bolsheviklarning milliy masalada yo‘l qo‘ygan katta siyosiy xatosi bo‘lib, bunda sovet rahbarlarining shovinistik

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

kayfiyatlari ochiq namoyon bo'ldi. Hukumatning bunday ziddiyatli tarkibi o'lkada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamladi. Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2-noyabrda "Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi" va 20-noyabrda "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojaatnomasini e'lon qildi. Ushbu dabdabali hujjatlarda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi, hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi, hamma va har qanday milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlar bekor qilindi. Bu hujjatlar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda qurug' tashviqot bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay, Turkiston XKS "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo" tashkilotlarini tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning a'zolari Turkiston muxtoriyatini, keyinroq esa milliy istiqlol harakatini qo'llab-quvvatladilar.

Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi:

1917-yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik vakillari ham teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. Turkistonning boshqarish tuzumi to'g'risidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakillar hozir bo'ldi. Unda vakillarning siyosiy faolligi tufayli muhim masalalar yuzasidan munozaralar bo'lib o'tdi. Muxtoriyat e'lon qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlovchilar ko'pchilikni tashkil etdi.

Qurultoyda qabul qilingan qarorda: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z taqdirlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi". 28-noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qo'lida bo'lishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi a'zolaridan tuzilgan Muvaqqat huqumat hay'ati tarkibiga 8 kishi saylandi, yana 4 o'rin yevropa aholi vakillariga ajratildi. Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shundan 2/3 qismi, ya'ni 36 nafari

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

mahalliy aholi vakillaridan edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq oʻrtasida katta e'tibor qozondi. Abdurauf Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan kunni «milliy laylatulqadrimiz» deb atadi. Turkiston muxtoriyatini barcha demokratik kuchlar qizgʻin quvvatladi. Afsuski, oʻlka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston Sovetlarining IV syezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari deb hisobladi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. Turkiston XKS muxtoriyat hukumatni tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnoqutyun" partiyasi a'zolaridan keng foydalandilar. 1918-yilning 19-fevralida (eski hisob bilan 6-fevral) Qoʻqon shahrida faoliyat koʻrsatayotgan Turkiston muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida agʻdarib tashlandi. Hukumat agʻdarilgach ham Qoʻqon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va oʻldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qoʻqonning oʻzida uch kun davomida 10,000 kishi oʻldirildi.

"Ulugʻ Turkiston" gazetasi chuqur qaygʻu bilan xabar berganidek, 20(7)-fevral Hoʻqand tarixining eng dahshatli kuni boʻldi. Eski shahardagi hamma magazinlar, savdo firmalari, banklar va ozmi-koʻpmi yaxshiroq koʻringan xususiy xonadonlarning hammasi talangan. Gazetadagi ushbu maqola "Hoʻqand hozir oʻliklar shahri" deb tugaydi. Turkiston Muxtoriyatini agʻdarilishi Oʻrta Osiyoni sovetlashtirishga keng yoʻl ochib berdi.

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati:

Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinsa ham, u Fargʻona vodiysida istiqlolchilik harakatini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi, unga milliy boʻyoq va tus berdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Fargʻona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini oʻtadiki, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan Fargʻonaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyasiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Demak, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakatining boshlanishini xronologik jihatdan 1918-yil fevral oyining soʻnggi oʻn kunligida deb belgilashimiz mumkin. Dastlabki istiqlolchi guruhlarining tuzilishi Qoʻqon atrofidagi Bachqir qishlogʻidan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

chiqqan Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. 27-fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Skobelev uyezdida esa Marg'ilon militsiyasining sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li – Madaminbek sovetlarga qarshi kurash e'lon qildi. "Yakkatut volosti Garbobo qishlog'idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo'shilardi", deb yoziladi 1918-yilga oid arxiv hujjatlarining birida. 1918-yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi Qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Jonibek Qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda o'z faoliyatlarini boshladilar. Istiqlolchilik harakatining harbiy birlikka aloqasi bo'lmagan qurolli bezorilik yoki bosqinchilik, yoxud "bosmachilik" harakati emasligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Istiqlolchilik harakatining o'ziga xos milliy yo'nalishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor g'oya bu butun Turkistonning milliy istiqloli edi. Sovet hokimiyati vakillarining butun Turkiston o'lkasida yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi manfaatlari bilan hisoblashmay ularning nafsoniyatiga tegishi istiqlolchilik harakatining doimiy ravishda avj olishi hamda uning uzluksiz davom etishiga olib keldi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, istiqlolchilik harakatiga "asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi". Farg'onadagi qurolli muxolifat kuch va son jihatdan tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlaridan ba'zan mag'lubiyatga uchrab tursa-da, e'tiqod va ozodlik uchun kurashayotgan istiqlolchilar vodiydagi butun aholi orasidan doimo madad va yordam olib turardilar.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik va Katta

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Buxoro Xalq Respublikasida Said Olimxon (sobiq amir), Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Oston Qorovulbegi, O‘rmon Polvon, Hayit Amin, Fuzayl Mahdum, Doniyolbek, Xorazm Xalq Respublikasida Junaidxon, G‘ulomalixon, Qo‘shmamedxon, Temir Alixon kabi qo‘rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o‘z qo‘llariga olsalar-da, lekin Farg‘ona vodiysi, Xorazm va Buxorodagi istiqlolchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to‘liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirlari esa fojiali tugadi.

Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919-yil yozining oxiri va kuzida o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo‘shinlari safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo‘shilishi vodiyda sovet hokimiyatini ag‘darish uchun real kuch edi. Sentyabrning dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod shahrini egalladi. Qurshob qasabasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari katta mag‘lubiyatga uchrab, O‘sh shahriga chekindi. 8-sentabrda bir yarim kecha-kunduzlik qonli janglardan keyin O‘sh shahridagi garnizon taslim bo‘ldi va qamoqxonada yotgan maxbuslar istiqlolchilar tomonidan ozod qilindi. Madaminbek qo‘shinlari 13-sentabrda Eski Marg‘ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar – Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Afsuski, bir oy davomida Farg‘ona vodiysini larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi musulmon qo‘shinining hujumi pirovard natijada mag‘lubiyat bilan tugadi.1919-yil 22-oktabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo‘lgan anjumanda Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo‘lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i bo‘lishi bilan birga Bosh qo‘mondon qilib ham tayinlandi.1919-yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo‘l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbekda 20000 yigit, Ergash qo‘rboshida 8000 yigit bo‘lgan. Aynan ana shu uch lashkarboshi vodiydagi jangovor harakatlarni yo‘naltirib turganlar. Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o‘zaro uyg‘unlashib ketgan edi. U Farg‘ona vodiysidagi

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

istiqlolchilarning haqiqiy ma’nodagi dohiysi, tan olingan yo‘lboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o‘z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Bunday boshqaruv usulini yana Ergash va Shermuhammadbek qo‘rboshilargina joriy etgan edilar.

Turkistondagi istiqlolchilik harakati 1920-yilning yozi va kuzida o‘zining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buxorodagi fidoyilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi muqaddas kurashga otlandilar. Kurash bayrog‘ini vodiyda Madaminbek o‘rniga endi Shermuhammadbek ko‘tardi. Farg‘ona vodiysidagi butun qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanida o‘zlarining navbatdagi qurultoylariga to‘plandilar. Qurultoy 1920-yil 3-mayda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo‘shinlarining Oliy bosh qo‘mondoni qilib saylandi. Bolshevik maddohlardan birining e’tiroficha, “Madaminbek qo‘rboshilar o‘rtasida eng kuchlisi bo‘lgan bo‘lsa, Shermuhammadbek shubhasiz, eng xavflisi edi”.

Turkiston MIK raisi Inog‘omjon Xidiraliyevning sal keyinroq yozishicha, “1920-yil sentabrda bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg‘otdi”.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari ham yetarli darajada mavjud bo‘lib, ular asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, istiqlolchilik harakatiga g‘oyaviy rahnamolik qilish borasida jadidlar bilan ulamolar o‘rtasida o‘zaro raqobat mavjud edi. Namanganlik Nosirxon To‘ra Said Kamolxon To‘ra o‘g‘li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo‘ja Qozi o‘g‘li, Turkiston MIKning sobiq o‘rinbosari To‘raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on va boshqalar istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlarining pirlari ko‘p bo‘lgan. 1920-1924 yillarda istiqlolchilik harakati Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro Xalq Respublikasidagi harakatning Turkistondagi istiqlolchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to‘g‘ri keldi. Bir tomondan, amirlik

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tuzumi tarafdorlari bo'lgan mujohidlar, jadidlardan iborat. Buxoro hukumatiga va shuningdek, qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lgan buxorolik vatanparvarlar Fayzulla Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va b.).

Xorazm Xalq Respublikasida qizil armiyaga qarshi kurashning tepasida Junaidxon turdi. U Xorazmda siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20000 kishiga yetkazdi. O'zbek hunarmandlari va dehqonlaridan tashkil topgan dastalarga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola va boshqalar rahbarlik qilgan. Junaidxon boshchiligidagi mujohidlar hujumga o'tib, 1920-yil yozida Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Ilonli va Taxtani qayta egallashdi, ko'plab qizil askarlarni asirga olishdi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktub yuborib, agar qo'shinlar Xorazmdan olib chiqib ketilmasa, asirlarni otib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo'mondonligi Junaidxonning haqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni otib tashlashga buyurdi.

1924-yilga kelganda istiqlolchilar iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik, dahshatli ochlik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan yetti yillik kurashdan Turkiston xalqlari ham, qo'rboshi va ularning yigitlari ham juda toliqqan edilar. Shuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi 1924-yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Bunga ularning rahbarlari orasida jipslik va umumiy dasturning yo'qligi ham sabab bo'ldi. Lekin hali oldinda kurashning to'liq o'n yili turar edi. Vatanparvarlar yana 1935-yilgacha bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurashini olib bordilar.

1918-yil aprel oyida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bolsheviklarning majburan yon berishi bilan hokimiyat organlarida mahalliy aholi vakillari ishtirok qila boshladilar. 1919-yil sentabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga xalaqit beruvchi, sovet hokimiyatining o'lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb hisoblaydigan, mahalliy aholiga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlariga nisbatan choralar ko‘rildi. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki, o‘lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil qilgan Turkkomissiya va RKP (b) MK Turkbyurosi, keyinroq uning o‘rniga VKP (b) MK ning O‘rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko‘rsatdilar. Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan Turor Risqulov (Turkiston MIK raisi) boshchiligidagi milliy kommunistlar, Turkiston mustaqilligi va uning o‘z taqdirini o‘zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurash boshladilar. 1920-yilda TKP Musulmon byurosining III-konferensiyasi va TKP ning V-o‘lka konferensiyasida T. Risqulovning turk xalqlari kommunistik partiyasi tuzish va Turkiston Respublikasini Turk respublikasi deb atash haqidagi g‘oyalari ko‘rib chiqildi va ma’qullandi. Biroq bu g‘oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqilligi bo‘lganligi bois, Markaz T. Risqulov va uning tarafdorlarining fikrlariga qarshi chiqdi. O‘z navbatida Markazning Turkistondagi hukmronligining tayanchi Turkkomissiya bu harakatni rad etdi va millat fidoyilarini quvg‘inga uchratdi. T.Risqulov o‘lkada ulug‘ davlatchilik shovinizmi, burjua millatchiligi yuzaga kelayotganligi to‘g‘risidagi masalalarni ko‘tarib chiqdilar. F. Xo‘jayev partiya ichidagi toqat qilib bo‘lmas holatlarni ko‘rsatib o‘tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari, keyinchalik ularni jismoniy yo‘q qilishda ayblov uchun asos bo‘ldi. Turkistonning sotsial-iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O‘zbekistonning ilg‘or, hurfikrli farzandlari “inog‘omovchilik”, “18lar guruhi”, “qosimovchilik” kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi millatchilikda aylanib qatag‘on qilindilar. 20-yillarning oxiriga kelib respublikada mustabid tuzum o‘zini to‘liq namoyon etdi. Siyosiy qatag‘onliklar avj oldi.

1929-yilda mashhur jadidchi, ma’rifatparvar Munavvarqori Abrurashidxonov boshliq “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zolarini qamoqqa olish boshlandi. Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a’zosidan 15 tasi otildi, qolganlari axloq tuzatish lagerlariga jo‘natildi. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zolari ham qatag‘on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramzi), Nosir Saidov, Mahmud Mirxodiyev, Xosel Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o‘lim jazosiga hukm qilindilar, so‘ngra bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi. 1930-yilda Davlat Banki ma’muriyatida o‘tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar

www.nitropdf.com

Durdona

qamoqqa olindilar. O‘zbekiston SSR Sudi raisi Sa’dulla Qosimovning “qosimovchilik” deb nomlangan ishini ko‘rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko‘zga ko‘ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

30-yillarning boshi dindor va e’tiqodli kishilarga nisbatan zo‘ravonlik siyosiy qatag‘onlikning cho‘qqisi bo‘ldi. Juda katta miqdordagi islom, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo‘q qilindi. Bu davrda O‘zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo‘natildi. O‘tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san’at markazlari, xalqning ko‘p asrlik merosini saqlovchisi bo‘lgan masjid va madrasalarning deyarli barchasi yopib qo‘yildi, ayrimlari buzib tashlandi. Butun respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostiga o‘tdi. Partiya direktivalaridan har qanday chekinish aksilinqilobiy, siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937-yildan “antisovet”, “xalq dushmanlari”ni qidirib topish va jazolash keng tus oldi. Xususan, siyosiy boshqaruv organlarining (OGPU) faoliyati asosan ana shunday “tamg‘a” olgan shaxslarni qidirish va tekshirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Masalan, F.Xo‘jayev, A.Ikromov, D.Manjara, A.Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari hibsga olindilar va otib tashlandilar. O‘zbekiston Ichki Ishlar Xalq Komissarligining “uchliklari” olib borgan faoliyati oqibatida 1939-1953-yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otishga hukm qilingan. Keyinroq ularning ko‘pchiligi oqlandi, ming afsuslar bo‘lsinki, ularning aksariyati bu adolatga o‘limidan so‘ng sazovor bo‘ldilar.

1930-50-yillarda ziyolilarning ta’qib qilinishi: Milliy adabiyot va san’atning ahvoli qiyin va nomutanosib holatda edi. Shaxsga sig‘inishning rutubatli iqlimiga qaramay ijodiy hayot so‘nmadi, yozuvchilar va adabiyotshunoslar qatori kengaydi. 1934-yil martda Toshkentda O‘zbekiston yozuvchilarining syezdi bo‘ldi va unda Respublika Yozuvchilar uyushmasi tashkil qilindi.

O‘zbek yozuvchilarining nomlari jahonga keng yoyila boshladi. G‘afur G‘ulom, Oybek, G‘ayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Komil Yashin va boshqalarning asarlarida xalqning ijtimoiy hayoti va an’analari, mehnat qahramonlari, shijoati kabi xususiyatlar o‘z badiiy ifodasini topgan. Lekin 30-yillarda kuchaygan ma’muriy buyruqbozlik tizimi va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

shaxsga sig'inish mafkurasi ijod ahlini, qolaversa respublikaning madaniy hayotini bo'g'a boshladi. Ijodni partiyaviylik va yagona mafkuraga bo'ysundirilishi hayotni badiiy tasvirida vulgar-sotsial ko'rinishlarga keng yo'l ochdi. Partiya tomonidan yangi hayotni kuylashga bo'lgan chaqiriq va majburiy cheklashlar ijodiy jarayonda tarixiy o'tmishni bir tomonlama tasvirlashga olib keldi. Adabiyotda borliqni, murakkab ijtimoiy muammolarni bo'yab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut saqlash zaruriy shart bo'lib qoldi. Milliy madaniyat 30-yillarda qattiq fojiaga uchradi. Inson haq-huquqlarining poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, Botu, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin kabi millatning yetuk ziyolilari qatag'on qilindi va xalqimiz ularning asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi. 40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag'on qilishlar davom etdi. VKP (b) MKning 1946-yil "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'lqinining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Shu paytdan boshlab adabiyot va san'atda ijodiy demokratik rivojlanish uzoq yillar davomida sun'iy ta'qib qilindi, joylarda hurfikrlilik siquvga olindi.

Markazning ko'rsatmalariga asoslanib, respublikaning partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g'oyalar ularni ayblash uchun foydalanildi. Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini, madaniyatini badiiy tasvirlash-o'tmishni qo'msash, ideallashtirish deb ayblandi va ularga "millatchi" degan tamg'alar yopishtirildi. Shu qabilda Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi.

1951-yil avgustda respublika matbuotida "qator shoir va yozuvchilarning ijodida mafkuraviy og'ishlar" mavzusida maqola chop etildi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. Shuningdek, Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, Said Ahmad, I.Sultonov va boshqalar "o'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda turish"da va "jiddiy g'oyaviy xatoliklar"ga yo'l qo'yganlikda ayblandilar.

1951-yilda Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G'ulom Alimov va boshqa bir qator ijodkorlar "antisovet millatchilik faoliyati" da ayblanib qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

hukm qilindilar. Shu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V.Zohidov, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda va burjua-millatchilikda ayblanib, ta’qib qilindi. Qatag‘on qilingan san’at, fan va madaniyat arboblari mustabid tuzum davrida haq-huquqsizlik qurboni bo‘ldilar.

Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig‘inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag‘on qilingan madaniyat va fan arboblari oqlandilar.

Sovetlar davrida O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’naviy qaramligi hamda uning oqibatlari: 20-yillarning boshlarida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat O‘zbekistonning ham iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. Lekin 20-yillarning oxirida bu siyosat o‘zining mohiyatini yo‘qota boshladi va 1929-yilda batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka chek qo‘yildi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining xarid narxi tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashshoqlashdi. O‘zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Sanoati qoloq, malakali ishchi kadrlari, mutaxassislari deyarli yo‘q, og‘ir sanoatni rivojlantirish tajribasi yo‘q o‘lkada industriyalashtirish og‘ir kechdi. Shu bahona malakali ishchilar, muhandis-texnik xodimlar Rossiyaning markaziy hududlaridan ko‘chirib keltirildi. Faqat 1931-yilning o‘zida ko‘chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatda 1926-1939 yillari O‘zbekiston aholisi 37 foizga ko‘paygan bo‘lsa, yevropaliklar soni 62 foizga oshdi. Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostansiyalari hamda qishloq xo‘jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xomashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib ishga tushirildi. Chirchiqdagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyafzal, tamaki, Farg‘ona to‘qimachilik, Samarqand va Marg‘ilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to‘qimachilik kombinati, qishloq xo‘jalik mashinasozlik zavodi, Chirchiq ximiya kombinati va boshqa ko‘plab yirik korxonalar ishga tushirildi. 30-yillar oxirida respublikada 1445ta har xil sanoat korxonalari mavjud bo‘lib, bularda 142 ming ishchi mehnat qilar edi. Sovetlarning “o‘z kuchimiz bilan qisqa muddatda” deb olib borgan industriyalashtirish siyosati O‘zbekiston uchun g‘oyat og‘ir kechdi. Markaz respublikamizning yerosti va yerusti qazilma boyliklari, xomashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

foydalanib, o'lkadan mumkin qadar ko'proq foyda olish harakatida bo'ldi. Bu siyosat, ayniqsa, millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi. Chunki qishloqda zo'rlik bilan olib borilgan jamoalashtirish siyosati g'arazli maqsad uchun juda ham qo'l keldi.

1930-yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib, katta yer egalari, o'rta hol dehqonlar va kambag'allarning yerlari jamoa xo'jaliklariga birlashtirildi, ularning qo'llaridagi ot-ulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburiy umumlashtirildi. Davlat, jamoa xo'jaliklari orqali rejalashtirilgan yo'l bilan mehnatkash dehqonlar oladigan hosilning deyarli barchasini yig'ib oladigan bo'ldi. Buning natijasida dehqonlar xo'jaligi xonavayron bo'ldi. 30-yillar boshlarida yuz bergan ocharchilik, uning oqibatida minglab kishilarning qirilib ketishi, aholining haligacha qishloq xo'jalik mahsulotlariga yolchimay kelishi o'sha davrning ko'r-ko'rona siyosati natijasi bo'ldi.

Ommaviy jamoalashtirishga suyanib, badavlat xo'jaliklar, ayrim o'rtahol dehqonlardan 5,5 mingdan ortig'i o'z oilasi bilan uzoq o'lkalarga surgun qilindi. Bu bilan sovet davlati qishloq aholisining bosh ko'tarishga qodir, vaziyatni tushunadigan qismini yo'q qilib, talonchilik siyosatini osonlashtirdi. O'z-o'zidan ravshanki, jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi, dehqonni ekspluatatsiya qilishning birdan-bir takomillashgan uslubi kashf etildi. Hatto xalqimizning qadim an'anasi hashar ham ekspluatatsiya quroliga aylantirildi. 1939- yilda qazilgan Katta Farg'ona kanali bir tomondan, xalqimizning mehnat jasorati, ikkinchi tomondan xalqni ezishning sovetcha ko'rinishi bo'lgan, desak xato qilmaymiz. O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo'li bilan SSSR paxta mustaqilligiga erishdi.

1939-yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi sababli vujudga kelgan xalqaro vaziyatga SSSR bilan birga O'zbekiston ham tortildi. Xalqimizning botir farzandlari "kichik urushlar" deb nom olgan Xalxingol, Hasan ko'li, Finlyandiya urushlarida ishtirok etganlar.

1941-yil 22-iyun kuni gitlerchilar Germaniyasining SSSRga to'satdan qilgan hujumi o'zbek xalqining ham tinchini buzib, qalbini nafratga to'ldirdi. O'tkazilgan miting va yig'ilishlarda ariza bergan ko'ngillilar soni dastlabki oylardayoq 32 mingdan ko'proqni tashkil etdi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Front orqasini mustahkamlash, xalq xo‘jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish mamlakatni yagona harbiy lagerga aylantirishga doir umumiy dasturning eng muhim tarkibiy qismi bo‘ldi. Bu dasturni amalga oshirishda O‘zbekiston qizil Armiyaning front orqasidagi mustahkam bazasiga aylandi. O‘zbekiston G‘arbdan keltirilgan 100 tadan ortiq korxonalarni qabul qilib oldi va bu zavodlar xalqimizning fidokorona mehnati bilan qisqa vaqt ichida mahsulot bera boshladi. “Rostselmash”, “Krasniy Aksoy”, “Moskva”, “Podyemnik” va “Elektrostanok” zavodlari shular jumlasidandir. “Tashselmash” zavodi, Chirchiq elektrokimyo zavodi va boshqa respublika sanoati korxonalari ham front ehtiyoji uchun ishlay boshladi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston respublikalari aholisi va moddiy resurslarini safarbar qilish va jangovar tayyor holga keltirishda O‘rta Osiyo harbiy okrugi muhim rol o‘ynadi. Bir yarim yil ichida bu okrug 109 qo‘shilma tuzdi. O‘zbekiston mehnatkashlari milliy harbiy qo‘shilma tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941-yil noyabridan 1942-yil martigacha O‘zbekistonda 14 ta milliy brigada, jumladan, 9 ta alohida o‘qchi brigada, 5 ta otliq diviziya tuzildi. Urush yillarida bir million to‘rt yuz ming o‘zbekistonliklar frontlarda jang qildilar. Ulardan to‘rt yuz ellik ming kishi qaytib kelmagan. Urushning dastlabki kunlarida Respublika mudofaa fondiga 30 mln. so‘m miqdorida pul to‘plandi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston xalq xo‘jaligi harbiy izga o‘tkazildi. Butun xalq, jamiki moddiy resurslar vatan himoyasiga sarf qilindi.

Sobir Rahimov, Mamadali Topivoldiyev, R.Abzalov, O.Rahimov, Xalloq Aminov, Qo‘chqor Turdiyev, Nazar Rajabov kabi o‘zbekistonliklar jangovor jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan bo‘lsalar, butun O‘zbekiston ahli xalq xo‘jaligi mehnat frontida yuksak jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. 280dan ortiq o‘zbekistonliklar frontdagi jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, minglab jangchilarimiz esa urush yillari ta’sis etilgan orden va medallarga o‘z jasurliklari sababli sazovor bo‘ldilar.

Mamlakatning turli rayonlaridan ko‘chirib keltirilgan aholini O‘zbekistonda hurmat-e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan kutib oldi. Bu yerga bir millionga yaqin odam, jumladan, 200.000 bola ko‘chirib keltirildi. O‘zbekistonda ular boshpana va mehr topishdi. Ularga 135 ming kvadrat metrdan ko‘proq turar joy berildi, ularni ishga joylashtirish yuzasidan doimiy ish olib borildi. O‘zbekiston aholisi

www.nitropdf.com

Durdona

o'zining so'nggi burda nonini, kiyim-kechagini, turar joyini ko'chib kelganlar bilan birgalikda baham ko'rdi. 15 nafar yetim bolani farzandlikka olgan Shomahmudovlar oilasining nomi butun jahonga ma'lum. Bu xalqlar do'stligining buyuk namunasi bo'lib, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, bu yillarda milliy siyosatda kechirib bo'lmaydigan xatolarga ham yo'l qo'yildi. 1943-44 yillarda qalmiqlar, qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, nemislar, qorachoylar, mesxeti turklari o'zlarining tarixiy vatani va doimiy joylaridan mamlakatning sharqiy rayonlariga ko'chirib yuborildi. O'zbekistonga 15 mingdan ortiq qrim tatarlari, 175 ming chechenlar, 157 ming ingushlar va boshqa xalqlar ko'chirib keltirildi. Urush yillarida va undan keyin omon qolgan harbiy asirlarning ham ahvoli og'ir kechdi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimining urush yillaridagi xunuk ko'rinishlaridan biri "talafotlar bilan hisoblashib o'tirmay, har qanday qilib bo'lsa ham harbiy maqsadlarga erishish zarur" degan prinsip bo'ldi. G'alaba nihoyatda qimmatga tushdi. Sovet kishilarining 27 millionga yaqin nafari urushning alanga-yu otashida halok bo'ldi. 18 milliondan ortiqroq jangchilar yarador bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi mehnat qobiliyatlarini yo'qotib, nogiron bo'lib qolishdi.

Yurtboshimiz aytib o'tganlaridek, bu urush kimlar tomonidan qanday maqsadlarda, qayerlarda bo'lib o'tganidan qat'i nazar, unda o'zbekistonliklar qatnashib, o'z oilasi, bola-chaqasi, ota-onasi, muborak zaminni himoya qildilar. Ularning jasorati esa hech qachon unutilmaydi.

DURDONA

1945-80-yillar O'zbekiston iqtisodiyoti: Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O'zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950 yillari g'oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklana boshladi.

Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib qurollanish siyosatiga bo'ysundirildi. Ayni bir vaqtda o'zbek xalqi urushda vayron bo'lgan o'lkalarni tiklashga ham o'z hissasini qo'shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetib, deyarli ikki marta oshib ketdi. Urushdan

www.nitropdf.com

Durdona

keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini, ayniqsa chorvachilikni tiklash ishlari ancha og‘ir o‘tdi. 1945-yil 15-iyuldagi Markaziy hukumatning “O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risida”gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O‘zbekistonning markazga bog‘liqligi yana ham mustahkamlandi. Ob-havoning injiqligiga, tiklash ishlarining qiyinchiliklariga qaramasdan, 1950-yilgi tayyorlangan paxta 2.200.000 tonnaga yetdi. 50-60-yillarda sanoat va qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimiga ayrim o‘zgarishlar kiritildi. Jumladan, 1954-1956 yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yirik korxonalar respublika ixtiyoriga o‘tkazildi. Natijada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmog‘i 31 foizdan 55 foizga ko‘tarildi. Xo‘jalikni boshqarishda iqtisodiy omillarga suyanish, mehnat manfaatdorligini oshirish va boshqa tadbirlar o‘z samarasini bermadi, chunki jamiyatda tub islohotlar o‘tkazilmagan edi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ekstensiv yo‘l bilan, ya’ni tabiiy boyliklardan o‘rinsiz, hisobsiz foydalanish, butun xalqning mehnatini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish hisobiga 60-70-yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga keldi. O‘zbekistonda oltin, uran, rangli metallar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yila boshlandi. Energetika, kimyo sanoati rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi natijasida yangi shaharlar: Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod kabilar qad ko‘tardi. Lekin mustamlaka holatidagi respublikaning rivojlanayotgan iqtisodidan boshqalar ko‘proq manfaatdor edilar. So‘nggi hisob-kitoblarga qaraganda, bevosita Ittifoq ministrliklariga bo‘ysundirilgan faqat oltin va uranning o‘zidan 15 milliard amerika dollariga teng boylik Markazga olib ketilgan. O‘zbekistonning aksariyat shahar, qishloqlari gazlashtirilmagan holda respublikada qazib chiqarilgan tabiiy gaz Rossiyaning sanoat markazlariga yetkazib berildi. 50-60-yillari O‘zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985-yillari qariyb 2.400.000 gektar yangi yerlar o‘zlashtirildi. Sug‘orish ishlarini yaxshilash uchun sun’iy suv omborlari qurildi. Qishloq xo‘jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunalari tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy moddalardan cheksiz foydalanildi. Ko‘rilgan tadbirlar natijasida 1970-yili respublikada paxta maydoni 1.700.000 gektarni tashkil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga yetdi.Yirik sanoat

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "... u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga–Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi", deydi. 1985-yilning bahorida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan quruq kompaniya O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov ta'biri bilan aytganda, "hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'g'rilik, qotillikni kuchaytirdi". O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 80-yillar birinchi yarmida o'rta hisobda 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida bu ko'rsatkich 2,2 foizni tashkil qildi. Paxta ekin maydonlarining o'rinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi pasayib ketdi. Hosildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o'g'itlaridan foydalanish oqibatida bu yerlar ma'lum bir vaqtdan keyin batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, O'rta Osiyoning yirik daryolari suvlaridan nazoratsiz foydalanish, o'lkada o'rinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va XX asrning eng yirik Orol fojiasi vujudga keldi. O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda og'ir bo'ldi. O'lkaning o'ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag' qoldiq prinsipiga asoslanib yildan-yilga qisqarib bordi. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida miqdoriy o'sishlar ko'zga tashlanganligi bilan, aslida bular inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalardagi ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi 15 respublika o'rtasida 13-14-o'rinlarda turdi.

80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilgan xarajatlar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989-yili Yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o'limi, oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston SSRda birinchilar

www.nitropdf.com

DURDONA

Durdona

qatorini egalladi. Aholining o‘rtacha yoshi 1970-yil 72 yosh bo‘lsa, 1980-yili bu ko‘rsatkich 67,7 yoshni tashkil qildi. Bunga asosiy sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo‘ldi. Jafokash o‘zbek xalqining turmush darajasi achinarli ahvolda bo‘lib, boshqa respublikalar bilan qiyoslaganda oxirgi o‘rinlarda edi. Bundan boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas edi. Davlat bosh ekspluatator rolini bajargan sotsialistik tizimda mehnat ahli o‘z kuchi bilan yaratgan mahsulotning atigi 25-30 foizi hajmidagina haq oldi. Sovet Ittifoqining sanoat rivojlanishiga, yadro qurollarini ishlab chiqarish, koinotni o‘zlashtirishdagi yutuqlariga katta hissa qo‘shgan O‘zbekistonning million tonnalab paxtasi, ming tonnalab oltin, kumush, uranlari uchun Markaz u bilan nohaq, surbetlarcha, adolatsiz hisob-kitob qildi. O‘sha davrning mehnat ilg‘orlari sovet tizimidagi sotsial siyosatning og‘ir oqibatlarini hali ham ko‘rishyapti.

“Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat”ning oqibatlari: Totalitar tizim jarayonida o‘lkadagi madaniy-ma’rifiy ishlar e’tibordan chetda qolmadi. 20-30-yillarda savodsizlikni tugatish, ta’lim-tarbiya ishlari astoydil qo‘lga olindi. 1941- yili O‘zbekistonda 5.504 maktab bo‘lib, ularda 42.000 o‘qituvchilar dars berdi, 1 mln. 315 ming o‘quvchi ta’lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishining ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o‘quv yurtlari ochildi.

O‘rta Osiyoda oliy ta’limning beshigi, hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti bir qancha oliy o‘quv yurtlariga asos bo‘ldi, 1940-yili respublikada 30 ta oliy, 100ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ishlab turdi. 1943-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning ilmiy tekshirish institutlarida fanning turli sohalari: ayniqsa kimyo, fizika, elektronika, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar rivojlandi. 20-30-yillarda adabiyot va san’at sohasida jahonga mashhur yozuvchilar va shoirlar yetishib chiqdi. Teatr va kino san’ati o‘zining dastlabki qadamlarini qo‘ydi. Madaniy-oqartuv muassasalarining soni ortib bordi. Achinarlisi shundaki, respublikada ta’lim-tarbiya, madaniy-ma’rifiy ishlar “Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” shiori ostida olib borildiki, asl maqsad “baynalmilalchilik” niqobi bilan pardalanib, o‘lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo‘ldi. 1938-yil 19-martda O‘zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o‘qitish to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘qishlar va idoralarda ish yuritishlar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

1929-yildan boshlab lotin, 1940-yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladigan bo'ldi. Bularning oqibatida ko'p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o'rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo'ldi. 1927-yili o'tkazilgan "Hujum" harakati oqibatida o'zbek xotin-qizlari jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb qilinib, o'zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda sharqona fazilatlaridan mahrum bo'ldilar. Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g'oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o'rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi. Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970-yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirib ko'rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko'ra qoniqarsiz bo'lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa, qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo'lmasin bu muassasalar marksizm-leninizm soxta g'oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot-targ'ibot qilishning quroli bo'lib xizmat qildi. Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959-yildan 8 yillik, 1970-yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1980-yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990-yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 ga yetdi, lekin ulardan 1.700 tasi vayrona ahvolda bo'lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-79-o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26.000 talabalar o'qidi. Respublika Fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar. Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10.000 kishiga hisoblaganda O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida qo'pol nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'iyan reja asosida qabul qilish: qanday o'qimasin, ularni bitirtirib chiqarish natijasida ko'pincha malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislarga diplom berishga to'g'ri keldi. Ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o'zlarining ish faoliyatida kompartiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O‘tmishda dunyoga mashhur bo‘lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ajdodlarimiz nomi esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o‘qitilmadi. Chunki, maktab, oliy ta’lim tizimining asl maqsadi O‘zbekiston misolida butun jahonga sovet davlati milliy siyosatining tantanasini ko‘rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini yana ham kuchaytirdi. Markazning baynalmilalchilik siyosati aslida mamlakatda istiqomat qiluvchi 120dan ortiq millatlar va elatlardan yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro‘yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. Shu maqsadda rus tilini hayotga kiritish faollashdi. 1969-yildan boshlab O‘zbekistonning barcha bolalar bog‘chalarida rus tilini o‘rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalmilal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni, milliy, diniy qadriyatlari yo‘qola bordi. Sovet hukumati dastlabki kunlardan boshlab dinga, diniy tashkilotlarga qarshi keng miqyosda kurash olib borib, ateistik jamiyat qurish tomon yo‘l tutgan edi. Masjid va madrasalarni yopib, ularning binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanildi. Navro‘z kabi umumxalq bayrami, diniy marosimlar bekor qilindi. Haj safariga boradigan musulmonlarning soni har yili butun O‘zbekistonda ikki-uch kishidan oshmasdi. Ruhoniylarning ko‘pchiligi har xil bahonalar bilan qamoqqa olindi, surgun qilindilar. Din va diniy tashkilotlarni ta’qib qilib, dindorlarga nisbatan ko‘r ko‘rona munosabat qanchalik faol olib borilmasin, ularning e’tiqodini deyarli o‘zgartira olmadi. 20-30-yillar o‘zbek adabiyoti va san’atida izlanishlar, uyg‘onish va yo‘qotish yillari bo‘ldi. 20-yillarda ma’rifatchilik harakatining samarali yillari bo‘lib, A. Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbek, Hamza, S.Ayniy, keyinroq yangi yosh ijodkorlar Oybek, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, A.Qahhor kabi o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalari faoliyat ko‘rsatdi. 30-yillarda sahna san’atida opera va balet sohasida dastlabki yutuqlarga erishildi. Kino san’ati qaror topdi. Ayni shu davrda adabiyot va san’atda sotsialistik realizm deb atalmish yo‘nalish hukmron bo‘la boshladi va respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo‘ysundirildi. Urushdan keyingi 50-60-yillarda respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodi shakllandi. Shaxsga sig‘inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan iliqlik shamoli bilan badiiy adabiyotda ko‘pgina salmoqli asarlar yaratildi, bir qancha yangi o‘zbek teatr va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

konsert san’atining dong‘ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarni kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. Chirib borayotgan sotsializm g‘oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug‘lik ko‘rmaydigan bo‘ldi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g‘oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi. Kechayu-kunduz kishilar onggiga majburan singdirilgan kommunistik mafkura odamlarni ma’naviy qashshoqlikka olib keldi.

9-MAVZU. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI

DURDONA

O‘zbekiston Kompartiyasi MQning 1989-yil 23-iyun kuni bo‘lib o‘tgan XIV plenumida O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib tayinlandi. Islom Karimov ishga kirishgan kunning ertasigayoq – 24 iyun kuni O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetida katta majlis o‘tkazdi va unda ma’ruza qildi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov O‘zbekistonda vujudga kelgan o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni va uning sabablarini chuqur tahlil qilib achchiq va haqqoniy bir xulosaga keladi. “Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi”, – degan edi u.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshliq yangi rahbariyat tomonidan o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash kuchayib borayotganligi birinchi bor e’tirof etildi. Xalqning shon-shuhrati, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish tomon yo‘l boshladi.

Respublikada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatdorlik ustuvorligi ta’minlandi. Markazdan yuborilgan “kadrlar desanti” o‘z mavqeyini yo‘qotdi. Anishev, Ogarek, Satin va boshqa “kazo-kazolar” respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimilariga ko‘tarildi.

Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobiy o‘zgarish shundan iborat bo‘ldiki, endi O‘zbekiston partiya, sovet, davlat, huquqni himoya

www.nitropdf.com

Durdona

qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni koʻtarish amaliyotiga chek qoʻyildi. Bu masalalarni hal qilishni Respublika rahbariyati oʻz qoʻliga oldi. Oliy oʻquv yurtlarida oʻqiyotgan talantli yoshlar uchun maxsus stipendiyalar belgilash, xorijiy davlatlarda oʻqish uchun davlat hisobidan yordam berish masalalarni ilgari surdi. Bu vaziyatni teran anglagan rahbarning jasorati boʻlib, siyosiy mutelikdan qutilish, mustaqillik tomon tashlangan muhim qadam boʻldi. Toʻqib chiqarilgan “oʻzbek ishi”, “paxta ishi”ning tamomila sharmandasi chiqdi. Bu bilan bogʻliq ishlar qayta koʻrilib, aybsiz qamalgan minglab odamlar oqlandi, oʻz oilasiga qaytdi, adolat tiklandi.

Oʻzbek tili – davlat tili. Respublika jamoatchiligi tomonidan allaqachon oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi koʻtarilgan edi. Oʻzbekistonning sobiq rahbariyati bu masalaga millatchilik, mahalliychilik deb qarardi. Oʻzbekistonning yangi rahbariyati jamoatchilik fikrini inobatga oldi, masalani bosiqlik bilan hal qilish yoʻlini tanladi. Oʻzbekiston SSR Oliy Sovetining 1989-yil 21-oktabrda boʻlgan oʻn birinchi sessiyasida “Oʻzbekiston SSRning davlat tili haqida” Qonun qabul qilindi. Qonunda: “Oʻzbekistonning davlat tili oʻzbek tilidir, oʻzbek tili Respublikaning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida toʻliq amal qiladi”, – deb belgilab qoʻyildi. 1990-yil 19-fevralda “Oʻzbekiston SSRning davlat tili haqida”gi Qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi. Qonun va davlat dasturiga binoan, mehnat jamoalari, oʻquv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan oʻzbek tiliga oʻtkazila boshladi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirila boshlanishi respublika ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqea boʻlib, mustaqillik sari tashlangan yana bir muhim qadam boʻldi. Respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini xolisona tahlil etish, baholash va koʻtarishga qaratilgan dastlabki saʼy-harakatlar qilindi. Qishloq aholisiga shaxsiy tomorqa uchun yer ajratildi. Yerga muhtoj 381 ming oilaga tomorqa yerlari berildi, 372 ming oila oʻz tomorqalarini kengaytirib oldi. Shu maqsadlar uchun jami 150 ming gektar yer ajratildi. Respublikada “Ish bilan taʼminlash” dasturi ishlab chiqildi. Ana shu dasturga binoan 1990-yilda 300 ming kishi, asosan yoshlar ish bilan taʼminlandi. Aholining kam daromadli qismini ijtimoiy jihatdan himoyalash uchun 1990-yilda budjetdan va korxonalar hisobidan 142 mln soʻm qoʻshimcha mablagʻ ajratildi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Prezident lavozimining ta'sis etilishi: 1990-yil 18-fevralda O'zbekiston Oliy

Sovetiga saylov bo'ldi. Bu saylov ning yangiligi shundan iborat bo'ldiki, oldingi saylovlarda bir deputatlik o'rniga bitta nomzod ko'rsatilgan bo'lsa, mazkur saylovda 500 saylov okrugining 326tasida muqobil nomzodlar ko'rsatildi.

1990-yil 24–31-mart kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining I sessiyasi bo'lib o'tdi. 24-mart kuni sessiya SSSR tarkibidagi respublikalar orasida birinchi bo'lib "O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. 1990-yil 24-mart kuni Oliy Sovet sessiyasida yashirin ovoz berish yo'li bilan Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. Ana shu sessiyada I. Karimov nutq so'zlab, O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini, o'zini-o'zi idora qilishga va o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishni ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi ekanini ta'kidladi. SSSR va Markaziy hokimiyat mavjud bo'lgan sharoitdayoq O'zbekistonda Prezident saylanishi muhim voqea bo'ldi, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi: O'zbekiston SSR Oliy Sovetining II sessiyasi 1990-yil 20-iyun kuni "Mustaqillik Deklarasiyasi"ni qabul qildi. Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya tamoyillariga asoslanib, O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, quyidagilar bayon etilgan:

• O'zbekiston SSR davlat suvereniteti;

• O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida barcha tarkibiy qismlarda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligi;

• O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga ega bo'ladi;

• O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazolar.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zbekiston mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo‘lib, mamlakatimizning o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida yana bir yangi qadam bo‘ldi.

2. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi. Ittifoq shartnomasini yangilash talabi. Sobiq SSSR tarkibidagi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edi. Ular o‘z yerlari, suvlari, o‘rmonlari va yerosti boyliklariga, ko‘pdan-ko‘p korxonalariga o‘zlari egalik qilolmas edilar. 80-yillarning oxirlari 90-yillarning boshlarida ko‘pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o‘zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi rahbari I. Karimov 1989-yil 20-sentabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan KPSS MQning plenumida so‘zlagan nutqida, respublikalar bilan SSSR o‘rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo‘yishni ko‘zda tutadigan yangi federativ shartnoma ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirib: “Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o‘zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo‘yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz”, – degan edi.

Biroq markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e’tiborga olmadi, to‘g‘rirog‘i ularga erkinlik berishni xohladi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta’siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. 1990-yil bahorida Boltiqbo‘yi respublikalari Latviya, Litva, Estoniya, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon SSSR tarkibidan chiqqanligini e’lon qildilar. 1990-yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi.

1991-yil fevral-mart oylarida Ittifoq Shartnomasi loyihasi ustida qayta ish olib borildi. Unda Boltiqbo‘yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo‘lib qatnashdi. Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo‘yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab berilgan shartnoma loyihasi matbuotda e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining 1991-yil 12-martda bo‘lgan IV plenumida so‘zlagan nutqida: “Ittifoq Shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo‘ldan boy berib qo‘yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko‘targan kishilarning ovoziga hech kim quloq solmadi. Markaz 1922-yildagi shartnomaga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

mahkam yopishib olib, oqilona takliflarni qabul etmadi, ishni paysalga soldi”, – degan edi. Bu fikrning to‘g‘riligini hayot to‘la isbotladi.

Butunittifoq referendumi: SSSR Oliy Soveti Ittifoq Shartnomasini o‘zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren Respublikalar Federasiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991-yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o‘tkazishga qaror qildi. 1991-yil 20-fevralda O‘zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o‘tkazishni ma’qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga, yana bitta qo‘shimcha byulletenni ovozga qo‘yishga qaror qildi. Qo‘shimcha bulletenga “Siz O‘zbekistonning mustaqil, teng huquqli Respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?” – degan savol qo‘yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga “Ha” deb javob berdilar. Demak, o‘zbekistonliklar o‘z mamlakatini mustaqil davlat sifatida Federativ Ittifoqda bo‘lishini, O‘zbekistonning suveren Respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar.

1991-yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, O‘zbekiston, Qozog‘iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo‘ldi. Uchrashuvda mustaqil Respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq Shartnomasini tuzishga yondashish yo‘llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo‘ldi.

Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzishga intilish. 1991-yil aprelda Novo-Ogaryovoda SSSR Prezidenti M.S. Gorbachovning 9 respublika – RSFSR, Ukraina, Belorussiya, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston rahbarlari bilan uchrashuvi bo‘ldi. Ishtirokchilar tomonidan “Mamlakatdagi vaziyatni va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo‘lmaydigan choralar to‘g‘risida” qo‘shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat “9+1” (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo‘lganini ko‘rsatadi. 1991-yil 3-iyunda Novo-Ogaryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o‘rtasida uchrashuv bo‘ldi. Uchrashuvda Mustaqil Davlatlar Ittifoqi (MDI) tuzish masalasi muhokama qilindi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan "Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma" loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Sovetlariga muhokama uchun jo'natildi. Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Sovetida 1991-yil 14-iyunda muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga, Respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

1991-yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogaryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun markaz vakillari va respublikalar rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan "Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma" loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda "Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma"ni imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S. Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi.

1991-yil 17-19-avgust kunlari O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimovning Hindiston Respublikasiga Davlat rahbari sifatida ilk mustaqil rasmiy tashrifi bo'ldi. Tashrif doirasida O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy hamda madaniyat, ta'lim, fan, turizm, sport va ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. Natijada mamlakatimiz mustaqil tashqi siyosatining dastlabki tamal toshi qo'yildi.

1991-yil avgust voqealari: Markaziy hokimiyatni – SSSRni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillik bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir "imkoniyat" vujudga kelgan edi. Ana shu kuchlar tomonidan 1991-yil 18-avgustda markaziy hokimiyatni avvalgi maqomida saqlab qolish maqsadida fitna tayyorlandi va SSSRda Favqulodda holat davlat Qo'mitasi (FHDQ) tuzildi. Uning boshliqlari G.I. Yanayev – SSSR vitse-prezidenti, O.D. Baklanov – SSSR Mudofaa Kengashi raisining birinchi o'rinbosari, V.A. Kryuchkov – SSSR Davlat Xavfsizligi qo'mitasi raisi, V.S. Pavlov – SSSR Bosh vaziri, B.K. Pugo – SSSR Ichki ishlar vaziri, D.T. Yazov – SSSR Mudofaa vaziri, V.A. Starodubsev – SSSR Dehqonlar uyushmasi raisi, I. Tizyakov – SSSR Sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

korxonalari hamda inshootlari uyushmasining prezidenti kabi Markaziy hokimiyatning rahbarlari edi. G.I. Yanayev o'zini M.S.Gorbachyovning salomatligi yomonligi sababli 19-avgustdan boshlab SSSR Prezidenti vazifasini ijro etuvchi deb e'lon qildi.

Shu tariqa, fitnachilar M.S. Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zlari hokimiyatni egallab oldilar. Mazkur qo'mita Sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga Murojaatnoma, Davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga Murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi. Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

Qaltis vaziyatda 1991-yil 19-avgustda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I. A. Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifdan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

1991-yil 20-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokoma qilib, Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Respublikasining tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston "Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya" qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi.

1991-yil 21-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSRda Favqulodda Holat Davlat Qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi.

Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991-yil 19-21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M.S. Gorbachyov prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi.

Markaziy hokimiyatda vaziyat yaxshimas edi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. 1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan SSSRda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish maqsadida Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Mazkur idoralar zimmasiga, birinchi navbatda, O'zbekiston va uning fuqorolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilish topshirildi. Mazkur farmonga binoan O'zbekiston hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston Harbiy okrugi qismlari va qo'shinlari partiyadan butunlay xolis qilindi.

Mazkur farmonda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning "Davlat mustaqilligi to'g'risidagi" Qonun loyihasini tayyorlash va uni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etish taklif qilindi. Mazkur Farmon imzolangan kun – 1991-yil 25-avgustdan kuchga kirdi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

10-MAVZU. MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR:O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI

O'zbekiston mustaqil davlat. SSSR tanazzulga uchragach, O'zbekiston rahbariyati davlat mustaqilligini to'la o'z qo'liga olishga kirishdi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Oliy Kengash 1991-yil 26-avgust kuni "O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida" Qonun loyihasini tayyorlash haqida va 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991-yil 28-avgust kuni O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy Nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning SSSRda 19-21-avgust kunlari sodir bo'lgan fojiali voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari tarixiy VI sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

Sessiyada "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti" qabul qilindi. Bayonotda bunday deyilgan edi:

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

"Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi".

Oliy Kengash sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Mazkur qarorda:

1) Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Oliy Kengash sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bu qonun 17 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunda:

• O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir;

• O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi;

• O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegaralari, hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini, erkini bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas;

• Respublika hududidagi yer, yerosti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb qonunlashtirilib, belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini mustahkamlashda Prezident I.A. Karimovning 1991-yil 6-sentabrda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa ishlari vazirligi tuzish to'g'risida"gi Farmoni alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Farmonga binoan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuzildi. O'zbekiston hududidagi harbiy kommisiyalar, barcha

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

harbiy garnizon va qismlar, chegara qo'shinlari bo'linmalari, havo hujumiga qarshi harbiy qismlar, harbiy transport aviasiyasi, razvedka qo'shinlari va boshqa turdagi qo'shinlar respublikamiz tasarrufiga olindi. O'zbekiston hududidan tashqarida xizmat qilayotgan harbiy zobit va askarlarimiz Vatanimizga qaytarildi. O'zbekistonlik yigitlarimizning Ittifoqda xizmat qilishlariga chek qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida 1991-yil 30-sentabr kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalari "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo'yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbek xalqi tarixida, mamlakatimizda yashaydigan barcha xalqlar tarixida chinakam tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan voqea sodir bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining aholisi mustaqillik e'lon qilingan paytda 21,5 mln kishini tashkil etgan. 2014-yilda aholi soni 31 milliondan ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil noyabrda bo'lgan VIII sessiyasi Davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazish haqidagi masalani ko'rib chiqdi. Oliy Kengashning mazkur sessiyasida 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida" referendum hamda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish to'g'risida" qarorlar qabul qilindi.

Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagicha kiritildi: "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?" Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" qonun qabul qilindi.

1991-yil 29-dekabr kuni umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Referendumda 9 898 707 kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi

www.nitropdf.com

Durdona

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullaymiz, deb ovoz berdi. O'zbekiston Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi, uning butun tarixiy taraqqiyoti natijalaridan kelib chiqadigan obyektiv va qonuniy hodisadir.

Respublika xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotli va qat'iyatliligi, uzoqni ko'ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligiga erishuvi tinch, demokratik, parlament yo'li bilan ijtimoiy larzalarsiz, qurbonlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi.

Islom Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti. 1991-yil 29-dekabr kuni muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimov uchun 8 514 136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy Saylov Komissiyasi saylov yakunlarini ko'rib chiqib, I.A. Karimovni 1991-yil 29-dekabrdan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qasamyod qildi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman, respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman!"

2000-yil 9-yanvarda, 2007-yil 30-dekabrda, 2015-yil 29-martda muqobillik asosida to'g'ridan-to'gri umumxalq Prezident saylovi bo'lib o'tdi. Bu saylovlar natijasida Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining umumxalq tomonidan saylangan birinchi Prezidentidir.

Vatanimiz tarixi sahifalariga oltin harflar bilan yoziladigan o'sha kunlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni o'sha paytda yosh, mustaqil O'zbekiston hukumati mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab muhim hujjatlar qabul qilganining guvohi bo'lamiz. Misol uchun, 5-sentabrda imzolangan Toshkent shahridagi Lenin nomidagi maydonni "Mustaqillik maydoni" deb nomlash to'g'risidagi, 6-sentabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligini

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tuzish to‘g‘risida”gi Prezident farmonlari va boshqa muhim siyosiy hujjatlar shular jumlasidandir.

Davlat ramzlari va Konstitutsiya: O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo‘lib davlat ramzlari belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida 1991-yil 18-noyabrda tasdiqlandi. Davlat bayrog‘i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an’analarni davom ettirgan holda, respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o‘zligini ham aks ettiradi.

O‘zbekistonning Davlat gerbi o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilindi. Gerbning markazida qanotlarini keng yozib turgan Humo qushi tasvirlangan. Bu baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Qadim-qadim zamonlardan buyon Humo qushi o‘zbek xalqi orasida odamlarni baxt-saodatga yetaklovchi kuch ramzi sifatida e’zozlab kelingan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi. Davlat madhiyasining matni O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O‘zbekiston xalq bastakori Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo yetish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilingan O‘zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda bo‘lgan II sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiyada O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuziladi. Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda Konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o‘rganildi, inson huquqlari,

www.nitropdf.com

Durdona

demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo‘lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g‘oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1992-yil 26-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e’lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e’lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy daholigi va tafakkurining mahsuli bo‘ldi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov O‘zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o‘zining katta hissasini qo‘shdi.

Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni” deb e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining dastlabki Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 128 moddadan iborat. U “Mustaqillik Deklaratsiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning xohish irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to‘plangan eng ilg‘or Konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi nusxalaridan ko‘chirib olinar edi. Shuning uchun ham yangi Asosiy qonunimiz mustaqil O‘zbekistonning I Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarni bilib olishga ahamiyat berish zarur.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

• O‘zbekiston Konstitutsiyasining muhim tamoyili davlat suverenitetidir. Davlatimizning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi.

• Konstitutsiyamizning tamoyillaridan yana biri xalq hokimiyatchiligidir.

• Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil – davlat hokimiyatining uch mustaqil tarmoqqa bo‘linishidir. O‘zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo‘linishi qonunlashtirildi.

• Asosiy Konstitutsiyaviy tamoyillardan biri demokratiyaga sodiqlikdir. Kontitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umume’tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan.

• O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo‘yilgan.

• Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil – Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi”, – deb belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o‘rnatilgan. O‘zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat’iy nazar barcha fuqarolari O‘zbekiston xalqini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining huquqiy maqomi, O‘zbekiston bilan o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun huquqiy islohotlar uchun asos bo‘lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasidan o‘tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda.

Asosiy qonunga kiritilgan o‘zgartiishlar va qo‘shimchalar. 2003-yil 24-25-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

kiritish to‘g‘risida” gi qonun loyihasi muhokama qilindi va qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan, Konstitutsiyaga O‘zbekison Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat dan (yuqori palata) iborat bo‘lishi haqida o‘zgartirishlar kiritildi. Prezidentlik muddati 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning vakolat muddati tugasa, umrbod Senat a’zosi lavozimini egallashi belgilandi.

2007-yil 11-aprelda qabul qilingan qonunga binoan, Konstitutsiyaning 89-moddasidan Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i – Vazirlar Mahkamasining Raisi ekani to‘g‘risidagi norma chiqarib tashlandi. 89-moddada “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig‘idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorlikni ta’minlaydi”, deb belgilab qo‘yildi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 15-bandi va 102-moddasining ikkinchi qismi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini qonuniga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi”, deb o‘zgartirildi.

2011-yil 18-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga binoan, Konstitutsiyaning 98-moddasiga “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasining saylovlarda eng ko‘p deputatlik o‘rnini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi. Bosh vazir nomzodi uning uchun tegishicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari umumiy soninig yarmidan ko‘pi tomonidan ovoz berilgan taqdirda tasdiqlangan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi...”, degan o‘zgartirishlar kiritildi. Shuningdek, Oliy Majlis Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi berilishi mumkinligi ham Konstitutsiyada belgilab qo‘yildi.

2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 5 yil muddatga saylanadi, degan o‘zgartirish kiritildi.

Muxtasar qilib aytganda, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o‘rtasidagi vakolatlar yanada demokratik ravishda qayta

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

taqsimlanadi. Kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, hukumatning mas'uliyatini kuchaytirishga, jamiyat siyosiy hayotining faollashuviga, saylov tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Mustaqillikning qo'lga kiritilishi bilan Vatanimiz hayotida tarixiy burilish sodir bo'ldi. Endi O'zbekiston oldida boshqa davlatning qosh-qovog'iga qaramasdan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot masalalarini milliy manfaatlarga mos ravishda mustaqil hal qilish, jamiyatni yangilash, demokratik davlat qurish yo'llarini ishlab chiqish kabi dolzarb va mas'uliyatli vazifalar turardi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston qanday taraqqiyot yo'lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi. Ma'lumki, 90-yillar boshlarida mustaqillikka erishgan ayrim davlatlarda eski tuzumni rad etib, uni buzib, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari dasturini e'lon qilib, birdaniga demokratik davlat quramiz, birpasda rivojlangan mamlakatlar darajasiga erishamiz, deb jar solgan edilar. O'sha paytdayoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bunday shov-shuvlarga xomxayol, quruq gap deb baho bergan edi, amalda ham shunday bo'lib chiqdi. Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq eski tuzum o'z o'rnini osonlikcha bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va yengil o'z iskanjasidan chiqarmasligini ta'kidlagan edi. Eng muhimi, yangi ijtimoiy munosabatlarning zarur asosini, zaminini, poydevorini qurib olish uchun ma'lum vaqt, jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonini boshqaradigan va ta'minlaydigan, yangicha fikrlaydigan odamlarni tayyorlash-tarbiyalash kerak edi.

"Farovon turmushga erishishning ham, albatta, o'z tosh-tarozisi bor. Boshqacha aytganda, odamzod bir narsaga erishmoq uchun ma'lum vaqt huzur-halovatdan voz kechishiga ham to'g'ri keladi".

Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi, O'zbekiston oldida ham nazariy-ilmiy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'ziga xos yo'lni ishlab chiqish zarur edi. Vatan, millat taqdiri hal bo'layotgan Milliy taraqqiyotning mustaqillikning dastlabki murakkab, mas'uliyatli pallasida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan achchiq-chuchuk voqealardan olgan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

saboqlari va har bir voqeaga ilmiy asosda yondashish, kelajakni ko'ra bilish qobiliyatiga tayanib O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga bosh-qosh bo'ldi. Islom Karimov o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari to'qqizinchi sessiyasida (1992-yil 4-yanvarda) so'zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O'z yo'limiz qanday shart-sharoit va zaminlarga tayanadi? O'zbekiston yo'li, birinchidan, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo'lini ko'r-ko'rona ko'chirib olishni emas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish, degan ma'noni bildiradi. Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, evolutsion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Uchinchidan, O'zbekiston yo'li o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarga mos ravishda belgilandi. To'rtinchidan, o'z yo'limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, musulmon davlatlar bilan o'zaro aloqalarni kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi. Beshinchidan, yangi yo'lni tanlashda O'zbekistonning geostrategik mavqeyi, mustaqillikka erishgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy resurslari asos qilib olindi. Oltinchidan, respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o'sib borishi ham inobatga olindi. Yettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e'tiborga olindi. Negaki, sovetlar zamonida kishilarda shakllangan yaxshi ishlasa ham, yomon ishlasa ham davlat boqadi, degan boqimandalik, tayyorga ayyorlik, mulkka nisbatan bepisandlik ruhiyatini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmas edi, buni hisobga olish zarur edi, albatta. Milliy istiqlolning dastlabki kunidanoq chinakam Mustaqil O'zbekistonni barpo etish, har qanday "izn"lardan xoli xalqchil, adolatli jamiyat qurish bosh maqsad qilib qo'yildi. Davlatimiz ichki va tashqi

www.nitropdf.com

Durdona

siyosatining asosiy yo'nalishlari ana shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda belgilandi. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab boradigan davlatdir. Xalq davlat hokimiyatining manbayidir. Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi.

Kelajagi buyuk O'zbekiston davlatining siyosati inson va jamiyatning erkinligini, fuqarolarning farovon turmushini ta'minlashga qaratilgan. Yurtboshimiz o'zining mazkur asarida jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini o'zi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdan yangilash vazifalarini belgilab berdi.

Siyosiy sohada bu quyidagilarni bildiradi:

- xalq manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratiya tamoyillarini qaror toptirishni, xalq ham bevosita, ham o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to'liq imkoniyatga ega bo'lishini;

- qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etishni, jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni, respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlarini aniq belgilab qo'yish va adolatli qonunchilikni vujudga keltirishni;

- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustuvorligini, jamiyat manfaatlari va aholi xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishni;

- O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligidan va e'tiqodidan qat'iy nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarishni;

- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlari va an'analari saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta'minlashni;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

- chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylikni amalda shakllantirishni bildiradi.

www.nitropdf.com

Durdona

Iqtisodiy sohada:

- milliy boylikning ko‘payishini, odamlarning turmush va ish sharoitlarini munosib ta’minlaydigan qudratli, barqaror va jo‘shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

- ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirishni, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishni;

- mulk egalari huquqlarining davlat yo‘li bilan himoya qilinishini ta’minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

- iqtisodiyotni o‘ta markazlashtirmaslik hamda yakkahokimlikka barham berish, korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirish, davlatning xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

- mehnat qilish, dam olish, ta’tilga chiqish, ishsiz bo‘lib qolgan taqdirda ijtimoiy muhofazaga bo‘lgan Konstitutsiyaviy huquqni ro‘yobga chiqarishni;

- tabiiy resurslardan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga, ekologik vaziyatga-ziyon yetkazishga yo‘l qo‘ymaslikni bildiradi.

Ijtimoiy va ma’naviy sohada:

- umuminsoniy qadriyatlarga, insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmati, yashash joyini tanlash huquqini, inson huquqlariga doir xalqaro me’yorlarni qaror toptirishni;

- ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, fuqarolarning vatanparvarlik his-tuyg‘ularini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlashni;

- o‘zbek tilini rivojlantirishni, bu tilning davlat maqomini to‘liq ro‘yobga chiqarishni;

- hurfikrlilikni, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirishni;

- ijtimoiy adolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari – keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko‘p bolali oilalar, o‘quvchi-yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo‘lgan kafolatli huquqlarini ta’minlashni;

- hamma uchun ma’qul sifatli tibbiy xizmatni ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilishni;

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

- yangi demokratik ta'lim konsyepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, umumiy ta'lim olish, kasbni va tegishli maxsus tayyorgarlikni o'tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berishni;

- ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilishni bildiradi.

Mana shunday siyosiy, davlat va Konstitutsiyaviy tuzumga erishishning kaliti fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirishdir. Zero huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir. Qonunni buzishga hesh kimning haqqi yo'q.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993-yilda nashr etilgan "O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birontasini takrorlamagan holda o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb qabul qilindi. Tanlangan yo'l yengil-yelpi yumush emas edi, u xalqimizdan matonatni, mashaqqatli va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishni talab qilardi. Yangi jamiyat qurish ishlarini bir yo'la, siltov yo'li bilan bajarib bo'lmasligi davlat rahbarlaridan boshlab oddiy fuqarolargacha hammaga tushunarli edi. Shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymasdan, tadrijiy yo'l bilan keng qamrovli siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar o'tkazish lozim edi. O'zbekistonga xos taraqqiyot yo'lining nazariy, ilmiy, amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi bizning eng katta yutug'imizdir. Tanlangan yo'lning to'g'riligini xalqimiz, dunyodagi nufuzli davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchi olimlar e'tirof etdilar. I. A. Karimov ana shunday keng qamrovli islohotlarning ijodkori bo'ldi, ularni hayotga tatbiq etishga bosh-qosh bo'ldi. Mustaqillik nuriga to'lgan O'zbekistonning o'tgan yillari davomida siyosiy,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yangilanish yo‘lidan borib, o‘zimiz tasavvur etishimiz ham qiyin bo‘lgan ulkan zafarlarga erishildi.

11-MAVZU. O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK, FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANISHI, AMALGA OSHIRILGAN SIYOSIY ISLOHOTLAR

Mahalliy davlat hokimiyati organlari. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko‘plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalardan biri respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo‘lgan mahalliy vakillik organlari xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Biroq bular oldingi tizimdan demokratik mohiyati bilan tubdan farq qiladi.

1992-yil 4-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992-yilda ilk bor Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati — hokimiyatlar tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari” deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, vazifalari, tuzilish tartibi mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko‘ra, avvalgi mahalliy vakillik organlarining nomi Kengashlar deb o‘zgartirildi. Ularning samarali ishlashini ta’minlash uchun viloyat, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo‘g‘inli tizimi mavjud bo‘lib hisoblanadi, ular:

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari (Sovetlari)

– yuqori bo‘g‘in;

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o‘rta bo‘g‘in;

www.nitropdf.com

Durdona

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo‘g‘in.

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo‘g‘inli tizimini mustahkamladi, ya’ni quyi bo‘g‘in olib tashlandi. Ular o‘rniga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tuziladigan bo‘ldi. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati, hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo‘lindi. Mahalliy vakillik organlariga – xalq deputatlari Kengashlari kiradi. Ular o‘z faoliyatini jamoaviy (kollegial) asosda olib boradi. Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, vakillik organlariga 21 yoshga to‘lgan fuqarolar saylanadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60tadan ko‘p bo‘lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30tadan ko‘p bo‘lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati kiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101-moddasiga ko‘ra, hokimlarning vakolat muddati – 5 yil. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanlarga bo‘ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo‘ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta’sis etildi, ularning apparati – hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O‘zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Mahalliy davlat hokimiyat organlari sud hokimiyati organlari, prokuratura, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o‘zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo‘liga kirgach, O‘zbekistonga xos va mos fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vujudga keldi. Xususan, hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida bu institut mahalliy “o‘zini o‘zi boshqarish” deb atalsa, O‘zbekistonda esa “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi” deb ataladi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining huquqiy zamini mustahkamlandi. Konstitutsiyaning 105-moddasiga ko‘ra, “Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi”. 1999-yil “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”, 2004-yilda esa “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Shunday qilib, fuqarolar yig‘ini ma’lum muddatda to‘planib ish yuritadigan o‘zini o‘zi boshqarish vositasi bo‘lsa, rais, uning maslahatchilari doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi tuzilmadir.

Prezidentning 2017-yildagi farmoni asosida fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilandi. Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo‘yicha rais o‘rinbosari, shuningdek, Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma’rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha rais o‘rinbosarlari lavozimlari joriy etildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

faoliyat yuritadigan fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi.

Saylov tizimi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishida xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" (1991-yil 18-noyabr) qonun qabul qilindi. XX asr 90-yillarining boshida saylovlar, saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi va "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Saylovlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tashkil etiladi, komissiya 1998-yildan e'tiboran mustaqil muvaqqat organ sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, 2014-yildan esa doimiy organ sifatida tashkil etildi. Markaziy saylov komissiyasi va uning a'zolari o'z faoliyatini har qanday davlat oganlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan. Har bir fuqaro – saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat yetib saylanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan mamlakat Prezidenti saylovi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishlicha ularning Konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi 3-o'n kunligining 1-yakshanbasida o'tkaziladi.

O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining yuzaga kelishi. Ko'ppartiyaviylik jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

faoliyat yuritishidir. Bu holat demokratik yo‘lga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko‘rsatishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy garovidir.

Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishidir. Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yilning noyabrida asos solindi. Uning maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur partiya tashkil etilganidan hozirgi kunga qadar besh marotaba Prezident saylovlarida hamda parlament saylovlarida ishtirok etib, parlamentda o‘z fraksiyasini tashkil etishga erishdi.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning rivojlanish tarixida o‘z o‘rniga ega partiyalardan yana biri O‘zbekiston “Vatan taraqqiyoti” partiyasi bo‘ldi. Ushbu partiya 1992-yil tashkil topgan. 1999-yili “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi ta’sis etildi. U O‘zbekiston fidokorlar maqsadlari va intilishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan siyosiy uyushma sifatida dunyoga keldi. 2000-yil aprelda “Vatan taraqqiyoti” partiyasi va “Fidokorlar” milliy-demokratik partiyasining qo‘shma qurultoyi bo‘lib, unda har ikki partiya harakati, faoliyat dasturi yakdilligi muhokama qilindi, ularning birlashib ishlashlari maqsadga muvofiq degan xulosa asosida ikkita partiya birlashdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidir. U 1995-yil fevralda tuzilgan. Sotsial-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Partiya shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi sotsial-demokratik yo‘nalishdagi partiyalar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga va xalqaro sotsial-demokratik harakatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi o‘rta sinf va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi, ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini ifodalashga intiladi.

Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri – bu O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidir. Ushbu partiya 1995-yili iyunda tuzilgan. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an’analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. 2008-yil iyunda O‘zbekiston

www.nitropdf.com

Durdona

“Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi va O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib, unda O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasini birlashtirish to‘g‘risidagi masala ko‘rildi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir-biriga yaqinligi ta’kidlandi va ular birlashtirildi.

O‘zbekiston siyosiy tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib ulgurgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) 2003-yil noyabrda tashkil topgan. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo‘jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o‘tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilganini ko‘ramiz. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonunlar hamda “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni shular jumlasidandir. Tabiiyki, siyosiy partiyalarning jamiyatda qanchalik mavqega ega ekanligini belgilovchi asosiy mezon – bu ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo‘ladigan saylovlarda qanday natijalarga erishganligi hisoblanadi.

O‘zbekiston ekologik harakati. 2008-yil O‘zbekiston Respublikasining “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga besh yil muddatga 135 deputat saylanib, Qonunchilik palatasining 15 deputati O‘zbekiston ekologik harakatidan, o‘z ichki qurultoyidan saylanishi belgilandi. Ushbu Qonun asosida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasidagi deputatlarining soni 150 deputatdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston ekologik harakati 2008-yil avgustda tashkil topgan. O‘zbekiston ekologik harakati o‘z faoliyatini fuqarolarning hozirgi va kelgusi

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashashi, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga qaratgan. 2017-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi e’lon qilindi. Mazkur Murojaatnomada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o‘rni belgilab qo‘yilmasdan, Ekologik harakat boshqa partiyalar bilan teng raqobatga kirishgan holda, saylovlar orqali deputatlik o‘rniga erishishi lozimligi taklif etildi.

Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: 2000-yildan bugungi kunga qadar bo‘lgan davrni qamrab olgan bosqichda mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi qilib milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o‘tish masalasi qo‘yildi. Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haqhuquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi, fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy faolligi ortib bordi. Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsyepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu bosqich davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so‘z erkinligini ta’minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

2002-yili bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning IX sessiyasida mamlakatning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ayni ana shu ko‘p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o‘rtaga tashladi. Unda islohotlarga doir yettita masala – ustuvor yo‘nalish belgilab berildi. Ustuvor yo‘nalishlardan biri jamiyat hayotida nodavlat va notijorat tashkilotlarning o‘rni va rolini oshirish orqali fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini chuqurlashtirish,

www.nitropdf.com

Durdona

“Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” tamoyilini amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat siyosatining bosh yo‘li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, qonun oldida barchaning tengligini ta’minlash, “fuqaro – jamiyat – davlat” prinsipini joriy etish, ana shu yo‘l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish bo‘ldi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Islom Karimovning 2010-yil 12-noyabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida qilgan ma’ruzasi amalga oshirilgan islohotlarni sarhisob qilish hamda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini yanada rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab olish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu Konsepsiyada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar mufassal tahlil yetilib, bu yo‘nalishdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirish bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish yuzasidan Konstitutsiyaning 78-, 89-, 93-, 96-, 98-moddalariga o‘zgartirishlar kiritilib, unga asosan Bosh Vazir nomzodi saylovlarda (Oliy Majlis) eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdorda ko‘p o‘rin olgan siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi, Prezident taqdim etilgan nomzodni ko‘rib chiqib, 10 kun muddat ichida Oliy Majlis palatalari tomonidan ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun taklif etadigan bo‘ldi.

Konsepsiya olti qismdan iborat bo‘lib, unda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini, saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish, bozor iqtisodiyotini liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish borasidagi muhim vazifalar belgilangan.

Sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida advokatura instituti takomillashtirildi va uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan jinoyatlar tasnifi

www.nitropdf.com

Durdona

o‘zgartirildi. Sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tkazildi. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”, “Teleradioeshittirishlar to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risida”, “Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunlarni qabul qilish belgilandi. Natijada axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash sohasida, umuman, mamlakatda ushbu sohaga oid 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi.

O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish sohasida saylov qonunchiligi takomillashtirilib, saylov tizimi izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirib borildi. Muddatidan oldin ovoz berish muammosini hal etish, uchastka saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash borasida amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish belgilandi. Ayni paytda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud. 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017-yilda “Nuroniy” jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi.

Xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi. 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Shu yilning sentabr oyida Bosh vazirning (pm.gov.uz elektron manzilida) virtual qabulxonasi ochildi. 2017-yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo‘yildi. 2017-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimizning barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlab o'tdi.

2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. Mamlakatning 2016-yilda saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalish keltirilgan:

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

I. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish (moviy havorang – osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi).

II. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish (siyohrang – qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi).

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish (tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi).

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta’minlash ramzi).

V. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat (oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).

Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda, alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qiladigan bo‘ldi.

DURDONA

12-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY O‘ZGARISHLAR.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li, taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol o‘ta murakkab edi. Mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston sovet tuzumi davridagi iqtisodiyot asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi va bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, dunyodagi barcha mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Har bir davlat o‘zining tarixiy taraqqiyot an’analari, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z yo‘li, o‘z

www.nitropdf.com

Durdona

modelini ishlab chiqishi lozim. O'zbekiston ham ana shu umumiy dastur va umumiy qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishga imkoniyat beradigan o'z yo'lini tanlab oldi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'liga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil:

1. Iqtisodning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan xoli etish.

2. Davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi.

4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, izchil ravishda o'tish kabilar asos qilib olindi.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davridan respublika hukumati va Prezidenti tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, davlat pensiya ta'minoti, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning sog'lig'ini saqlash haqida va boshqa shu kabi respublika qonunlari, hukumat qarorlari va Prezident farmonlari qabul qilindi.

Iqtisodiy islohotlarni boshqarish tizimining barpo etilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy strategik maqsadi, avvalo, kishilar turmushi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan, kuchli va muntazam rivojlanib boruvchi iqtisodiy tizimni barpo etishdir. Bozor munosabatlariga o'tish davrining birinchi bosqichi mustaqillik kunidan milliy valyutani muomalaga kiritishgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda ikkita asosiy vazifa hal qilindi. Birinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlari yengib o'tildi, tanglikka barham berildi va iqtisodiyot barqarorlashtirildi. Ikkinchidan, bozor munosabatlarining huquqiy negizlari shakllantirildi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatning huquqiy-iqtisodiy negizlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Islohotlarning birinchi bosqichida Oliy Kengash tomonidan iqtisodiyotga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, xususiylashtirish chog'ida imtiyozlar tizimi yaratildi. Xususiylashtirilayotgan korxona mehnat jamoasining xodimlariga aksiyalarni imtiyozli shartlar bilan sotib

www.nitropdf.com

Durdona

olish imkoniyati berildi. Eskirgan asosiy fondlar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari yangi mulkdorlarga tekinga topshirildi. Qishloq xo‘jaligi davlat xo‘jaliklarining mol-mulki, fermalar, bog‘lar va uzumzorlar imtiyozli shartlar asosida xususiylashtirildi.

Davlat mulkini xususiylashtirish zaruriyati bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan jamiyatni barpo etishning asosiy shartidir. O‘zbekistonda chek vositasi bilan xususiylashtirish g‘oyasidan voz kechildi, davlat mol-mulki yangi mulkdorga faqat sotish yo‘li bilangina mulkchilikning boshqa shakliga aylantirila boshlandi. O‘zbekiston Oliy Kengashi 1991-yil 18-noyabrda “Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qildi. Dastlabki bosqich xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalarini hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash tizimini qamrab oldi. O‘zbekiston Respublikasida xususiylashtirish jarayonini tashkil qilish va unga rahbarlik qilish maqsadida 1992-yil fevralda Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Davlat qo‘mitasi ta’sis qilindi. 1994-yilda u Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Davlat qo‘mitasiga aylantirildi. Kichik xususiylashtirish 1994-yildayoq tugallandi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir 20dan ortiq me’yoriy hujjat qabul qilindi. 1995-yili xalq xo‘jaligida ommaviy xususiylashtirishlar davri bo‘ldi. 1998-yilga kelib xususiylashtirilgan korxonalar tarmog‘i keskin ko‘payganligi bilan xarakterlanadi. Davlat mulkini xususiylashtirish yuzasidan mamlakatimizda olib borilgan katta ko‘lamdagi amaliy ishlar natijasida mamlakatda ko‘p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasi bu davrda o‘z valyutasiga ega emasligi, muomalada esa 1961-1992-yillarda chiqarilgan rublning bo‘lganligi, ayrim oziq-ovqat va sanoat mahsulotlariga o‘zining tannarxiga qaraganda arzon narx belgilanganligi uchun ularni respublikadan tashqariga olib chiqib ketish avj ola boshladi va mamlakatimizda aholini asosiy iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlashda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Milliy valyuta. O‘zbekistonda milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ma’lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu bois, O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki payti – 1991–1993-yillarda sobiq Ittifoqdan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993-yil may oyi boshlarida 800–900 rublning qadri 1 AQSH dollari darajasiga tushib ketgan edi.

O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1993-yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Prezidentining 1994-yil 16-iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, 1994-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi.

Zamonaviy transport-kommunikasiya tizimining shakllanishi. Respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning iqtisodiyotga va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash va soha boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1992-yil), "O'zbekiston avtomobil transporti" ("O'zavtotrans") davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil, 1998-yildan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi), "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalari davlat ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalari, korporaesiyalari, ochiq turdagi aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo'llarini qurish, mavjudlarini xalqaro andozalarga moslashtirish rejalashtirildi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyoda tutgan o'rni, sanoat va boshqa sohalarning taraqqiyoti, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish maqsadida 1996-yildan Toshkent–Andijon–O'sh magistralining 100 kmdan ortiq tog'li uchastkalarida qurilish ishlari boshlandi. Qamchiq va Rezak tunnellari foydalanishga topshirildi. Almati–Bishkek–Toshkent–Termiz va Samarqand–Buxoro–Ashxabod–Turkmanboshi avtomobil yo'li, Yevropani Kavkaz orqali

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Osiyo bilan bog‘laydigan avtomobil yo‘li (Yevropa–Kavkaz–Osiyo transport yo‘lagi bir qismi)ning respublika hududidan o‘tadigan qismini ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekistonni Qozog‘iston orqali Rossiya Federasiyasi bilan bog‘laydigan 340 kilometrli Qo‘ng‘irot–Beynov avtomobil yo‘li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi.

O‘zbekistonning yagona temiryo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha 1994-2001-yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin Navoiy–Uchquduq–Nukus temir yo‘li qurib bitkazildi. Respublika hududida barcha transport turlarining yuk va yo‘lovchilar tashish ishlarini maqbul holga keltirish, kommunikatsiyalarni jadal rivojlantirish, transportda yuk va yo‘lovchilarni tashish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda transmilliy transport yo‘laklarini rivojlantirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida 2004-yilda “O‘zbekiston transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi” tashkil etildi. Uyushma tarkibiga “O‘zbekiston temiryo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, “O‘zavtoyo‘l” kompaniyasi, transport kommunikatsiyalari qurilishi bilan shug‘ullanuvchi respublika loyiha va qurilish tashkilotlari kiritildi.

Bu davrda “O‘zbekiston havo yo‘llari” belgisi bilan parvoz qilayotgan samolyotlar turli davlatlarda joylashgan 40dan ziyod aeroportga muntazam qatnay boshladi. Aviatsiya sohasida amalga oshirilgan chuqur o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotini mustahkamlashda, uning dunyo miqyosidagi obro‘-e’tiborini yanada oshirishda o‘ziga xos omil bo‘ldi.

Temiryo‘llar qurilishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. 2001-yilda 341 km bo‘lgan Navoiy–Uchquduq–Sultonzoda yo‘nalishi, 2007-yilda uzunligi 220 km bo‘lgan G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on yo‘nalishi qurilishi tamomlangan. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi savdo-sotiq, tranzit aloqalarining rivojlanishi va O‘zbekistonni dengiz transportiga olib chiqadigan eng yaqin yo‘l Afg‘oniston orqali o‘tishini hisobga olgan holda bir qator yangi temiryo‘l qurish loyihalari ishlab chiqildi. 2010-yil O‘zbekiston Afg‘oniston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihani amalga oshirdi, ya’ni Hayraton–Mozori Sharif temir yo‘lining 75 kilometrini

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qurib berdi. Bu kabi tranzit loyihalarining amalga oshirilishi O'zbekiston tashqi savdo geografiyasining kengayishiga asos bo'ladi.

2016-yil iyunda Angren–Pop temir yo'li va Qamchiq tunneli ochildi. Qamchiq dovoni orqali o'tuvchi Angren–Pop tarmog'ining qurilishi Farg'ona vodiysini O'zbekistonning boshqa hududlari bilan bog'lashga imkon tug'dirdi. Bundan tashqari, temir yo'lning uzunligi 123,1 kilometrni tashkil etib, ushbu loyiha doirasida uzunligi 19,2 kilometrdan iborat bo'lgan temiryo'l tunneli qurildi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati yo'lovchi tashish sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish uchun Toshkent–Samarqand yo'nalishi bo'ylab tezyurar yo'lovchi tashishni tashkil qildi. Yangi tezyurar poyezd nomi Afrosiyob bo'lib, bu – Samarqand viloyatida joylashgan qadimiy shahar sharafiga qo'yildi. 2011-yilning oktyabridan boshlab undan tijorat maqsadida foydalanish yo'lga qo'yildi. O'sha yili ikkinchi poyezd ham keltirilib, 2012-yilning mayidan o'z qatnovini boshladi. Ushbu eng zamonaviy tezyurar yo'nalish 2015-yilda Qarshi shahrigacha, 2016-yilda esa Toshkent–Buxoro yo'nalishi, 2018-yili Toshkent–Xiva yo'nalishi ishga tushirildi. Poyezd maksimal tezlikni soatiga 250 kilometrgacha oshirishi mumkin.

Mustaqillik yillarida Toshkent metrosi qurilishi ham jadal sur'atda o'sdi. 2001-yil avgustda Yunusobod yo'nalishining 6ta bekatdan iborat birinchi qismi foydalanishga topshirilib, yo'lovchi tashish yo'lga qo'yildi. 2016-yildan boshlab Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 7,1 kilometr bo'lgan Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi olib borilmoqda.

O'zbekiston dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoni cheklangan 34 ta davlatdan biri hisoblanadi. Shu sababli havo yo'llari transporti respublika iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. 2012-yilga kelib aviakompaniya zamonaviy havo kemalari bilan ta'minlandi. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi dunyoning 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalga oshirib, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo'nalishning havo harakatini boshqarmoqda. Shuningdek, aviakompaniya tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan, so'nggi avlod aviatsiya texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan markazning xizmatlaridan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatila boshlandi.

www.nitropdf.com

Durdona

O'zbekiston Milliy Aviakompaniyasi Boeing-757/767, A-320 samolyotlari, vatanimizda ishlab chiqarilgan Il-114–100 zamonaviy laynerlari, Boeing-767-300 ER yuk tashuvchi samolyotlarga ega bo'ldi. 2016-yilda yangi avlod samolyotlari Boeing-787 Dreamliner keltirildi. Xalqaro parvozlar xaritasiga e'tibor bersak, O'zbekiston MDHning barcha yirik shaharlari va jahonning AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Hindiston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Singapur singari ellikka yaqin mamlakatlari bilan bevosita havo yo'llari orqali bog'landi.

"O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi tarkibida 11 ta (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg'ona, Navoiy) zamonaviy aeroportlar jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilindi. 2017-yilda Islom Karimov nomi berilgan Toshkent xalqaro aeroporti Markaziy Osiyodagi yirik xalqaro aeroportlardan biri hisoblanadi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomini oldi.

Milliy avtomobilsozlik sanoatiga asos solinishi. 1992-yil avgustda Toshkentda Janubiy Koreyaning "DAEWOO Motors" korporatsiyasi va O'zbekistonning "Avtoqishxo'jmash" davlat konserni o'rtasida Andijon viloyatining Asaka shahrida avtomobil ishlab chiqaradigan "O'zDAEWOO Avto" qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi. Uning ta'sischilari etib "DAEWOO Motors" korporatsiyasi va "O'zavtosanoat" uyushmasi, har ikki tarafning qo'shma korxonadagi ulushi teng miqdorda 50% dan iborat qilib belgilandi. Korxona qurilishiga ilg'or texnologiyalar, tajribali muhandislar, o'zbekistonlik yoshlar jalb qilindi. 1000 dan ortiq o'zbekistonlik yoshlar Janubiy Koreyaga borib " DAEWOO" kompaniyasida ishlab, avtomobil ishlab chiqarish tajribalarini o'rganib qaytdilar. 1996-yil iyulda "O'z DAEWOO avto" qo'shma korxonasi ochildi.

Bugungi kunda "O'zavtosanoat" AK tizimiga kiruvchi "GM Uzbekistan" AJ (2007-yil), "SamAuto" (Samarqand avtomobil zavodi, 1999-yil), "MAN Auto Uzbekistan" (2009), "GM Powertrain Uzbekistan" QK asosiy ishlab chiqarish kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston avtomobil sanoatida mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish samarali yo'lga qo'yilishi natijasida "O'zavtosanoat" AK tarkibida 75 dan ortiq korxonalar ishlab turibdi. Mamlakat Prezidentining 2017-yildagi "Xorijiy

www.nitropdf.com

Durdona

investisiyalar ishtirokidagi "Uzbekistan Peugeot Citroen Automotive" korxonasini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasida "O'zavtosanoat" aksiyadorlik kompaniyasi Fransiyaning "Pejo Sitroyen" guruhi bilan hamkorlikda "Pejo" va "Sitroyen" brendlari ostida yo'lovchi va yuk tashishga mo'ljallangan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1996-yil Andijon viloyati Asaka shahrida Markaziy Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi ishga tushirildi. Shu yildan boshlab bir qancha rusumdagi avtomobillar ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi: 1996-yil – "Damas", "Tico", "Nexia"; 2001-yil – "Matiz; 2002-yil – "Nexia Donc; 2003-yil – "Chevrolet Lasetti"; 2004-yil – "Matiz Best"; 2006-yil – yangilangan "Damas"; 2007-yil – "Chevrolet Captiva", "Epica", "Tacuma"; 2008-yil – "Nexia II"; 2010-yil – "Chevrolet Spark"; 2012-yil – "Chevrolet Malibu", "Chevrolet Cobalt"; 2013-yil – "Lacetti II" (Gentra); 2014-yil – "Chevrolet Orlando". 2015-yilda "O'zavtosanoat" AJ tomonidan "Malibu II", " Ravon" milliy markasi ostida "Nexia III" modelining taqdimotini amalga oshirdi. 2020-yildan boshlab "Tahoe", "Trailblazer", "Equinox" kabi yuqori qatlam avtomobillari chiqarila boshlandi.

Agrar islohotlar: Milliy istiqlol yillarida mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mamlakat qishloq xo'jaligida agrar islohotlar amalga oshirildi. Qishloqda amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida mamlakatda ko'p ukladli xo'jaliklar shakllantirildi. 1990-yilda aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82%, kartoshka, go'sht va go'sht mahsulotlarining 50%, sut va sut mahsulotlarining 60 foizi chetdan keltirilar edi. 1991-2000-yillarda qishloqda amalga oshirilgan tub agrar islohotlar O'zbekiston qishloq hayotini yangi shakl va tizimga o'zgartirib yubordi. Mamlakatda suv tanqisligi hisobga olinib, 1998-yildan boshlab paxtachilikda Isroil texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usuli, Andijonlik paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Shuningdek, O'zbekiston kanop, tamaki yetishtirish sohasida ham dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi "Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

sutning 75%ini xususiy sektor bera boshladi. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida fermer xo‘jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi. 1992-yil O‘zbekiston Respublikasi “Dehqon (fermer) xo‘jaligi to‘g‘risida” Qonunning qabul qilinishi uning dastlabki bosqichini belgilab berdi. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi mazkur sohaning to‘laqonli rivojlanishi uchun huquqiy asos bo‘ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakat rahbariyati oziq-ovqat muammosini o‘z imkoniyatlarimiz hisobidan hal qilish, ayniqsa, don mustaqilligini ta’minlash masalasini kun tartibiga qat’iy vazifa qilib qo‘ydi. Mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi, g‘alla mustaqilligi ta’minlandi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yerlarning suv ta’minoti va meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha 2003-2009-yillarda 801,5 ming AQSH dollari qiymatidagi 21ta loyiha amalga oshirildi. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar natijasida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi birmuncha oshdi, fermer xo‘jaliklarining daromadini ko‘paytirish imkoniyati kengaydi.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida bu sohada zamonaviy sug‘orish tizimlari va energiyani tejaydigan texnologiyalardan foydalanishga, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari ishlab chiqildi. 2008-2012-yillarda mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi doirasida umumiy uzunligi 10 ming 500 kilometrdan ziyod xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi kollektor-drenaj tarmoqlarida jami 60 milliard so‘mga yaqin ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi. 2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug‘oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yerosti suvlari yuqori bo‘lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mazkur soha tarmoqlarining samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. 2010-yili respublika rahbarining tashabbusi bilan Ukraina va Polsha davlatlaridan olib kelingan, intensiv texnologiyalar asosida parvarishlanadigan pakana

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

va yarim pakana olma, nok, olxo'ri, gilos, shaftoli ko'chatlari, asosan Toshkent va Samarqand viloyatlarining fermer xo'jaliklari maydonlariga ekildi. Bunday bog'larni yildan-yilga kengaytirish, ularni dehqon fermer xo'jaliklarida barpo etish maqsadida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. 2017-yil holatiga ko'ra, respublikamiz hududida jami 5,5 ming gektardan ortiq maydonda mana shunday intensiv bog'lar barpo qilingan. Hozirda yetishtirilayotgan mevalar, nafaqat qo'shni mamlakatlarga, balki Yevropa mamlakatlariga ham eksport qilinmoqda.

Mustaqillik arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyat. XX asrda 70 yildan ko'proq vaqt hukmron bo'lgan, dunyo xaritasida "Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi" degan nom bilan katta hududni egallagan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan yirik mamlakatdagi to'g'ri bo'lmagan, samarasiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosat 1980-yillarning oxiriga kelib barcha ittifoqdosh respublikalar qatorida O'zbekiston aholisining ham yashash sharoitlarini og'irlashtirib, uni ko'plab muammolar iskanjasiga solib qo'ydi. Bu muammolarning barchasi 1980-yillarning oxiri, 1990-yillarning boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sabab bo'ldi. Xususan, respublikada demografik vaziyat murakkablashdi. Biroq aholining bunday o'sishi uzoq yillar davomida sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ish joylarini ko'paytirish hamda aholining hayot ta'minoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan mustahkamlab borilmadi. Bu esa odamlar turmush sharoitining og'irlashuvi, ishsizlar sonining ko'payishi, ijtimoiy mehnat unumdorligi va aholi daromadlarining kamayishi, pirovard natijada xalq farovonligining pasayishiga olib keldi. Respublikadagi ijtimoiy ahvol, odamlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish qoniqarsiz darajada edi. Ayniqsa, qishloq aholisining toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlanishi atigi 5 foizni, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi salkam 50 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlanishi 17 foizni tashkil etar edi. Aholini uy-joy, sog'liqni saqlash, madaniyat, maishiy xizmat obyektlari, maktablar, bolalar bog'chalari va hokazolar bilan ta'minlash ishlarida siljishlar sezilmadi. Vaholanki, aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Bu davrda aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,8 foizni tashkil qilgan. 1991-yilga kelib mamlakatda aholi soni 20,7 million kishidan ortib, 1990-yilga nisbatan 386,0 ming kishiga o'sgan. Bu esa

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zbekistonda aholining o‘sish sur’atlari Ittifoq sur’atlariga qaraganda uch barobardan ziyod yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar O‘zbekiston aholisi daromadlari va turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi. 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi 32,65 million kishini tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich 2017-yilga nisbatan 1,7 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni jami aholining 50,6 % ini, qishloq aholisi 49,4%ni tashkil qiladi. Aholisi soni 3 million kishidan oshgan hududlar soni 4ta bo‘lib, ular Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlari hisoblanadi. O‘zbekistonda O‘rta Osiyodagi jami aholining 1/3 qismidan ko‘prog‘i yashaydi.

Ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari – sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og‘ir ahvolda bo‘lib, maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan. Bu esa o‘sha davrda insonning har tomonlama uyg‘un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma’naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko‘pincha yashash uchun kerak bo‘lgan eng oddiy narsalar ham yetishmaganini ko‘rsatadi.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo‘nalish – bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borishi hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi. Aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash davlat siyosatining bosh yo‘nalishi hisoblanadi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilning muhim qismi aholini ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko‘rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o‘ynadi.

Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo qilishda davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya siyosati olib borildi. Ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Respublikada ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o‘z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi.

www.nitropdf.com

Durdona

Eng kam ish haqi va boshqa to'lovlar odatda, oldindan ko'paytirib kelindi, narx-navo o'zgarishi bilan bog'lab olib borildi, bu esa aholining to'lov qobiliyati saqlanib qolishini ta'minladi va turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo'nalishi – ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish bo'ldi. Bunga erishishda, muhimi, mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to'lovlari joriy yetish, kundalik zarur tovarlarni me'yorlangan tarzda sotishni tashkil qilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo'nalishi – aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash borasida chora-tadbirlar o'tkazilganligi bo'ldi. Bu yo'nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o'quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo'llar bilan himoya qilib borildi.

1992-2017-yillar mobaynida ish haqi va pensiyalarning, oliy o'quv yurtlari talabalarining, aspirantlarining, doktorantlarining stipendiyalari miqdori bir necha bor oshirildi. Pensionerlarning ijtimoiy ahvolini e'tiborga olib, eng kam pensiyaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan oshiqroq bo'lishi muttasil ta'minlanib kelindi. Bu yo'l ijtimoiy adolat tamoyillariga mos kelar edi.

1994-yilga kelib, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu tizimning mohiyati shundan iboratki, bolalar va kam daromadli oilalar bu yordamdan bahramand bo'luvchi asosiy kishilar bo'lib qoldi. 1994-yilning sentabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Bunday yordam odamlarga yaqin turadigan mahalla fuqarolar yig'inlarida amalga oshiriladigan bo'ldi.

1996-yil dekabrda bolali oilalarga ijtimoiy yordam berilishni kuchaytirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida "Bolali

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida” yana bir muhim farmon qabul qilindi. Unda 1997-yildan boshlab yordamga muhtoj, bolali oilalarga bolalarning soniga qarab, eng kam ish haqining 50 foizidan boshlab 175 foizigacha nafaqalar beriladigan bo‘ldi. Nogiron bolalarni sog‘lomlashtirish maqsadida Sog‘liqni saqlash vazirligi, “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasi tashabbusi bilan, xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda, tug‘ma nuqsonlari mavjud bo‘lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo‘li bilan davolash ishlari amalga oshirildi.

1997-yildan boshlab har yili 1-sinf o‘quvchilariga bepul o‘quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta’minlangan oilalarning boshlang‘ich sinflarda o‘qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo‘lga qo‘yildi.

Keksalarni himoya qilish. Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan, yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2005-yil – “Sihat-salomatlik yili”da 2 mingga yaqin yolg‘iz nuroniyning uy-joyi ta’mirdan chiqarildi, kam ta’minlangan oilalar va keksa fuqarolarga moddiy yordamlar ko‘rsatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yildagi “2007–2010-yillarda yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra, “Nuroniy” jamg‘armasi hisobidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, faxriylarning davolanish maskanlariga, “Saxovat” va “Muruvvat” uylariga dori-darmon vositalari yetkazib berildi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda Sog‘liqni saqlash vazirliklarining hududiy bo‘limlari bilan hamkorlikda nuroniylar to‘liq dispanser ko‘rigidan o‘tkazildi. Toshkent shahrida faxriylarimizga barcha qulayliklarga ega 150 o‘rinli “Nuroniy” shifoxonasi xizmat qilmoqda. Viloyat shifoxonalari qoshidagi kasalxonalarda jamg‘armaning viloyat bo‘limlari hamda mahalliy hokimliklarning amaliy yordami tufayli tashkil etilgan yolg‘iz keksalar va nogironlarni bepul davolovchi “Nuroniylar xonalari” faoliyat ko‘rsatmoqda.

Respublikamizdagi barcha “Saxovat” va “Muruvvat”, “Mehribonlik” uylari hamda maxsus maktab-internatlarga homiylar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tomonidan har yili moddiy yordam berib boriladi. 2015-yilda ham keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida 2015-yil – "Keksalarni e'zozlash yili" deb e'lon qilindi. Har yili urush qatnashchilari va front ortida mehnat qilganlarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilmoqda, ular sanatoriy va kurortlarda davolanmoqda, boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanmoqda.

Har yili 9-may – "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan urush qatnashchilari mukofotlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi farmoniga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari 2 mln. so'mdan mukofotlandilar. Urush qatnashchilarining ayrimlariga to'la jihozlangan uylar, Haj ziyoratiga bepul borish va navbatsiz avtomobil sotib olish imtiyozlari berildi.

Mamlakatimizda 2007-yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinishi aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, uning turmush va farovonlik darajasini izchil oshirishga qaratilgan keng ko'lamli davlat siyosatining amaliy ifodasi bo'ldi. Shu ma'noda, 2007-yil ehtiyojmand oilalarga davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rioya etishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillar yanada takomillashtirildi.

Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi. Respublikada onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilishga katta ahamiyat berilmoqda. "Bolalikdan nogironlar tug'ilishining oldini olish uchun yangi tug'ilgan chaqaloqlarni hamda homilador ayollarda tug'ma va boshqa patalogiyani barvaqt aniqlash bo'yicha "Ona va bola skriningi" Davlat tizimini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilinganligi bu soha rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yilda "2009-2013-yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va shu

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

sohada sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishni ta’minlash borasidagi ishlar davom ettirildi. Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi emlash darajasi qariyb 100 foizni tashkil etdi.

2015-yilga kelib Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, O‘zbekistonda tug‘ilayotgan bolalarning 92 foizi mutlaq sog‘lom. “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O‘zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgan eng ilg‘or yetakchi o‘nta mamlakat qatoriga kirdi.

Barcha viloyatlar markazlarida kattalar va bolalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari, har bir tumanda eng zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalari bilan jihozlangan qishloq vrachlik punktlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda respublikamizda 3000ga yaqin Qishloq vrachlik punkti (QVP) faoliyat ko‘rsatmoqda.

2016-yil O‘zbekistonda “Sog‘lom ona va sog‘lom bola yili” deb e’lon qilindi. 2016-yilda chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, birinchi navbatda, xotin-qizlar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy sharoitlar yaratish, qishloq aholisini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta’minlash, xizmat ko‘rsatish sifatini yanada oshirish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi.

O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi ham sezilarli ravishda ortib bordi. Bu boradagi umumiy ko‘rsatkich 1990-yilda 67 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda 74 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o‘rtasidagi o‘rtacha umr ko‘rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o‘rtasida esa 72 yoshdan 76 yoshga uzaygani odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o‘rinli bo‘ladi.

Uy-joylar qurilishi: Istiqlol arafasida, hali mustabid tuzum hukmronlik qilib turgan bir paytda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning yuksak jasorati bilan aholini uy-joyli qilish masalasining yechimi topildi. Natijada 1989-1990-yillarda bir yarim milliondan ko‘proq oilaga qo‘shimcha yer ajratildi, 700 ming oilaga tomorqa yerlari berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 3-avgustdagi “Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko‘lamini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori bilan boshlangan qishloq infratuzilmasini yangilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari bugun qishloqlarimiz

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

qiyofasini zamonaviy arxitektura asosida tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2009-2016-yillarda qishloq joylarda 70 mingga yaqin shinam namunaviy uy-joy bunyod etildi. Pirovardida 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktabrdagi "2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha imtiyozli uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi Qarori mazkur yo'nalishdagi keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, qishloq qurilishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayni paytda qishloq aholisining zamonaviy va arzon uylarga o'sib borayotgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, imtiyozli kredit berishning yuqori darajadagi shartlari joriy etildi. Shuningdek, energiyani tejaydigan materiallar va asbob-uskunalarning yangi turlaridan foydalanishning yanada kengaytirilishi barpo etilayotgan uylarning tannarxi pasayishi hamda aholining barcha qatlamlari uchun maqbul narxlar belgilanishiga xizmat qildi. Qarorga ko'ra, qishloq joylarda mavjud namunaviy loyihalarga qo'shimcha ravishda ikki, uch qavatli (2, 3 xonali) uy-joylar qurildi. Shuningdek, aholi zich joylashgan tumanlarda maydoni 0,02 gektar bo'lgan bir qavatli 2 va 3 xonali, maydoni 0,04 gektar bo'lgan yer uchastkalarida joylashtiriladigan ikki qavatli 4 xonali birlashtirilgan arzon uylarning yangi namunalari joriy etildi. Bundan tashqari, 2017-yildan boshlab mamlakat poytaxti va viloyatlarda uy-joyga ega bo'lmaganlar, harbiy xizmatchilar, yosh olimlar va ichki ishlar xodimlari uchun imtiyozli uy-joylar qurilib, egalariga topshirilmoqda.

DURDONA

13-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimi. Madaniy-ma'naviy rivojlanishning eng muhim poydevori ta'lim tizimidir. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan-texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi.

O'zbekistonda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu dasturulamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat

www.nitropdf.com

Durdona

siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida 10 mingdan ortiq xalq ta'limi xodimiga davlat uylari, 22 mingdan ortiq xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar bepul xususiylashtirilib berildi. 50 mingdan ortiq pedagog xodimlarga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to'lovlardan ozod etilgan bo'lsalar, shaharlik pedagog xodimlar uning 50 foizi miqdorini to'lab bordilar. Keyinchalik kommunal xizmat bo'yicha bu imtiyozlar oylik maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi.

1992-yildagi qonun asosida umumiy ta'lim quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirila boshlandi.

I bosqich – boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4-9-sinf);

III bosqich – yuqori o'rta maktab (10-11-sinf);

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil dekabrdagi qarori bilan 1-oktabr – “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1997-yildan boshlab har yili 1-oktabr “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda.

O'zbekistonda jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi siyosat 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. 1996-1997-o'quv yilidan boshlab maktablarning birinchi sinflarida o'qish lotin alifbosida olib borildi. Yangi alifboda o'qitish uchun zarur dastur, qo'llanma va darsliklar yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi: I bosqich – 1997-2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

davlat tomonidan qo‘shimcha ravishda 65 milliard so‘m mablag‘ sarf qilindi.

II bosqich – 2001-2005-yillarni o‘z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi.

III bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta’lim tizimi takomillashtirilib borildi. 2009-yildan boshlab yurtimizda to‘liq 12 yillik majburiy ta’lim joriy etildi. 9 yillik umumiy o‘rta ta’lim savodxonlik asoslarini, umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar birinchi sinfga 6-7 yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o‘rta ta’lim kerakli bilimlar hajmiga asos soladi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasbiy yo‘nalish va navbatdagi ta’lim bosqichini tanlashga zamin yaratadi. Ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni asosida maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim shakllaridan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2004-yildagi farmoni asosida 2004–2009-yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida yangi maktablar qurildi, boshqalari kapital ta’mirlandi; aniq va tabiiy fanlardan o‘quv laboratoriyalar zarur uskunalar bilan jihozlandi. Umumiy o‘rta, umuman, ta’limning barcha bosqichlarida yangi o‘quv dasturlari, davlat ta’lim standartlari yaratildi. Maktab darsliklari tamomila yangilandi hamda fan va amaliyot yutuqlari bilan boyitish bo‘yicha takomillashtirib borildi. Multimedia o‘quv adabiyotlari ham yaratilishi yo‘lga qo‘yildi. Respublikada faoliyat yuritayotgan 10 mingga yaqin maktablarning moddiy-texnika ta’minoti ham davlat hisobidan amalga oshirildi.

O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimining tashkil etilishi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, umumiy o‘rta ta’limning to‘qqiz yillik etib belgilanishi munosabati bilan to‘qqiz yillik maktabni tugatgan barcha o‘quvchilar ta’lim olishni o‘rta maxsus yoki kasb-hunar kollejlarida davom ettirdilar. Bu yangi ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tildi, ya’ni Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 1-bosqichi (1997-2001)

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

doirasida amalga oshirildi. Shu davr mobaynida 300 ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassasalari ochildi. O'rta maxsus ta'lim sohasida viloyatlarda biznes maktablari, umumta'lim maktablarida kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yangi mutaxassisliklar (fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va hokazo) kiritildi. Unga binoan, yurtimizda 1997-yildan boshlab hozirga qadar 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200ga yaqin akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo'yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalariga biriktirilishi tufayli bu bosqichda o'quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2017-yilgi islohotlar. Ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, 12 yillik ta'limni takomillashtirish yo'lidagi tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Yig'ilib qolgan muammolar sohani tub isloh qilishni, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan foydalanish zarurligini taqozo qildi. 2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12 yillik majburiy ta'limdan 11 yillik ta'limga o'tildi.

2017-yilning o'zida 10-sinf o'quvchilari uchun 9 mln. nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta'lim maktabida 11 yillik ta'limga o'tilgan holda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga qabul jarayoni bilan barobar olib borildi. Bunda ota-onalar va o'quvchilarning xohish-istaklari inobatga olindi.

2016-2017-o'quv yilida umumta'lim maktablarini tamomlagan 466 mingdan ortiq o'quvchining 288 mingi 10-sinfda o'qishni davom ettirdilar. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'inidir. Maktabgacha ta'lim, 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shu bois, bolalarning sog'lom va bilimli, yetuk salohiyatli kadrlar bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi juda

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Unga ko'ra, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Yangi vazirlik tizimiga Qoraqalpog'iston maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta'lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo'limlari kiradi.

2017-yilda O'zbekistonda 4916ta maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat yuritgan. Oxirgi 20 yil davomida bog'chalar soni 45%ga kamaygan. Ayni damda bog'chaga borayotgan bolalar umumiy bolalar sonining 30% ni tashkil qiladi.

Oliy ta'lim tizimi. Prezidentning 1992-yil fevraldagi farmoni bilan yana sakkizta viloyat pedagogika institutlariga universitet maqomi berildi. 1992-yil martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti tashkil qilindi.

Eng zamonaviy ixtisosliklar bo'yicha alohida universitet va institutlar, jumladan, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy kon-metallurgiya instituti, Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi kabi o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Toshkent davlat elektrotexnika va aloqa texnikumi institutga aylantirildi. 1993-yil talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Mamlakat qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilimlar sohibi bo'lgan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsadida Toshkent davlat agrar universiteti, Andijon, Samarqand Qishloq xo'jaligi, Qarshi Muhandislik iqtisodiyot, Toshkent Irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutlari ish boshladi. Mamlakat viloyatlarida oliy universal ta'limni joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasiga suyanib ish tutildi.

1992-yil dastlab respublikamizning 6 ta oliy ta'lim muassasasida test sinovii asosida o'qishga qabul qilish tajribadan o'tkazilgan edi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

1993-yilda esa 46 ta oliy ta'lim muassasalarining 19 tasida tajriba tariqasida test sinovlari o'tkazildi.

1994-yil Davlat test markazi tashkil etilib, shu yildan boshlab oliy ta'lim muassasalariga test orqali qabul joriy etildi. 1996-yildan ta'lim olishda kontrakt-shartnoma to'lovi joriy etildi. 1997-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, 5 yillik oliy ta'limdan 4 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura bosqichlaridan iborat ikki pog'onali tizimga o'tildi. Shuningdek, mamlakat Prezidentining 2013-yildagi "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Yuridik institut universitet maqomida qayta tashkil etildi, 2014-yildagi qarori asosida Toshkent davlat stomatologiya instituti ta'sis qilindi.

2017-yildagi holatga ko'ra, mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy o'quv yurti, jumladan, 19 ta universitet, 37 ta institutlar, 6 ta akademiya, 1 ta konservatoriya, 1 ta raqs va xoreografiya oliy maktabi, 13 ta OTMlar filiallari, 7 ta xorijiy davlatlar OTMlarining filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Malaka oshirish tizimi ham tubdan isloh qilindi. Xalq ta'limi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qatorida oliy ta'lim, tarmoq sohalarida kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlari tamomila yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentning 2015-yildagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan 15 ta yetakchi oliy ta'lim muassasalari – tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilandi.

Oliy ta'limda xalqaro hamkorlik. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning yetakchi davlatlarida ta'lim sohasida erishilgan ilg'or yutuqlarni, milliy an'analarni o'z ichiga olgan yangi modeli tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimida olib borilgan izchil islohotlar natijasida mamlakatimizda bir qator chet el universitetlarining filiallari ochildi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, Toshkent shahrida M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Italiyaning Turin politexnika universiteti filiallari ish

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

boshladi. Shuningdek, Toshkentda G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi va Janubiy Koreyaning Inha universiteti filiallari ham o'zbek yoshlariga o'z ta'lim sirlarini o'rgatmoqdalar. Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z malakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb yetmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim darajasi bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqdi. Yoshlarni jahon fani va bilimlari xazinasidan bahramand qilishga katta e'tibor berilmoqda. Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchilar va mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib borish uchun taklif qilish, shuningdek, chet el o'quv va ilmiy markazlarida xodimlarning malaka oshirishi va talabalarning o'qishi kengayib bormoqda. Ayni vaqtda jahonning ko'plab mamlakatlaridan kelgan xorijiy fuqarolar O'zbekistonda ta'lim olishmoqda.

2017-yilgi tub islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi. 2017-2018-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Ana shuni nazarda tutib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

etamiz", degan edi. 2017-yil 10 yildan ortiq vaqt mobaynidagi tanaffusdan keyin davlat va jamiyatdagi malakali kadrlarga boʻlgan ehtiyojlar inobatga olinib, Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sirtqi ta'lim tizimi tiklandi, maxsus sirtqi ta'lim takomillashtirildi.

2017-yil 16-noyabrda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini oʻtkazish tartibini takomillashtirish toʻgʻrisida"gi Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, 2018-2019-oʻquv yilidan boshlab alohida iqtidor talab etiladigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqiy ta'lim, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya sohasidagi ta'lim yoʻnalishlarida test sinovlari oʻtkazilmaydi. Masalan, Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi, Oʻzbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti va alohida iqtidor talab etadigan ta'lim yoʻnalishlariga faqat ijodiy imtihonlar orqali qabul qilish yoʻlga qoʻyiladi. Tibbiyotga oid oliy ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lim yoʻnalishlarida oʻqish muddati 7 yildan 6 yil va tibbiy profilaktika yoʻnalishida 6 yildan 5 yil etib belgilandi.

Test sinovlari shaffof va haqqoniy oʻtishini ta'minlash maqsadida, ushbu tizimni takomillashtirish hamda abituriyentlar, ota-onalarga yengilliklar tugʻdirish maqsadida mavjud tizimni isloh qilish talab etildi. 2018-2019-oʻquv yilidan boshlab test jarayonini bir kunda emas, 15 kun davomida oʻtkazish, natijasini esa imtihonning ertasiga e'lon qilish vazifalari qoʻyilgan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim. 2012-yilga qadar aspirantura (3 yil) va doktorantura (3 yil)dan iborat boʻlib, 2012-2017-yillarda bir bosqichli doktorantura faoliyat olib bordi. 2013-2017-yillar oraligʻida faqat 360ga yaqin tadqiqotchi doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan. Bu esa respublikadagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga boʻlgan ehtiyojni qondira olmadi. Oliy oʻquv yurtidan keyingi ta'lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilgʻor xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini oʻrgangan holda 2017-yilning1-

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

iyulidan boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertasiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertasiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i bo‘yicha fan doktori (Doctor of Sciense) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

14-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT *(1-QISM)*

VIII asr oxiri – IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og‘ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o‘zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O‘rta Osiyoda Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo‘lgan bunday siyosiy o‘zgarishlardan so‘ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o‘z mustaqilligini to‘la tiklab olish imkoniga ega bo‘ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam feodal davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900-yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib, ulkan davlat tuzdi. Xalifa Somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ldi. IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo‘ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo‘lgan yirik feodal davlat – Somoniylar davlati tashkil topadi. Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma`muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o‘nta devonlar (devoni vazir, devoni mustavfi, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash-shurat, devoni sohibi muayyid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, muxtasib, devoni avkof, devoni kazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi feodal davlat edi (“mulki sultoniy”, “mulk yerlari”, “vaqf yerlari”). X asr oxiriga kelib mamlakatda avj olib ketgan o‘zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur yetkazdi va bu Qoraxoniylar davlatidan mag‘lubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida Somoniylar davlati ikki davlatga: Qoraxoniylar va G‘aznaviylar davlatlariga bo‘linib ketdi. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo‘lib idora qildilar. XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

mulkchilikning yangi turi “iqta” tartiboti o‘rnatiladi (“mulki sultoniy”, “iqta”,“vaqf yerlari”, “mulk yerlari“). XII asrning 30-yillari oxirida Movaraunnahr Sharqdan kelgan ko‘chmanchi qoraxitoylar hujumiga duchor bo‘ldi. IX-XII asrlarda mamlakat ma’naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Ma’lumki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli bo‘lgan bilimdonlar hali yo‘q, borlari ham zaif edi. Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag‘dod shahri edi. Bog‘dodda “Bayt ul-hikma”(Donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. “Bayt ul-hikma”da Axmad Farg‘oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta’lim olganlar. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Bu ildizlar O‘rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi.IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg‘oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abusahl Masihiy, Abulxayr Xammar, Abunosir Arron va boshqalar edi. 1998-yil Ahmad Farg‘oniyning 1220-yilligi nishonlandi. Ahmad Farg‘oniy astronom, matematik, geograf edi. Bag‘dod yaqinida Raqoq nomli mavzeda rasadxona qurilishiga boshchilik qilib, astoronomiya maktabi tashkil etadi. Uning “Astronomiya asosi”, “Samoviy harakatlar”, “Yulduzlar haqidagi fan” nomli asarlari mashhurdir. Muhammad ibn Muso Xorazmiy mashhur matematik, astronom, geograf, tarixchi edi. Vatandoshimiz algebra faniga asos soldi. Uning “Al-jabr”, “Zij”, “Quyosh soati haqida risola”, “Surat ul-arz”, “Usturlob holati haqida risola” kabi asarlari Sharq va G‘arb mamlakatlarida ilmiy fikrlarning rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Abu Nasr Farobiy Sharq falsafasining ulug‘ mutafakkiri bo‘lib, qadimgi dunyo falsafiy merosini saqlashda va rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi. U 160 dan ortiq asar yozgan, ulardan “Aristotelning “Metofizika” asari maqsadlari haqida”, “Musiqa kitobi – saodatga”, “Siyosat al-madoniya” shular jumlasidandir. Abu Ali ibn Sino ikki sohaga – meditsina va falsafaga qiziqdi va bu sohalarda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. (“Al-qonun fittib”, “Kitob ush-shifo”, “Donishnoma”, “Risolat at-tayr”). XVII asrga qadar Yevropada tibbiyot tajribasi va fani Ibn Sino g‘oyalari ta’siri ostida bo‘lgan. Xorazm madaniyati xorazmlik ulug‘ olim Abu

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Rayhon Beruniyning nomi bilan bog'langan. Abu Rayhon Beruniy 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bo'lib, "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Minerologiya" kabi yirik asarlari shular jumlasidan. Ilm-fanning hamma sohalarini yaxshi bilgan qomusiy olim edi. U astronomiya, geologiya, gidrostatika, geografiya, tarix fanlarga katta hissa qo'shdi. XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si, Nizom ul-mulkning "Siyosatnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari shu davrga oid bo'lib, bundan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy, Amak Buxoriy, So'zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar. Bu davrda O'rta Osiyoda me`morchilik san'ati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi kalon, Namozgoh, Mag'oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqo'rg'on minorasi, Ko'hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Xojanbobo masjidi va boshqa yodgorliklar me'morchilik san'atining yorqin namunalari hisoblanadi. IX-XII asr dunyoviy fanlar bilan birga diniy bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta`limotining rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Islom dini ta`limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxoro shahri markaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIII asrda Buxoroda Naqshbandiya) paydo bo'ldi va tarqaldi.

XIII asrning boshlariga kelib (1206-1215) Mug'ulistonda Chingizxon hukmronligida ko'chmanchi mug'ullarning ulkan davlati paydo bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida Xorazmshohlar davlati mavjud bo'lib, o'zaro urushlar va boshboshdoqlik oqibatida bu qudrati inqirozga yuz tuta boshlagan davr edi. Chingizxon bilan Muhammad Xorazmshoh o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etgan bo'lishiga qaramay, bu munosabatlar oxir-oqibat fojiali tugadi. Harbiy jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshohlar davlatidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vaziyatdan foydalanib qisqa muddatda (1218-1221) O'rta Osiyo yerlarini bosib oldilar. Asrlar davomida moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanib kelgan O'rta Osiyodagi ko'pgina shaharlar-

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, Termiz, O‘tror, O‘zgand, Urganch kabilar vayronaga aylantirildi. Dehqonchilik vohalari xarobazorga aylandi. Mo‘g‘ul bosqinchlari aholiga hamda ularning madaniyatiga hech bir shafqat qilmadilar. Arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) O‘rta Osiyodagi mo‘g‘ul bosqini haqida shunday yozadi: “...Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg‘ar va Balasog‘un kabi viloyatlarni Movarounnahrdagi Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarni... vayron etib, qirg‘in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar (mo‘g‘ullar) hech qaysi shaharni omon qoldirmadilar, ketayotib vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o‘tgan bo‘lsalar, o‘zlariga yoqmagan narsalarga o‘t qo‘ydilar. “O‘rta Osiyo xalqlari mo‘g‘ul bosqinchlariga qarshi qahromonona kurash olib bordi. Xususan, O‘tror xokimi Inalxon, Buxoro mudofaachilari Ixtiyoriddin Qushlu, Hamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, Xo‘jand hokimi Temur Malik, Urganch shayxi Najmiddin Kubro, shahzoda Jaloliddin kabilar Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qon to‘kdilar. Ammo ular ona-yurt ozodligini saqlab qolisha olmadi. Mo‘g‘ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xurosonning obod viloyatlari, shaharlari xarobazorga aylantirildi. Zarafshon, Marv, Xorazm vohalarida sug‘orish tarmoqlari buzib tashlanishi natijasida yam-yashil dalalar, bog‘-rog‘lar xarobazorga aylandi. Bu davrda ilm-fan va ma`rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo‘lmadi. Bosqinchilar to‘s-to‘poloni vaqtida Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta kutubxonalar yonib ketdi. Misol uchun, Buxoroda “Mas’udiya madrasasi” va katta kutubxona yonib ketdi. Faqat XIII asrning 70-80-yillariga borganda O‘rta Osiyoda asta-sekinlik bilan bo‘lsa-da, shahar hayoti, hunarmandchilik jonlana boshlandi. Mo‘g‘ul bosqini davrida inqirozga yuz tutgan fan-adabiyot, ma`rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. XIII asrda Buxoroda “Mas’udiya” va “Xoniya” madrasalari qurildi. Jaloliddin Rumiy, Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabilar adabiyot sohasida ijod etdilar. Bundan tashqari, Abu Umar Mirhojiddin Jusjoniyning “Tabakoti Nosiriy”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixiy jahon gushay” (“Jahon fotihiy tarixi”), Fazlulloh Rashididdinni “Jome at-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”) kabi tarixiy asarlari yaratiladi. XIII asrning 50-60-yillarida O‘rta Osiyoda feodal tarqoqlik g‘oyatda kuchayib va ular qonli urushlarga aylandi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda, Amir Hoji Barlos Keshda, Amir Boyazid Jaloir Xo‘jandda, Uljoytu Sulduz

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Balxda, Muhammad Xo‘ja Yazdiy Shiburg‘onda o‘zlarini mustaqil hisoblaganliklari sababli ular o‘rtasida doimiy nizolar bo‘lib turdi. Natijada davlatni boshqaruv ishlari va xo‘jalik hayoti butunlay izdan chiqqan edi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin (1370-y.) u va uning avlodlari davri mamlakatimiz tarixida turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga boy davr bo‘ldi. Bu davrda O‘rta Osiyoda uzoq muddat davom etgan mo‘g‘ullar istibdodiga barham berildi. Xususan, bu davrda ilmiy-madaniy hayotning gurkirab rivojlanganini kuzatishimiz mumkin. Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e`tibor berdi. Uning saroyida Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Bahriddin Ahmad, Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy kabi allomalar faoliyat ko‘rsatishgan. Amir Temur harbiy yurishlar, davlatni boshqarish ishlaridan tashqari juda ko‘pgina me`moriy obidalar qurish ishlarini ham olib bordi. Ayniqsa, Samarqandda juda ko‘plab me`moriy obidalar, bog‘lar, saroylar bunyod etildi. Xususan, Bibixonim masjidi, Shohi zinda maqbarasi, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Nav, Bog‘i Behisht, Bog‘i Shamol kabi bog‘lar, Ko‘ksaroy va Bo‘stonsaroy kabi qarorgohlar shular jumlasidandir. Temur Shahrisabzda Oqsaroy va maqbaralar, Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Zangiota maqbarasi, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasalar barpo ettirdi. Butun O‘rta Osiyo hududlarida qishloqlar, karvonsaroylar, hammom, maqbaralar qurilishi o‘sha davr uchun misli ko‘rilmagan darajada olib borildi. Amir Temurdan so‘ng uning avlodlari jahonning moddiy-ma`naviy madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shdilar. Xususan, Ulug‘bek davrida fan va madaniyatga homiylik qilish, bu sohalarning gullab-yashnashi va qurilish ishlari yanada avj oldi. Ulug‘bek zamonida Samarqand, Buxoro, Gijduvon, Shahrisabzda masjid va madrasalar, saroylar bunyod etildi. 1428-1429-yillarda Samarqandda rasadxona bunyod etildi. Bu rasadxonada Ulug‘bek bilan o‘z davrining mashhur olimlari Qozizoda Rumiy, Giyosiddin Jamshid, Ali Qushchilar ham faoliyat ko‘rsatib, astronomiya sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Rasadxona yordamida Ulug‘bek mashhur astronomik jadvallar – "Ziji Ko‘ragoniy"ni tuzdi. Bu davrda tarixiy fanlar soxasida ham ko‘pgina ishlar qilindi. 1424-1425 yillarda Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”ni tugatdi. Hofiziy Abru “Tarixiy

www.nitropdf.com

Durdona

yilnomalar”, “Butun jahon tarixi” asarlarini yozdi. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining “Mabla’i sada’mai baxrayn“ asarida Shoxruh davri tarixining yoritib berdi. Shuningdek, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilarning ham ijodi gullab-yashnadi. Bu davrda adabiyot sohasida ham samarali ishlar qilindi. Bu jarayonda shoir va davlat arbobi bo‘lgan Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo‘ldi. Undan tashqari, Jomiy, Lutfiy, Sakkokiy kabilar o‘lmas asarlar yaratdi. Kamoliddin Behzodning rassomlik faoliyati rivojlandi. XIV-XV asrlar O‘rta Osiyoda musiqa san’ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo‘ldi. Mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar orasidan Abduqodir Nayiy, Kulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shoxkuli Gijjakiy, Qosim Rabboniy va boshqalar yetishib chiqdilar. Umuman olganda, temuriylar davridagi madaniy taraqqiyot “Temuriylar uyg‘onishi (renessansi)” atamasiga muvofiq keladi. Bu haqiqatan ham turli madaniy doiralar – fan, adabiyot, badiiy ijodning yagona O‘rta Sharq zaminida o‘ziga xos uyg‘onishi edi.

Xorazm Ma’mun akademiyasi, Ma’muniylar akademiyasi – Xorazmda X asr oxiri –XI asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ilmiy muhit. Ma’muniylar davlati (992—1017) tarixi bilan bevosita bog‘liq. Siyosiy, iqtisodiy, harbiy qudratga erishgan Xorazmshohlar davlati mamlakatni birlashtirish, unda tartib o‘rnatish bo‘yicha tadbirlarni boshlab yuborgan. Kun tartibida davlat ichki va tashqi siyosatini olib borishda mafkuraviy masalalarni hal qilish turgan. Ali ibn Ma’mun (997-1010) dono va zukko maslahatchilarga muhtoj bo‘lgan. Uning baxtiga tog‘asi, Abu Nasr ibn Iroq o‘z davrining o‘ta bilimdon olimi bo‘lgan. 1004-yilning boshida Ibn Iroq taklifi bilan Beruniy Gurganjga qaytib kelgan; Ma’mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan. Bu 2 shaxs Yaqin va O‘rta Sharkdagi ko‘plab olimlar bilan shaxsiy yozishmada bo‘lganlar. Ularning taklifi bilan Nishopur, Balx, Buxoro va hatto arab Iroqidan ko‘plab olimlar Gurganjga kelishgan.

Shu tariqa 1004-yildan boshlab Gurganjda “Dorul hikma va maorif” (ba’zi bir manbalarda “Majlisi ulamo”) nomini olgan ilmiy muassasa to‘la shakllangan. Bu ilmiy muassasada xuddi Afinadagi “Platon”, Bag‘doddagi “Bayt ul-hikmat” akademiyasi faoliyatiga o‘xshab ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan, juda ko‘p manbalar to‘plangan, tarjimonlik ishlari bajarilgan hind, yunon, arab olimlarining ishlari o‘rganilgan, Al-Xorazmiy, Al-

www.nitropdf.com

Durdona

Farg'oniylarning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan. XVIII–XIX asr tarixchi olimlari tomonidan ilmiy muassasa har tomonlama o'rganilgan va o'z faoliyati nuqtai nazaridan bu dargoh o'z davrining akademiyasi bo'lganligi isbotlangan va unga "Ma'mun akademiyasi" nomi berilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al Ja'diy (X asr –1034), Abulxayr ibn Hammor (941-1048), Abusahl Iso ibn Yah'yo al Masihiy al Jurjoniy (970-1011), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy, Abu Ali al Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030-yil v.e.), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as Saolibiy al Naysaburiy (961-1038), Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy (1015-yil), Abu Ali al-Hasan ibn Horis al-Hububiy al-Xorazmiy (X-XI asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al Xorazmiy (X–XI asrlar) va boshqa Xorazm Ma'mun Akademiyasining olimlari Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Akademiya a'zolarining aksariyati olim sifatida Markaziy Osiyoda shakllanganlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli Qadimgi Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan. Masalan, Abu Nasr ibn Iroq, astronomiyaga doir ilmiy asarlari tufayli "Batlimusi soniy" ("Ikkinchi Ptolemey") degan faxriy nom olgan.

Abulxayr ibn Hammor mantiq, falsafadan tashqari, tabobatda ham juda mashhur bo'lgani uchun "Buqroti soniy" ("Ikkinchi Gippokrat") laqabiga sazovor bo'lgan.

Abu Sahl al-Masihiy tabib, Ibn Sinoning ustozi bo'lgan. Akademiya rahbari Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullangan. Uning geodeziya va matematika sohalari bo'yicha asarlari bugun ham dolzarbdir. Beruniy O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, tibbiyotga oid "Kitob as-Saydana fittib" ("Tabobatda dorishunoslik kitobi") asarini yozgan. Beruniy Amerika qit'asi mavjudligini yevropalik olimlardan taxminan 450 yil oldin aytib o'tgan. Uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida qadimgi xalqlar (yunonlar, eroniylar, so'g'diylar, xorazmiylar va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

boshqalar)ning yil hisoblari, bayramlari va mashhur kunlari, urf-odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Xorazm Ma'mun akademiyasining yana bir zabardast qomusiy olimi Ibn Sino jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Xususan, uning "Tib qonunlari" asari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Olimning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari tarixda mashhurdir. Bu yozishmalar savol-javob tarzida bo'lib, unda Beruniy va Ibn Sino fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqlikdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borganlar. Ibn Sino Xorazmshohlar vaziri Abul Husayn as-Sahliy bilan do'stlashib, unga atab kimyoga oid "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") asarini yozgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari Xorazm tabiati, iqlimi, sug'orish tizimi, mineralogiyasi, yerosti suvlari, Amudaryo deltasining tarixi, korizlar qurish orqali tuproqni tozalash yo'llarini tadqiq etishgan. Akademiya a'zolaridan Abu Bakr al-Xorazmiy, tabib Abul Faraj ibn Hindu she'riyatda yuksak mahoratga erishganlar. Xorazm tarixi, dinlari, taqvimi, bayramlari, urf-odatlari, yozuvi, milliy qadriyatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlar ularning faoliyati tufayli bizgacha yetib kelgan. Ularning o'zlariga xos shiori: "Ilm insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin", – deya atalgan edi. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlariga ilmda aniqlik bo'lgan. Aristotel yo'l qo'ygan ko'p xatolar tekshirishlar davomida tuzatilgan, qutbdagi davomiy tun va kunlar masalasi osonlik bilan falakiyot fani nuqtai nazaridan tushuntirilib, yechilgan. Beruniy qayd etishicha, qadimda Xorazm astronomlari yulduzlar joylashish tartibini arablardan ko'ra yaxshiroq bilishgan.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (Ma'mun II) saroyidagi olimlar shuhrati o'z davrida uzoq, o'lkalarga tarqalgan. Bu esa Mahmud G'aznaviyning g'ashiga tekkan. U uyushtirgan suiqasd natijasida 1017-yilning bahorida Ma'mun II o'ldirilgan va o'sha yilning iyunida kuyovi uchun qasos olish bahonasi bilan Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. Katta qirg'in va talon-tarojliklar natijasida Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati tugatilgan va bu yerdagi olimlarning ko'pchiligi G'aznaga majburan olib ketilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni (1997-yil

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

11-noyabr) O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda iste'dodli va fidoyi olimlarni qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an'analarni rivojlantirishda qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

1997-yil noyabr oyida akademiyaning tarkibida arxeologiya, tarix va falsafa, til va adabiyot, biologiya muammolari bo'limlari tashkil qilinib, 9 ilmiy mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Arxeologiya, tarix va falsafa bo'limining xodimlari "Xorazmda qadimgi va o'rta asrlar o'zbek davlatchiligi tarixi", "O'zbek xalqining etnik tarixida Xorazm vohasining o'rni", "Xorazm viloyati arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish" mavzulari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishdi.

Til va adabiyot bo'limida, "IX–XIII asrlarda Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki epos", "IX–XIII asrlar Xorazm yodnomalari tili" mavzusi bo'yicha Xorazm yozma adabiyoti va og'zaki afsonalari hamda rivoyatlar Avestodagi mifologik qatlam bilan qiyosiy tahlil qilindi. Og'zaki va yozma namunalar tahlili orqali adabiy va badiiy tillarga xos xususiyatlar, ularning o'zaro ta'siri o'rganildi.

Biologiya muammolari bo'limida 4 ilmiy mavzu "Xorazm vohasi tuproq iqlimi sharoitida istiqbolli, serhosil, kasalliklarga va zararkunandalarga chidamli ko'niktirilgan o'simliklar navlarini o'rganish", "Xorazm viloyati sharoitida ekinlarni almashlab ekishning biologik asoslarini ishlab chiqish", "Xorazm viloyati sharoitida asosiy, oraliq va takroriy ekishlarda ozuqaviy ekinlarni parvarish etishning samarali texnologiyalarini va makkajo'xorining urug'chilik tizimini barpo qilish", "Quyi Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv-tuz rejimini yaxshilaydigan kollektor –zaxkash tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish" bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi jamoasi ilmiy tadqiqotlarni xalq xo'jaligi talablari asosida shakllantirish, ularni dolzarb masalalarni yechishga qaratish, byudjet mablag'larining samaradorligini oshirishda ustuvor fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga intilmoqda.

2003-yildan boshlab akademiyada 2 fundamental va 8 amaliy dasturlar bo'yicha 58 xodim, shu jumladan, 2 akademik, 8 fan doktori va 24 fan nomzodlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirmoqda.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-noyabrdagi qaroriga muvoffiq, 2005-yilda Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlanishi belgilandi.

15-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Tarixiy xotiraning tiklanishi: O‘zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma’naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlab bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatdi. 1991-yili Alisher Navoiy tavalludining 550-yilligi keng nishonlandi. Alisher Navoiy nomida Davlat mukofoti ta’sis etildi. Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Navoiy haykali Toshkentning Komsomol ko‘li deb nomlangan istirohat bog‘iga o‘rnatildi va bu bog‘ Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i deb ataladigan bo‘ldi.

1994-yilni hukumat qarori bilan mamlakatimizda “Ulug‘bek yili” deb e’lon qilinishi, uning 600-yilligini O‘zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligining nishonasidir. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. Mamlakatning Birinchi Prezidenti 1996-yilni “Amir Temur yili” deb atash to‘g‘risida farmon qabul qildi. “Temur tuzuklari” bir necha tilda chop etildi. O‘sha davr tarixiy-madaniy yodgorliklari tiklanib, yozma adabiyotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Juda qisqa fursatda Toshkentda bobokalonimizning dunyoviy sha’ni va shavkatiga mos keladigan Temuriylar tarixi davlat muzeyi qurildi.

Hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil dekabrda Xorazmda Muhammad Rizo Yerniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil oktabrda esa Farg‘onada Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Islom olamining zabardast allomalari bo‘lmish Imom Ismoil Buxoriyning 1225 yilligi, Imom Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675

www.nitropdf.com

Durdona

yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va boshqa allomalarning yubileylari keng nishonlandi.

1993-yil Toshkentda, 1996-yil Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykali qad ko'tardi. Shu yili Samarqand va Shahrisabz shaharlari "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlandi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning e'tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yish an'anasi davom ettirilmoqda. 2017-2018-yillarda bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent, Samarqand va Qarshida Islom Karimov, Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog'istonda Ibroyim Yusupov, Farg'onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi.

Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagi "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori asosida 2017-yil 6-noyabr – Sharof Rashidov tug'ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, nutq so'zladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Islom Karimov haykallari O'zbekiston poytaxti Toshkent shahriga, Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahriga va Islom Karimov birinchi rahbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahriga o'rnatildi.

Bilamizki, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligi davrida, Sharof Rashidov shaxsiga nisbatan barcha tuhmat va ta'qiblar to'xtadi. Uning pok nomi oqlandi. 1992-yil Sharof Rashidov tavalludining 75 yilligi keng nishonlandi. 2016-yil Prezident

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Jizzax tumaniga Sharof Rashidov nomi berildi. Bundan tashqari, Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi. Islom Karimov ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasi tashkil etildi. Shuningdek, bir qator ko‘chalar va yirik obyektlarga Islom Karimov nomi berildi. Prezident farmoni bilan 2018-yil 30-yanvarda Islom Karimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlandi, 24-martda esa Samarqandda xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning tiklanishi: Istiqlol sharofati bilan xalqimizning milliy-ma’naviy merosini tiklash va yangilash hamda xalqimiz ongiga yetkazish hamda hayot tarziga singdirish muhim vazifalardan biri sifatida kun tartibiga qo‘yildi.

O‘zbekistonda rasman 3 ta xotira kuni mavjud: 1) 1999-yildan boshlab 9 may – “Xotira va qadrlash kuni”; 2) 2001-yildan e’tiboran 31-avgust – “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni”; 3) 2017-yildan boshlab 2-sentabr – O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramining xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo‘ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident farmoniga ko‘ra, 21-mart – Navro‘z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Qadimiy xalq bayrami – Navro‘zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma’qullab, ko‘tarinki ruhda kutib oldi va hozirda ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda. 2016-yil o‘zbek palovi YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi.

O‘zbekiston hali sovetlar qaramog‘ida turgan og‘ir kunlarda Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-iyun kuni “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to‘g‘risida”gi farmonini e’lon qildi. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma’naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish choralari ko‘rildi. Jumladan, 1990-yilda musulmonlarning Haj ziyoratiga borishini kafolatlaydigan Prezidentning maxsus farmoni qabul qilindi.

www.nitropdf.com

Durdona

1992-yil 27-martda O‘zbekiston Prezidentining “Ro‘za hayitini dam olish kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra musulmonlar hayotidagi qutlug‘ sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularning dam olish kunlari deb e’lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko‘nglidagi ish bo‘ldi. Mustaqillik sharofati bilan “Islom nuri” haftanomasi, “Hidoyat” jurnali dunyoga keldi, ko‘plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi.

Jumladan, Imom Buxoriyning to‘rt jilddan iborat, Imom Termiziyning bir jildli hadis kitoblari, boshqa allomalarning qator asarlari yuz minglab nusxalarda chop etildi. Qur’oni Karim sakkiz marta, jami bir million nusxada nashr etildi. Bu muqaddas kitob yurtimizda ilk bor 1992-yil Alouddin Mansur tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va uch marta, jami 300 ming nusxada bosmadan chiqarildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan aholi sonining va so‘nggi yillarda haj ziyoratiga borish istagini bildirganlar sonining oshib borayotgani e’tiborga olinib, 2017-yildan o‘zbekistonlik fuqarolar uchun haj kvotasi soni 5200 dan 7200 nafarga ko‘paytirildi.

2004-yili esa Toshkent Islom universitetida Qur’oni Karimning shayx Abdulaziz Mansur tarjimasida izohli nashri tayyorlandi hamda chop etildi. O‘zbekiston musulmonlari erkinlik va qulay imkoniyatlarga ega bo‘lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar. Agar sovet davrida mamlakatimiz fuqarolaridan 3-4 kishigina haj safarini ado etgan bo‘lsa, 2016-yilga qadar har yili 5000 dan ortiq fuqarolarimiz hoji bo‘lib qaytishadi. Tabiiyki, ma’naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarning tiklanishi bir kunda bo‘ladigan jarayon emas, balki u bizdan muntazam ravishda izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. “Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi, “Burhoniddin al-Marg‘inoniy tavalludining hijriy sana bo‘yicha 910-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari fikrimizning yaqqol isbotidir. 2003-yili esa Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi keng nishonlandi.

- 1997-yil – Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.
- 2002-yil – Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi nishonlandi.

www.nitropdf.com

Durdona

- 2002-yil – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlandi.
- 2003 yil – Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.
- 2006-yil – Qarshi shahrining 2700 yilligi nishonlandi.
- 2006-yil – Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi nishonlandi.
- 2007-yil – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyi o‘tkazildi.
- 2007-yil – Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyi o‘tkazildi.
- 2009-yil – O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.

Ma’naviyat targ‘iboti. Mamlakat ma’naviy hayotini yanada yaxshilashda 1994-yil Prezident qarori bilan tashkil etilgan “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik Markazi muhim ahamiyatga yega bo‘ldi. Mamlakatimizda milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi qarori bilan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengash tarkibida ikki markaz – Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi va Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Bosh vazir Kengash raisi, hokimlar viloyat hududiy kengashlari raisi etib belgilandi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi zamon va sharoit taqozosiga ko‘ra takomillashtirildi. Bugungi kunda dunyodagi murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashiga raislik qilishi belgilandi.

Ma’naviyat maskanlari. Teatr. Mustaqillik yillarida madaniy hayotda ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu, avvalo, teatr san’ati rivojlanishida yaqqol sezila boshladi, yangi teatr dargohlari qurib,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ishga tushirildi. 1991-yilda Farg‘ona, 1993-yilda Xorazmda davlat qo‘g‘irchoq teatrlari ish boshladi, 1994-yilda Qashqadaryo va Namangan viloyat teatrlari qoshida qo‘g‘irchoq guruhlari, 2001-yilda Surxondaryo viloyat qo‘g‘irchoq teatri ochildi. O‘zbek davlat akademik drama (2001-yil) va O‘zbekiston akademik rus drama teatrlari (1999-yil) kabi poytaxt hamda viloyat teatr jamoalariga yangi binolar qurildi, ta’mirlandi. 2015-yilning oktabrida rekonstruksiya qilingan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1993-yilning sentabrida “Turkiston” saroyi ish boshladi. 2009-yilda “O‘zbekiston” xalqaro forumlar saroyi, 2011-yilda Simpoziumlar saroyi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan tashkil topgan Ma’rifat markazi majmuasi, 2014-yilda Farg‘ona viloyatida Teatr-konsert saroyi kabi ma’naviyat maskanlari ochildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi (1998-yil) farmoniga muvofiq ma’naviy-ma’rifiy islohotlarda teatr arboblarining faol ishtirokini ta’minlash, milliy qadriyatlarni tarannum yetuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish kabi maqsadlarda “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. 2017-yil faoliyati tanqidiy o‘rganilib, “O‘zbekteatr” birlashmasi tugatilib, uning funksiyalari Madaniyat vazirligiga o‘tkazildi.

2001-yil O‘zbek davlat akademik drama teatriga Prezident farmoni bilan “Milliy teatr” maqomi berildi. 2014-yilda Prezident “O‘zbek milliy akademik drama teatrining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida” Qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq teatr ta’mirlandi va yubiley tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Poytaxtdagi respublika teatrlari qatorida viloyat jamoalari ham xalqaro madaniy munosabatlarda qatnashib kelmoqda. Bu borada O‘zbekiston Yoshlar teatri, Ilhom teatri va Qashqadaryodagi “Eski masjid” teatr-studiyasi faollik ko‘rsatdi. 2018-yil O‘zbekiston Mudofaa vazirligi huzurida ilk bor harbiy teatr-studiya – “Turon” tashkil etildi. Mazkur teatr nafaqat harbiylar va ularning oilalari, balki barcha uchun xizmat ko‘rsatadi.

Boshqa sohalarda bo‘lgani singari, 2017-yil teatr san’ati sohasida ham keng islohotlar boshlandi. Eng avvalo, 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma’rifiy tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish hamda

D U R D O N A

www.nitropdf.com

Durdona

takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash belgilab qo‘yildi. Madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, madaniyat va san’atning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniyga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi mavjud 37 ta teatr faoliyatini ta’minlash uchun 2017-yilning o‘zida davlat budjetidan 81 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi “Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra, davlat madaniyat muassasalari artistlari, ma’muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, ijodiy va boshqa xodimlarining mehnat haqi miqdorlari o‘rtacha 45 foizga oshirildi.

Musiqa va raqs san’ati. Mustaqillik yillarida musiqa san’atida tub burilish asliga qaytish an’anaviy ohanglardan bahramandlik va ta’sirlanishda namoyon bo‘ldi. Buning uchun, eng avvalo, xalqqa yaqinlashish, el orasida yurish, eng noyob xalq iste’dodlarini izlab topish zarur edi. Shu maqsadda 1992-yili bir qancha ko‘rik-tanlovlar o‘tkazildi. Jumladan, Toshkent shahrida mart oyida milliy soz ijrochilarining “Asrlarga tengdosh navolar”, aprel oyida mashhur san’atkorlar asarlari ijrochilarining “Boqiy ovozlar”, Xorazm viloyatida may oyida folklor jamoalarining, iyun oyida Qo‘qon shahrida askiya, qiziqchi va masxarabozlarning va avgust oyida Toshkent shahrida lapar, yalla ijrochilarining ko‘rik-tanlovlari tashkil etildi. Ular bir necha o‘nlab iste’dodlarni kashf qildi. Bu kabi tadbirlar, festivallar o‘tkazilishi an’anaga aylanib, xalqaro miqyosda nomoddiy madaniy merosni asrash yuzasidan olib borilayotgan harakatlar bilan uyg‘unlashib ketdi.

Mustaqillik davrida professional musiqa va raqsni rivojlantirish ishlariga ham e’tibor qaratildi. 1996-yil “O‘zbeknavo” gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan 1997-yil Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi hamda Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi tuzildi. 2001-yil “O‘zbeknavo”

www.nitropdf.com

Durdona

estrada birlashmasi, Milliy estrada san’atini rivojlantirish va muvofiqlashtirish Kengashi ish boshladi. Istiqlol davrida tamomila yangi ko‘rik-tanlovlar, festivallar yuzaga keldi.

1995-yilda Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston – Vatanim manim” mavzuida ko‘rik-tanlov o‘tkazish yuzasidan qaror qabul qildi. 1996-yil mart oyidan o‘tkazilib kelinayotgan “O‘zbekiston – Vatanim manim” mavzuidagi ko‘rik-tanlovi mustaqillikni, Vatanni anglash, uni ulug‘lash yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Shuning uchun ham 1996-yil 27-avgust kuni maxsus farmon qabul qilindi. Unda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi, “O‘zbekiston – Vatanim manim” qo‘shiq bayrami kuni deb e’lon qilindi. Tanlov mustaqillikni madh etuvchi yuzlab qo‘shiqlar yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrida “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o‘tkazila boshlandi. Birinchi festivalda dunyoning 31 mamlakatidan vakillar ishtirok etishdi. Festivalning mintaqaviy qamrovi ham tobora kengayib bormoqda. 2015-yili festivalda 66 mamlakatdan vakillar qatnashdi.

YUNESKO tomonidan yuritiladigan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatidan “Shashmaqom” (2008), Boysun madaniy muhiti (2008), Navro‘z (2009), “Katta ashula” (2009), Askiya (2014) o‘rin oldi. 2017-yilda Prezident qarori bilan O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tashkil etildi. 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati festivalini o‘tkazish belgilandi. 1998-yili mamlakatimizda birinchi marta simfonik musiqa festivali o‘tkazildi. Mazkur festivalda dunyoning 20 ga yaqin mamlakatlaridan ijrochilar ishtirok etishdi.

Mustaqillik yillari musiqa san’atini akademik, an’anaviy va zamonaviy yo‘nalishlarida rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratish qatorida uning ta’limiga ham e’tibor berildi. 2002-yilda Toshkent davlat konservatoriyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasiga aylantirildi. Konservatoriyaning yangi binosi qurildi.

Prezidentning qarori bilan qabul qilingan Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha davlat dasturi ham muhim o‘rin tutib, uning doirasida 2009-2014-yillarda hududlarda 278 ta musiqa va san’at maktabi foydalanishga topshirildi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

“Nihol”, “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotlari ta’sis etilishi, “Kamalak yulduzlari” respublika bolalar ijodiyoti festivali, “Sozlar navosi” yosh musiqa ijrochilari va boshqa ko‘rik-tanlovlar o‘tkazib kelinayotgani yangi iste’dodlarni ro‘yobga chiqarish va qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at: Tasviriy san’at uchun mustaqillik keng imkoniyatlar yaratib berdi. Avvalo, 1997-yilda O‘zbekistonda birinchi bor Badiiy akademiya tashkil etildi. 2002-yili Toshkent foto uyi, 2004-yili O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi, 2005-yili O‘zbek liboslari galereyasi, 2006-yili Madaniyat va san’at ko‘rgazmasi ish boshladi.

Mamlakat Prezidentining 1997-yil “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida amaliy bezak san’ati ahamiyatini oshirish, qo‘lda ishlanadigan badiiy buyumlarni tayyorlashda davlat tomonidan madad berilish choralari belgilandi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni ta’sis etildi, “Hunarmand” uyushmasi tashkil qilindi. Qolaversa, hunarmandlar daromad solig‘idan ozod etildi.

Kino. Mustaqillik yillarida milliy kino san’atini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratildi. Dastlabki davrdagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlashlar 2004-yili “O‘zbekkino” milliy agentligi tashkil etilgandan keyin yangi bosqichga ko‘tarildi.

2017-yil kino san’ati uchun ham muhim yil bo‘ldi. Birgina shu yilning o‘zida “O‘zbekkino” milliy agentligiga davlat budjetidan 12 milliard 400 million so‘m ajratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 29-dekabr kuni milliy kino san’ati xodimlari va mutasaddilari bilan uchrashdi. Unda kino san’atining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari, tajriba va malaka oshirishini tashkil etish, hududlarda kinoteatrlar qurish, ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, kinematografiya sohasini rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlash, xorijiy kinostudiyalar va kinoijodkorlar bilan aloqalarni mustahkamlash, ular bilan hamkorlikda filmlar yaratishni yo‘lga qo‘yish ta’kidlandi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Badiiy adabiyot: Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Mustaqillik davri adabiyotining yalovbardorlari O'zbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuflar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz faxrlanadi. Istiqlol davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda O.Sharofiddinov, B.Qosimov, N.Karimovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. Muhammad Ali va T.Malikning romanlari, U.Azim, E.A'zam, S.Sayyid, H.Xudoyberdiyeva, H.Ahmedova, J.Ergasheva, X.Do'stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari katta hissa bo'lib qo'shildi.

Umuman, adabiyotga e'tibor madaniyatning muhim yo'nalishi bo'lib qoldi. Yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash borasida 2010-yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondi tashkil etilib, 2011-yildan yosh ijodkorlarning birinchi kitoblari davlat hisobidan chop qilina boshlandi. Adabiyotga e'tibor 2017–2018-yillarda yanada kuchaydi. 2017-yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Shu yildan 10 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan kitobsevarlar o'rtasida "Yosh kitobxon" respublika ko'rik tanlovi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan bo'lgan uchrashuvida bir qator madaniy muassasalarga homiy tashkilotlar belgilab berildi. Shu yo'nalishda Xalq banki bilan Yozuvchilar uyushmasining "Do'stlar klubi" tashkil etildi. "Do'stlar klubi"ning tashkil etilishi yozuvchi va shoirlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va nufuzini oshirish, ularning ijodiy salohiyatlarini ro'yobga

www.nitropdf.com

Durdona

chiqarish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, munosib ish va turmush sharoiti yaratib berish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Muzey. Millatimizning o'zligini anglashda hamda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni ko'rish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Shu boisdan ham, mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. 1996-yili Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati, 2002-yili Qatag'on qurbonlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi – Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshladi. 1991-1994-yillarda 73 ta muzey mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 450 ga yaqin muzey faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Prezidentining 1998-yildagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi.

Yoshlar ma'naviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib, 2014-yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko'rsatish, har yili 2-8-sentabr kunlari "Muzeylar haftaligi"ni tashkil etish belgilandi. Shunday qilib, davlat madaniy hayotning ko'p qirrali xususiyatini saqlagan holda jamiyat rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, madaniyat O'zbekiston aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

16-MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

Mamlakatimizning shimoliy mintaqasi – Qoraqalpog'iston Respublikasida ham mustaqillik yillarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan alohida e'tibor yuksak samaralar berdi. Puxta o'ylangan, boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi oddiy agrar o'lkadan zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, transport-kommunikasiya tarmoqlari rivojlangan mintaqaga aylandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida, Amudaryoning quyi qismi, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika janubi-g'arb tomondan Qoraqum sahrosiga tutashgan. Uning shimoli-g'arbida Ustyurt pasttekisligi, shimoli-sharqiy tomonida esa Qizilqum sahrosi yastanib yotibdi. Orol dengizining janubiy hududi qoraqalpoq zaminida joylashgan. Qoraqalpog'iston umumiy yer maydoni 166,6 ming kvadrat kilometrdan iborat bo'lib, u hududining kattaligi jihatdan O'zbekiston Respublikasi viloyatlari o'rtasida birinchi o'rinda turadi. Respublikaning aholisi 1 881,9 ming kishidan ziyoddir.

Respublikaning ma'muriy-hududiy tuzilmasi 16 ta tuman va 1 ta shahardan iborat bo'lib, bular Amudaryo, Beruniy, Bozatov, Ellikqal'a, To'rtko'l, Kegeyli, Chimboy, Qorao'zak, Taxtako'pir, Qonliko'l, Sho'manoy, Qo'ng'irot, Mo'ynoq, Xo'jayli, Taxiatosh, Nukus tumanlari va poytaxt – Nukus shahridir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi parlament boshqaruv shakliga ega bo'lgan suveren Respublikadir. Qoraqalpog'iston o'z Konstitutsiyasi, bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. Qoraqalpog'istonning Konstitutsiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va ular shu asosda amal qiladi. Respublikada umumiy rahbarlik Jo'qorg'i Kenges Raisi – Qoraqalpog'iston Respublikasi parlamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Respublikaning oliy ijroiya hokimiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tasdiqlangan Vazirlar

www.nitropdf.com

Durdona

Kengashi hisoblanadi. Respublika Vazirlar Kengashi tarkibiga Kengash Raisi, Raisning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari, yirik konsern va birlashmalar rahbarlari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, o‘z vazifasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahrida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining doimiy vakolatxonasi faoliyat yuritadi.

Mustaqillik yillarida bu zaminda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ro‘y bergan o‘zgarish va yangilanishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Markaziy Osiyoda yagona, sahro bag‘ridagi mo‘jiza – Qo‘ng‘irot soda zavodi, Xo‘jayli shisha zavodi, “Markaziy Osiyo bezak toshlari” qo‘shma korxonasi, Qo‘ng‘irot karbid, Nukus marmar va kabel zavodlari, O‘rda gaz koni, “Elteks” va “Kateks” kabi zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Toshkent axborot texnologiyalari universititetining Nukus filiali, Olimpiya zaxiralari kolleji binolari, o‘nlab umumta’lim maktablari, litsey va kollejlar, bolalar sporti, bolalar musiqa va san’at maktablari qad rostlagan. Bunday muhtasham inshootlar istiqlol sharofati tufayli barpo bo‘ldi.

Istiqlolning dastlabki yilidayoq minglab aholini ichimlik suvi bilan ta’minlagan 243 kilometrlik Tuyamo‘yin-Nukus-Chimboy-Taxtako‘pir suv tarmog‘i ishga tushirildi. 1991-2010 yillarda hududda gaz va gaz kondensati, shisha, kungaboqar yog‘i, kalsiylashtirilgan soda, vermikulit konsentrati, talkomagnezit, gliserrizin ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Xalqimizning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qilish borasida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari eng savobli ishlardan bo‘ldi. Bu sohada ham islohot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun, uning manfaatlari uchun degan ezgu g‘oya doimiy ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda.

2000-yili Nukus shahrini Xo‘jayli tumani bilan bog‘laydigan ulkan ko‘prik, 2001- yilda 345 kilometrlik Nukus-Sultonuvaystog‘, Miskin-Uchquduq, Tinchlik-Navoiy temir yo‘li ishga tushirildi. Yuzlab kilometr avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi. Bu ravon yo‘llarning uzunligi 4 ming 100 kilometrdan oshib ketdi. Bu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Yerosti boyliklarini

www.nitropdf.com

Durdona

izlash, qazib olish va ulardan samarali foydalanishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijlik sheriklar bilan "Jel", "G'arbiy Orol" kabi istiqbolli konlar ochildi. "Ustyurt va Orol dengizi atroflarida geofizika ishlarini amalga oshirishni kuchaytirish" dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Ustyurt kengliklarida seysmik tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Ayniqsa, "O'zbekgeofizika" aksiyadorlik jamiyatining "Ustyurt geofizika ekspedisiyasi" filiali jamoasining sa'y-harakatlari tahsinga munosib. Hozir kuniga 45 ming kubometr gaz berayotgan "Tillali", "Sayxun", "In'om", "Arslon" singari yangi konlar ana shu ekspeditsiya izlanishlarining samarasidir.

Bugun dunyo xalqlarining e'tiborini tortayotgan, havasli, hayratli nigohlariga sabab bo'layotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etildi. Asrlar osha qaqrab yotgan bepoyon dashtda ulkan ishlab chiqarish quvvati qad rostladi. Korxona jahonning nufuzli nashrlari tomonidan 2012-yilning eng yaxshi loyihasi deb topildi.

2014-yili nufuzli "Infrastructure Journal" xalqaro nashri mazkur loyiha qurilishini "2014-yilning neft-gaz sohasidagi eng yirik bitimi", deb e'lon qildi. Umumiy qiymati 4 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bu mashhur loyiha amalga oshirilishi mamlakatimiz sanoati rivojini yangi bosqichga ko'tarishi shubhasiz. Hozir bu yerda yiliga 4,5 milliard kub metr gaz qayta ishlanmoqda. Buning samarasida xalqimiz ehtiyoji va eksport uchun 3,7 milliard kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yengil sanoatni rivojlantirish, jumladan, paxta yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarni, madaniy o'simliklarning yangi navlarini sohaga joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotir. 2016-yilda bu yo'nalishda uchta yangi korxona tashkil etilib, to'rttasi modernizatsiya qilindi.

Shu yilning ikkinchi choragida momiq ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Bunyodbek-Xo'jayli" oilaviy korxonasi foydalanishga topshiriladi. Yil oxirigacha "Yoqubova Gavhar" fermer xo'jaligi kalava ip ishlab chiqara boshlandi. Ellikqal'ada "Global national-tex" sho'ba korxonasida jinsi mato ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Amudaryo tumanidagi "Kameks-KK" korxonasida momiq,

www.nitropdf.com

Durdona

Kegeyli tumanidagi “Avto Qayip mayshi” mas’uliyati cheklangan jamiyatida oyiga 50 ming juft paypoq ishlab chiqariladi. “To‘rtko‘l omad tekstil” mas’uliyati cheklangan jamiyatida zamonaviy texnologiyalar joriy etilib, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi sohasida mutlaqo yangi va samarali iqtisodiy munosabatlar joriy etildi. Yer o‘z egasini topdi. Bugun Qoraqalpog‘iston fermerlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berish bilan birga, qishloq taraqqiyotida hal qiluvchi ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan namunaviy loyihalar asosidagi uy-joylarga talabgorlar tobora ko‘paymoqda. Barcha sharoitlarga ega bunday zamonaviy uylarda minglab oilalar baxtli hayot kechirmoqda. Yosh avlodning hech kimdan kam bo‘lmagan sharoitlarda ta’lim-tarbiya olishi, iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoit yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘tgan davr mobaynida hududda zamonaviy sharoitlar yaratilgan 99 ta kasb-hunar kolleji, 9 ta akademik litsey foydalanishga topshirildi. 2015- yilda 9 ming 700 o‘rinli 22 ta zamonaviy maktab binosi barpo etildi. Ayni paytda hududdagi 370 umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda 170 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlar zamonaviy bilimlarni o‘rganmoqda.

O‘tgan yili Nukus shahri markazida 2,5 milliard so‘mlik loyiha asosida bunyod etilgan va barcha qulayliklarga ega “Baxt uyi” foydalanishga topshirildi. Inson baxt uchun dunyoga keladi. Bu borada mamlakatimizda yoshlarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Prezidentimizning 2014-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ijrosi doirasida Nukus shahri, Amudaryo, Ellikqal’a, Beruniy, Xo‘jayli tumanlarida ijtimoiy hayotda faol bo‘lgan yuzlab yosh oilalarga “Kamolot” uylari topshirildi.

Nukus shahrida ham keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi va bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Temiryo‘l vokzali, I.Saviskiy nomidagi san’at muzeyi tanib bo‘lmas darajada zamonaviy qiyofa kasb etdi.

www.nitropdf.com

Durdona

Shaharning Qoraqalpog'iston, Amir Temur, To'lepbergen Qaipbergenov ko'chalarida qad rostlagan ko'p qavatli zamonaviy uylarga ko'chib o'tgan yuzlab oilalar hayotiga o'zgacha shukuh kirdi. Shahar markazidan oqib o'tuvchi Do'stlik kanalining ikki qirg'og'i bo'ylab 2,5 kilometr masofada ko'plab ko'ngilochar, dam olish obyektlari ishga tushirildi.

Mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq Birinchi Prezident Islom Karimov ham bu masalaga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratgan edi. Xalqaro Orolni qutqarish jamg'armasi ana shunday olijanob sa'y-harakatlar samarasida tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 2013-2017 yillarga mo'ljallangan dasturi bu boradagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Dasturda Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, cho'llanishning oldini olish, Orol dengizining qurigan hududlarida sun'iy o'rmonlar barpo etish uchun keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Dasturga ko'ra, mazkur ishlarga 89,39 milliard so'm, 1635,55 million AQSH dollari va 57,63 million yevro mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

"Xalqaro Orolni qutqarish" jamg'armasi Nukus filiali tomonidan 2014-yilda Mo'ynoq tumanida, Orol dengizining Axantay qismida 1500, Oqqum qismida 34 gektarlik saksovulzor – sun'iy o'rmon barpo etildi.

Ayni paytda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 90 million AQSH dollari miqdoridagi loyiha asosida Orol dengizining qurigan qismida cho'llanishdan himoyalovchi mitti o'rmonlar bunyod etishga kirishilayotgani ham hudud aholisi turmush farovonligini yuksaltirish borasidagi ezgu ishlarning davomidir.

Mustaqillik inshootlaridan yana biri Qo'ng'irot soda zavodidir. Ko'plab sohalar uchun zarur xomashyo – kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarayotgan ushbu yirik korxona o'z mahsulotining aksariyatini eksportga yo'naltirmoqda. O'tgan yili korxona xorijlik buyurtmachilarga 24 ming tonna mahsulot yetkazib berdi. Ichki bozorda "Kvars", "Asl oyna" aksiyadorlik jamiyatlari, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekneftgaz" milliy

www.nitropdf.com

Durdona

holding kompaniyasi Qo‘ng‘irot soda zavodining asosiy buyurtmachilaridir.

Mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligi tubdan yaxshilandi. Bugun olis ovullar aholisi ham zamonaviy tibbiy xizmatdan bahramand bo‘layotir. Chekka tuman va qishloqlardagi tibbiy muassasalarning ham moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi ijrosi doirasida oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholi salomatligini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar mustaqilligimizning birinchi kunlaridan belgilab olingan eng muhim vazifalarning izchil davomidir.

Bugun Qoraqalpog‘iston shifokorlarining Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Polsha va boshqa ko‘plab xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishi, ilg‘or tajribalarni qo‘llashi oddiy holga aylandi.

Mustaqillik yillarida boshqa mintaqalarimiz qatori Qoraqalpog‘istonning rivojlanishiga ham ulkan e’tibor qaratildi. Aynan ana shunday e’tibor tufayli bugungi kunda respublika poytaxti Nukus shahridan boshlab, tumanlar va qishloqlar, hatto, eng chekka ovullar ham har tomonlama o‘zgarib, rivojlanib bormoqda.

Ayniqsa, keyingi yetti yil ichida Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barcha yo‘nalishlarini belgilaydigan Farmon va Qarorlari, ularning faol ijrosi xalqimizning turmush tarzini butunlay o‘zgartib yubordi. Avvalombor, inson va uning manfaatlarini ko‘zlab olib borilayotgan islohatlarning natijasi yurtimizdagi har bir fuqaroning baxtli va obodon turmushi, o‘ziga va yurt kelajagiga bo‘lgan mustahkam ishonchida ko‘rinmoqda.

Barcha eski uylar o‘rniga yangi, milliy loyihalar asosida qurilayotgan ko‘rkam binolar, so‘lim va go‘zal xiyobonlar, hatto, qishloqlarimizning, mahallalarimizning alohida “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari asosida yangi qiyofa kasb etayotganligi Prezidentimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar samarasidir.

Bugungi kunda Qoraqalpog‘istonda o‘tgan qisqa vaqt mobaynida bir qator yirik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki butun mamlakatimizning faxri bo‘lgan, dunyoda “Sahrodagi Luvr” deb shuhrat qozongan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

I.V.Saviskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyining muhtasham ikkinchi korpusi qurilib, yuksak xalqaro standartlar asosida jihozlandi va foydalanishga topshirildi. Qoraqalpoq davlat O'lkashunoslik muzeyi binosi, O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov nomidagi iqtidorli bolalar maktab-internati, Amir Temur nomidagi istirohat bog'i, zamonaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan yirik sport majmuasi bunyod etildi. Imom Eshon Muhammad jome' masjidi rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, Nukus shahrida "Nukus polimer" MChJ, "Nukuselektroapparat" MChJ faoliyat olib bormoqda. "Samsung" brendi ostida televizor, changyutkich ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Mo'ynoq tumani aholisini markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha 101 kilometrlik "Qo'ng'irot-Mo'ynoq" suv quvuri va "Qo'ng'irot" suv taqsimlash inshooti qurib bitkazildi. Nukus shahri markazidan o'tuvchi "Do'stlik" kanalining ikki qirg'og'i obodonlashtirilib, bugungi kunda bu sohil atroflari xalqimizning eng sevimli oromgohiga aylangan. Qorao'zak tumanidagi "Qoraqalpoq syement", "Titan syement", Taxiatosh tumanidagi metal-konstruksiya ishlab chiqarish zavodi, Ellikqal'a tumanidagi "Bo'ston mega-teksil", To'rtko'l tumanidagi "Vegateks global", Chimboy tumanidagi "Lanextrakt" korxonalarida ham ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Nukus shahrida "Nukus Med Tex" MChJ, Kegeyli tumanida "Kegeyli qog'oz" MChJ, "Lanko-miya" korxonasi, Amudaryo tumanida "Amu Shoxjaxon" MChJ, Chimboy tumanida "Pintok" korxonasi tomonidan tibbiyot kilinikasi ishga tushirildi. Mo'ynoq tumanida Amfiteatr, "Mo'ynoq porloq tekstil" tikuvchilik korxonasi, davlat xizmatlari markazi yangidan qurildi hamda futbol o'yingohi va Madaniyat markazi rekonstruksiyasi to'liq yakunlandi. Shuningdek, Nukus shahrida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Imkon" nomli O'zbekistondagi birinchi ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi foydalanishga topshirildi.

Bulardan tashqari, bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida keng ko'lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun Qoraqalpog'istonda hayot butunlay o'zgarmoqda. Barcha shahar va tumanlar, qishloqlar, mahallalar yangicha qiyofa kasb etmoqda. Zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport va ijtimoiy sohaning boshqa obyektlari, kommunikatsiya tarmoqlari

www.nitropdf.com

Durdona

qurilmoqda. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasining mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rnining tobara oshib borayotganligidan darak beradi.

Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishi, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Mustabid tuzum davrida chekka hudud sifatida mutlaqo e'tibordan chetda qolgan Qoraqalpog'iston Respublikasi bugun ana shunday taraqqiyot yo'lidan dadil bormoqda.

17-MAVZU. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI *(1-QISM)*

O'zbekistonning geosiyosiy holati: O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos geografik tuzilishi bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida alohida ajralib turadi. Bunday geografik joylashuvning qulay va noqulay tomonlari mavjud bo'lib, ular respublikaning geosiyosiy vaziyati va geostrategik manfaatlari, uning ichki va tashqi siyosatini tanlash hamda belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagicha: uzoq o'tmishdan Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, madaniy-ilmiy va diplomatik aloqalar yo'li bo'lgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududidan o'tgan. Hozirda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo – Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar Markaziy Osiyodan, uning markazida joylashgan O'zbekistondan o'tadi. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston o'zining geografik holatidan kelib chiqib, mazkur mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tab kelmoqda.

O'zbekiston o'zining joylashuviga ko'ra Markaziy Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashgan. Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral – xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati

www.nitropdf.com

Durdona

rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir. O'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ham ega. O'zbekiston Respublikasining yerostida amaldagi Mendeleyev davriy tizimining barcha elementlari mavjud. Mazkur imkoniyatlari bo'lgan taqdirda ham O'zbekiston geosiyosiy joylashuvini noqulayliklardan mustasno deb bo'lmaydi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug'diruvchi quyidagi omillar mavjud bo'lib, O'zbekiston Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o'zaro to'qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o'z manfaatlarini izlamoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston mintaqadagi etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan, ichki mojarolar hali ham tugatilmagan Afg'oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temiyo'li qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Mustaqil O'zbekistonning, umuman, hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o'tadigan, uzunligi 150 va undan ko'p kilometrli daryolar 50 tadan oshgan bo'lishiga qaramasdan, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir.

O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosati asoslarining ishlab chiqilishi. Hozirda xalqaro hamjamiyat mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining dastlabki qadamlari, Markaziy Osiyodagi mavqeyi, mintaqa xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni alohida ekanini tan olmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatining ma'naviy yo'nalishi, insonparvarlik, oshkoralik, qadr-qimmat, o'z imkoniyatlariga tayanish va insoniyatning yagona oilasida o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lishdir. Shu bois istiqlol yillarida mamlakatimiz 133 davlat bilan rasmiy diplomatik munosabatlar o'rnatgan, Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsullik, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. Mustaqillikni mustahkamlash,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko‘p jihatdan xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq edi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi va 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlari asosida shakllantirildi.

1996-yil “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. 2012-yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi” e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi – bu davlat tashqi siyosatining prinsiplari va strategik ustuvor yo‘nalishlarini, xalqaro maydondagi maqsad va vazifalarini, istiqbolda O‘zbekiston milliy manfaatlarini ilgari surish mexanizmlarini belgilab beradigan qarashlarning yaxlit tizimidir.

“O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi” – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 17-modda.

Mazkur Konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e’tibor qaratilgan va “O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqa bilan bog‘liq” ekanligi rasman e’tirof etilgan. Unda Markaziy Osiyo o‘zining muhim geosiyosiy joylashuvi va mineral xomashyo resurslarining ulkan zaxiralariga ega ekanligi tufayli jahon miqyosida kuchli e’tibor obyektiga, yirik davlatlarning strategik manfaatlari to‘qnashadigan hududga aylanib borayotgani ta’kidlangan. Shuningdek, dunyoning yirik davlatlari tomonidan mintaqada olib borilayotgan o‘zaro raqobat inobatga olinib, “Markaziy Osiyo muammolari tashqi kuchlarning aralashuvisiz, mintaqadagi davlatlarning o‘zlari tomonidan yechilmog‘i zarur”, degan fikr bayon etilgan. Konsepsiyada O‘zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qolishi ta'kidlandi.

Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik, davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi, davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish, tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik, davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xalqlarining kelib chiqishi, ularning tarixi, o'ziga xos turmush tarzlari va yaqin qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. 1993-yilning yanvar oyida mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Toshkent uchrashuvi tashkil etildi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat – Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

rahbarlari Hamdoʻstlik haqidagi bitimga imzo chekishdi. Buni mintaqa xalqlari samimiy mamnuniyat bilan qarshi oldilar va qoʻllab-quvvatladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari 1993-yil Qozogʻiston Respublikasining Qizil Oʻrda shahrida, 1994-yil Nukus shahrida, 1995-yil Turkmaniston Davlatining Doshhovuz shahrida, 1995-yil yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bagʻishlangan uchrashuvlar oʻtkazdilar va bu borada amaliy ishlar olib bora boshladilar. 1999-yil Turkmanistonning Ashxobod shahrida "Orolni qutqarish Xalqaro jamgʻarmasi"ning majlisi boʻlib oʻtdi. Majlisda ekologik falokat mintaqasidagi vaziyatni barqarorlashtirish borasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari oʻzaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

2017-yilda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Oʻzbekistonning qoʻshni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Shu yilning oʻzida Qozogʻiston, Turkmaniston va Qirgʻiziston davlatlariga Oʻzbekiston Prezidentining rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2018-yil mart oyida esa Tojikistonda oliy darajadagi uchrashuv amalga oshirildi. Bundan tashqari, 2017-yil Samarqandda BMT homiyligida "Markaziy Osiyo yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yoʻlidagi hamkorlik" mavzusida anjuman boʻldi. Unda 500 nafar xorijiy ishtirokchilar qatnashdi.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston. Oʻzbekistonning Qozogʻiston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992-yil iyunda Turkiston shahrida Oʻzbekiston Prezidentining Qozogʻistonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qozogʻiston Respublikasi oʻrtasida doʻstlik va hamkorlik toʻgʻrisidagi shartnoma asosida mustahkamlanib bordi. Qozogʻiston Prezidenti N.Nazarboyev 1994-yil yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan Oʻzbekistonda boʻldi. Ikki Prezident Oʻzbekiston bilan Qozogʻiston oʻrtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarning erkin oʻtib turishini nazarda tutuvchi hamda oʻzaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini taʼminlash toʻgʻrisida shartnomani imzoladilar. 1998-yil oktabrda Oʻzbekiston va Qozogʻiston oʻrtasida abadiy doʻstlik shartnomasi imzolandi. Oʻzbekiston va Qozogʻiston

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Prezidentlarining Toshkentda 2000-yil bo‘lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag‘ishlangan uchrashuvi bo‘ldi. Muzokaralar yakunida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining qo‘shma bayonoti” imzolandi.

2001-yil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog‘istonda bo‘ldi. Ikki davlat Prezidentlari O‘zbekiston- Qozog‘iston davlat chegarasi to‘g‘risida Shartnomani imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan chegarasining 96% belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimitatsiya qilishga kelishildi. 2002-yil O‘zbekiston Prezidenti Ostona shahriga tashrif buyurdi. “O‘zbekiston-Qozog‘iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to‘g‘risida bitim” imzolandi va ikki mamlakat o‘rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o‘z yechimini topdi. Qozog‘iston O‘zbekiston uchun Markaziy Osiyodagi muhim hamkorlardan biri hisoblanadi.

2013-yil imzolangan O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma ham o‘ta muhim hujjatlardan biridir. 2014-yil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog‘iston Respublikasida bo‘ldi. 2017-yil iyunda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Ostona sammiti munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘istonda bo‘ldi. 2017-yil sentabrda Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari uchrashuvi yakunlari bo‘yicha qator hujjatlar imzolandi. Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyevni “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirladi.

Hozirda Qozog‘istonda 550 mingga yaqin o‘zbek millatiga mansub, O‘zbekistonda esa bir millionga yaqin qozoq millatiga mansub xalq istiqomat qiladi. 2017-yil Qozog‘iston Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi paytida 2018-yilda Qozog‘istonda “O‘zbekiston yili” va 2019-yilda O‘zbekistonda “Qozog‘iston yili” o‘tkazilishi belgilandi.

O‘zbekiston – Qirg‘iziston. O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam haqida shartnoma asosida yo‘lga qo‘yildi. Bu shartnoma Toshkentda 1992-yil Qirg‘iziston Prezidenti Askar Akayevning

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida imzolangan edi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil Qirg‘izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O‘sh shahrida O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida 1994-2000-yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to‘g‘risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan edi. 1994-yil yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qirg‘izistonda bo‘ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o‘zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, budjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar.

DURDONA

2010-yil iyulda Qirg‘izistonda ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O‘zbekiston 100 mingdan ortiq qochqinlarni o‘z hududiga qabul qildi.

2017-yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Shu yil sentabr oyida Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo‘ldi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston prezidentlari o‘z ichiga 85 % masofani qamrab olgan chegara to‘g‘risidagi bitimni imzolashdi. Shu munosabat bilan, aholining o‘tib-qaytishi uchun ikki davlat o‘rtasidagi 7 yil davomida yopib qo‘yilgan chegara postlari ochildi. 2017-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeyenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda hamkorlikka doir qator hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston – Tojikiston. Tojikistonda 1992-1997-yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo‘shni mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1997-yilda Moskvada Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o‘rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnomaga erishilgach, Tojikistonning qo‘shni mamlakatlar bilan aloqalari yana tiklandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil yanvarda Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon O‘zbekistonga amaliy tashrif

www.nitropdf.com

Durdona

bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikasiyalaridan foydalanib kelmoqda. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi ham yil sayin ortib bordi.

2017-yil O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSH va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi. 2017-yil aprelda Dushanbeda ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk bor O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning keng ko'lamli ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. May oyining boshida esa tojik-o'zbek munosabatlari tarixida ilk bor Tojikistonda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi.

O'zbekiston – Turkmaniston. 1991-yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil yanvarda amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha qator bitimlarni imzolashdi. 1991-yildan 2016-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining 11 marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi keng ko'lamli hamkorlikka oid dolzarb yo'nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada imzolangan 150 dan ortiq

www.nitropdf.com

Durdona

xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yurtimizda 2001-yilda tashkil etilgan Respublika turkman madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida turkman millatiga mansub qariyb 170 ming aholi yashab, 44 ta maktabda turkman tilida ta’lim olib borilmoqda. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning 2014-yil may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog‘ida O‘zbekiston-Turkmaniston hamkorligini yanada rivojlantirish masalasida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

2017-yil Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov taklifi bilan ikki marta (mart, may oylari) Turkmanistonga tashrif buyurdi. Tashriflar davomida bir qator kelishuvlarga erishildi. 2017-yil mart oyidagi muzokaralar yakunida prezidentlar O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va kimyo sanoati, temir yo‘l transporti, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi. 2017-yil 6-7-mart kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Bu Shavkat Mirziyoyevning Prezident sifatida xorijiy mamlakatlarga qilgan ilk rasmiy tashrifi hisoblanadi.

DURDONA

18-MAVZU. O‘ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI *(2-QISM)*

O‘zbekiston – Rossiya. O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan o‘zaro hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar va hamkorlik 1992-yil imzolangan Davlatlararo munosabatlar, Do‘stlik asoslari to‘g‘risidagi shartnoma, 1998-yil imzolangan 1998-2007-yillar uchun iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi shartnomalar asosida rivojlanib bordi.

Keyingi yillardagi O‘zbekiston-Rossiya munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishida 2004-yilda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma muhim ahamiyat kasb etdi. 2005-yilda

www.nitropdf.com

Durdona

Moskvada imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, 2012-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuv yakuniga ko'ra qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiya" ikki davlat o'zaro munosabatlarida alohida voqea bo'ldi. Ikki mamlakat o'zaro munosabatlari va hamkorligining yanada rivojlanishi va chuqurlashishiga 2013-yil aprelda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin o'rtasidagi Moskva uchrashuvi yangi turtki berdi. Ushbu uchrashuv chog'ida davlatlarning keng qamrovli o'zaro munosabatlaridagi hamkorlikni rivojlantirish holati va istiqboli ko'rib chiqildi. Har ikki davlat mustaqillikka erishgandan keyingi davr ichida O'zbekiston va Rossiya o'rtasida 160 dan ortiq xalqaro shartnoma va 40 dan ziyod boshqa hujjatlar imzolandi.

2017-yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Rossiyada bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, mintaqalararo hamkorlik, turizm va sog'liqni saqlashga oid umumiy qiymati 16 milliard dollar bo'lgan 55 ta hujjat imzolandi.

O'zbekiston – Xitoy. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida an'anaviy do'stlik munosabatlari o'rnatilgan. Bular ikki mamlakatga har ikki tomonni qiziqtiruvchi ko'plab masalalar bo'yicha o'zaro manfaatli va samarali hamkorlik olib borish imkonini beradi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisining 2010-yildagi O'zbekistonga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil iyunda Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Uchrashuvlar davomida hamkorlikning istiqbollari belgilandi. Buning yaqqol dalili sifatida O'zbekiston rahbarining Xitoyga tashrifi chog'ida davlatlar rahbarlari tomonidan "Strategik sheriklik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi qo'shma bayonot" imzolanganini ko'rsatish mumkin.

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zaro manfaatli hamkorlikning huquqiy bazasini 2005-yilda imzolangan Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma, 2010-yildagi Do‘stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish va rivojlantirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya, 2012-yildagi Strategik sheriklik o‘rnatish to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2013-yildagi ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi Qo‘shma deklaratsiya, 2014-2018-yillarga mo‘ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi hamda 2016-yilda imzolangan Qo‘shma bayonot tashkil qiladi. Mazkur hujjatlarning qabul qilinishi uzoq muddatli istiqbolda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

2017-yil 11-13-may kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi O‘zbekiston-Xitoy munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tardi. Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Shavkat Mirziyoyev Xitoyga bo‘lgan tashrifi davomida umumiy qiymati 23 mlrd. dollar bo‘lgan 105 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. 2017-yilning o‘zida xorijiy mamlakatlar bilan 60 mlrd. dollarlik shartnomalar imzolangan bo‘lsa, shuning 35 foizi, ya’ni 23 mlrd. dollari Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston – AQSH. O‘zbekiston bilan Amerika Qo‘shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo‘lga qo‘yildi. 1992-yil fevralda AQSH davlat kotibi O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 1992-yil martda Toshkentda birinchi bo‘lib AQSHning elchixonasi ochildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1996-yil iyunda AQSHda bo‘lishi O‘zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog‘onaga ko‘tardi. Islom Karimov AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik masalalari muhokama etildi. Bill Klinton AQSH ma’muriyati Markaziy Osiyo mamlakatlarining mustaqilligi, barqarorligi va ravnaqidan manfaatdor ekanini, O‘zbekiston bilan qalin munosabatlar o‘rnatishni istayotganini, O‘zbekistonning tezroq dunyo

www.nitropdf.com

Durdona

hamjamiyatiga integratsiyalashuvi yo'lida yordam berajagini ta'kidladi.

1996-yil O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi. O'zbekiston davlati delegatsiyasining AQSHda bo'lishi chet el sarmoyasi uchun respublikada yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risidagi axborot taqchilligini bartaraf etdi. 2002-yil mart oyida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo'ldi. AQSHni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun 2002-yil Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan "Xalqaro miqyosdagi lider" mukofoti bilan taqdirlandi.

2017-yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSH va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida Shavkat Mirziyoyev va AQSH prezidenti Donald Tramp ilk bor uchrashdi. Donald Tramp davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonini yuqori baholadi. Shu yil sentabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasi munosabati bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'ldi va u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh o'zbekistonliklar bilan uchrashdi. Prezidentimizning Amerika Qo'shma Shtatlariga tashrifi turli tarixiy voqealar va uchrashuvlarga nihoyatda boy bo'ldi. Prezidentimiz 19-sentabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida mamlakatimiz, xalqimiz uchun yana bir muhim ahamiyatga molik voqea bo'lib o'tdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosida muazzam Registon maydonining maketi o'rnatildi.

19-sentabr kuni Nyu-Yorkda Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasiga tashrif buyurgan davlat va hukumat rahbarlari sharafiga rasmiy qabul marosimi o'tkazildi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagard, Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Rudev,

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvilini bilan uchrashdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagardning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida to'xtalib, ularga O'zbekiston renessansi, yangi uyg'onish davrining boshlanishi sifatida baho bergani ayniqsa diqqatga sazovordir.

O'zbekiston Prezidenti, shuningdek, Jahon banki prezidenti Jim Eng Kim bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari tashrif davomida Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan ham uchrashib, samimiy suhbatlashdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston va AQSH ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida o'tgan qabul marosimida ishtirok etdi. Vatandoshlar ilm-fan, ta'lim, texnologiya, investitsiya va boshqa sohalarni rivojlantirish, O'zbekiston va AQSH muassasalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi. Shavkat Mirziyoyev ularga murojaat qilar ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldor bo'lish, zamonaviy bilim va tajribalarni mamlakat rivojiga yo'naltirishga da'vat etdi. Bugungi kunda O'zbekiston va AQSH strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

O'zbekiston – Yaponiya. O'zbekiston o'zining sharqiy yo'nalishdagi tashqi siyosatida Osiyo qit'asining Yaponiya, Hindiston va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar va manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga alohida e'tibor berdi. 1992-yil yanvarda o'rnatilgan diplomatik munosabatlar, 1994-yil may, 2002-yil iyul va 2011-yil fevralda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O'zbekistonda bo'lib o'tgan davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi manfaatli va do'stona aloqalarga yangicha ma'no-mazmun bag'ishladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yilda Yaponiyaga tashrifi doirasida Bosh vazir Jun'itiro Koidzumi bilan uchrashuvida o'zaro do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot tomonlarning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ikki mamlakat ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib qoldi. 2004-yilda Tokiodagi Soka universiteti

www.nitropdf.com

Durdona

hududida buyuk o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiyga haykal o‘rnatildi.

O‘zbekiston Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi rasmiy tashrifi davomida yuqori texnologiyalar sohasida ixtisoslashgan yirik kompaniyalar bilan yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O‘zbekistonning neft-gaz, kimyo, energetika, mashinasozlik va to‘qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohalariga jalb etishga qaratilgan qator bitimlar tuzishga erishildi.

2015-yil oktabrda Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening O‘zbekistonga tashrifi doirasida O‘zbekiston va Yaponiya umumiy qiymati 8,5 mlrd. dollardan ko‘proqni tashkil qiladigan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

O‘zbekiston – Hindiston. Hindiston O‘zbekistonning yirik strategik hamkoridir. 1992-yil martda Toshkentda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi to‘g‘risidagi bayonnoma imzolandi. 2016-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Hindistonga besh marotaba tashrif buyurgan va birinchi rasmiy tashrif 1991-yilning avgust oyida amalga oshirilgan edi.

1993-yil mayda Hindiston bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Safar kunlarida “O‘zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o‘rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to‘g‘risida” shartnoma, savdo-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida va boshqa bitimlar imzolandi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1993-yilgi Hindistonga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida qator bitimlar imzolandi. 2006-yilda Hindiston Bosh vaziri M.Singxning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil may oyida Hindistonga qilgan davlat tashrifi va 2015-yil iyunda Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining O‘zbekistonga rasmiy tashrifi hamkorlik munosabatlarini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ularning orasida eng muhimi ikki davlat munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishga qaratilgan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonotidir. Hozirgi kunda

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

O‘zbekiston hududida Hindiston sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 60 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston – Koreya Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o‘rtasida hamkorlik munosabatlarining rivojiga 1991-yil dekabrda O‘zbekiston mustaqilligi tan olingan va ular o‘rtasida 1992-yil yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan kunda asos solingan edi. Bu tarixiy sanalar ikki davlat o‘zaro munosabatlarida faol siyosiy muloqot olib borish va har tomonlama o‘zaro manfaatli hamkorlikning shakllanishi uchun yo‘l ochdi. O‘zbek-koreys o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari ravnaqiga O‘zbekiston rahbarining Koreya Respublikasiga 2012-yil sentabrdagi tashrifi turtki berdi. Uchrashuv yakunlariga ko‘ra, Qo‘shma bayonot qabul qilinib, unda tomonlarning ko‘p taraflama hamkorligi holatiga baho berildi va har taraflama munosabatlarning istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. 2014-yil iyunda Koreya Respublikasi Prezidenti Park Geunhening O‘zbekistonga rasmiy tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasida Strategik sherikchilikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risida Qo‘shma deklaratsiya va moliya, investitsiya, muqobil energetika va madaniyat sohalarida o‘zbek-koreys hamkorligini yanada chuqurlashtirish maqsadida qator hujjatlar imzolandi. O‘zbekistonda Koreya investitsiyasi ishtiroki bilan 400 dan ortiq korxona faoliyat olib bormoqda.

1992-yildan beri Toshkentda Koreya ta’lim markazi faoliyat olib bormoqda. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillari institutida Koreys tili va madaniyati markazlari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2017-yilning noyabr oyida Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Koreya Respublikasiga tarixiy burilish yasovchi davlat tashrifi bo‘ldi. Oliy darajadagi muzokaralarda o‘zaro hamkorlikning keng ko‘lamli masalalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan bitimlar imzolandi. O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda. Bular O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan mustahkam aloqada bo'lganligidan, har tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro hamkorliklar doirasida qabul qilingan hujjat va kelishuvlarni o'z vaqtida to'liq bajarish maqsadida 40 ta "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatida yangi industrial rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqin munosabatlar va hamkorlik o'rnatish hamda rivojlantirishga ham katta e'tibor berilayotir. Bunday davlatlar toifasiga to'la ma'noda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Janubi-sharqiy Osiyoning O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi o'ziga xos o'rni shu bilan belgilanadiki, bu mintaqa o'nta rivojlanayotgan mamlakatni o'z ichiga oladi. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi va rivojlanish sur'atlari bo'yicha Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tailand kabi mamlakatlar ajralib turadi. Ularning mustamlaka muteligidan qutulgandan so'ng to'plagan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasidagi tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun asqotishi mumkin.

O'tgan davr mobaynida davlat va hukumat rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan rasmiy uchrashuvlar natijasi o'laroq, o'zaro anglashuv, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma va bitimlarga erishilib, ular davlatlararo munosabatlarga mustahkam poydevor yaratdi. Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topishiga xizmat qildi.

19-MAVZU. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Dunyoda ikki yuz ellikdan ortiq davlat, minglab xalq va elat bor. Ular orasida O'zbekiston deya atalmish go'zal va betakror mamlakatning o'z o'rni va nufuzi, o'ziga xos taraqqiyot yo'li borligi qalbimizga iftixor bag'ishlaydi. Shu bois ham Mustaqillik biz uchun

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

benihoya qadrlidir. Qadrli narsa esa osonlikcha qo'lga kiritilmasligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Vatanimiz tarixi bir necha ming yillar bilan bo'ylashadi. Bu diyor jahon tamaddunining tamal toshini qo'ygan, ilm-fani, san'ati, madaniyati, ulkan madaniy-ma'naviy merosi, olim-u fuzalolari bilan dong taratgan. Shu bois yaqin o'tmishda qariyb bir asr davomidagi mustamlaka davri, ungacha ham haq-huquqlari poymol etib kelingan xalqimiz ruhini hech qanday kuch so'ndirolmagan. Shu nuqtai nazardan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani, 1990-1991 yillarda Navro'z bayrami qayta tiklangani, Ramazon va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilingani xalqimizning asriy orzu va armonlari ro'yobga chiqishi, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi yo'lidagi dastlabki yirik qadamlar bo'ldi.

Milliy davlatchiligimizni barpo etish yo'lidagi zalvorli qadam sifatida Mustaqillikning dastlabki yillarida dastlab uning kafolati bo'lmish Konstitutsiya qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh vazifa etib belgilanib, mamlakat siyosiy hayotida ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topdi, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati takomillashtirildi, sud-huquq tizimida, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlol tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma sakkiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi bu o'zgarishlarni yanada teranroq anglashimiz, idrok etishimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining har bir so'zlari xalqimiz qalbida iftixor tuyg'ularini yanada jo'sh urdirdi. Shubhasiz, bundan ruhlangan xalqimiz davlatimizning har qarich yerida yuksalish davri bo'lishi uchun azmu qaror qilmoqdalar.

Muhtaram Yurtboshimiz nutqida ta'kidlaganidek, Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash,

www.nitropdf.com

Durdona

madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgani, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me'moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

Sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohalarida bo'layotgan ulkan o'zgarishlarning barchamiz guvohi bo'lib turibmiz.

Shu o'rinda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda umumta'lim maktablarida 11 yillik tizim tiklanganini, maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. So'nggi uch yilda 35 ta yangi oliy o'quv yurti tashkil qilingani, ularning umumiy soni 112 taga yetgani, e'tiborlisi, bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekanligi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yorqin isbotidir.

Ertangi kelajagimiz bo'lmish yoshlar kelgusida ana shu ulug'vor ishlarning munosib davomchilaridir. Shu nuqtai nazardan, yangi o'quv yilining ilk – "Mustaqillik" darslarida istiqlol yillarida, ayniqsa, keyingi uch yilda amalga oshirilgan islohotlar, Harakatlar strategiyasida belgilangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya, Prezidentimiz nutqi mazmun-mohiyati xususida o'quvchi-yoshlarga keng tushunchalar berildi, ularning fikr-mulohazalari tinglandi. Quvonarlisi, yoshlar Yurtboshimiz nutqining har bir satrida hayot borligini, har bir so'zida O'zbekistonimizning yuksak taraqqiyotiga qaratilgan aniq maqsad borligini teran anglab yetdi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, bundan keyin ham biz pedagoglar ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

ustuvor g'oya asosiy dasturilamalimizdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Ta'lim-tarbiyada milliy yuksalish: Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan, ko'plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar, keng jamoatchilik takliflarini o'rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilgani yoshlarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi kuchayishida, ular tarbiyasini to'g'ri shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xo'sh, nega ushbu islohot o'quvchilarning darslarga ishtiyoqini oshiryapti, ularning tarbiyasini nazorat qilishga yaxshi samara beryapti?

Xalqimiz 11 yillik ta'lim sistemasi qayta tiklandi, ilgargi holat qaytdi, deb sayoz fikrlamasliklarini xohlardim. Chunki ushbu islohot chuqur o'ylangan va ta'lim-tarbiya sifatini yanada oshirishga xizmat qiladigan puxta reja asosida amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta ta'lim uzluksiz 11 yillik ta'lim negizida amalga oshirildi.

11 yillik ta'limning joriy etilishi munosabati bilan tezkor davr talabidan kelib chiqqan holda olimlar, amaliyotchi o'qituvchilar hamda keng jamoatchilikning fikriga tayanib, 10-11-sinflar uchun 12 ta umumta'lim fani bo'yicha o'quv rejalari qaytadan tayyorlanib, ularga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 11-sinfda kasb ta'limi orqali 50 ga yaqin kasbni o'rgatish bilan birga, "Tadbirkorlik asoslari" fani ham o'qitiladi. O'quv dasturlari asosida 10-sinf o'quvchilariga umumta'lim fanlaridan 18 nomdagi darsliklar 7 tilda, jami 9 million 53 mingdan ortiq tirajda chop etilib, joylarga yetkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 10-11-sinf o'quvchilarining ta'lim olishi bilan birga, ularga kasb-hunar o'rgatish, yoshlarning qiziqish va qobiliyatini nazarda tutgan holda kelajakda ularni ta'limni

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

davom ettirishi yoki egallagan kasbi bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi.

Kasb-hunar kollejlarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etildi. Kasblar ro‘yxatini tayyorlashda hududlarning sharoiti hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari inobatga olinib, mutasaddilar va ish beruvchi tashkilotlar mutaxassislari bilan birgalikda, real vaziyatni xolis baholagan holda ish olib borildi. Ya’ni 11-sinf o‘quvchisi maktabni tamomlagandan keyin egallagan hunari bo‘yicha o‘z ishini topa olishiga jiddiy e’tibor qaratildi.

Oilada va kundalik turmushda hamisha zarur bo‘lgan kichik tibbiy hamshira, oilaviy kichik hamshira, tarbiyachi yordamchisi, ijtimoiy soha kichik mutaxassisi, dasturchi, tarmoq boshqaruvchisi, veb-sayt dizayneri, kompyuter grafikasi mutaxassisi va shu kabi boshqa kasblarning o‘rgatilishi jamiyatga, ham davlatga bir xil naf keltiradi. E’tiborlisi, joylarda tashkil etilgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida kasblar murakkabligiga qarab 1 yoki 2 yil davomida o‘rgatiladi va mehnat bozoridagi ehtiyojga ko‘ra kasblarning turi o‘zgarib turadi.

10-11-sinf o‘quvchilariga haftasiga bir kun 6 soatdan 2 yil davomida kasbiy ta’lim o‘qitiladi. Bitiruvchilarga o‘rta ma’lumot to‘g‘risida attestat bilan birga kasb malakasi bo‘yicha davlat namunasidagi diplom beriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarda kasblarga bo‘lgan qiziqishni oshirish, kasblar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uzluksiz yetkazish maqsadida ular umumta’lim maktablarining 1-sinfidan boshlab kasbga yo‘naltirilib boriladi. 8-9-sinflarda esa kasbga yo‘naltirish alohida fan sifatida o‘qitiladi.

Ilgari 9-sinfni tamomlayotgan o‘quvchilarda qaysi kollejda o‘qishni davom ettirish borasidagi savol ko‘ndalang turardi. Ba’zilari majburlikdan u yoki bu kollejlarga “adashib” borib qolardi. Oxir oqibat ularning bilim olishida, ham tarbiyasida salbiy holatlar paydo bo‘la boshlardi. Bu esa, o‘z navbatida, voyaga yetmaganlar orasida turli huquqbuzarliklar, jinoyatlar ortishiga sabab bo‘ldi.

Pedagog sifatida shuni ishonch bilan aytamanki, o‘quvchilar 11 yillik ta’lim sistemasida chuqur bilim oladi, bu ertamiz egalarining bilimli, kasb-hunarli bo‘lib ulg‘ayishi, ma’naviyati, odob-axloqi, bo‘sh vaqti ustidan mahalla-ko‘y va jamoatchilik nazoratining o‘rnatilishiga keng imkoniyat yaratdi.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Yangi bosqichning yangi imkoniyatlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingani ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Ushbu hujjatda nazarda tutilgan maqsadlar barchamizni quvontirdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Farmonga muvofiq, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tashkil etilib, mazkur dasturlar asosida tegishli kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari ro‘yxatlari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, Farmonga ko‘ra**,** jami 388 ta kasb-hunar kollejlari binolari tegishli ro‘yxatga asosan maktab sifatida foydalanilishi belgilandi.

Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi.

Bunda: **A) kasb-hunar maktablarida:** Maktablarning 9-sinf bitiruvchilariga 2 yillik kunduzgi ta’lim beriladi;

Ta’lim olayotgan o‘quvchilar Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan ta’minlanadi.

B) kollejlarda: Kamida umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida ta’lim beriladi.

V) texnikumlarda: Umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo‘lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida ta’lim beriladi;

Texnikumlarni tamomlagan bitiruvchilar o‘z sohasiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kirish imtihonlarisiz yakka

www.nitropdf.com

Durdona

tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkini, amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi yosh avlodning puxta va sifatli bilim olishiga davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan katta e'tiborning amaldagi ifodasidir. Zero, hech bir davlatda O'zbekistondagidek bepul ta'lim tizimi mavjud emas. Bu islohotlarning tag-zamirida mustaqillik bergan cheksiz imkoniyatlardir.

Mustaqillik yillarida milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning milliy tiklanishiga xizmat qildi. G'oyaviy kurashlarda kunimizga yaradi. Xalqimizni birlashtirdi, buzg'unchi g'oyalar mohiyatini tushuntirdi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Konstitutsiyamizga asoslangan, xalqimizning tub manfaatlariga javob beradigan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalda. Keyingi yillarda erishilgan yuksak marralar xalqimizni baxtli qilishga qaratilgan islohotlar samaralarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarurligi alohida ta'kidlandi. 2019-yil 8-aprel kuni Prezidentimizning O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur hujjat qabul qilinishining zarurati nimalarda namoyon bo'ladi? Rivojlangan mamlakatlarda milliy g'oya davlat maqsadlarini xalq maqsadlariga uyg'unlashtiradi. "Bir hudud – bir xalq" e'tiqodini shakllantirib, mamlakatlar aholisini birlashtirgani, umumiy maqsad yo'lida safarbar qilganiga misollar ko'p. Ularning aksarida milliy g'oya milliy qadriyatlarga bog'lab singdirilganini ko'ramiz.

Masalan, "Tarix – sintoizm – konfutsiylik – samuraylik irodasi" qadriyatlari negizida yapon milliy g'oyasi ishlab chiqildi. Odamlarga ishonch, rag'bat berildi. Maktabning tarbiyaviy ishlar tizimi, g'oyasi isloh qilindi. Uyushgan millatning juda qattiq mehnati o'laroq, dunyo "Yapon mo'jizasi"ning guvohi bo'ldi. Xitoyda ham milliy zaminga – Konfutsiy ta'limotiga murojaat qilindi. Konfutsiy merosidan diniy ta'limot emas, balki axloqiy (xulq uchun) asos sifatida foydalandi. Yoshlar tarbiyasi "Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo'lish"

www.nitropdf.com

Durdona

g‘oyasi asosida tashkil etildi. Yoshlarga shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutish o‘rgatib borildi.

AQSHda davlat mafkurasi yo‘q, deb hisoblanadi. Ammo amerikaliklarning ma’naviyatini o‘rgangan olimlar AQSH kabi mafkuralashgan davlatni topish qiyin, deyishadi. AQSHda mafkura vazifasini “Amerika orzusi” (American Dream) bajarmoqda. U Amerika davlatining oliy qadriyatlari yig‘indisi, millatning ma’naviy onasi deb tushuniladi. “Amerika orzusi”ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi. Amerikaliklar mafkura bo‘lmasa, davlat boshqaruvida tizimlilik bo‘lmaydi, tizimsiz esa samarali siyosat bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblashadi. Shu bois, amerikalik davlat arboblaridan biri U.Sefayr “Agar Amerika tuzumi – skelet bo‘lsa, amerikancha orzu – uning qalbidir” degan edi.

Janubiy Koreyada ham milliy g‘oya xalqning milliy o‘zligiga va yoshlar tarbiyasiga qurildi. Maktabda milliy g‘oya yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallar orqali singdirib borildi. Yoshlarni hayotga tayyorlashda oila, maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratildi. Hozir ham koreys oilalarida umumiy byudjetning ellik olti foizi bolaning ta’lim-tarbiyasi, inson kapitali – Human Capital uchun sarflanmoqda.

Mamlakatimizda milliy g‘oyaga yangi davr, millatimiz tarixining yangi bosqichi talablaridan kelib chiqqan real talablar qo‘yilmoqda.

DURDONA

20-MAVZU. YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

O‘zbekiston 2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlari sharofati bilan keng ko‘lamli asosiy tub o‘zgarishlar yo‘lini bosib o‘tdi. Mamlakat ichida bo‘lganiday, xorijda ham bugungi O‘zbekiston va olti yil avvalgi O‘zbekiston – bu o‘zining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ikkita butkul turlicha hodisa ekanligi borasida ekspertlar fikrlarida hamjihatlik bor.

O‘zbekiston 2022-yili nafaqat zamonaviy jahon tendensiyalari yutuqlarini qabul qiladigan va moslashtiradigan, balki o‘zi ham kamida mintaqaviy kun tartibini shakllantirgancha yuzaga chiqadigan harakatchan, yangiliklarga ochiq hamda dunyo hamjamiyatining doimiy ravishda rivojlanib boruvchi a’zosini o‘zida aks ettirmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot falsafasini birmuncha yorqin

www.nitropdf.com

Durdona

namoyon qiladigan to'rtta yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin. Islohotlarning e'tirof etilgan dastlabki yutug'i – Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarning shiddat bilan yuksalishi bo'ldi. Mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi qo'shnilari bilan munosabatlarida yangi davr boshlandi va bu shunchalar qisqa muddatlarda amalga oshdiki, diplomatiya san'ati darsliklariga kiritish ham mumkin. Dastavval Tojikiston bilan munosabatlardagi siljishni ta'kidlash kerak. Rasmiy darajada bu "Strategik sheriklik to'g'risida"gi shartnomani imzolash bilan mustahkamlandi. Eng muhimi, siyosiy siljish oddiy odamlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, chunki fuqarolarning safari va insonparvarlik aloqalarini yengillashtiruvchi vizasiz tartib kiritildi. O'zbek-tojik cheragalarini aniq belgilash va delimitatsiyalash, shuningdek, suvdan foydalanish masalalari bo'yicha konstruktiv muloqotda sezilarli o'zgarishlarga erishildi.

O'z navbatida, Qirg'iziston bilan Strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi Deklaratsiya imzolandi. Tomonlar chegaralarni belgilash va Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston–Turkmaniston yo'nalishi bo'yicha tranzit avtomobil va multimodal yuk tashishni tashkil etish bo'yicha hamkorlikni faollashtirdilar. O'zbekiston–Qirg'iziston–Xitoy temiryo'llari qurilishi loyihasi bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Ularning amalga oshirilishi tranzit yuk tashishning keskin o'sishiga olib keladi. Suvdan foydalanish sohasida ikki tomonlama hamkorlik rivojlanmoqda. Bunga Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod tumanida O'rtato'qay (Kosonsoy) suv omboridan davlatlararo foydalanish to'g'risida tuzilgan bitim misol bo'lib xizmat qiladi.

2016-2022-yillarda Qozog'iston bilan munosabatlarda qardoshlik va ahil qo'shnichilik aloqalari tubdan yangi bosqichga ko'tarilib, yanada mustahkamlandi. 2021-yil 6-dekabrda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi Deklaratsiya imzolangan edi. Mazkur hujjatda tomonlarning Oliy Davlatlararo Kengash, Parlamentlararo hamkorlik kengashi hamda O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining Tashqi ishlar vazirlari Kengashini ta'sis etish niyati ifodalangan.

Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil aprel oyida Ashxobodga va Turkmanistonning yangi Prezidenti Sardor Berdimuhammedovning 2022-yil iyul oyida Toshkentga tashrifi davomida erishilgan

www.nitropdf.com

Durdona

kelishuvlar do‘stlik, ahil qo‘shnichilik va strategik sherikchilik munosabatlarini ham yanada rivojlantirdi.

O‘zbekiston siyosatining yangi Markaziy Osiyo sektori haqida gapirganda ularning sifati jihatidan yaxshilanishining bir qancha indikatorlarini ta’kidlash mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari O‘zbekistonga sayyohlik maqsadi bilan tashrif buyuruvchi fuqarolar orasida izchil birinchilikni egallaydilar. Demak, agar shu yilning may oyida O‘zbekistonga 503,6 ming xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, shundan qariyb 170 ming nafari Qozog‘iston, 141,3 ming nafari Qirg‘iziston va 16 ming nafari Tojikiston fuqarolaridir. Bularning barchasini qo‘shganda 427 ming nafardan ortiqni tashkil etadi. O‘zaro savdo-sotiqning o‘sishi asosiy indikatorlardan biri bo‘lib xizmat qildi. Pandemiyaga qadar 2017-2019 yillarda O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan tashqi savdo aylanmasi 2,05 dan 3,367 milliard dollarga qadar, Qirg‘iziston bilan 0,25 dan 0,829 milliard dollarga qadar, Tojikiston bilan 0,237 dan 0,497 milliard dollargacha va Turkmaniston bilan 0,177 dan 0,541 milliard dollarga qadar oshdi. Jami tovar ayirboshlash hajmi 5,234 milliard dollarni tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyoni o‘sha paytda O‘zbekistonning yetakchi tashqi savdo sheriklari orasida Xitoy va Rossiyadan keyin uchinchi o‘ringa olib chiqdi. Oxirgi yillarda yaratilgan ijobiy asosni e’tiborga olgan holda yaqin kelajakda Markaziy Osiyo o‘zbek tashqi iqtisodiy siyosatining eng yirik eksport-import yo‘nalishiga aylanishini bashorat qilish mumkin.

Mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning mustahkamlanishini mintaqa davlatlari o‘rtasida ishonchning ortib borishi ko‘rsatkichi deb hisoblash mumkin. Buni 2021-yilda Tojikiston va Qozog‘iston bilan o‘tkazilgan harbiy mashg‘ulotlar, shuningdek, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning BMT, MDH va SHHT kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligi tasdiqlab turipti.

BMT Bosh Assambleyasining bir ovozdan ma’qullangan Orolbo‘yi mintaqasini “ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e’lon qilgan rezolyutsiyasi bunga ibratli misol bo‘la oladi. Rezolyutsiya tashabbusi O‘zbekistonga tegishli bo‘lib, Qozog‘iston, Tojikiston va Turmanistonni kiritgan holda 50 ta davlat uning hammuallifi sifatida chiqdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaqalarni birlashtirish darajasini keskin oshirish imkonini bergan Markaziy Osiyo davlatlari

www.nitropdf.com

Durdona

rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formatini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi shubhasiz, uning bu yo'ldagi maqtovga sazovor xizmati bo'ldi. Bunday uchrashuvlarning to'rttasi – 2018-yili Nur-Sultonda, 2019-yili Toshkentda, 2021-yili Turkmanboshida va 2022-yili Qirg'izistonning Cho'lpon-ota shahrida bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlarning barchasida Markaziy Osiyo uchun dolzarb bo'lgan suv resurslari, iqlim o'zgarishlari, transport kommunikatsiyasi, kambag'allik bilan kurashish, xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ko'p tomonlama hamkorlikka ustunlik beruvchi masalalar va muammolar muhokama qilinadi.

Islohotlarning inson tafakkurini o'zgartirishga yo'naltirilganligi ularning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi, chunki aynan ular yangi O'zbekistonni yaratuvchilardir. Insoniy kapital sifati har qanday modernizatsiya va iqtisodiy muvaffaqiyatning eng muhim poydevoridir. Biroq buning ortida quruq formulalar va mulohazalar emas, balki, avvalo, asosida harakatlar strategiyasi quriladigan g'oyalar turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uchinchi Renessans" g'oyasi shunday g'oya bo'ldi. Uning mohiyati shundan iboratki, u bir tomondan qachonlardir zamonaviy O'zbekiston hududi o'z bilimlarini boshqa sivilizatsiya va xalqlarga beradigan jahon ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot markazi bo'lganligi to'g'risidagi xotira yashaydigan o'tmishga, ma'naviy-tarixiy ildizlarga, milliy o'z-o'zini anglash va madaniyatning chuqur qatlamlariga murojaat qiladi. Bunday intellektual gullab-yashnash davrlari Birinchi "ma'rifat" Renessansi (IX-XII asrlar) va Ikkinchi "temuriylar" Renessansi (XIV-XV asrlar) bo'lgan. Boshqa tomondan, Uchinchi Renessans g'oyasi hozir va kelajakka qaratilgan. Dunyoda xalqlar iqtisodiyoti va farovonligini, ularning XXI asrdagi raqobatbardoshliligini belgilab beradigan axborot-kommunikatsiya sohasidagi ilg'or bilimlari asosida yangi ilmiy-texnik inqilob bormoqda. O'zbekiston uchun bu chorlov va ayni vaqtda global taraqqiyot avangardiga kirishning tarixiy imkoniyatidir, biroq uning buni qilishini asoslaridan biri ta'lim tizimi bo'lishi zarur bo'lgan tiklanishning uchinchi davri doirasidagina mumkin bo'ladi. Modomiki, uzoq muddatli maqsad aniq bo'larkan, unda ta'lim islohoti unga muvofiq ravishda tizimli xarakter kasb etdi. Birinchi navbatda, maktabgacha ta'limga yuqori e'tibor ajratila boshlandi, chunki aynan bolalik davrida tafakkur, bilimga muhabbat, ma'naviy va estetik tasavvurlarga muhim asos joylanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun 2017-yili Maktabgacha ta'lim vazirligi

www.nitropdf.com

Durdona

bunyod etildi va 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilindi. Qabul qilingan qarorlar natijasida 2020-yilga kelib bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish 2015-yil ko'rsatkichlariga solishtirganda bir necha barobarga ortdi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida – 3,4 barobarga, Jizzaxda – 4 marotaba, Namanganda– 3 marotaba, Samarqandda – 3,1 barobarga va Toshkent viloyatida – 1,6 barobarga o'sdi. Bu beshta viloyatda respublikadagi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan umumiy bolalar sonidan 43,9 foiz bolalar istiqomat qiladilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining 2020-yil dekabridagi Oliy Majlisga murojaatida 2023-yil yakuniga qadar maktabgacha ta'limga qamrovni 75 foizgacha oshirish maqsadini qo'ydi. Byudjetdan ajratilgan 600 mlrd so'm subsidiyaga 2 mingta nodavlat bolalar bog'chalari tashkil etilishi zarur. Bu sohada xususiy sektor ulushi ham 25 foizgacha o'sishi darkor. Bunda jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktab va maktabgacha ta'limga bepul tayyorgarlik tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Parallel ravishda maktab ta'limi sifatini oshirish bo'yicha keyingi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-yildan boshlab metodologik, institutsional, infratuzilmaviy xarakterdagi bir necha yo'nalishlarini o'z ichiga oladigan maktab ta'limi tizimini isloh qilishning yangi bosqichiga start berildi.

Birinchidan, bu yangi metodikalar asosida o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularni mamlakat mintaqalari hamda har bir tumandagi maktablarning 20 foiziga tatbiq etish dasturidir. Moliyalash hajmi 100 mln dollar qilib belgilangan. Shuningdek, o'qituvchilarning jamiyatdagi maqomini oshirish va ularning daromadlarini ko'tarish yuzasidan chora-tadbirlar ham ko'riladi. Islohotlar maktab direktorlariga daxl qiladi – yangi o'quv yilidan boshlab ularni sertifikatlash tizimi kiritiladi, shu asosda bu lavozimga nomzodlar saralanadi.

Ikkinchidan, to'lib ketgan maktablar, shuningdek, maktablarni ta'minlash va ularni zamonaviy kompyuter asbob-uskunalari va yuqori tezlikdagi Internet bilan jihozlash muammolari hal qilinadi.

Uchinchidan, zamonaviy davr talablarini inobatga olgan holda 193 ta ta'lim muassasalari negizida tabiiy va aniq fanlar yo'nalishi bo'lgan maktablarni tashkil etish rejalashtirilgan.

To'rtinchidan, maktablarda ma'naviy muhitni tubdan yaxshilashning yangi konsepsiyasi ishlab chiqiladi.

www.nitropdf.com

Durdona

Mamlakatimiz poytaxti va hududlarida intellektual qobiliyatlarni maksimal darajada ochib berish maqsadida yosh iste’dodlarni aniqlash, ularni ko‘p tarmoqli ilg‘or ta’lim muhitiga integratsiyalashga ixtisoslashgan Prezident maktablarining paydo bo‘layotganligi alohida e’tiborga molik. Bundan tashqari, oxirgi yillarda O‘zbekistonda nodavlat maktab muassasalarining rivojlangan tarmog‘i paydo bo‘ldi. Yosh avlodning oliy maxsus ta’lim olishga o‘sib borayotgan istagi fonida oliy ta’lim tizimi jiddiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. 2020-yilda O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun ariza berishning eng yuqori ko‘rsatkichi – deyarli 1,5 mln. abituriyent qayd qilindi. 2022-2023 o‘quv yiliga davlat buyurtmasi bakalavriat uchun – 110,707 nafar talabani, magistratura uchun – 10,688 ming talabani tashkil etdi. Hukumat tegishli ta’lim infratuzilmasini yaratadi va ta’lim bozorini iqtisodiy o‘sishning haydovchisiga aylantirishga hamda ilmiy kadrlarga oid bazani mustahkamlashga ko‘maklashadi. 2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 162 ta oliy o‘quv yurti faoliyat yuritadi. Bunda 25 ta oliy o‘quv yurti nodavlat universiteti, xorijiy universitetlar va filiallar miqdori esa 30 taga yetdi. Joriy yilda bir necha universitetlar yangidan ochildi yoki qayta tashkil etildi. Masofaviy ta’lim tizimining joriy etilganligini ta’kidlash mumkin. “IT-ParkUniversity”onlayn-universitetining ochilishini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Umuman olganda, oliy ta’lim bilan qamrab olish 28 foizdan 38 foizgacha o‘sdi. Oliy ta’lim tizimida barcha uchun teng va sifatli ta’limni taqdim etish, shuningdek, gender tenglik taomillari faol tatbiq etilmoqda, oliy ta’lim muassasalariga kirishda kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan qizlar uchun grantlar miqdori ikki barobarga oshirildi. Bundan tashqari, davlat universitetlariga akademik va boshqaruvda mustaqillikni taqdim etish sohasidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozircha 35 ta universitet akademik va moliyaviy mustaqillikni oldilar, biroq bu ro‘yxatni kengaytirish rejalashtirilgan.

Islohotlarning farqli tomoni ularning yaqqol ifodalangan ijtimoiy yo‘nalganligi, insonga, uning ehtiyojlariga yaqinroq bo‘lishga intilishi, islohotlar natijasida odamlarning tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga ko‘maklashish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan iborat.Aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev sharofati bilan o‘tgan yillarda taqiq qo‘yilgan (taqiqlangan) kambag‘allik muammosi jamoatchilik muhokamasiga olib chiqildi va ko‘p hollarda

www.nitropdf.com

Durdona

mamlakatning ijtimoiy siyosati strategiyasini belgilay boshladi.U ilk bor bu mavzuga o‘zining 2020-yil 24-yanvarida Parlamentga murojaatida to‘xtalib, aholining kam ta’minlangan qatlami umumiy aholi miqdorining 12-15 foizini yoki 4-5 mln kishini tashkil etishini ta’kidladi. Shu lahzadan boshlab kambag‘allikni qisqartirish muammosini hal qilishga majmuaviy yondashuvlarni ishlab chiqish boshlandi. Dastavval, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida moliyaviy-iqtisodiy masalalar va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha bosh vazir o‘rinbosari lavozimi paydo bo‘ldi.O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi mamlakatda kambag‘allik chegarasini aniqlashda ko‘rsatkich va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha mo‘ljal olish rolini o‘ynaydigan uy xo‘jaliklarini o‘rganish natijalari bo‘yicha aholining eng kam iste’mol xarajatlari (IHEKM, insonning oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, xizmatlarga kundalik ehtiyoji) ni hisoblashni boshladi. Bundan tashqari, Butunjahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari bilan hamkorlikda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda kambag‘allikni qisqartirish maqsadlarini aniqlash uchun “2021-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi”ning loyihasi ishlab chiqildi.

Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 27-fevraldagi videoselektor yig‘ilishidagi chiqishidan quyidagi jumla kambag‘allik bilan kurashishga majmuaviy yondashuv mohiyatini yaqqol tasvirlaydi: *“Kambag‘allikni qisqartirish ish haqi yoki nafaqalar miqdorini oshirish, ommaviy kreditlar berishni anglatmaydi. Avvalo, aholini kasb-hunarga o‘rgatish, moliyaviy savodxonligini oshirish, aholini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga undash, infratuzilmani, ta’lim va davolash sifatini yaxshilash, manzilli ko‘mak berish tizimini joriy etish zarur”.*

Kambag‘allikni qisqartirish muammosini aynan shunday tushunish bugungi kunda yangi ish o‘rinlarini yaratish, xodimlar malakasini oshirish, o‘zining kichik yoki oilaviy tadbirkorligini boshlash istagini ma’lum qilgan odamlarni kasbga o‘rgatish va qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratadigan. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, hokimiyatlar

www.nitropdf.com

Durdona

yuritadigan faoliyati bo'yicha qabul qilinadigan chora-tadbirlar mantig'ini belgilaydi. Majmuaviy yondashuv aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi. "Temir", "Ayollar" va "Yoshlar" daftarlarini yaratish, yagona ijtimoiy reyestr orqali muhtojlarga yordam ko'rsatish kabi tashabbuslarni alohida ta'kidlash kerak. Ko'rilgan chora-tadbirlar sharofati bilan ijtimoiy pensiya va nafaqa oluvchi oilalar miqdori ikki barobarga oshdi. Ijtimoiy davlatni odamlar uchun qulay yashash muhitini, rivojlangan mahalliy infratuzilmalarni yaratmay va fuqarolarni arzon uy-joy bilan ta'minlamay turib, tasavvur qilib bo'lmaydi. Oxirgi yillarda O'zbekistonda bu yo'nalishlarda juda ko'p ishlar qilindi. "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Prezidenti bu dasturlarning ijtimoiy mezoni to'g'risida shunday deydi: "Agar mahalla obod qilinsa, butun mamlakat obod bo'ladi. Agar mahalla o'zgarsa, butun jamiyat o'zgaradi".

Shuningdek, islohotlarni amalga oshirish davomida kam ta'minlangan fuqarolarni turar-joy bilan ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilmoqda, bu esa ijtimoiy tengsizlik muammolarini hal qilish bilan bog'liq vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Arzon uy-joy dasturi doirasida nafaqat shahar va qishloq joylarida faol yangi uylar qurilmoqda, balki Prezidentning "Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni asosida imtiyozli ipoteka kreditlari ham taqdim etilmoqda. Shuningdek, 2021- yil 1-martidan boshlab O'zbekistonda kam ta'minlangan va turar-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar uchun subsidiya berish bo'yicha xizmatlar ish boshladi.

www.nitropdf.com

Durdona

NAZORAT SAVOLLARI

1. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat.

2. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on siyosati: “Paxta ishi”, “O‘zbek ishi” nomli kampaniyalar.

3. Aholi turmush tarzining og‘irlashuvi. Orol fojiasi. Farg‘ona voqealari.

4. 1989-yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi.

5. I.Karimov – O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati.

6. Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi.

7. Mustaqillikning e’lon qilinishi va O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi.

8. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar.

9. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida Birinchi Prezident Islom Karimovning tarixiy xizmatlari.

10. 1991-yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

11. Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar, O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanlashi.

12. Taraqqiyot va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

13. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li.

14. Yangi Konstitutsiyaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

15. “O‘zbek modeli”ning taraqqiyotimizdagi ahamiyati.

16. Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi.

17. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati.

18. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

19. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki.

20. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni.

21. O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.

22. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi.

23. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni O‘zbekistonda bartaraf etish yo‘llari.

24. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversiffikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

25. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.

26. Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi.

27. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish.

28. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.

29. O‘zbekiston Respublikasida quyidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

30. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati

31. Mustaqillik yillarida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar.

32. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati.

33. Tarixiy shaharlar (Buxoro, Samarqand, Marg‘ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi. Toshkent shahrining Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishi.

www.nitropdf.com

Durdona

34. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati.

35. "Ma'naviyat" so'zining lug'aviy ma'nosi

36. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi: Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va roli.

37. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi.

38. Ta'limning milliy modelining shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar.

39. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar.

40. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining vazifalari

41. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.

42. Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar.

43. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va undagi islohotlar.

44. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol.

45. Orol fojiasi va ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

46. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi.

47. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni. O'zbekistonning MDH hamda SHHTdagi o'rni va mavqeyining oshib borishi.

48. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari.

49. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Rossiya, AQSH, Xitoy bilan istiqbolli hamkorliklari.

50. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi.

51. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

52. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

53. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;

54. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

55. O'zbekistonning SHHT bilan aloqalari.

56. "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish" borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi,

57. Mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar: jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish,.

58. O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'satkichlarini oshirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar. "Biznes yuritish" indeksi, Boshqaruv sifati indikatorlari, Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi, "Korrupsiyani qabul qilish" indeksi. (umumiy 13 ta).

59. O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va nufuzini ortib borishi

60. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari mazmun mohiyati

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

TESTLAR

1.Xalq deputatlari Kengashlari qaysi organga kiradi?
Mahalliy vakillik organlariga
Sud hokimiyati organlari
Ichki ishlar organlari
Ijroiya hokimiyat

2.Xalq deputatlari Kengashlari ishining asosiy tashkiliy – huquqiy shakli bu……
sessiya
majlis
qurultoy
Chaqiriq

3.Viloyat va Toshkent shahar hokimi kim tomonidan qonunga muvofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi?
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Vazirlar Mahkamasi
Oliy Majlis
Xalq tomonidan

4.Hozirda deyarli jahonning barcha mamlakatlarida mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish deb ataladigan institut, O‘zbekistonda nima deb ataladi?
Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarishi
Fuqarolar yig‘ini
Fuqarolar maslahati
Xalq deputatlari kengashi

5.Quyidagi farmonlarning qabul qilingan yillari bilan moslashtirilgan javobni belgilang?
1) 1999-yil; 2) 2017-yil ; 3) 2004-yil
a. “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”
b. “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
c. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”
1-c; 2-b; 3-a
1-b; 2-c;3-a
1-a; 2-b; 3-c
1-c; 2-a; 3-b

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nechanchi yildagi farmoni asosida fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi sifatida fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi?
2017-yildagi
2004-yildagi
2010-yildagi
1999-yildagi

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

7.1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan qonunlar to‘g‘ri berilgan javobni belgilang?
“O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”
“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida”
“O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida“ va „Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish to‘g‘risida”
“Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida“ va „Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”

8.Markaziy saylov komissiyasi nechanchi yildan e’tiboran mustaqil muvaqqat organ sifatida faoliyat boshlagan?
1998-yildan
1993-yildan
1991-yildan
1996-yil

9.Jamiyatda demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy garovi nima hisoblanadi?
siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko‘rsatishi
siyosiy partiyalarning viloyat tomonidan faoliyat ko‘rsatishi
ko‘ppartiyaviylikning mavjudligi
siyosiy partiyalarning hokimiyat tomonidan boshqarilishi

10.Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu……
O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Vatan taraqqiyoti partiyasi
“Erk” demokratik partiyasi
“Fidokorla”r milliy-demokratik partiyasi

11.1991-yilning noyabrida asos solingan partiya qaysi?
O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Vatan taraqqiyoti partiyasi
“Fidokorlar” milliy-demokratik partiyasi
“ Erk” demokratik partiyasi

12.O‘zbekiston “Vatan taraqqiyoti” partiyasi qachon tashkil topgan?
1992-yil
1995-yil
1995-yil
1991-yil

13.O‘zbekistonda so‘m valyutasi qachondan muomalaga kiritildi?
1994-yil 1-iyul
1995-yil iyunda
1995-yil noyabrda
1995-yil martda

www.nitropdf.com

Durdona

14.Sotsial-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi nimaga qaratilgan?
jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga
milliy mustaqillikni mustahkamlash
millatning ma’naviy birligi; Vatan-yagona oila
Vatan, taraqqiyot, ijtimoiy adolat yo‘lida jonini

15.1995-yili iyunda tuzilgan partiya qaysi?
O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi
“Vatan taraqqiyoti”
O‘zbekiston “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi
O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga ilk bor Murojaatnomasi qachon e’lon qilindi?
2017-yil 22-dekabrda
2017-yil 2-fevralda
2016-yil 14-dekabrda
2016-yil 5-martda

17.1993-yil 9-aprelda …
Qaraqalpog‘iston Konstitutsiyasi qabul qilindi
Mo‘ynoq shahrida biologik stansiya ishga tushdi .
Qoraqalpog‘iston bayrog‘i qabul qilindi
“Orol qizlari “jurnali nashri boshlandi

18.Ma’lumki O‘ZRFA Qaraqalpog‘iston bo‘limi olimlari Germaniya olimlari bilan o‘zaro hamkorlik asosida nechanchi yili bioekologiya instituti ishga tushdi ?
1994-yili
1996-yili
1997-yil
1993-yili .

19.1998-yil 25-avgustda …
“O‘zbekiston iftixori” unvoni ta’sis etildi ..
Ahmad Farg‘oniy haykali ochildi
Jaloliddin Manguberdi ordeni ta’sis etildi
YUNESKO konferensiyasi ochildi

20.Toshkentda “Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni “ mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya qachon bo‘lib o‘tdi ?
1996-yil 24-oktabr
1996-yil 30-sentabr
1998-yil 20- oktabir
1996-yil 16-oktabir

21.1998 -yilda qaysi ulug‘ allomaning yubileyi bo‘lib o‘tdi?
Ahmad Farg‘oniy

D U R D O N A

www.nitropdf.com

Durdona

Al-Farobiy
Mahmud Qoshg'ariy
Al-Xorazmiy

22.Ro'za hayitini qachondan dam olish kuni deb e'lon qilindi?
1992-yil 27-martda
1991-yil 2-martda
1990-yil 27-martda
1990-yil 5 avgust

23.Mustaqillik yillarida Xoja Ahror Valiyning necha yilligi nishonlandi?
600 yilligi
920 yilligi
850 yilligi
1225 yilligi

24. 1991–2007-yillarda Haj va Umra amallarini ado etgan yurtdoshlarimiz?
50 ming
100 ming
10 ming
5 ming

25.Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti -
ISESCO
OIK
YUNESKO
YUNISEF

26.Toshkentga nechanchi yilda Islom madaniyati poytaxti maqomining berildi?
2007
1991
2020
2010

27.O'zbekistonda umumiy mahsulot ayirboshlashning necha foizi Rossiya ulushiga to'g'ri keladi?
21%
30%
15%
35%

28.Toshkentda MDHga a'zo davlatlar rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston tashabbusi?
kollektiv xavfsizlik tizimini barpo etish
Terrozizmga qarshi kurash markazini tuzish
Tojikistonda tinchlikni amalga oshirish
Islom markazini tuzish

29."O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni necha moddadan iborat?
17 modda
12 modda
21 modda
126 modda

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

30.O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbida quyidagi qaysi rang mavjud emas?
Qirmizi
Qora
Yashil
Kumush

31.“O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” asari qachon nashr qilindi?
1993
1991
1995
1999

32.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiya loyihasining dastlabki variant qachon tayyor bo‘ldi?
1991-yil oktabr-noyabr
1991-yil noyabr
1991-yil mart
1992-yil oktabr

33.“Xalq birligi” harakati qachon tuzilgan?
1995-yil iyundan
1991-yil iyundan
1991-yil noyabrdan
1992-yil oktabrdan

34.Mustaqillik davrini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganamiz. Ushbu bosqichning 1-davri 1991-2016-yillarni o‘z ichiga olib u milliy davlatchilik asoslari va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishga qaratilgan o‘tish davri hisoblansa ikkinchi davrni belgilang?
2017-yildan keyingi yillar strategik taraqqiyotga asoslangan keng ko‘lamli islohotlar yili
2017-yildan keyingi yillar xalq bilan muloqot yili
2017-yildan keyingi yillar ijtimoiy rivojlanish yili
Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili

35.Qachonga kelib O‘zSSR ning Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi?
1990-yil 20-iyun
1991-yil 10-iyul
1990-yil 24-mart
1991-yil 29-dekabr

36.Qachonga kelib Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo‘shinlari bevosita O‘zbekiston SSR Prezidentiga bo‘ysuntirildi?
1991-yil 25-avgust
1991-yil 21-avgust
1991-yil 16-avgust
1991-yil 26-avgust

37.64 kishidan iborat, 2,5 yil ishlangan Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti necha moddadan iborat edi?
158
149

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

128
150

38.Qachonga kelib O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi?
1991-yil 15-fevral
1991-yil 25-fevral
1991-yil 10-noyabr
1991-yil 18-yanvar

39.Bugungi kunda BMTga a'zo qancha davlatdan qanchasida prezident lavozimi ta'sis etilgan?
193, 143
200, 150
193, 153
193, 140

40. 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan saylovlarda Sh.Mirziyoyev qancha ovoz to'pladi?
88,61
86
88,1
88, 39

41.Qachonga kelib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi?
2018-yil 9-yanvar
2017-yil 4-yanvar
2018-yil 14-yanvar
2018-yil 18-fevral

42. O'zbekiston Respubliksi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida" gi Qonun qachon imzolangan?
1992-yil 4-yanvar
2004-yil 29-mart
1999-yil 10-dekabr
2017-yil

43.Nechi yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, nechi yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, nechchi yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega?
35, 25, 21
35, 21, 18
35, 25, 18
35, 18,21

44.Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Prezident rahbarligida necha kishilik Milliy komissiya tuzildi?
14
12
18
72

45. 2017-yilga mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy o'quv yurti bo'lib shundan qanchasi universitet va institutlardir?
19/ 37
18/ 39

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

19/ 6
13/ 7

46. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya nechta kishidan iborat bo‘lgan?
64
54
65
74

47. “O‘zbekistonning davlat ramzlari to‘g‘risida” maxsus qaror qachon qabul qilingan?
1991 yil 15-fevral
1990 yil 20-iyun
1992yil 15-iyun
1990 yil 15 -fevral

48. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining …-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o‘zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta’kidlab o‘tdi?
72
74
68
75

49.2017-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qanday nomlandi?
“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari”
“Yoshlarni qo‘llab quvvatlash”
“Kichik biznes va tadbirkorlik”
“Keksalarni e’zozlash yili”

50.Qachon Harakatlar Strategiyasi tasdiqlandi?
2017-yil 7-fevral
2016-yil 7-fevral
2016-yil 8-fevral
2017-yil 6-dekabr

51. Diversifikatsiya........?
lotincha – (o‘zgarish,) xilma-xil ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy bankrotlikni oldini olish maqsadida ishlab chiqariladigan mahsulot assortimentining kengaytirilishi, mahsulot sotiladigan bozorlarni o‘zgartirish yoki yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashish.
yunoncha – (hisoblash, muhokama san’ati) Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta’minlashni boshqarish tizimi.
lotincha – (o‘zgartirish, aylantirish) Milliy valyutaning

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

amaldagi kurs bo'yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.
to'g'ri javob yo'q

52. Qachondan boshlab O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi?
2017-yildan
2015-yildan
2016-yildan
2018-yildan

53. 2017-yil qaysi shaharda "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" o'tkazildi?
Samarqandda
Toshkentda
Buxoroda
Xorazmda

54. 2017-yil o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va tarqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi anjuman qaysi tashkilot homiyligida o'tkazildi?
BMT
YUNESKO
YUNESEF
MDH

55. Shavkat Mirziyoyevning Prezident sifatida xorijiy mamlakatlarga ilk rasmiy tashrifi qachon, qaysi davlatga amalga oshirildi.?
2017-yil 6–7-mart kunlari Turmanistonga
2017-yil 16–17-may kunlari Tojikistonga
2017-yil 1–2-yanvar kunlari AQSHga
2017-yil 19–20-oktabr kunlari Hindistonga

56. "Milliy xavfsizlik tog'risida"gi Qonun nechanchi yilda muhokama uchun taqdim etilgan?
1996-yil 24-aprel
1997-yil avgust
1998-yil sentabr
1996-yil avgust

57.O'zbekistonda Bosh vazir lavozimi qachon ta'sis etilgan?
1992-yil 4-yanvar
1995-yil 15-noyabr
1992-yil 5-yanvar
1995-yil 29-dekabr

58. Nechanchi yildan boshlab parlament Oliy Majlis nomi bilan ataladigan bo'ldi?
1995-yil
2005-yil
2004-yil
2003-yil

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

59. Vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil nima deyiladi?
Deputat
Vazir
Delegat
Elchi

60. Qachongacha Vazirlar Mahkamasiga Prezident raislik qilgan?
2003-yilda
2008-yilda
2001-yilda
2004-yilda

61. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining qaysi sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali oʻzlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta’kidlab oʻtdi?
72-sessiyasida
75-sessiyasida
70-sessiyasida
79-sessiyasida

62. Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi qaysi yillarga moʻljallagan?
2017-2021-yillarga
2019-2023-yillarga
2016-2021-yillarga
2017-2022-yillarga

63.Ma’lumki, harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning 5 ta ustuvor yoʻnalishi keltirilgan. Shundan iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish nechanchi yoʻnalishga kiradi?
III
II
I
IV

64.Ma’lumki, harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning 5 ta ustuvor yoʻnalishi keltirilgan. Shundan Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish nechanchi yoʻnalishga kiradi?
II
I
III
IV

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

65.”Keksalarni e’zozlash yili” deb e’lon qilingan yilni aniqlang.
2015-yil
2016-yil
2011-yil
2010-yil

66.O‘zbekistonda ta’lim nechta tilda olib boriladi?
7 ta
9 ta
12 ta
18 ta

67.2017-yilga qadar O‘zbekistonda nechta diniy konfessiyalar faoliyat yuritib keldi?
16 ta
10 ta
29 ta
19 ta

68.O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonni qachon imzoladi?
2017-yil 30-sentabrda
2018-yil 30-sentabrda
2019-yil 30-sentabrda
2017-yil 10-sentabrda

69.Qachon Xorazm Ma’mun akademiyasi qayta tiklandi?
1997-yil
1998-yil
1991-yil
1999-yil

70.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet ellarga o‘qishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tashkil etilgan jamg‘arma qaysi?
Umid
Ulug‘bek
Fitrat
Kamolot

71.”Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir… “. Ushbu fikrlar muallifini aniqlang?
O‘zbekiston Respublikasi hozirgi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” raisi Qahramon Quronboyev
BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish

72.Qachon mamlakatimizdagi barcha harbiy akademik litseylarga “Temurbeklar maktabi” nomi berildi?
2017-yil iyul
2018-yil iyul

D U R D O N A

www.nitropdf.com

Durdona

2017-yil iyun
2016-yil iyul

73.Hijriy sana bo‘yicha 910 yilligini nishonlangan allomani aniqlang?
Abduxoliq G‘ijduvoniy
Abu Mansur al-Moturidiy
Burhoniddin al-Marg‘inoniy
Navoiy

74.Qarshi shahrining 2700 yilligi nishonlangan yilni aniqlang?
2002 -y.
2000 -y.
1998 -y.
2010 -y.

75.O‘zbekistonda qachondan boshlab faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayoni kuzatildi?
2010 -yildan
2017- yildan
2017-yildan
2017-yildan

76.2017-yilga kelib mamlakatimizda nechta dan ortiq oliy o‘quv yurti bo‘lgan ?
80
69
90
120

77.BMTning Bosh kotibi kim?
Antoniu Guterrich
Si Szinpin
Kristin Lagard
Rumen Pudev

78.O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Tojikistonga oliy darajadagi uchrashuvi qachon amalga oshirildi?
2018-yil mart oyida
2018-yil iyun oyida
2017-yil mart oyida
2018-yil may oyida

79.Qachon o‘zbek palovi YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritildi?
2016-yili
2018-yili
2017-yili
2019-yili

80.Qaysi yilda O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston davlatlariga rasmiy tashriflari amalga oshirildi?
2017-yil
2018-yil
2016-yil
2019-yil

81.2018-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev qaysi davlatda oliy darajadagi uchrashuvni amalga oshirdi?
Tojikiston

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Turkmaniston
Afg'oniston
Rossiya

82.BMT homiyligida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusida anjumanida qancha xorijiy ishtirokchilar qatnashdi?
500
290
1000
278

83.Qachon Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifiga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo'ldi?
2017-yil
2018-yil
2016-yil
2019-yil

84.Qachon O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida yopib qo'yilgan chegara postlari ochildi?
2017-yil
2018-yil
2016-yil
2019-yil

85.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan mamlakatimizga kelgan Qirg'iziston Respublikasining Prezidenti kim edi?
Sooronbek Jenbekov
Almazbek Atambayev
Askar Akayev
N.Nazarbayev

86.Qachon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi?
2017-yil
2018-yil
2016-yil
2019-yil

87.O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor qaysi shaharda uchrashdi?
Ar-Riyod
Toshkent
Buxoro
Dushanbe

88.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, mintaqalararo hamkorlik, turizm va sog'liqni saqlashga oid umumiy qiymati 16 milliard

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

dollar bo‘lgan … hujjat imzolandi?
55 ta
38 ta
50 ta
51 ta

89.Qachon Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi Qo‘shma bayonotni imzoladilar?
2017-yil 11-13-may
2018-yil 11-13-may
2017-yil 1-may
2017-yil 11-13-mart

90.O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida qachon “Strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma bayonot” imzolandi?
2012-y.
2018-y.
2010-y.
2011-y.

91.Qachon O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasi munosabati bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi va u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh o‘zbekistonliklar bilan uchrashdi?
2017-y. sentabr
2018-y. sentabr
2017-y. oktabr
2019-y. sentabr

92.O‘zbekiston Respublikasi qachon BMTga qabul qilindi?
1992-y. mart
1991-y. mart
1992-y. may
1999-y. mart

93.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qachon Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladi?
2017-yil 19-sentabr
2018-yil 19-sentabr
2012-yil 19-sentabr
2019-yil 19-sentabr

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATERIALLAR.

"O'ZBEK" ATAMASI HAMDA O'ZBEK XALQI ETNIK BIRLIGINING SHAKLLANISHI

"O'zbek" atamasi haqida hozircha "O'zbekiston tarixi" fanida yakdil xulosa yo'q. Ayrim mualliflar Dashti Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'il qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli *"o'zbek",* ya'ni *"o'z-o'ziga bek, xo'jayin"* deb atagan desalar, boshqalar *"o'zbek"* etnonimini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (XIV asr) nomi bilan bog'laydilar. Boshqa yana bir guruh olimlar esa Oq O'rdada (Dashti Qipchoqning sharqiy qismida) yashagan turk-mo'g'il qabilalariga *"o'zbeklar"* degan nom berilgan, degan fikrni bildiradilar. *"O'zbek"* atamasi o'g'iz qabilalari tarkibidagi *"o'z"* urug'i nomidan olingan, degan fikrlar ham mavjud.

Hozircha anig'i shuki, Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdagi o'zlariga "o'zbek" degan nomni qabul qilgan qabilalar ikki daryo oralig'idagi yerlarga ko'chib kelgach, o'zbek xalqi xalq sifatida shakllandi, deyish tarixiy haqiqatga mutlaqo zid. Shayboniyxon Movarounnahrni egallagach, Movarounnahrning qadimiy xalqi ham "o'zbek" atamasini qabul qildilar. "O'zbek" atamasi aholining umumiy nomiga aylandi.

O'zbeklar elat sifatida Osiyoning markaziy hududlari, jumladan *Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida* shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy *sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, farg'onaliklar, shoshliklar, yarimchorvador qang'lar, ko'chmanchi sak-massaget* kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrga kirib kelgan etnik guruhlar *(komponentlar* ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar asosan turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar. "O'zbek" atamasi-umumturk qavmlarining "o'zbiy" va "o'zbak" atamalar uyg'unligida "qabila begi", "hukmdor" degan ma'nolarni bildiradi. Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida yuqorida nomlari qayd etilgan qabila va elatlarning etnik jihatdan aralashuv

www.nitropdf.com

Durdona

jarayoni natijasida o‘troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, ya’ni o‘zbek xalqiga xos antropologik tip *(etnik qiyofa)* shakllanadi.

Tarix taqozosi bilan Sharq va G‘arbdan turli qabilalarga mansub etnik guruhlar o‘lkamizga kirib kelib, mahalliy tub aholi bilan nasl jihatidan qo‘shilib-qorishib ketdi. Asrlar davomida yuz bergan bunday etnik jarayonlar natijasida o‘z hududi, davlatchiligi, tili, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy turmush tarziga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi shakllandi.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, mil. avv. VII–VI asrlarda O‘zbekiston hududida *sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget* elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab aholi istiqomat qilgan. *Qadimgi Baqtriya* O‘rta Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri sanaladi. *Marg‘iyona va Sug‘diyona* Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta’siri ostida bo‘lgan. Shuning uchun qadimda bir-biriga qarindosh bo‘lgan elatlarning kichik davlatlari – “davlatlar birlashmasi” deb atalgan.

O‘zbek xalqining qadimgi yozuvlari va mahalliy xalq haqidagi ilk yozma manbalar

Xalqimiz va davlatchiligimizga oid ilk yozma manbalar zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”, Behistun yozuvlari va qadimgi dunyo *(yunon-rim)* tarixchilarining asarlarida o‘lkamizda yashagan qadimgi xalqlarning nomlari, alohida joylar, tog‘lar, daryolar va ko‘llarning, afsonaviy qahramonlar va podsholarning ismlari, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, iqtisodiy va siyosiy tuzumi to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. O‘zbekistonda tillarning rivojlanishi bir necha ming yillar bilan bog‘lanadi. Yozma manbalarga ko‘ra, yurtimizdagi eng qadimgi mahalliy tillar: *turkiy, fors, arab va eski o‘zbek tillari* rivoj topgan. Ular ish yuritish va ma’muriy, adabiy va xalqaro, mahalliy qishloq va shahar tillari vazifasini bajargan.

O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy yozma madaniyati tarixining yoshi 2300-2700 yillar atrofida. Millodan avvalgi birinchi mingyillik o‘rtalari *oromiy yozuvi* keng tarqalgan edi. Ana shu yozuv zaminida keyinchalik *xorazm, baxtar, sug‘d, parfiyon* yozuvlari shakllandi. O‘rta Osiyoga Makedoniyalik Aleksandr qo‘shini bilan yunon yozuvi ham kirib keldi.

www.nitropdf.com

Durdona

O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi mil. avv. V–IV asrlarga tegishli xumning sirtida tasvirlangan qadimgi xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U *Oybuyirqal'a* shahar xarobasidan topilgan. O'sha yerdan topilgan mil. avv. IV–III asrlarga oid yana bir yozuvda *"asparak", yani "otliq", "chavandoz"* so'zi bor. Qadimgi Xorazm yozuvi oromiy alifbosiga asoslangan. Keyinchalik oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslangan *baqtriya yozuvi* rivojlangan. Milodiy I–IV asrlardan boshlab *sug'd yozuvlari* keng tarqalgan. Sak tilidagi eng qadimgi manba Olmaota atrofidagi Issiqqo'rg'ondan topilgan kumush idishdagi yozuvdir. U mil. avv. V asrga tegishlidir.

Yozma manbalarda qadimda O'zbekiston va uning atrofidagi hududlarda yashagan xalqlar haqida bitiklar mavjud bo'lib:

- "Avesto"da qayd etilgan qadimgi xalqlarning dastlabki vatani *Sirdaryo va Amudaryo etaklari hamda Zarafshon vodiysi* bo'lgan.
- *Behistun yozuvlari* Erondagi Kirmonshoh shahri yaqinidagi Behistun qoyalarida joylashgan bo'lib, u fors shohi Doro I buyrug'iga ko'ra uch tilda: *qadimgi fors, elam va bobil* tillarida yozilgan g'alaba yodgorligidir. Unda mil . avv. 523–522-yillari ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata, Frada, Skunxa boshliq xalq harakatlari hamda Doro I zabt etgan *Qadimgi Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya va sak qabilalari* haqida yozilgan.
- Yunon tarixchisi Arrian Flaviyning *(mil.av II asr)* "Iskandarning harbiy yurishlari" asarida Makedoniyalik Aleksandrning *O'rta Osiyo xalqlari* ustiga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.
- Mil. avv. V asrda qadimgi yunon tarixchisi Gerodot turli mamlakatlarga sayohat qilib, 9 ta kitobdan iborat "Tarix" asarini yozdi. Bu asarda Gerodot *O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari,* ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.
- Mil. avv. II asr oxiri – I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi Sim Szyangning "Tarixiy yilnomalar" nomli asarida *O'zbekistonning qadimgi aholisi va davlatlar* to'g'risida ma'lumotlar bor.
- Yunon tarixchisi va geografi Strabon *(mil.avv. I asr oxirlari)* "Geografiya"nomli asarida ko'plab mamlakatlar, jumladan *Osiyo xalqlari* madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi.
- Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf o'zining "Buyuk Aleksandr tarixi" nomli asarida *(milodiy I asr)* Makedoniyalik Aleksandrning

www.nitropdf.com

Durdona

O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

O'ZBEKISTON HUDUDIDAN TOPILGAN TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLAR

Ilk paleolit davri madaniy yodgorliklari Toshkent viloyatidan 1963-yilida topilgan *Ko'lbuloq* va Farg'ona vodiysidan 1985-yilda topilgan *Selung'ur* manzilgohlaridir. O'zbekistondagi eng qadimgi mehnat qurollari – bir tomoni o'tkirlashtirilgan qo'pol daryo tosh qurollari aynan shu yerlardan topilgan. Bunday usulda yasalgan tosh qurollarni olimlar "chopperlar" deb atashadi.

Ko'lbuloq madaniy yodgorligi MDH miqyosida eng qadimgi madaniy yodgorlik hisoblansa, Selung'ur madaniy yodgorligi ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari topilishi bilan mashhur. Ilk tariximizning tamal toshlari ilk bor ajdodlarimiz tomonidan Selung'ur g'orida qo'yilgan. Uning yoshi 1 mln 200 ming yil bilan belgilanadi. Qisqa qilib aytganda, *O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning* tarixi Selung'ur g'orida paydo bo'lgan arxantroplardan boshlanadi. Bu narsa O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari ilk bor Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan, degan taxminga asos bo'ladi.

O'zbekistonda qadimgi dehqonchilik manzilgohlari *Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm* hududlaridan topib o'rganilgan. So'nggi paleolit davri odami manzilgohlari O'zbekistonda Samarqand shahri hududidan, Toshkent viloyati Ohangaron daryosi bo'yidagi *Ko'lbuloq* manzilgohining yuqori madaniy qatlamlaridan, shuningdek, Farg'ona vodiysidan topilgan. Bugungi kunda mezolit davriga oid yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida, Toshkent vohasida hamda O'zbekiston janubida bunday manzilgohlar ko'plab uchraydi. *Obishir, Qo'shilish va Machay manzilgohlari, shuningdek, Zarautsoy* darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan. Keling, ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

- ***Zamonbobo*** Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Zamonbobo ko'li bo'ylarida mil.avv ikkinchi mingyillikda yashagan chorvadorlar va dehqonlarning qadimiy manzilgohidir.
- ***Sopollitepa*** – Surxondaryo viloyati, Sherobod shahri yaqinidan arxeologlar tomonidan topilgan qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan

www.nitropdf.com

Durdona

birining nomi. Ushbu manzilgoh mil. avv. ikkinchi mingyillikka oid bo'lib, bu yerdan paxsa imorat, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasaladigan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik-yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa donlari topilgan.

- ***Jarqo'ton*** – bundan 3.5 ming yil muqaddam Surxon vohasidagi hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joyda vujudga kelgan manzilgoh. Jarqo'ton manzilgohida shaharning ilk alomatlari ko'zga tashlanadi. Ushbu qo'rg'on ikki qismga ajratilgan bo'lib: qasr (hukmdor qarorgohi) hamda jamoa a'zolari, hunarmandlar va savdogarlarning arkni qurshab turgan uylari. Qasr ichida ibodatxona bo'lgan.
- ***Zarautsoy*** – 1912-yilda arxeolog I. Fyodorov tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu voha Surxondaryoning Zarautsoy nomli joyida qadimgi qoyatosh suratlari topilgan manzilgoh. U yerda hozirda dunyoga mashhur rasmlar tosh davriga mansub. Qoyatosh suratlarida yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan.
- ***Soymolitosh*** – Farg'ona vodiysidagi topilgan yana bir manzilgohning nomi. Soymolitosh manzilgohida ham O'zbekiston hududida yashgan ibtidoiy odamlarning sodda tasviriy san'at namunalari mavjud. Ushbu qoyatosh suratlari ajdodlarimizning atrof-muhitni bilish yoki dunyoni anglashga intilishi yuqori bo'lganidan dalolat beradi. Ular bunday suratlarni bo'lajak ovga yordam berishiga ishonganliklari sababli chizishgan, degan taxminlar ham mavjud.

O'ZBEKISTON HUDUDIDA DAVLATCHILIK TARAQQIYOTINING TARIXI

Jonajon mamlakatimiz hududida shahar-davlatlar hamda markaziy boshqaruv tizimi va unga bo'ysungan hududlarga ega ko'plab davlatlar bo'lganligini tarix darsliklaridan yaxshi bilamiz. Qadimgi qabilalarning davlatchilik boshqaruv shakliga o'tishida yangi-yangi ixtirolarning kashf etilishi muhim rol o'ynagan. Masalan, bronza davrida ajdodlarimiz *kulolchilik charxi va g'ildirak*ni kashf etganlar. Shu tariqa sodda harakatlantirish vositalari ham vujudga kelgan. Mil. avv. IX–VIII asrlarda O'zbekiston hududida *ilk temir asriga* o'tish boshlangan. Mil. avv. VII–VI asrlarda bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-

www.nitropdf.com

Durdona

sotiq taraqqiy etgan. Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar oʻrnatilgan. Qadimgi davrda Oʻzbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti – mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga *(dehqonchiligiga)* asoslangan edi.

Mil. avv. VII–VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va Oʻzbekistonga chegaradosh viloyatlar *Baqtriya davlati* ta'siri ostida boʻlgan. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida mil. avv. VII–VI asrlarda qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan oʻralgan boʻlib, hunarmandchilik va savdo markazlari edi. *Qiziltepa, Uzunqir, Yerqoʻrgʻon va Afrosiyob* oʻrnida Baqtriya va Sugʻdning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar Oʻzbekiston hududida eng qadimgilari boʻlib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas. Qadimshunoslar Afrosiyob *(Samarqand),* Yerqoʻrgʻon va Uzunqir *(Qashqadaryo vodiysi),* Koʻzaliqir *(Xorazm),* Qiziltepa *(Surxondaryo)* kabi qadimiy shaharlarni oʻrganishgan.

OʻZBEKISTON HUDUDIDA MAVJUD BOʻLGAN DAVLATLAR TARIXI

Afrosiyob – hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida mil. avv. VIII–VII asrlarda asos solingan qadimgi shahar. Uning maydoni 219 gektar boʻlib, unga sugʻdiylar asos solganlar. Dastlab sugʻdiylar *"Smarakansa",* ya'ni sugʻdchasiga *"anjumanlar oʻtkaziladigan joy",* soʻngra yunonlar *"Marokanda",* xitoyliklar "Kan" deb atashgan. XI asrdan boshlab *"Samarqand"* deb atalgan.

1220-yilda moʻgʻul xoni Chingizxon bu shaharni vayron qiladi. 1370-yili Amir Temur mazkur shaharni shimoli-sharq qismida qayta bunyod etadi. XVII asrdan boshlab sharq mualliflarining asarlarida qadimgi shahar harobalari *"Afrosiyob"* yoki *"Koʻhna qal'a"* deb atala boshlagan.

Qadimgi Xorazm – Amudaryoning quyi oqimi, Qoraqalpogʻiston, Xorazm va Toshovuz viloyatlarini oʻz ichiga olib, "Avesto"da bu davlat *"Xvarizam",*Behistun yozuvlarida *Xvarazmish",* Arrian va Strabon asarlarida *"Xorasmiya",*qadimgi sugʻd yozuvlarida "quyoshli oʻlka" tarzida uchraydi. Mil. avv. IV asrda Qadimgi Xorazm ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar hukmronligi davrida

www.nitropdf.com

Durdona

ham Qadimgi Xorazm davlati mustaqil edi. Mil. avv. I asrda va dastlabki milodiy asrlarda Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. Milodiy I asrda Xorazmda ishlab chiqilgan mahalliy taqvimdan xorazmliklar VII asrga qadar foydalanishgan.

Qadimgi Baqtriya – qadimda Marg‘iyona va Sug‘diyona uning tarkibiga kirgan bo‘lib, u hozirgi Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg‘oniston hududlarini o‘z ichiga olgan. Yozma manbalarda *“Baxdi”* (“Avesto” kitobida), *“Baqtrish”* (Behistun yozuvlarida), *“Baqtriana”* (yunon-rimliklarning asarlarida) shaklida uchraydi. Bundan tashqari, ushbu qadimgi davlat “Avesto”da *“baland bayroqli o‘lka”,* yunon-rim asarlarida *“ming shahar mamlakati”* sifatida ham tilga olinadi.

Sug‘diyona – Qadimgi Baqtriya tarkibida bo‘lib, u hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini o‘z ichiga olgan. Yozma manbalarida mazkur o‘lka *“So‘g‘da”* (“Avesto” kitobida), *“Sug‘uda”* (Behistun yozuvlarida), yunon-rimliklar (Arrian, Strabon, Kursiy Ruf) qalamiga mansub asarlarda esa *“So‘g‘diyona”* shaklida tilga olingan.

Sak va massagetlar – boshqa xalq va elatlarga nisbatan ko‘p sonli bo‘lgan ko‘chmanchi chorvador xalqlardir. Ko‘chmanchi sak va massaget elatlarining asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, ularning tuya, ot va qo‘y-echkilardan iborat katta-katta suruvlari bo‘lgan. Ma’lum nomdagi davlatchilikka ega bo‘lmagan bo‘lsalar-da o‘z yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish uchun saklar er. avv. VI asrda *“harbiy qabila ittifoqi”ga* birlashadilar.

Saklar,yuqorida ta’kidlanganidek, O‘rta Osiyoning tog‘li hududlari, dashtlari va cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalardir. Bundan tashqari, cho‘llar va Amudaryo bo‘ylarida ko‘chmanchi *massaget qabilalari* ham yashaganlar.

Farg‘ona – mahalliy hokimligi Farg‘ona vodiysida joylashgan bo‘lib, poytaxti *Koson* va *Axsikat* shaharlari bo‘lgan. Farg‘ona hukmdorlari “ixshid” deb atalgan. Farg‘ona dehqonchilik *(ziroatchilar ko‘pincha paxta va sholi ekishgan),* chorvachilik, hunarmandchilik xo‘jaliklari va ichki-tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o‘lka edi. Qo‘shni mamlakatlarga bo‘yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. *Qurama* va *Qoramozor* tog‘lari yonbag‘irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug‘ullanilgan. Bu yerda ko‘paytirilgan tulpor otlarning dong‘i jahonga taralgan. Aholisining akariyati budda diniga sig‘inishgan.

www.nitropdf.com

Durdona

Farg'ona davlatining *Sho'rabashat, Uchqo'rg'on* singari shaharlari atrofidagi aholisi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, milodiy II asrda Farg'ona davlati barham topgan.

Choch va Iloq – Chirchiq va Ohangaron vodiylarida joylashgan edi. Chochning poytaxti *Chochkat* shahri, Iloqning poytaxti *Tunkat* edi. Chochning hukmdori "tudun", Eloqniki esa "dehqon" deb yuritilgan. Eloq oltin va kumushlarni kovlab olishda O'rta Sharqda ma'lum va mashhur bo'lgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Ayrim tanga pullar orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar uchraydi. Bunday qo'shaloq tasvir, shubhasiz, qadimgi turkiylar davlatchiligida hukmdorning malikasi – "xvatun" ("xotun") vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etganligidan dalolat beradi. Saroyda u xoqondan keyingi o'rinni egallagan.

Qadimgi Qang' – hozirgi Toshkent vohasi, Chimkent viloyati va Sirdaryo bo'yi hududlarini egallagan qadimgi davlatlar birlashmasi. Mil. avv. III asrda unga saklar asos solishgan. Xitoy manbalaridan u "Qang'yuy", Xitoy tarixchilari esa uni "Bityan" deb atashgan. Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qang'ha shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi "Qang'dez" nomli poytaxti bo'lgan, unga arxeologlar "Qovunchi madaniyati" nomini berishgan. Mil. avv. II asr oxirida Qang' qabilalarning hukmdorlari tanga zarb ettiradi. Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i orqali xitoylik savdogarlar bilan uzviy aloqada bo'lishgan. Milodiy III asrga kelib Qang' davlati parchalanib ketgan.

Toxariston – Hozirgi Janubiy O'zbekiston va Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan bu tarixiy viloyat shimolda Hisor tog'lari, janubda Hindikush, g'arbda Murg'ob va Xerirud vodiysi, sharqda Pomir bilan chegaralangan. Toxariston nomi er. avv. II asrda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila – *yuechjilar* nomidan olingan. Toxariston – Hindiston, Yaqin va Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-madaniy aloqalar o'rnatgan. O'z chaqa-tangalari orqali ichki-tashqi savdo muomalasini yurgizishgan.

www.nitropdf.com

Durdona

Toxariston Markaziy Osiyoda *budda va moniylik* dinlarining tarqalishi va rivojida muhim rol o'ynagan.

Dovon – taxminan mil. avv. III asrdan milodiy II asrgacha mavjud bo'lgan davlat. Xitoy manbalarida bu o'lka "Dovon", boshqa manbalarda esa "Parkana" deb atalgan. Aholisi 70 dan ortiq shaharlarda istiqomat qilishgan. Masalan, Dovonda bo'lgan xitoylik sayyoh Chjan Syan bunday deb yozadi: *"...Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shaharlar bor; ...aholisining soni bir necha yuz mingga yetadi. O'q-yoy va nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib, o'q otishga mohir"*. Boshqa bir xitoy solnomasida: *"An'si (Qadimgi Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshashdir",* deb yozilgan. Xitoy tarixchilarining guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha cho'zilgan.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

XULOSA

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallashgani va O‘zbekiston yangi taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygani, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ta’limiy, ilmiy muhitning o‘zi esa ancha murakkab va serqirra bo‘lib borayotgani, bu sodir bo‘layotgan jarayonlarni uzluksiz tahlil qilishning, tezda tuzatishlar kiritishning, boshqaruvni takomillashtirish va o‘sishning yangi manbalarini kreativ tarzda topishning dolzarbligini oshirishi barchaga ayon bo‘ldi. Shuning uchun 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga tuzatishlar kiritish hamda ularni umumxalq muhokamasiga kiritish jarayonining boshlanishi qonuniy ko‘rinadi. Shuningdek, asosiy konsepti “inson – jamiyat – davlat” bo‘lgan islohotlar falsafasining keyingi evolyutsiyasi tabiiy ko‘rinadi.

Yangi O‘zbekiston strategiyasidagi asosiy maqsad har bir fuqaroning millati, tili va dinidan qat’i nazar uning qonuniy manfaatlari va farovonligi ta’minlanadigan, kelgusida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish amalga oshiriladigan xalq va insonparvar davlatni yaratish hisoblanadi. Bu maqsad “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi, shuningdek, davlat organlari ishining asosiy tamoyili bo‘ladigan qonun ustuvorligi va adolatli ijtimoiy siyosat tamoyillari asosida jamiyatni ma’naviy rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Yangi yo‘nalishda avvalgidek birinchi o‘rinda e’tibor iqtisodiyot, xususiy tadbirkorlik, insoniy kapitalni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi tashabbuslar va bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar Yangi O‘zbekistonni bunyod etishning strategik maqsadlariga to‘la mos keladi. Bir tomondan, tuzatishlar sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni qayd qilishi, boshqa tomondan esa harakatlanish dasturi bo‘lishi, kelgusida rivojlanish uchun ko‘rsatmalardan iborat bo‘lishi zarur.

www.nitropdf.com

Durdona

"Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi"ni qabul qilish va Konstitutsiyaga qo‘shimchalar kiritish ustida ishlash yaqqol ko‘rsatdiki, islohotlar o‘z oldiga yangi keng ko‘lamli maqsad va vazifalarni qo‘ygancha qaytarib bo‘lmas xarakter kasb etadi, ularni amalga oshirishning ijobiy natijalarini yaqin yillarda O‘zbekistonning har bir fuqarosi bo‘lganiday, jamiyat ham, umuman olganda, davlat ham o‘zida his qilishi zarur.

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.

6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

7. (Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. -Toshkent: Sharq,1998.-B.19).

II. Ilmiy risola, monografiya, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar

1. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. - Toshkent, 2000.

2. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.

3. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullayev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.

4. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

5. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.

6. Noveyshaya istoriya Uzbekistana. Rukovoditel’ proyekta i redaktor: M.A.Raximov. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

www.nitropdf.com

Durdona

III. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Azizxo‘jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - Toshkent: 2001.
2. Azizxo‘jayev A.A. Chin o‘zbek ishi. - Toshkent, 2003.
3. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - Toshkent: Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 2002.
4. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
5. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
6. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.
7. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
8. O‘zbekiston tarixi. R.H.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. - Toshkent, 2005.
9. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.
10. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.
11. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazayeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.
12. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
13. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
14. (Usmonov Q. va boshqalar. O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.- Toshkent: O‘qituvchi, 1996.-B.92).

IV.Internet materiallari, elektron resurslar

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.google.uz
4. www.gov.uz

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

MUNDARIJA

1-mavzu. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari 6
2-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (1-qism) 13
3-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (2-qism) 21
4-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (3-qism) 51
5-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (4-qism) 58
6-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (1-qism) 61
7-mavzu. Qadimgi va ilk o'rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari (2-qism) 68
8-mavzu. Rossiya imperiyasi va sovet hukumronligi davrida o'lkadagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlar 71
9-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar: O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi.... 108
10-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar:O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi..... 116
11-mavzu. O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar 129
12-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. 139
13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar 154
14-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyot *(1-qism)* 162
15-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar 171
16-mavzu. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi.... 182
17-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati *(1-qism)*.................. 189
18-mavzu. O'zbekiston va jahon hamjamiyati *(2-qism)*.................. 197
19-mavzu. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar.. 204
20-mavzu. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar.. 211
Nazorat savollari.. 219

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

Testlar 223
Mustaqil o‘qish uchun materiallar. 236
“O‘zbek” atamasi hamda o‘zbek xalqi etnik birligining shakllanishi 236
O‘zbekiston hududidan topilgan tarixiy-madaniy yodgorliklar 239
O‘zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyotining tarixi 240
O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan davlatlar tarixi 241
Xulosa 245
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 247

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

DURDONA

www.nitropdf.com

Durdona

AHMADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

(1-kurs nomutaxassis ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun
“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan amaliy mashg‘ulotlar
uchun o‘quv qo‘llanma)

DURDONA

Muharrir: *A. Qalandarov*
Texnik muharrir: *G. Samiyeva*
Musahhih: *Sh. Qahhorov*
Sahifalovchi: *M. Bafoyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 02.02.2024. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tobog‘i 15,7. Adadi 100. Buyurtma №60.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45

www.nitropdf.com